





HAMID ZIYOYEV

TARIX-  
O'TMISH VA KELAJAK  
KO'ZGUSI

*(Tarixning dolzarb masalalari)*



G'afur G'ulom nomidagi  
Adabiyot va san'at nashriyoti  
Toshkent — 2000

63.3(5Y),  
3—60

Mas'ul muharrir: **tarix fanlari doktori,**  
**professor**  
**KARIM NORMATOV**

Ziyoyev H.

Tarix — o'tmish va kelajak ko'zgusi: (Tarixning dolzarb masalalari) // Mas'ul muharrir: K. Normatov/ T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000. — 304 b.

Asar yangi ma'lumotlar asosida va shu kun talabi nuqtai nazaridan yozilgan bo'lib, Vatanning o'tmish va hozirgi zamon tarixiga doir masalalarni o'z ichiga oladi. Unda qadimgi va o'rta asrlar tarixi, shu jumladan, Qur'oni Karim va Toshkent o'tmishi bo'yicha fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Turkiston zaminining podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, sobiq sovet davridagi mustamlakachlik siyosatining mohiyati ta'riflangan. Ayni paytda, jadidlar harakati va 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni bayon etilgan. Asarda Mustaqillik davri, tarix fanining ahamiyati va vazifalari xususida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Ushbu qo'llanma maktab va oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari, talabalari va tarixga qiziquvchi barcha kishilarga mo'ljallangan.

**ББК 63.3(5Y)**

3  $\frac{4702620204-45}{M352(04)-2000}$  — qat'iy buyurtma, 99

©Hamid Ziyoyev, G'afur G'ulom  
nomidagi Adabiyot va san'at  
nashriyoti, 2000 y.

ISBN 5-635-01764-9

# **TARIXIY SHAXSLAR, YOXUD ISTIQLOL UCHUN KURASH QAHRAMONLARI**

---

O'zbekistonning boy tabiiy boyliklari, turli-tuman nozne'matlariyu musaffo havosi, zilol suvlari va ajoyib manzarasi ko'p jahongashta podshohlarning diqqatini jalb etgan. Chunonchi, Eronda tashkil topgan Ahmoniylar davlati, makedoniyalik Aleksandr, Arab xalifaligi, Chingizxon kabi bosqinchilar Turon zaminda o'z hukmronliklarini o'rnatgan edilar. Pirovardida esa, Turkiston chor Rossiyasi va sovet davlati tomonidan urushib olindi. Bosqinchilarga qarshi kurashda o'n minglab o'zbeklar halok bo'ldilar, shahar va qishloqlar xonavayron qilindi, fan va madaniyat inqirozga uchradi.

Shuningdek, tabiiy ofatlar, qahatchiliklar, vabo va boshqa yuqumli kasalliklar xalq boshiga ko'pdan-ko'p azob-uqubatlarni solgan. Otabobolarimiz xorijiy dushmanlardan, ularning tajovuzlaridan saqlanish uchun Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva va boshqa shaharlarni hamda harbiy istehkomlarni devorlar bilan o'rashga majbur bo'lgan. Bu devorlar nihoyatda katta mablag' va mashaqqatli mehnat hisobiga barpo qilingan. Masalan, 12 darvozadan iborat Toshkent shahri devorining balandligi o'rta hisobda 7-8 metrga borib, uning ustida ikki otlig bermalol yura olgan.

Shu zaylda asrlar mobaynida o'zbeklar devor qurshovida xavf-xatarda yashaganlar. O'rta asr mualliflaridan birining shohidlik berishicha, mahalliy aholi bir qo'lida ish quroli, ikkinchisida yaroq ushlagan holda hayot kechirgan. Xullas, aholi har qanday sharoitda

ham dushmanning favqulodda bo'ladigan hujumiga tayyor turgan.

Shuncha qiyinchiliklarga qaramay, bobolarimiz Vatan mustaqilligi uchun tinimsiz kurashdi, mehnat qildi, madaniy merosini ko'z qorachig'iday saqlab, avloddan avlodga o'tkazib keldi.

Jasoratli, bilimdon va o'z vataniga sodiq sardorlar bunday kurashlarning tashabbuskori va yo'lboshchisi bo'lganlar.

Tarixiy shaxslarning yuzaga kelishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Chunonchi, eramizdan avvalgi 592 yilda Ahmoniyalar davlatining podshohi Kir II ning ayol podshoh To'marisdan sharmandalarcha yengilishi uni mohir lashkarboshi va o'ta vatanparvarligidan dalolat beradi. To'maris Kir II kallasini tanidan kestirib, qon to'ldirilgan xaltachaga solayotganida shunday degan: "Sen, Kir, doimo qonsirab yurding, lekin unga hech to'ymading, mana endi to'yib qon ich".

To'maris mashhur davlat arbobi va vatanimizning sodiq farzandi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bu o'rinda oddiy<sup>1</sup> xalq orasidan chiqqan otboqar Shiroqning qahramonligini ham eslatib o'tish joiz. Ahmoniyalar davlatining podshohi Doru I huzuriga hammayog'i jarohatlangan, burni va qulog'i kesilgan Shiroqni olib kelishadi. U Doroga: "Vatandoshlarim meni shu ahvolga solib qo'ydi, ulardan qasos olish uchun huzuringizga keldim. Men dushmaningizning orqa tarafidan chiqadigan yo'lni bilaman", degan. Bu taklifni mamnuniyatlik bilan qabul qilgan Doru I Shiroq boshchiligida yo'lga chiqqan. Biroq Eron qo'shinlari cho'lu biyobonga kelib qolganlar. Shundagina Doru I aldanganligini bilib Shiroqni o'ldirayotganda u mag'rur ravishda: "Men vatanim ozodligi uchun siz yovuzlarni suvsizlikka va ochlikka muhtalo qildim", deb halok bo'lgan. Tarixda kam uchraydigan bunday o'ta vatanparvarlik va jasorat har qanday maqtovga sazovardir.

Arab xalifaligining tajovuzi vaqtida ham vatan mustaqilligi uchun kurash umumxalq harakatiga aylangan. Turk hokonlari boshchiligida xalq ommasi xalifalikka qarshi kurash olib bordi. Ammo xalifalik o'lkada o'z hukmronligini o'rnatishga erishdi. Biroq unga qarshi harakatlar to'xtamadi.

IX asrning oxirlari X asrning boshlarida tarix sahnasiga chiqqan Ismoil Somoniy xalqning uzoq yillardan buyon arab xalifaligiga

<sup>1</sup> Kitobga kiritilgan tarix doirga masalalar matbuotda e'lon qilingan.

qarshi olib borgan kurashiga yakun yasab, vatan mustaqilligini tikladi. Buxoro — bu davlatning poytaxti hisoblangan. Ismoil Somoniy 900 yilda Xuroson hokimining qo‘shinlari ustidan g‘alaba qilgandan keyin, uzil-kesil butun O‘rta Osiyo va Xurosonning egasi bo‘lib qoldi. Shuningdek, sharqiy va shimoliy Erondagi bir qator viloyatlar unga bo‘ysundirildi. Ismoil Somoniy (874-907 y.) asos solgan mustaqil va markazlashgan o‘zbek davlati 100 yilga yaqin hukmronlik qildi. Shu davrda O‘rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Chunonchi, qishloq xo‘jaligida paxtachilik, bog‘dorchilik va chorvachilik rivojlandi. Hunarmandchilikda ham taraqqiyot yuz berdi. Ayniqsa, to‘qimachilik keng quloch yoydi. O‘lkadagi viloyatlarning o‘zaro aloqalari mustahkamlanib, ishlab chiqarish kuchlari tobora o‘sib bordi. O‘rta Osiyoning xorijiy mamlakatlar, xususan, Afg‘oniston, Hindiston, Arabiston, Xitoy va Sharqiy Ovrupo bilan savdo aloqalari avj oldi.

Shuningdek, fan va madaniyat sohasida yutuqlarga erishildi. Tarixiy shaxslarga davlat arboblari Bug‘axon va Nasr IIekxonni kiritish mumkin. Ular X asrning oxirida Qoraxoniylar zamonida, ya‘ni XI asr va XII asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo va sharqiy Turkistonni o‘z ichiga olgan o‘zbek davlatiga asos soldilar. Bu joylarda iqtisodiy va madaniy rivojlanish ko‘zga tashlandi. Toshkent, O‘zgand, Buxoro, Samarqand, Ko‘xna Urganch, Termiz, Marv va boshqa shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq o‘sdi. O‘lkada hashamatli binolar qurildi. Masalan, 1127 yilda Arslonxon tomonidan Buxoroda qurdirilgan Minorai Kalon, Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Buxoro atrofidagi Raboti Malik, Mag‘oki masjidi, Vobkentdagi minora shular jumlasidandir. Bu ajoyib binolarning hammasi o‘zbek hukmdorlarning tashabbusi va boshchiligida bunyod etilgan edi. Bu vaqtlarda tarix, adabiyot, tilshunoslik, tibbiyot va boshqa fanlarga oid ilmiy asarlar yaratildi.

O‘zbek xalqining har tomonlama rivojlanishida Xorazmshohlar davlatining barpo etilishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qoraxoniylar davrida va undan oldingi vaqtlarda ham Xorazmning Eron, Afg‘oniston, Xitoy, Hindiston, Arabiston va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqasi ancha kuchaygan edi.

Xorazmshohlar davlatiga Ma'mun ibn Muhammad (996-997 y.) va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun (997-999 y.) singari mashhur shaxslar asos solgan edilar. Xorazmshohlar davlati, ayniqsa, Ali ibn Ma'mun vaqtida kuchaygan. Bu atoqli davlat arbobi nihoyatda bilimdon va madaniyatli kishi sifatida shuhrat qozongan. U poytaxt Ko'hna Urganchni yirik fan va madaniyat markaziga aylantirdi. Bu yerda Beruniy, Ibn Sino, Abu Solih, Masihi Abulxayr al-Xashmar, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Bakr Muhammad Xorazmiy, Abu Sayid Shabibiy, Abul Hasan Ma'mun, Abu Abdulloh Tojar al-Vazir, Abu Muhammad Raqqoshi, Abu Abdulloh Xorazmiy va boshqa mashhur olimlar ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanganlar.

Shunisi diqqatga sazovorki, shoh Ali ibn Ma'mun tashabbusi va g'amxo'rliqi tufayli Ko'hna Urganchda ilmiy tadqiqot markazi – "Ma'mun akademiyasi" tashkil topgan edi. Bu dargohda tarix, filologiya, matematika, astronomiya, fizika, jo'g'rofiya, tibbiyot va boshqa fan tarmoqlari bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan. Shu ravishda o'lkamizda bundan salkam ming yil ilgari Fanlar Akademiyasi bunyod etilgan edi.

Biroq Xorazmshohlar davlatining umri uzoqqa cho'zilmaydi. Shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizining janubiy qirg'ochlarigacha cho'zilgan joylarni – hozirgi Afg'oniston va Shimoli-sharqiy Eronni o'z ichiga olgan G'aznaviylar davlati kuchaygan edi. 1017 yilda bu keyingi o'zbek davlatining hukmdori Mahmud G'aznaviy (998-1030 y.) Xorazmni bosib oladi. Bu vaqtlarda Saljuqiylar nomida yana bir turkiy davlat paydo bo'ldi. Unga Eronning Ajam, Ozarbayjon, Kurdiston va Ko'histon singari joylari bo'ysundirilib, poytaxt Ray shahri hisoblangan. Saljuqiylarning hukmdori avvalo G'aznaviylarga zarba berdi, so'ng 1140 yilda Xorazmni egalladi. Keyinchalik yirik davlat arbobi Qutbiddin Muhammad Otsiz (1127-1156 y.) tufayli Xorazmshohlar davlati ancha rivojlandi. Alouddin Takash (1172-1200 y.) va Alouddin Muhammad (1200-1220 y.) singari iqtidorli hukmdorlar buyuk Xorazmshohlar saltanatini barpo etishga muvaffaq bo'ldilar. Bu davlat O'rta Osiyodan tashqari, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon, Shirvon, Mang'ishloq va boshqa joylarda o'z

hukmronligini oʻrnatdi. Umuman aytganda, Xorazmshohlar davlatining chegarasi Erondan Hindistongacha, Orol dengizidan to Hind okeani qirgʻoqlarigacha choʻzilgan yerlarni egallagan.

Xorazmshohlarning poytaxti Koʻhna Urganch iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada yuksalib, fan sohasida ham ulkan yutuqlarga erishdi. U buyuk Xorazmshohlar davlati nomida tarixda oʻchmas iz qoldirdi. “Xorazmning bu davrdagi iqtisodiy koʻtarilish jarayonini tekshirar ekanmiz, — deb yozadi olim S.P.Tolstov, — biz bu buyuk feodal monarxiyasining bizga qadar saqlanib qolgan skelet suyaklarini goʻyo timirskilab koʻrib chiqamiz. Shunda yuz ming gektar unumli yerlarga yangidan jon bagʻishlagan katta irrigatsiya qurilishi, xuroson, Movarounnahr va dashti Qipchoqning ichkarisigaboradigan strategik vasavdo yoʻllarining mustahkamlanishi shahar hayoti, hunarmandchilik, savdoning yangidan gullab-yashnashi, Oʻrta Osiyo, Eron va Volga boʻylari badiiy madaniyatining butun keyingi tarixiga kuchli taʼsir koʻrsatgan “Xorazm renessansi” sanʼatining hashamati va boy taraqqiyoti koʻz oldimizdan oʻtadi”<sup>2</sup>.

Xorazmshohlar davlati hukmdorlarining aksariyati bilimli kishilar sifatida shuhrat qozonganlar. Ular fan va madaniyat taraqqiyotini taʼminlaganlar. Ayrim maʼlumotlarga koʻra, ud musiqa asbobini chalishda shoh Alouddin Takashga teng keladigan kishi boʻlmagan. U nihoyatda madaniyatli va bilimdon kishi boʻlgan. Xorazmshohlar davrida Koʻhna Urganchda va boshqa joylarda hashamatli saroylar, madrasalar va turli jamoat binolari qurilgan. Markazlashgan va mustaqil davlat hunarmandchilikni, dehqonchilikni, ichki va tashqi savdoning rivojlanishini ham taʼminlagan.

Biroq, Xorazmshohlar davlati dahshatli fojeaga duch keldi. 1219 yilda Chingizxon boshchiligidagi qoʻshinlar Turkistonga bostirib kirib, Oʻtrorni qattiq janglardan soʻng egalladi. Keyin Buxoro va Samarqandni bosib olindi. Bosqinchilarga qarshi kurash umumxalq harakatiga aylangan ana shu ogʻir damlarda hukmron doiralar orasidan chinakam oʻz vataniga sodiq va jasoratli shaxslar ajralib chiqdi. Masalan, Muhammadshohning katta oʻgʻli Jaloliddin va Xoʻjand hukmdori Temur Malik shular jumlasidandir.

<sup>2</sup> Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Toshkent, 1964, 301-b.



Chingizxon qo'shinlari Xo'jandni qamal qilganlarida xalq ommasi Temur Malik boshchiligida qahramonona jang qildi. Dushman kuchlari son jihatdan bir necha bor ko'p bo'lganligi va tashqi tarafdin yordam belmaganligi uchun Temur Malik askarlarini 70 ta kemaga solib, Sirdaryodagi bir orolchaga chiqishga majbur bo'ldi. Bu yerdan dushmanga qarshi hujum uyushtirilib turildi. Pirovardida, Temur Malik kemalarda Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab yo'lga chiqdi. Daryoning ikki qirg'og'idan mo'g'ullar tomonidan otilgan o'qlarga qarshi kemadagilar javob o'qini otgan holda safdoshlari bilan Xo'janddan chiqib, 1221 yilda Ko'hna Urganchga keldi. 1221 yilda 50 minglik mo'g'ullar qo'shini Ko'hna Urganchni qurshab oldilar. Shahar aholisi yoppasiga dushmanga qarshi ayovsiz va qonli jang olib bordi. Jaloliddin boshchiligida besh oy davom etgan qattiq janglardan so'ng mo'g'ul qo'shinlari shaharga kirib, ko'pdan-ko'p odamlarni qirdilar. Vatan uchun kurashga ruhoniylar ham bosh-qon bo'ldilar. Urganch shayxi Najmiddin Kubro jangda qahramonona halok bo'ldi.

Jaloliddin Temur Malik bilan Afg'onistonda va Eronda mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettirib, bir necha bor ularga qaqshatg'ich zarba berdi. U Hindistonda, so'ngra Kavkazda mo'g'ullarga qarshi kuchlarni uyushtirishga ko'p harakat qildi. Umuman olganda, u 10 yil mobaynida mo'g'ullarga zarba berib xorazmshohlar davlatini tiklash uchun tinimsiz kurashdi. Biroq, turli sabablar tufayli u o'z maqsadini ro'yobga chiqara olmadi. Jaloliddin Manguberdi o'ta vatanparvar, mohir lashkarboshi va jasoratli shaxs sifatida don chiqargan edi.

Mo'g'ul bosqinchilarining harbiy yurishlarida O'rta Osiyo shahar va qishloqlari xarobaga aylandi. Yuz yillar davomida qo'lga kiritilgan moddiy va ma'naviy meroslar ostin-ustun qilib tashlandi. Bundan holat insoniyat tarixida sodir bo'lmagan edi. Bu dahshatli voqealarning guvohi bo'lgan arab tarixchisi Ibn al-Asir shundan yozgan edi: "Kunu tunlarda misli ko'rilmagan va hammayoqni, xususan, musulmonlar yaratgan boyliklarni qamrab olgan g'oyat katta bir falokat bo'ldi. Agar birov, hamma narsa qudrati yetuvchi va har narsaning ustidan turuvchi Olloh odamni yaratgandan buyon dunyo shu mahalgacha hech bunday narsani ko'rmagan,

desa haq gapni aytgan bo'lardi, darhaqiqat, yilnomalarda bunga o'xshash va unga teng keladigan, bunday zo'r falokat bo'lmagan. Ularda tasvirlangan voqealar ichida – Navuxodonsorning Isroiliylarni kaltaklash va Quddusni vayron qilish bobidagi qilmishi eng dahshatlisidir. Biroq, bu la'natilar (mo'g'ullar) vayron qilib tashlagan mamlakatlar oldida Quddus nima bo'libdi? Bu mamlakatlardagi har bir shahar Quddusga ikki barobar keladi! Tatarlar qirib tashlagan odamlarga qaraganda, Isroiliylar nima bo'libdi? Axir ayirish bitta shaharda tatarlar kaltaklagan aholi (barcha) isroiliylardan ko'p bo'lgan... Tatarlar hech kimni ayamaydi: ayollarni, erkaklarni, go'daklarni do'pposlayveradi, homiladorlarning qornini yorib, bolalarini o'ldirdi..."<sup>3</sup>.

Biroq mo'g'ullarning dahshatli qirg'in urushlari ham o'zbek xalqining vatan ozodligi uchun kurashini so'ndira olmadi.

1238 yilda Buxoroda mo'g'ullarga va ularga xizmat qilayotgan ayrim mahalliy yuqori tabaqa vakillariga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Bu ommaviy harakatga Mahmud Torobiy boshchilik qildi. Buxoro atrofidagi Torobiy qishlog'ida tug'ilgan va hunarmandlar sulolasiga mansub – Maxmud Torobiy o'zining aql-zakovati va jasorati bilan mehnatkash omma orasida katta obro' qozondi. U qo'zg'olonchilarni chet el bosqinchilariga qarshi kurashga chaqirib: "Ey, haqiqat mudofaachilari endi ishni susaytirish va kutishning keragi yo'q, jahonni nohaqlardan tozalash zarur, har kimsa o'zida bo'lgan qurol-yarog' yoki kaltak va gurzilarni tayyorlab ishga solsin", deydi.

Qo'zg'olonchilarga ayrim ruhoniy peshvolari, xususan, Shamsiddin Mahbubiy ham qo'shib, boshliqlardan biri sifatida harakat qildi. Mahmud Torobiy Buxoro shahridagi va qishloqlardagi aholiga tayangan holda hokimiyatni qo'lga olgan.

Mahmud Torobiy xalqqa haddan tashqari zulm o'tkazgan mansabdorlarni jazolab, oddiy kishilar tarafida turgan. Biroq, qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgan jangda halok etilgan. Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiy singari ozodlik uchun jonini fido qilgan shaxslar aslo unutilmaydi.

XIV asrning 50-60 yillarida o'lkada parokandalik avj olib, keng mehnatkash ommaning ahvoli yanada yomonlashdi. Shunday

<sup>3</sup> Grekov B.D. Yakubovskiy A.YU. Oltin O'rda va uning qulashi. Toshkent. 1956, 46-b.

sharoitda Temur siyosiy maydonga chiqdi. U yoshligidanoq kelajagi porloq siymo sifatida tanildi. Oʻrta asr tarixchisi Mavlono Lutfulloh Nishopuriy soʻziga koʻra, Temur 7 yoshligida otasi Taragʻay bilan qarindoshlarinikiga borgan. Qarindoshlari koʻpdan-koʻp mollarga, qullarga ega boʻlib, doimo xavotirlikda yashar ekan. U Taragʻayga debdi: “Xudo menga molu davlat berdi, lekin uni saqlashga tamoman ojizman. Qullarim sabru toqatli emaslar, farzandlarim salohiyatsiz. Shu onda Timur dedi: molu dunyomga nuqson yetmasin deb farzandlaringga mollaringizdan boʻlib bering va undan soʻng ularni oʻz molu mulkiga dohil qilgingkim, (ular) oʻz-oʻzi bilan ovora boʻlsin. (Keyin) har uch qulni ulardan aqlliroq bir qulning ixtiyoriga topshiring. (Soʻng) ularning har birini yettitadan qulning amiri qiling. (Keyin) yetmish qulga bosh boʻlgan (ana shu) yettita qulni bir-birining taʼzim va tashrifiga buyuring. Ularni koʻzdan qochirmang, (chunki) bir-birlari bilan koʻp suhbatlashmasinlar”. Qarindoshi Temurning aql-zakovatiga qoyil qolib, uning otasiga debdi: “...Sening bu farzanding jahonga podshoh boʻladi, chunki buni (uning) shu gaplaridan fahmlab turibman...” (Soʻng) siyohdon va qalam hozirladi va oʻsha suhbatda Temurdan xat yozdirib oldiki, bunda “uning farzandlari zurriyoti va yaqinlaridan xiroj olmasin; ularning gunohlaridan oʻtsinlar, uning qavmi tarxon qilinsin<sup>4</sup>. Buni qarangki, Temur taxtga chiqqandan keyin vaʼdaga muvofiq oʻsha badavlat kishining avlodlariga tarxon unvonini beradi<sup>5</sup>.

Temurning yoshlikdagi hayotiga doir yana bir diqqatga sazovor maʼlumot mavjud. Temurning otasi Taragʻay kunlarning birida koʻp qoʻylarni unga berib sotishni buyuribdi. Temur qoʻylarni sotib, bozorni aylanib yurgan vaqtida bir darvish qoʻlida sheʼr yozilgan qogʻozni oltinga sotaman, debdi. Temur u qogʻozni sotib olibdi. Darvish unga, uni otangni oldida ochib oʻqigin, debdi. Shunga binoan, Temur qogʻozni otasiga koʻrsatgan. Darvish taniqli olim Kamol Xoʻjandiy ekan.

---

<sup>4</sup> Axmedov B. “Davlatshoh Samarqandiy”. T., “Fan”, 1967, 48-b.

<sup>5</sup> Tarxon – soliq va jarimalardan tamoman ozod etilgan kishi. Yirik mansabdor tarxonlar xonning oldiga soʻroqsiz kira olar va uning ustidan toʻqqiz marta jinoyat sodir boʻlmaguncha jazoga tortilmas edilar.

Otasi shuncha pulga bir parcha qog‘ozdagi she‘rni sotib olganligiga ranjigan. Biroq, Temurning bunday qilishi uning she‘rga muhabbatidan darak beradi.

Tarixiy manbalarda nufuzli kishilarning Temurning kelajakda buyuk davlat arbobi bo‘lishligi haqidagi karomatlari ko‘plab keltirilgan. Bu paytlarda, mo‘g‘ullarning aksariyati islom dinini qabul qilib, turklashgan bo‘lsa-da, lekin ularning orasida o‘zlarining urf-odatlariga va budda diniga moyil kishilar yo‘q emas edi. Masalan, mo‘g‘ul xoni Qazag‘on (1346-1358 y.) Buxoroda butxona ochib, islom diniga rahna yetazishga ochiqdan-ochiq harakat qildi. U ko‘plab mullalarni o‘ldirtirdi va islom diniga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni qildi. Uning hukmronligi davrida madrasalar, maktablar va masjidlar xarobaga aylandi. Bu holat o‘sha paytda quyidagicha ifodalangan edi.

Qizil qon bo‘lib mavji to‘fonlar,  
Shahid o‘ldilarkim aziz jonlar.  
Ketub arbobi din, chu islomdin,  
Alar ichra tushti ajab kibru kin.  
Joloyi vatan bo‘ldi ustodlar,  
Din ahli xafadur, kuffor shodlar.  
Kalisoyu butxonalar zeb ilon,  
Berib necha oroyu tartib ilon,  
Bo‘lub madrasayu masjid xarob,  
Musulmon parishonu hayron sob,  
Shariat chirog‘i qolibdur o‘chib,  
Shariatni talabi har yon qochib,  
Musulmon barisi g‘amu qayg‘uda<sup>6</sup>.

Mo‘g‘ullar uzoq vaqt davomida og‘ir soliqlar solib, aholining tinkasini quritgan edilar. Amir Temur ajnabiy bosqinchilarning shafqatsiz zulmi va azob-uqubatlarini ko‘rib, qanday bo‘lmasin o‘z vatanini ulardan ozod qilishga ahd qilgan edi. Buni “Temur tuzuklari”da keltirilgan ma‘lumotlar yaqqol ko‘rsatib turibdi. Mo‘g‘ul xoni Qazag‘on o‘lgandan keyin

<sup>6</sup> Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma, Toshkent, 1991, 106-b.

Movarounnahrda tarqoqlik hukm suradi. Mo'g'ullar yakka hokimlik uchun o'zaro kurash olib bordilar.

1360 yilda Yettisuv va sharqiy Turkiston hokimiyatining tepasida turgan mo'g'ul xoni Tug'luq Temur Movarounnahrni bo'ysundirish uchun harbiy yurish boshlanganligi ma'lum bo'ldi. Bu to'g'rida Temur shunday deydi: "Tug'luq Temurxon (sarkardalari) Bekijak va Hojibek erkinit<sup>7</sup>, Ulug' To'qtemur kerayit<sup>8</sup> va Jetening boshqa amirlaridan uch favj tuzib, ularni Movarounnahr mamlakatini talon-taroj qilish uchun yuborganligi, o'sha uch favj qo'shin Xuzor<sup>9</sup> degan joyga kelib tushganligi xabari mening qulog'imga yetdi. Shunda Tug'luq Temurxonni borib qo'rishdan ilgari bu ochko'z amirlarni mol-dunyo bilan mahliyo qilib, Movarounnahr viloyatini qatlu g'oratdan qutqarib qolishga qaror qildim... Ularning ko'zlariga o'xshash ko'ngillari ham tor bo'lganligidan, sovg'a-sovurun<sup>10</sup> yo'sinida ularga berilgan har turlik tansiq mollar ko'zlariga ko'p ko'rindi. Movarounnahrni bosib olish va talon-taroj qilish niyatidan qaytdilar.

(Shundan so'ng) to'g'ri borib Tug'luq Temurxon bilan ko'rishdim. Xon kelishimni yaxshilikka yo'yib, (saltanat ishlarida) mendan kengash so'radi. Ko'rsatgan kengashlarimni to'g'ri deb topib, hammasini qabul qildi.

Shu asnoda Tug'luq Temurxonga xabar keltirdilarkim, (yuqorida aytilgan) uch favj amirlari, yerlik xalqdan naqd pul va sovurunlar olib, ular bilan kelishmishlar. Xon shu ondayoq mol-mulk va naqd pullarni qaytarib olish uchun odam tayin qildi va amirlarni bundan buyon Movarounnahrda borishlarini ma'n etdi, mansablaridan bo'shatdi. O'rinlariga Hoji Mahmudshoh Yasavuriyni tayin qildi.

Bu haqda amirlar xabar topgach, dushmanlik bayrog'ini ko'tarib, yurtlariga qaytib ketdilar. Yo'lda xonning devonbegisi va

---

<sup>7</sup> Erkinit – Chig'atoy ulusining Sharqiy qismi (Mo'g'uliston)da ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalaridan birining nomi.

<sup>8</sup> Kerayit – nufuzli turk-mo'g'ul qavmlaridan birining nomi.

<sup>9</sup> Xuzor – O'rta asr shaharchasi. Hozirgi G'uzor tumani markazi.

<sup>10</sup> Sovurun – O'rta asrlarda podshoh va xonlar, umuman, oliy martabali kishilar bilan uchrashganda ularga qilinadigan tansiq mollardan iborat qimmatbaho tortiq.

bosh maslahatchisi bo'lmish O'g'lonxo'jani uchratdilar. Uni ham o'zlariga og'dirib olib, Jete tomon yuzlandilar.

Aynan shu vaqtda Tug'luq Temurxonning Dashti Qipchoqdagi amirlari ham isyon tug'ini ko'targani haqida xabar olindi. Bundan xon tashvishga tushdi. U men bergan maslahatga ko'ra Jete tarafga (qarab) yo'l oldi. Movarounnahrni esa menga qoldirdi va bu xususda yorlig'u ahdnoma yozib berdi. Amir Qarachar no'yonning<sup>11</sup> Movarounnahrda tumanini ham menga topshirdi. Men butun Movarounnahr viloyatiga, to Jayhun daryosining sohillarigacha cho'zilgan yerlarga hukmron bo'ldim.

Davlat va saltanatimning boshlanishida eng avval qilgan kengashim shul bo'ldi<sup>12</sup>”.

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur mo'g'ullarni ochko'zlikda va bag'ritoshlikda ayblab, aholini ularning talon-tarojidan ozod qilishni maqsad qilib qo'ygan. U bilimdonlik va tadbirkorlik bilan ish yuritib, hokimiyatni vaqtinchalik bo'lsa-da, qo'lga kiritgan. U bu vaqtda 25 yoshida edi. Biroq Amir Temurning hokimligi uzoqqa cho'zilmadi. 1361 yilda Tug'luq Temur Movarounnahrda qo'shin tortib kelib, hokimiyatni Amir Temurdan olib o'z o'g'li Ilyosxo'jaga berdi. Amir Temur esa bosh qo'mondonlik vazifasiga tayinlandi. Shundan keyin o'lkada mo'g'ullarning zulmi va zo'ravonligi yanada kuchayib ketdi. Biroq, Ilyosxo'ja tabiatan o'jiz bo'lganligi uchun tartibsizliklarni bartaraf qila olmadi. Bundan qattiq g'azablangan Temur mo'g'ullarning zo'ravonligiga qarshi chiqib, ularning jazosini berdi. “Men g'olib kelib, - yozgan edi Amir Temur, - mazlumlarni zolimlardan xalos qildim”. Uning mo'g'ullarga qarshi ochiqdan-ochiq qarshi chiqishi Ilyosxo'ja va Tug'luq Temurxonning g'azabini uyg'otdi. Hatto, u Temurni yashirincha o'ldirish haqida ko'rsatma berdi.

Bu vaqtga kelib, Amir Temurning mamlakat mustaqilligini tiklash harakati, aholining barcha toifalarining fikru zikrini ifoda etardi. Shuning uchun ular ozodlik kurashida Temurga katta umid bog'ladilar. Buni yaxshi anglagan Temur atrofiga sodiq kishilarni to'pladi.

<sup>11</sup> Qarachar no'yon – boy amir, Amir Temurning beshinchi ajdodi.

<sup>12</sup> Temur tuzuklari. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1996, 28-29-betlar.

“Movarounnahr xalqi mening bu ishimdan xabar topishi bilanoq,- deb yozadi Temur, - tezda (mo‘g‘o‘llar) ustiga hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim mo‘g‘ullar toifasidan butunlay bezgan edi. Movarounnahr xalqining kattayu kichigi men bilan birlashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari esa (mo‘g‘ullar) toifasini yo‘q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Bu to‘g‘rida yozilgan ahdnoma va fatvolarning nusxasi bu edi: “To‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar, Olloh taolo ularning jamisidan rozi bo‘lsin, tutgan yo‘llariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrda tamom ahli islom, sipohu raiyat<sup>13</sup> yoki ulamoyu mashoyix bo‘lsin, Amir Temurga izzatu ikrom ko‘rsatib, uni Amir Temur qutbi saltanati oliy deb atasinlar va uni Ollohning (yerdagi) qudrati – saltanat taxtiga munosib ko‘rsinlar. Musulmonlarning yer-suvi, nomusi, mol-mulki hamda joniga zulm-sitam qo‘lini cho‘zgan (mo‘g‘ullar) toifasini daf qilishda va umuman yo‘qotishda Temurga (yordamlashish uchun) o‘z mol va jonlarini (ayamay), tirishib harakat qilsinlar. Biz o‘z ahdu va‘damizga sodiq qolurmiz. Agar bergan ahdu-paymonimizdan qaytsak, Ollohning qudratiyu quvvati va yordamidan chiqib, shayton qudrati va yordami yo‘liga kirgan bo‘laylik.

Bu fatvoni menga ko‘rsatganlaridan keyin jangu jadal bayrog‘ini ko‘tarib, mo‘g‘ullar ustiga lashkar tortishga qaror qildim va mazlumlar haqini zolimlardan olib bermoqchi bo‘ldim. Lekin bir necha razil kishilar bu sirni fosh qilib qo‘ydilar”<sup>14</sup>.

Binobarin, Amir Temur aholining barcha toifalari tomonidan ajnabiylarga qarshi kurashning ramzi va sardori sifatida tan olingan edi. Biroq, Amir Temur ayrim kishilarning xoinligi va hali vaziyatning yetilmaganligi tufayli Samarqanddan bir to‘da safdoshlari bilan chiqib ketdi. Shundan keyin 1361-1365 yillar davomida harbiy kuch to‘plash maqsadida turli joylarni kezib yurdi. Shuningdek, u Tug‘luq Temurxon va Ilyosxo‘janing ashaddiy dushmani mo‘g‘ul xoni Amir Husayn bilan ittifoq tuzib, unga qarshi kurashdi. U Amir Husaynning singlisiga ham uylangan edi.

Har ikki amir qo‘shinlari Ilyosxo‘ja askarlariga zarba berib, uni

---

<sup>13</sup> Raiyat – soliq to‘lovchi qora xalq.

<sup>14</sup> Temur tuzuklari, 30-31 betlar.

Xo'jandga chekinishga majbur etdi. Biroq, keyingi Toshkent va chinoz o'rtasidagi "Loy jangi" da Temur va Amir Husayn askarlari mag'lubiyatga uchratildi. Shundan keyin ular Balxga jo'nadi.

1365 yilda Ilyosxo'ja Samarqandga harbiy yurish boshlaydi. Sabr kosasi to'lib-toshgan shahar aholisi bir yoqadan bosh chiqarib, ajnabiylarga qarshi chiqdi. Bu tarixda Sarbadorlar qo'zg'oloni nomida ma'lumdir. Sarbador so'zi "Bosh dorga" demakdir. Buning ma'nosi shuki, "agar g'alaba qozonsak, xalqni mo'g'ul zulmidan ozod qilgan bo'lamiz, bordiyu mag'lubiyatga uchrasak, unda dorga osilish uchun tayyormiz, negaki azob-uqubatlarga ortiq bardosh berish mumkin emas". Sarbadorlar qo'zg'olonida, asosan, hunarmandlar, dehqonlar va boshqa oddiy kishilar qatnashgan. Bularga ruhoniy va savdosotiq vakillari ham qo'shilgan. Uning tashabbuskori va sardori Samarqanddagi madrasa talabasi Mavlonzoda hisoblanib, unga hunarmand Abu Bakr Kalaviy va Xo'rdak Buxoriy singari shaxslar safdosh bo'lganlar. O'n ming kishilik qo'zg'olonchilar shahar devori buzilib yotganligiga qaramay, mudofaani juda yaxshi tashkil qildilar, aholi nima qo'liga tushsa shu bilan qurollandi. Shaharda ikki kunlik dahshatli janglardan so'ng, Ilyosxo'ja askarlari mag'lubiyatga uchrab qochishga majbur bo'ldi. Bu uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan mo'g'ullar hukmronligiga qaqshatqich zarba bergan xalqning katta g'alabasi edi. Bu to'g'rida mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy shunday yozgan edi: "Podsholik qudrati va tantanasi bo'lmagan mard aholi shunday sanoqsiz va xoir (mo'g'ul) qo'shinlari bilan bas keldi. Dushmanlarning qarshilik va mudofaalariga bardosh tarzda turdilarki, bularning g'alaba va istilo qo'llari bu shahar aholisining nomus va mollariga tegmadi".

Sarbadorlar qo'zg'oloni Amir Temur uchun juda qulay vaziyatni yuzaga keltirdi. 1366 yilda u Amir Husayn bilan Samarqand shahri yonidagi Konigilga o'rnashdi. garchand, Sarbadorlar amir Husaynning ashaddiy dushmani Ilyosxo'jani yenggan bo'lsalar-da, lekin ular, umuman, mo'g'ullarga qarshi bosh ko'targan edilar. Shu boisdan u Sarbadorlarning boshliqlarini aldanchilik bilan qarorgohiga chaqirib, ularni o'ldirtiradi.

Bundan vaziyatda Amir Temurning Sarbadorlarga nisbatan munosabati qanday bo'lgan edi?



Bu masalaga tegishli ma'lumotlar juda oz saqlanganligi uchun u haqda to'la tushuncha berishning iloji yo'q. Shu narsa ma'lumki, qo'zg'olonchilarning boshlig'i Mavlonzoda Amir Temurning aralashuvi natijasida o'limdan ozod qilingan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Mavlonzoda Amir Temur bilan tanish bo'lib, ular o'zaro xat orqali aloqada bo'lgan. Hatto, u Amir Temurga Samarqanddagi ahvol haqida xabar berib turgan. Bu Temurning aslida Sarbadorlarga xayrihoxligini bildiradi. Biroq, u Amir Husayn bilan aloqasi buzilishini hisobga olib, uning hatti-harakatiga ochiq qarshilik ko'rsata olmagan bo'lsa kerak. Chunki, Amir Husayn yetarli kuchga ega edi. Amir Temurning Sarbadorlarga xayrihoxligini Erondagi Sarbadorlar bilan aloqasi ham tasdiqlaydi. Sarbadorlar harakati avvalo 1337 yilda Eronda yuzaga kelib, ular hokimiyatni qo'lga olgan edi. Sarbadorlarning davlati 1387 yilgacha, ya'ni 50 yil davom etgan. O'rta asr muallifi Nosir Buxoriy o'z asarida Sarbadorlarning hukmdori Xo'ja Ali Muayyadning Amir Temur davlati bilan aloqasi haqida yozgan: Ali Muayyad Sarbadorlar mamlakatini ziyod qildi, Qo'histon, Tabs va Kilikini bosib oldi va Domog'ondan to Saraxsgacha (bo'lgan yerlarni) o'zining tasarruf tutamiga kiritdi.

Ali Muayyad o'zining hukmdorligi davrida ulug' amir, buyuk Sohibqiron Temur Ko'ragon janoblar bilan hamjihat va sadoqatli do'st hamda xushmuomalada bo'ldi.

Xo'ja Ali (Muayyad) bir nenchacha bor Amir Vali bilan to'qnashdi va ularning (bir-biriga) dushmanligi nihoyat kuchayib ketdi. Amir Vali sabzavor shahrini qamal qildi va Xo'ja Ali Muayyad ulug' Amir Temur Ko'ragondan yordam, madad so'radi va Totu nomli kishini Samarqandga Sohibqiron huzuriga yubordi. To'rt oydan so'ng buyuk sohibqiron Amir Temur Xurosonga lashkar tortdi. Xo'ja Ali Muayyad Saraxsga ulug' Amir Temur Ko'ragonning istiqboliga bordi. Sultonlik marhamatiga musharraf bo'ldi. Ulug' amir Temurnin... unga sadoqati voqe' bo'ldi va (Xo'ja Ali Muayyad) Xuroson mamlakatini Amir Temurning tasarrufiga topshirdi. O'zi Sohibqironning mulozamatiga mashg'ul bo'ldi"<sup>15</sup>.

Bayon etilgan satrlar va Samarqandda Mavlonzodaning o'limdan qutqarilishi, ayrim mualliflarning Amir Temur Sarbadorlarning

<sup>15</sup> Axmedov B. "Davlatshoh Samarqandiy". T., "Fan", 1967, 45-b.

ashaddiy dushmani edi, deb ko'rsatishi haqiqatdan uzoqdir. Menimcha, bu masalani Ibrohim Mo'minov to'g'ri yoritgan: "Mo'g'ul zulmi asoratiga qarshi kurash va Movarounnahrda mustaqil davlat tuzish uchun olib borilgan harakatlar Sarbadorlarning ayrim rahbarlarini, birinchi navbatda, ularning ilhomchisi Mavlonzoda va Temurni bir-birlariga yaqinlashtirgan, ko'makdosh etgan; xuddi shu sababdan sarbadorlar boshliqlari Temur faoliyatining, asosan, birinchi davrida yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun Temurni qo'llab-quvvatlaganlar, unga yordam berganlar. Sarbadorlar ilhomchisi Mavlonzodaning taqdiri ham juda qiziqarlidir.<sup>16</sup>"

Navoiyning zamondoshi mashhur tarixchi Xondamir Sarbadorlarning boshliqlari Mavlonzoda, Xo'rdak Buxoriy va Abu Bakr Kalaviy Samarqand ahlini o'z tomonlariga olib, bayroq ko'tarib, lashkar (mo'g'ullar)ga qarshi chiqib, shaharni mazkur amir va hazrati Sohirqiron uchun saqladilar, deb qayd qilgan.


Demak, Sarbadorlar Amir Temur bilan kelishilgan holda va uni taxtga o'tkazish maqsadida kurashga otlangan edilar, deyishga asos bor. Shuning uchun ham ularning bosh rahbari Mavlonzoda Samarqandiy Sohirqiron tomonidan o'limdan saqlanib qolgan edi.

1366-1370 yillar ichida Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi munosabat sirdan qaraganda yaxshi bo'lsa-da, amalda Amir Husayn Temurning mavqei borgan sari oshib borayotganini ko'rib, ich-ichidan kuyib, uni qanday bo'lmasin yo'qotishga harakat qildi. "Amir Husayn, - deydi Sohirqiron, - men qo'lga kiritgan g'alaba va yutuqlarimni ko'rolmay, hasad ichini kemirib, menga va haramimdagi o'z singlisiga ko'p ozor berdi. U Movarounnahrni mendan tortib olishga, meni (esa) o'ldirib, taxtga o'zi o'tirishga bel bog'lagan edi. O'rtamizda necha bor urushlar bo'lib o'tgan bo'lsa-da, barchasida yengildi. Uning adolatsizligi, insofsizligi haddidan oshgan, meni yengishi va o'ldirishiga oz qolgan vaqt ham bo'ldi"<sup>17</sup>

Shunga qaramay, Temur qarindoshlikning hurmatini qilib, Amir Husaynga Balx bilan Hisor viloyatlarini berdi. Biroq, Amir Husayn Balxda kuch to'plab Amir Temurga qarshi jang qilish

<sup>16</sup> Mo'minov I. "Amir Temurning O'rta osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". Toshkent, 1998, 11-b.

<sup>17</sup> Temur tuzuklari, 52-53-betlar.



925454

yo'lini tutdi. Shu boisdan 1370 yilda Amir Temur Balxga hujum qilib g'alabaga erishdi va Amir Husayi o'ldirildi.

O'sha yili 10 aprelda Balxda o'tkazilgan qurultoyda Amir Temur mamlakatning yagona hukmdori, deb e'lon qilindi. U Shahrisabzdan Samarqandga kelib shahar devorini, harbiy istehkomni va hukumat saroyini qurishga kirishdi. Shu ravishda Samarqand Temur davlatining poytaxtiga aylantirildi. Amir Temur nihoyatda bilimdonlik va tadbirkorlik bilan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirib bordi.

Xo'sh, Amir Temurning tarixiy shaxs sifatida xizmatlari nimadan iborat bo'lgan?

**Birinchidan**, Amir Temurning beqiyos katta xizmatlari shundaki, u xalq ommasining uzoq vaqtlardan buyon chet el hukmronligiga qarshi kurashini nihoyasiga yetkazib, mustaqil davlat barpo etdi. Natijada 150 yildan buyon davom etib kelayotgan mo'g'ullarning zulmi va talon-taroji ildizi bilan qo'porib tashlandi. Shuningdek, Amir Temur mamlakatning moddiy va ma'naviy hayotiga katta ziyon keltirayotgan o'zaro qonli urushlarni tugatib, markazlashgan davlatni yuzaga keltirdi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Amir Temur mamlakatni qonun asosida boshqardi. «Davlat ishlarini, - deydi u, - saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim»<sup>18</sup>.

Bunday tartibda ish yuritish tarixda kamdan-kam uchraydigan hodisadir.

Ayni paytda, Sohibqiron ichki va tashqi siyosatni kengash a'zolari bilan maslahatlashgan holda olib borgan. «Har bir ishni, - deydi u, - qilishga kirishar ekanman, avval obdon o'ylab, (amirlarim bilan) kengashdim. Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomon, foydayu ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmaslik haqida so'z ochib, (ulardan) fikr so'rar edim. Ularning so'zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib, foyda-ziyonlarini ko'nglimdan kechirardim; uning xatarli tomonlariga ko'proq e'tibor nazari bilan qarardim; qaysi bir ishda ikki xatar mavjud bo'lsa, uni (bajarishdan) voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim...

<sup>18</sup> O'sha joyda, 69-b.

Ishlarimning barisida avval kengash-maslahat qo'lladim, ishni bajarishga kirishar ekanman, oldindan chora-tadbirlar belgilab qo'yadim. Hamda bu ish qanday yakunlanishi haqida fikr-mulohaza qilgan holda ish boshlardim; so'ngra, kezi kelganda, to'g'ri tadbir va qat'iy jazm, yoxud mulohazakorlik va ehtiyotkorlik yoki uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda, uni (ko'ngildagidek) nihoyasiga yetkazardim... Sipohni ikkilantiradigan (turumsiz) kengashni eshitishdan saqlanardim. Kengash ahlidan kimki kuyinib maslahat bersa, quloq solardim, lekin kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, uni diqqat bilan tinglardim. Har kimdan so'z olib, kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon taraflari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim»<sup>19</sup>. Amir Temur mansabdor shaxslarning xususiyatlari va burchlarini ko'rsatuvchi qoidalarni ham yaratdi. Chunki u hokimiyatning mustahkamligi va faoliyatining samarali bo'lishida ma'muriyat vakillarining tutgan o'rinlari kattaligini yaxshi bilardi. U, ayniqsa, vazir va lashkarboshi mansablariga zo'r e'tibor berdi. Uning ko'rsatishicha, vazir aql-farosatli, sabr-toqatli, tinchliksevar va qo'shinga g'amxo'r bo'lishi kerak. Uning so'zicha: «Kamolatga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va ta'qiqlovchi buyruqlarida uning asilligi va toza naslligi ko'rinib tursin. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aytсалar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u (oxiri) yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonlik qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, (oxiri) oldiga bosh egib keladi. Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliyu zoti nast, hasadchi, ginakek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa,

<sup>19</sup> O'sha joyda, 25-27-betlar.

davlatu saltanat tez orada qulaydi... Tajribali, ishbilarmon va bilimdon vazir shunday bo'ladiki, mamlakat obodonligini, raiyat vasi pohning tinch-farovonligini, xazina boyligini doim ko'zda tutadi. Davlat, saltanatga foyda keltiradigan ishlarini bajarishga tirishib, harakat qiladi. Saltanatga zarar yetkazadigan xatarli ishlarni bartaraf qilishda molu jonini ayamaydi. Si pohnu raiyatg'ategishli muhim ishlarni yaxshilik yo'li bilan, to'g'ri tadbir ishlatib, amalga oshiradi. Yaxshi xulqli vazir shulki, uning ezgu ishlari yomon fe'li atvoridan ustunlik qiladi»<sup>20</sup>.

Amir Temur harbiy taktika va strategiyani takomillashtirib. Qo'shinning jangovarligini ta'minlashni bir daqiqa ham unutmadi. U o'z lashkarboshilariga va askarlariga nihoyatda g'amxo'r va mehribon bo'lib, ulardan hech narsani ayamadi. Natijada, harbiy qurollari takomillashgan va o'z vataniga sodiq qudratli milliy qo'shin yuzaga kelgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu qo'shin Amir Temurning 35 yillik hukmronlik davrida biror marotaba mag'lubiyatga uchramaydi. Bu holat uning mashhur lashkarboshi sifatida dong'ini olamga taratib, dushmanlarni larzaga soldi.

«Amirlarim vasi pohiylarimni, - deb yozadi Amir Temur, - martaba va unvonlar, oltin-kumush bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga (o'z yonimdan) o'rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig' tutmadim. Ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnatu mashaqqatlarini o'zimga oldim va ularni tarbiyat qildim. Amirlar, si pohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtnin egalladim. Turon, Eron, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, ikki Iroq, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jete Dashti, Qipchoq Dashti, Xorazm, Xo'tan, Qobuliston, Buxtazamin va Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim<sup>21</sup>».

Shunday qilib, Amir Temur dunyoni lol qoldirgan qudratli saltanatni tashkil etgan edi.

**Ikkinchidan.** Amir Temur barpo etgan mustaqil va markazlashgan davlat o'lkada hunarmandchilikni, dehqonchilikni, ichki va tashqi savdoning rivojlanishini ta'minladi. Bu tub axolining

---

<sup>20</sup> Temur tuzuklari. 94-97-betlar.

<sup>21</sup> O'sha joyda 69-bet.

moddiy va madaniy turmushiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Amir Temurning eng katta xizmatlaridan biri shuki, soliq tizimini tartibga solib uni fuqarolarni shilish quroliga aylanishiga yo'l bermadi. Bu yo'lda odatdagidek qilinadigan adolatsizlik, zo'ravonlik va talonchilik singari jamoa ahlini qashshoqlashtiradigan usullar taqiqlandi. «Amr etdimki, - deydi Sohibqiron, - raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak... Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilishiga qarab, soliqni uchga bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; kaltak, arqon ishlatib, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni bog'lab, zanjir bilan kishanlamasinlar<sup>22</sup>».

Demak, Sohibqiron amalda soliq to'lashlikni ixtiyoriy, deb hisoblagan edi. Bu adolat va xalqparvarlikning yorqin namunasi, albatta.

Amir Temur sun'iy sug'orishga va yangi yerlarni o'zlashtirishga e'tibor berdi. «Yana amr etdimki, - deydi u, - kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar...

Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar<sup>23</sup>».

Binobarin, Sohibqiron ona yurt iqtisodiy hayotini yuqori bosqichga ko'tardi.

**Uchinchidan,** Amir Temur obodonchilik ishlariga ham e'tibor bergan. U fan va madaniyatning jonkuyari sifatida maqtovga sazovordir. Hatto, u maxsus kengashi chaqirib ulardan yordam berishni so'ragan: «Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa

<sup>22</sup> O'sha joyda, 122-124-betlar.

<sup>23</sup> O'sha joyda.

menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat oʻrnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga oʻz maslahatlaringizni berish bilan koʻmaklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devon (mansab)ining suiisteʼmol qilinishi, oddiy kishilarning joylardagi hokimlar tomonidan siqib qoʻyilishi kabi hollar hammadan koʻra sizlarga ayondir. Shular haqida maʼlumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytasangizlar yaxshi boʻlardi. Agar oldin bizning diqqat-eʼtiborimizda oʻzga mamlakatlarni ishgʻol qilish uchun boʻlgan harbiy yurishlar turgan boʻlsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik oʻrnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu olijanob ishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman».

Koʻrinib turibdiki, Amir Temur mamlakatni taraqqiy ettirishda ilm-fan vakillariga tayangan. U shahar va qishloqlarda masjidlar, madrasalar, shifoxonalar, saroylar, qozixonalar, qoʻriqxonalar, koʻpriklar, savdo rastalari qurish haqida farmon bergan.

Amir Temur oʻz ona tili oʻzbek tili mavqeini yanada oshirishda muhim oʻrin egalladi. Hatto, uning oʻzi turkiy tilda Amir Husaynga quyidagicha tarzda bayt yozgan:

***Yorga yetkur sabo, kim makr qidmishdir manga  
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun anga.***

U tarix faniga juda qiziqish bilan qaragan. Amir Temur ayniqsa, poytaxt Samarqand shahrining shon-shuhratini oshirishga zoʻr eʼtibor berdi. Bu yerda tarix, adabiyot, matematika, astronomiya, geometriya, meʼmorchilik va boshqa sohalar taraqqiyot yoʻliga oʻtdi. Samarqandda Qoʻksaroy, Bibixonim masjidi, Shoxi-zinda mavzoleyi va Goʻri Amir singari hashamatli meʼmorchilik binolari qurildi. Uning atrofida Bogʻi Chinor, Bogʻi Shamol, Bogʻi Dilkusho, Bogʻi Behisht, Bogʻi Nav singari ajoyib bogʻlar barpo etildi. Halq oramasi orzu qilgan farovon hayot bunyod etildi. Zero,

Samarqandliklar turli soliq va to'lovlardan ozod qilindi. Ular tilga olingan hukumatning bog'laridagi mevalardan bemaolol tekinga foydalandilar. "Shunday qilib – yozgan jonli guvoh Ibn Arabshoh, - osoyishtaliku, xotirjamlik farog'atu to'qchilik, narxi-navo arzonligi, orzu-havas ushalisi, zamon muttal dinligi, sulton odilligi, tani-badan sihatligi, vaqtichog'lik, nafrat ko'tarilishi, matlubga yetishishi, mahbubga visollik hosil bo'ldi<sup>24</sup>".

Shaharlardagi ko'chalar kengaytirildi va obodonlashtirildi, savdo rastalari va bozorlar qurildi. Shahar atrofida musulmon mamlakatlari shaharlari-Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz va Sultoniya nomlarida qishloqlar barpo etildi.

Amir Temur Samarqandda nodir diniy va ilmiy asarlarni jamlagan yirik kutubxona qurdirib, uni tobora boyitib bordi. Kutubxonada faqat sharq tillaridagina emas, balki yunon, lotin, arman va gruzin tillarida ham bitilgan asarlar to'plangan edi. Shu tariqa Samarqand Amir Temur imperiyasining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida dong'i olamga taraldi. Shu boisdan Samarqand «Sayqali ro'yi zamin ast - butun yer yuzining husni», deb ta'riflanadi.

Amir Temur mamlakatning boshqa joylarida ham hashamatli binolarni barpo etgan. Masalan: Shahrisabzdagi Oqsaroy, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi va boshqa yodgorliklar shular jumlasidandir. 1392 yilda Sirdaryo bo'yidagi qadimgi Banokent o'rnida yangi shahar qurib, unga Amir Temurning o'g'li Shohruh nomi berildi.

Demak, Amir Temur mo'g'ullarning uzoq vaqtlardan buyon hukmronligi davrida inqirozga uchragan iqtisodiy va madaniy hayotga jon kirgizib, uni rivojlantirishga boshchilik qilib, ilg'or va taraqqiyparvar davlat arbobi sifatida namoyon bo'ldi.

**To'rtinchidan**, Amir Temur Turkiston zaminini jahon davrasiga olib chiqib, uning shon-shuhratini taratdi. Yaqindagina mo'g'ullarning zulmi ostida bir burchakda siqilib va inqirozga uchrab yotgan mintaqa qisqa vaqt ichida olamga tanildi. Uning Eron, Hindiston, Turkiya, Arabiston, Oltin O'rda, Qavkaz va boshqa mamlakatlar bilan aloqasi yangi bosqichga ko'tarilib, keng ko'lamda

---

<sup>24</sup> Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Tarjima va izohlar Ubaydulla Uvatovniki. 1-kitob, Toshkent, 1992, 311-bet.



rivojlandi. Ayniqsa, Amir Temurning Ovrupo davlatlari bilan aloqalar o'rnatishi katta ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, Vizantiya, Vengriya, Genuya, Ispaniya-Kastiliya, Fransiya va Angliya bilan aloqalar yo'lga qo'yildi. Bunday mamlakatlar bilan bevosita aloqalarni yurgizish Turkiston tarixida ilk bor bo'lgan edi.

**Beshinchidan**, Amir Temur o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. U 12 yoshidayoq siyosiy maydonga chiqib, mo'g'ul bosqinchilarining ayovsiz zulmi va talon-tarojining jonli guvohi bo'lgan. Unga xalq ommasining azob-uqubatlari va qashshoqlanishi katta ta'sir ko'rsatib, qanday bo'lmasin vatanni ozod qilish istagi yuzaga keldi. Bu oliy maqsadga erishish uchun mamlakatning turli joylarini kezib, ko'p azob-uqubatlarni boshdan kechirdi. Bu yo'lda uning butun umri kurashda va xavf-xatarda o'tib, bir necha bor o'lim yoqasidan qaytdi. Biroq, azob-uqubatlardan ruhsizlanmay va g'alabalardan mag'rurlanmay kurashni uzluksiz davom ettirdi.

Ma'lumki, Amir Temur taxtni odatdagidek ota merosi sifatida emas, balki oqilona siyosat va mohirona kurash orqasidan qo'lga kiritgan. Bunda uning tabiatan aql-idroki, jasorati va tadbirkor bo'lganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning o'zi kuchli shaxs bo'lganligi uchun raqobatdan cho'chimay, o'z atrofiga jasoratli va ochiqchasiga gaplashadigan kishilarni to'plab ish yuritdi. U ikkiyuzlamachi kishilarning gapiga quloq solmagan, qo'rqqoq odamlarni o'ziga yaqinlashtirmagan. Chunki, o'z soyasidan cho'chiydigan qul tabiatli mansab egalarini davlatning eng xavfli dushmani, deb hisoblagan.

Darhaqiqat, ular o'zlarining qo'rqqoqligi va ojizligi tufayli laganbardorlik va nayrangbozlik bilan ish yuritishlari hech gap emas. Ular bordiyu hukmdor oqni qora desa, qora deb yoki qorani oq desa, oq deb o'zlarining unga go'yo sodiqligini bildirmoqchi bo'ladilar. Ular kezi kelganda, o'z hukmdoriga va hatto vataniga xiyonat qilishdan ham toymaydilar. Shu boisdan Amir Temur qul tabiatli kishilarni yoqtirmay, o'z qadru qimmatini, vijdonni, or-nomusini va g'ururini saqlay oladigan amaldorlarni davlatning ustuni, deb hisoblagan. U bu xildagi kishilarni ko'z qorachigiday saqlagan va ardoqlagan.

Amir Temur juda hushyor va sezgir bo'lib, irodasiga tayangan holda harakat qilgan. Hatto, u ashaddiy dushmanlari bilan umumiy til topish yo'llarini izlab, ularni o'z tarafiga og'dirgan vaqtlari bo'lgan.

Amir Temur katta harbiy mahoratga ega bo‘lib, qo‘shiini ruhlantiradigan, jangovarligini oshiradigan va g‘alabani ta‘minlashni biladigan sarkarda edi. U: «Boshimga po‘lat dubulg‘a, egnimga dovudiy sovut kiydim, belimga Misr qilichini bog‘lab, bahodirligu kurash taxtiga o‘tirdim», — degan edi.

Amir Temur shaxmat o‘ynashni yaxshi ko‘rgan. U ko‘p davlat rahbarlariga o‘xshab hokimiyatni qo‘lga kiritgandan keyin o‘z huzur-halovatini o‘ylamay davlatni mustahkamlash uchun tinimsiz harakat qildi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozgan: «Saltanat to‘nini kiygach, tinchligu sog‘lig‘im ketdi, o‘z to‘shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. O‘n ikki yoshligimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo‘llab (g‘anim) qo‘shinlarni sindirdim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko‘rdim, ulardan achchiq so‘zlar eshitdim. Lekin sabru bardosh bilan o‘zimni eshitmaganga, ko‘rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko‘tarib, jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim... Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim».

Darhaqiqat, Amir Temur mamlakat manfaatlari uchun katta kuch-g‘ayrat va matonat bilan tinimsiz kurashdi.

Amir Temur davlati zamon taqozosiga ko‘ra 130 yil yashadi. Lekin u butunlay yemirilib ketmadi. Chunonchi, buyuk Bobur bu davlatni Hindistonda tikladi.

Ma‘lumki, bu mamlakatni ilgari ham Amir Temur egallagan edi. Bu yerda Temuriylar davlati 332 yil (1526-1858) hukm surdi. Hammasi jamlanganda Temuriylar davlati O‘rta Osiyo va Hindistonda salkam 500 yil yashadi. Bu uzoq davr ichida har ikki imperiyada Amir Temur asos solgan siyosat davom ettirilib, fan va madaniyat yuksak darajaga ko‘tarildi. Bu ajoyib yutuqlar jahon madaniyati xazinasining bebaho durdonalaridan biri hisoblanmoqda.

Xulosa shuki, mashhur davlat arbobi, mohir lashkarboshi, vatanparvar va taraqqiyparvar kishi sifatida tariximizning oltin sahifalariga bitilgan Amir Temur tom ma‘nodagi Vatan burgutidir.



# SOHIBQIRON XAHIQATI, YOXUD IBROHIM MO'MINOVNING JASORATI

Mustaqillik va ozodlik sharofati ila o'tmish, tarixni o'rganish va ommalashtirishga keng yo'l ochildi. Ayniqsa, Amir Temur faoliyatini yoritish, bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, bu tabarruk zot buyuk davlat arbobi, mashhur lashkarboshi sifatida olam uzra shuhrat qozongandi. Ammo ulug' millatchilik g'oyalari bilan sug'orilgan mustamlakachilar Amir Temurni qoralashga hech narsadan toymadilar. Bunday tarixni soxtalashtirishga qarshi kurash o'sha mudhish sovet davridayoq boshlangandi. Bu nihoyatda muhim ishga birinchilardan bo'lib taniqli olim I.Mo'minov qo'l urgan edi. Bunday harakat jamoa ahlini hayratga solgani hamon esimda. Chunki qattiq nazorat va ta'qib hukm surayotgan og'ir sharoitda mustaqillik ramzi hisoblangan - Amir Temurnn «oqlash» haqida oshkora yozish hazil gap bo'lmagan. Buning uchun vatanparvar, millatparvar va jasoratli bo'lish zarur edi. I.Mo'minov xuddi shunday olim sifatida o'zini ko'rsatdi. I.Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli» kitobi nashr etilganda nihoyatda ezilgan va xo'rlangan o'zbek xalqida g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ulari uyg'onib, yelkasiga o'tob va ko'kragiga shamol tekkandek bo'ldi. O'z-o'zini anglash va milliy his-tuyg'ular jo'sh ura boshladi.

Bu holat kommunistik partiyaning g'azabini qo'zg'atishi turgan gap

edi. Natijada xavf-xatar va mish-mish gaplar zo'rayib bordi. Markazdagilar I. Mo'minov va uning tarafdorlariga qarshi kurashda odatdagidek ayrim mo'rt kishilarni ishga solishdi, ya'ni «sopi o'zidan chiqarildi».

Xo'sh, Amir Temurni «oqlash» va unga qarshi kurash jarayoni qanday kechgan edi?

Avvalambor shuni aytish lozimki, men O'zR FA Tarix instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari va ayni paytda bo'lim rahbari lavozimida ishlardim. Shu bois I. Mo'minov meni chaqirib dedi:

— Endi tarixiy shaxslarni, birinchi navbatda, Amir Temur faoliyatini o'rganish zaruriyati tug'ildi. Bu masala bo'yicha institutda qanday ishlar qilingan?

— Afsuski, hech bir ish olib borilmagan, bilasiz, bunday masalani rejalashtirishning imkoni yo'q, ruxsat berilmaydi.

— Hamidulla! Qachongacha vatani va xalqiga fidokorona xizmat qilgan davlat arboblari qoralanadi. Sizga topshiriq shuki, mutaxassislar bilan Amir Temur haqida ilmiy ish yozish borasida gaplashing. Qo'rqmanglar, quvvatlaymiz va yordam beramiz.

Ochig'ini, aytganda, Ibrohim akaning bu so'zlari mening uchun g'ayritabiiy bo'lib ko'rinmadi. Chunki, u kishi bilan ko'p yillar mobaynida suhbatlarida bo'lib, o'tmish tarixga mehr-muhabbati va vatanparvarligini yaxshi bilardim.

Bir hafta davomida tarixchilar bilan suhbatlashdim, lekin biror kishi Amir Temur haqida ish yozishga rozilik bildirmadi.

Marhum akademik Yahyo aka esa menga shunday dedi:

— Men jon deb bu ishni qilardim, lekin qand va ko'z kasalligimning zo'rayishi orqasida imkonim yo'q. Agar kimki bu ishni qilsa yordamimni ayamayman. Bir gapni har ehtimolga qarshi aytay: Amir Temurga ijobiy baho bersak, hammamizni millatchilikda ayblashlari mumkin. Mening uchun buni hech qanday xavfi yo'q, chunki akam xalq dushmani sifatida otilgandan keyin meni tergovga chaqiraverib ko'p azob berishgan. Bordiyu millatchilikda ayblasha, Ibrohim Mo'minovni Sharof Rashidovning qudasi bo'lganligi uchun siylashlari turgan gap. Boshqa odamlarni kim o'z himoyasiga oladi. Masalan, shaxsan sizni kim balodan qutqara oladi.

— Yahyo aka, meni o'zim asli urushda o'lib ketadigan odam

edim lekin eson-omon qolib shu darajaga yetdim. Siylovga qolgan umrimni tarix fani uchun qurbon qilishga roziman, - dedim.

— Hamma narsani tushunib turibman, sizni sinab ko‘ray degan edim. Siz o‘zingiz tanlagan yo‘ldan ketabering, aslo qo‘rqmang!

Men Ibrohim akaga rozilik bildirgan birorta tarixchini topolmaganligimni ma‘lum qildim.

Bir necha daqiqa Ibrohim akaning rangi bir necha daqiqa oqarib va jahli chiqib dedi;

— Nahotki tarixchilarning orasidan bitta ham xo‘roz topilmasa, bu juda uyat-ku, axir.

— Avvalo, o‘rta asr tarixi bo‘yicha mutaxassislar juda oz, yoshlar esa sovet davri tarixini o‘rganishga jalb etilgan.

— Biz o‘tmish zamon tarixini unutmashligimiz lozim.

Ko‘p o‘tmay Ibrohim aka Amir Temur faoliyatini shaxsan o‘zi yozishga ahd qilganligini ma‘lum qildi. Bu meni va boshqa olimlarni hayratlantirdi. Chunki Ibrohim aka partiya g‘oyaviy siyosatining bosh rahbari, deputat va davlatning ishonchli kishilaridan bo‘laturib, qoralanayotgan Amir Temurni o‘rganishga jazm etishi g‘alati bir hodisa bo‘lib ko‘rindi. Hatto, bunga Sharof Rashidovdan ruxsat bo‘lganmi yoki yo‘qmikin, degan fikrlar oralab qoldi. Menimcha, Ibrohim akaning vatanparvarligi, mardligi va jasorati ustun kelgan edi. U bir necha oy davomida manbalarni qunt bilan o‘rganib va umumlashtirib ishni nihoyasiga yetkazdi. Bu ishga taqrizlar va uning muhokamasini uyushtirish menga topshirildi. Ibrohim aka ishni qayerda va qaysi doirada muhokama qilish haqida fikr so‘radi. Men bunga javoban: «FA tarixshunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limlarining kengaytirilgan yig‘ilishida o‘tkazilsa yaxshi bo‘lardi», dedim. Ibrohim aka avval bu taklifni ma‘qullagan bo‘lsa-da, lekin ikki-uch kundan keyin meni chaqirib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidiumining kengaytirilgan majlisida muhokamadan o‘tkazishini ma‘lum qildi.

Nihoyat, 1968 yil 5 may soat o‘nda Akademiyaning birinchi qavatidagi kichik xonasida akademiya prezidiumining kengashi ochildi. Ammo bu yig‘inga kelayotgan kishilarning rangi o‘chgan va kayfiyati past bo‘lib, ko‘zlarida xavotirlik va qo‘rquv alomatlari yaqqol bilinib turardi. Shu tarzda O.S.Sodiqov ham kirib keldi.

Ketma-ket akademiklar: A.M.Muzaffarov, V.Qobulov, S.N.Rijov, YO.X.To'raqulov, M.N.Nabiyev, S.X.Sirojiddinov, M.T.Oybek, YA.G'ulomov, V.P.Shcheglov; O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari: M.Z.Hamidxonov, M.K.Nurmuhamedov, SH.Z.O'razayev, O.E.Eshonov, M.I.Yo'ldoshev, R.X.Aminova, YU.S.Sultonov; fan doktorlari: H.Ziyoyev, M.M.Xayrullayev, A.A.A'zamxo'jayev, B.V.Lunin, X.SH.Inoyatov, H.S.Sulaymonov, X.T.Zarifov, A.X.Hayitmetov, L.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, E.Fozilov, T.R.Rashidov, O.D.Chexovich, F.Abdullayev; fan nomzodlari: M.O.Oxunova, S.A.Azimjonova, U.Karimov, Q.Munirov, K.K.Komilov, A.T.Muhammadjonov, A.O'.O'rinboev, M.Mirhosilov, A.A.Asqarov va boshqalar kirib kelishdi.

Mana O.S.Sodiqov ma'yuslik va ehtiyotlik bilan kengashni ochib, ma'ruza uchun so'zni Ibrohim akaga berdi. Bu kishi o'ziga to'la ishongan va mardonavor holda Amir Temur faoliyatini birma-bir sharhlab, uni mashhur davlat arbobi, mohir lashkarboshi va taraqqiyparvar shaxs sifatida ta'rifladi. Ma'ruza vaqtida shu darajada jimjitlik hukmron ediki, agar pashsha uchsa bilinardi.

Muzokarada Ibrohim akaning ishini yoqlab YA.G'ulomov, H.Ziyoyev, O.E.Eshonov, SH.Z.O'razayev, H.S.Sulaymonov, B.V.Lunin, L.I.Rempel, G.A.Pugachenkova va M.Xayrullayev, O.D.Chexovich, M.K.Nurmuhamedov va X.SH.Inoyatovlar so'zga chiqdilar.

Kengash bir og'izdan Ibrohim akaning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli» kitobini chop etish haqida qaror qildi. Shundan keyin qatnashchilarning yuzidagi qo'rquv va xavotirlik alomatlari yanada kuchayib, zal bir zumda bo'shab qolgan edi. Men Otaboy aka Eshonov bilan Yahyo akaning xonasiga bir piyola choy ichishga kirdik. Uchalamiz ancha hayajonlangan holda bir-birimizni tabrikladik. Yahyo aka dedi:

— Xo'p zo'r ish bo'ldi, men kengash janjalga aylansa kerak, deb o'ylagan edim. Menimcha, kengash prezidium doirasida o'tkazilishining salobati bosib ketdimi, hech kim «g'ing» deya olmadi. Endi, shuni aytib qo'yayki, ikkalangiz ham «qora xat»ga tushdingiz.

— Yahyo aka, — dedi Otaboy aka, — bugun qurbon bo'lishga arziydigan ish bo'ldi, qo'llaridan kelsa osmonga olib chiqib, tashlab yuborsinlar.

Chamasi, bir soatlardan keyin Ibrohim aka meni o'z huzuriga chaqirdi.

Ma'lumki, kasalligi tufayli Ibrohim akaning rangi hamisha o'chganroq ko'rinardi, lekin endi u kishining ranglari qizargan va ko'zlaridan nur yog'ilib turardi, kayfiyati nihoyatda baland edi. Gapning ochig'ini aytganda, men Ibrohim akani bunday holatda birinchi ko'rishim edi. U darhol o'rnidan turib qo'lini men tomon cho'zib ko'rishgandan keyin, katta muvaffaqiyat bilan tabrikladim.

— Hamidulla, — dedi Ibrohim aka, — mening nomimdan muzokaralarga chiqqanlarga yana bir bor minnatdorchilik bildiring, ayniqsa, Yahyo G'ulomovdan xursandligimni ayting.

— Bugungi kengash, — dedim men, — tarixga muhim voqea sifatida kiradi.

— Haqiqatan ham ulug' ish bo'ldi, biroq u faqat bizgagina emas, balki kengashda qatnashgan ximiklar, matematiklar, biologlar, nuquqshunoslar, sharqshunoslar va boshqa soha vakillari uchun ham qutlug' kun bo'ldi. Ularning kengashda qatnashib bizni tarafimizda turishi katta madad hisoblandi. Keyinchalik Tarix institutida «Amir Temur va temuriylar davlati tarixi» bo'limini tashkil qilib, uni chuqur va atroflicha o'rganamiz.

1968 yilda Ibrohim akaning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli» degan kitobi o'zbek va rus tillarida chop etildi. U kishining tashabbusi va bevosita ishtirokida «Amir Temur tuzuklari» va Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari nashr qilindi. Shu ravishda Ibrohim aka tarixni soxtalashtirishga qarshi birinchilardan bo'lib dadil va oshkora bosh ko'targan olim edi.

Amir Temur haqidagi yuqorida ko'rsatilgan ishlarning nashr etilishi butun respublika ziyoli ahlini va umuman, jamoani to'liqlantirib yubordi. Ko'chada ketayotganimda duch kelgan tanish-bilishlar tabriklashib, Ibrohim akadan g'oyatda mamnun ekanlikrini izhor qilardilar. Bundan tashqari, menga odamlar ketma-ket telefon qilishib, Ibrohim akaga qoyil qolganliklarini bildirilar, kitobidan topib berishimni iltimos qilardilar. Tez kunda kitoblar sotilib ketdi, ammo unga talab zo'rayib boraverdi. Shu boisdan men Ibrohim akaga kitobni qayta nashr etishlikni so'radim,

lekin u kishi sabr qilib turishni aytdi. Ko'p o'tmay, bir guruh kishilar, xususan M.Vahobov, M.Abduraimov, R.Nabiyev va boshqalar Ibrohim akani Amir Temurni ideallashtirishda qoraladilar. M.Vahobov partiya faollari yig'ilishlarida va boshqa joylarda Ibrohim akani qattiq tanqid qilaverdi. Mening yoki Yahyo akaning xonasida Ibrohim akaga qarshi qilinayotgan hujumni qay tarzda bartaraf qilish haqida fikr yuritilardi. Bunda O.Eshonov, M.K.Nurmuhamedov va boshqa kishilar ham qatnashardi. Yahyo aka menga Ibrohim akaning kitobiga taqriz yozishni taklif qildi. Ibrohim aka esa dedi:

— Hozir Amir Temur haqidagi kitobdan faqat O'zbekistondagina emas, balki Moskva va boshqa jumhuriyatlarda qattiq norozi kishilar bor. Ayniqsa, Moskvadagi bir guruh olimlar to'polon qilishyapti. Bu ish alanga oladiganga o'xshaydi, tag'in Siz jabrlanib qolmang.

— Ibrohim aka, — dedim men, — kemaga tushganning joni bir, deganlaridek, birgalikda kurashamiz.

Bu gapimni Yahyo aka to'la quvvatladi. Shu bilan suhbat tugadi. Bir haftadan keyin «Sovet O'zbekistoni» gazetasining muharriri M.Qoriyevga taqrizni topshirganimda bir-ikki kundan keyin qo'ng'iroq qilishini aytdi. Qo'ng'iroq qilib, ijobiy javob oldim va bir necha kundan keyin garchan ancha siliqlashtirilgan holda bo'lsa ham taqriz «Ilmiy risola» nomida «Sovet O'zbekistoni» gazetasida (1969 yil, 4 yanvar) chop etildi. Bunda kitobda qo'yilgan masalalar va fikrlar to'la qo'llab-quvvatlandi.

Darhaqiqat, Ibrohim aka aytganlaridek, kitobga qarshi harakatlar avjiga minib bordi. Moskvada KPSS Markaziy Komiteti fan bo'limining tashabbusi bilan respublikalar tarixchilarining yig'ilishi o'tkazildi. Bu yig'ilishda Tarix instituti direktori M.Oxunova ham qatnashgan edi. U Toshkentga qaytgandan keyin menga dedi: «yig'ilishda akademik B.G'afurov so'z olib O'zbekistonda odamlarning boshidan minora yasagan zolim Amir Temur ko'klarga ko'tarilib Vatan qahramoniga aylantirildi, buni chorasini ko'rish kerak dedi. Shuningdek, u Sharof Rashidovga telefon orqali bundan o'zini qattiq noroziliginn bildirganligini ma'lum qilibdi. Zalda o'tirganlar orasida g'ala-g'ovur boshlanib qattiq «choralar ko'rish haqida luqmalar tashlanibdi». Bilasizki, - dedi so'zini davom ettirib



Meli Oxunova, — Ibrohim Mo‘minovichning salomatligi yaxshi emas, men bor gapni aytsam, og‘irlashib qolishlari mumkin. Shuning uchun siz yotig‘i bilan tushuntirsangiz yaxshi bo‘lardi».

Men bunga rozi bo‘lib, Ibrohim akaga umumiy tarzda ma‘lum qilganimda, «xabarim bor, lekin ayting, Melixon oldimga kelsin», — dedi.

Meli Oxunova u kishining huzurida bo‘lgandan keyin meni chaqirdi. Kirsam, uning ko‘zi yoshlangan va hayajonlangan holda o‘tiribdi.

— Ishqilib oxiri, — dedi Meli Oxunova, — yaxshilik bilan tamom bo‘lsin-da. Ibrohim aka menga, yig‘ilishda ikki og‘iz gapirganingizda juda o‘rinli bo‘lardi, deb xafa bo‘ldi. Axir, o‘zingiz o‘ylang, men sovet davri bo‘yicha mutaxassis bo‘la turib, qanaqasiga Amir Temur masalasi bo‘yicha so‘zga chiqishim mumkin edi.

— Gapingiz to‘g‘ri, lekin institut rahbari sifatida umumiy tarzda so‘zga chiqsangiz yaxshi bo‘lardi, — dedim.

— Kim biladi deysiz, — dedi Meli Oxunova, — xayolda yo‘q narsa to‘satdan gapirilgandan keyin o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim, shekilli.

Xullas, borgan sari Ibrohim akaga hujum zo‘rayib bordi. Chunonchi, A.P.Novosel’sevning «Voprosy istorii» jurnalida (Moskva, 1973, №2), «Literaturnaya gazeta»da va M.Abduraimovning «Istoriya SSSR» jurnalida (Moskva, 1973, № 5) Ibrohim akaning kitobiga qarshi maqolalar chop etildi. Ularda Ibrohim akani Amir Temurni ideallashtirishda ayblashib, qattiq qoraladilar. Vaholanki, marhum M.Abduraimov bir vaqtlar o‘zining «Temur va To‘xtamish» nomidagi kandidatlik dissertatsiyasi va keyinroq e‘lon qilingan bir maqolasida Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida ijobiy rol o‘ynaganligini ko‘rsatib o‘tgan edi. Ammo, o‘zining bu fikrini jurnal tahririyatidan yashirgan holda, Ibrohim akani qattiq tanqid o‘qiga tutdi.

Men darhol unga qarshi maqola yozib Yahyo akaga va Ibrohim akaga ko‘rsatdim. Ular maqolani ma‘qullashdi. Taxminan ikki-uch kunlar o‘tgandan keyin Ibrohim aka meni chaqirib maqolani Sharof Rashidovning ruxsatisiz yubormaslikni tayinladi. Ko‘p o‘tmay meni Sharof Rashidov qabul qildi. Bu kishiga ham maqola ma‘qul tushib, dedi:

— Ko‘rib turibmizki, Amir Temur masalasi bo‘yicha ko‘tarilgan norozilik avjiga chiqdi. Aytingchi, siz o‘z fikringizda oxirigacha qattiq turasizmi?

— Sharof Rashidovich, — dedim men, — har qanday sharoitda o‘z so‘zimdagi turganman, bundan keyin ham shunday bo‘lishiga Sizni ishontiraman.

— Yaxshi, hoziroq bu maqolani «Istoriya SSSR» jurnaliga yuboring.

— Bordi-yu, — dedim men, — shu maqolani Akademiyamiz jurnalida yoki birorta gazetada ham chop ettirsak qalay bo‘larkin.

— Bunday qilish, — dedi Sharof Rashidov, — «olovga kerosin» quyish bilan tengdir. Menimcha, Moskvada o‘sha jurnalda chiqqani har jihatdan yaxshidir.

Men Sharof Rashidov bilan suhbatlashganimdan keyin angladimki, Ibrohim aka uning roziligi bilan ish yuritgan. O‘sha davrdagi uning holatida, ya‘ni qarindoshchilik va mansab yuzasidan, o‘zboshimchalik bilan Amir Temurni o‘rganishga kirishishi mumkin emas edi, albatta. Buni Sohibqironga bag‘ishlangan kitobning zudlik bilan chop etilishi ham isbotlaydi.

Men maqolamni Moskvaga 1974 yil may oyida yuborgan edim, javobini o‘sha yilning sentabrda oldim. Bu vaqtda Ibrohim aka olamdan o‘tgan edi.

Bu xususda jurnal muharririning o‘rinbosari Krasilnikov imzo chekkan o‘sha javob xatida shunday deyilgan: «Abduraimov o‘zining Amir Temur haqidagi ijobiy fikrlaridan qaytganligini hech qachon oshkora ma‘lum qilgan emas. Shu bois, u bu masalaga bag‘ishlangan adabiyotlarga tanqidiy baho berishga ma‘naviy jihatdan haqqi yo‘q edi, deb o‘ylaymiz. Buni yana shu narsa tasdiqlaydiki, u «XV-XVI asrlarda O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning rivojlanish tarixidan» nomli to‘plamdagi, asosan, Amir Temurga bag‘ishlangan maqolasini tilga olmay jurnalga Ibrohim Mo‘minovning ishini tanqid qilib maqola yuborgan». Umuman, jurnal tahririyati Ibrohim Mo‘minovning kitobidagi Amir Temur buyuk davlat arbobi va mohir lashkarboshi, fan va madaniyat homiysi hamda qudratli shaxs sifatida gavdalantirilganligini qattiq qoralab, maqolamni bosishdan bosh tortdi. Shunga qaramay, men ikkinchi marotaba uni chop etishlikni so‘rab tahririyatga murojaat qildim. Biroq, bu gal ham maqolamni chiqarolmasliklarini ma‘lum qilishdi.

Shaxsan mening o‘zim M.Abduraimov bilan yaqin munosabatda bo‘lganman. U tarixga doir ilmiy asarlarning muallifidir. Shuningdek, u Amir Temur faoliyati haqida yaxshi fikrlarni yozgan. O‘zaro suhbatlarda ham Sohibqironning xizmatlarini tan olardi.

M.Abduraimovning nima uchun to‘satdan «to‘nini teskari» kiyganligining sababi tom ma‘nodagi ilmiy bahs emas, balki uning tabiatan beqarorligi, hamda ayrim kishilarning aybi bilan yuzaga kelgan shaxsiy adovatlarning mahsuli bo‘lgan edi. Bundan tashqari, o‘sha davrdagi sovet tuzumi «suvni loyqalatib» turishdan o‘ta manfaatdor edi.

Ibrohim aka mohir va mard tashkilotchi olim sifatida ham shuxrat qozonganidi. Zero u hech vaqt ayrim rahbarlarga o‘xshab, kishining nuqsonini va ishidagi kamchiligini ro‘kach qilib, u yoki bu muallifni ko‘pchilikning huzurida dilini siyoh qilmas edi. Bordiyu, kamchilik va xatolarini ko‘rsatish lozim bo‘lsa, muallif va institut rahbarini huzuriga chaqirib tanqid qilardi. Umuman olganda, Ibrohim aka u yoki bu ilmiy ishning kamchiligidan foydalanib, shovqin-suron va janjal ko‘tarishga yo‘l qo‘ymagan. U menga shunday degan edi: «O‘zingizning farzandingizni qanday ehtiyot qilsangiz, ilmiy ishlar qaysi darajada yozilishidan qat‘iy nazar, shunchalik ehtiyot qiling. Uning sifatini yaxshilashga xolis va o‘rtoqlarcha yondoshing, ishni Ilmiy Kengash majlisigacha kamchiliklarini tuzatish lozimligini unutmang. Shunday qilinsa, odamlar o‘rtasida ahilchilik saqlanadi».

Fursatdan foydalanib, Ibrohim akaning faoliyati va fazilatlariga diqqatni jalb etmoqchiman. Chunki ular boshqalar uchun ham nihoyatda ibratlidir.

Men Ibrohim aka bilan 1955-1956 yillarda, ya‘ni Tarix institutining direktori lavozimida ishlaganlarida yaqindan tanishganman. Men u vaqtlarda institutning «Yangi tarix» bo‘limida katta ilmiy xodim sifatida ishlar edim. Gapning ochig‘ini aytganda, mutaxassisligi faylasuf bo‘lgan kishining Tarix institutiga boshliq qilib tayinlanishi bizlarni taajjublantirganidi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu fikrning qanchalik asossizligiga shunchalik ko‘p ishonidik. Ibrohim aka o‘zining sofdilligi, ishbilarmonligi va kamtarligi bilan namoyon bo‘ldi. U ayrim direktorlarga o‘xshab vaqtlarini ko‘proq bekorchilik bilan o‘tkazadigan va turli yo‘llar bilan kattalarning

biqiniga suqilib kiradigan «sodiq» kishilarga emas, balki halol va mehnatsevar xodimlarga tayanib ish yuritardi. Natijada, ancha o'pirilgan Tarix institutida muhim o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Ammo, ko'p o'tmay Ibrohim aka O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti vazifasiga saylandi. Shundan keyin ham u odatda bo'lganidek, Tarix institutiga umumiy rahbargina emas, aksincha, shu institutning haqiqiy jonkuyari bo'ldi.

U kishida faqat olimlik emas, balki vatanparvarlik, tashkilotchilik, ishbilarmonlik va bag'ri kenglik singari oliy fazilatlar mavjud edi. Ayni bir paytda, Ibrohim aka o'ta kamtarligi va muruvvatiligi bilan ajralib turardi.

Ibrohim aka o'zi egallab turgan lavozimning nihoyatda muhimligi va mas'uliyatlilikini yaxshi anglab, ijtimoiy fanning barcha sohalarini rivojlantirish uchun tinimsiz harakat qildi. U mening mutaxassisligim faylasuflik deb, o'zini chetga olmay tarix, falsafa, adabiyot, tilshunoslik va sharqshunoslik fanlariga doir ilmiy ishlarni tayyorlash va nashr etishga alohida ahamiyat berardi, u yoki bu ish bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirardi.

Xullas, Ibrohim akaning xonasi odatdagidek, buyruqbozlik, do'q-po'pisa, mayda-chuyda gaplar va umuman, rasmiyatchilik hamda yuzakichilik makoniga emas, balki tom ma'nodagi ilmiy ijodxonaga aylangan edi. Bu yerda institut rahbarlaridan tashqari, ko'plab bo'lim mudirlari, ilmiy xodimlar, doktorantlar, aspirantlar va oddiy kishilar bo'lishib, ijodlariga baraka va dardlariga malham topganlar. U kishining qabulxonasidan odam arimas edi. U ko'pdan ko'p fan doktorlari va nomzodlarini yetishtirishga ulkan hissa qo'shdi.

Ma'lumki, Ibrohim aka o'zbek xalqining boy madaniy merosini juda qadrllovchi shaxs sifatida dong chiqargan edi. Beruniy, Ibn Sino, Forobiy va boshqa buyuk olimlarning asarlarini chop etishda va yubileylarini o'tkazishdagi ilmiy va tashkiliy ishlari hech qachon unutilmaydi. Uning bevosita ko'rsatmasi bilan Tarix institutida «O'zbekiston madaniyati tarixi» bo'limi ochildi. Bu bo'lim zimmasiga o'tmish va hozirgi zamon madaniyatiga oid barcha sohalarni o'rganish va ommalashtirish vazifasi yuklatildi. Ammo, Ibrohim aka vafotidai keyin bu ish susayib ketdi. Ibrohim aka qadimiy va hozirgi zamon shaharlar tarixini o'rganish uchun

institutda «Shaharlar tarixi» bo'limini tashkil qildi. Bu bo'lim Ibrohim akaning mas'ul muharrirligida ikki jildli «Samarqand tarixi», «Buxoro tarixi» va «Xorazm tarixi» singari kitoblarni chop etdi. So'ngra Toshkent, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlar tarixiga doir asarlar yaratildi.

Ibrohim aka tufayli Tarix institutida «Ikkinchi jahon urushi tarixi», «Sug'orish tarixi» va «Tarixshunoslik» bo'limlari yuzaga kelib, ko'plab ilmiy ishlar qilindi.

Umumiy xulosa shuki, Ibrohim akaning Amir Temur haqidagi kitobiga qarshi hujumlar va uni bartaraf qilish harakati umumlashtirganda 1969 yildan to 1974 yilgacha, ya'ni u kishining vafotigacha davom qildi. Bu mashaqqatli yillarda Ibrohim aka ustidan Markazga ko'plab imzoli va imzosiz xatlar yuborildi. Hatto, ular orasida 50 yil avvalgi Ibrohim akani «bulg'alashga» qaratilgan tuhmat so'zlar ham mavjud edi. Ibrohim akani ayniqsa, adolatsizlik va tuhmatlar ruhida yozilgan xatlar sog'lig'ini qattiq azob berdi. U meni huzuriga chaqirib shunday dedi: Hamidulla! Qattiq charchaganligim uchun faqat bir jildlik «O'zbekiston tarixi»ni o'qib va muharrir sifatida nashr qilishga imzo chekdim. Shahar tarixi bo'yicha ishlari bilan esa bir sidra tanishdim. Umuman yaxshi, lekin keyin yana ko'raman. Qizimni to'yini o'tkazib so'ngra stansionarga yotaman. Shundan keyin ular bilan yana tanishaman.

Men va Meli Oxunova ma'lum vaqtdan keyin Ibrohimakani stansionarga ko'rgani borsak, u kishi yotgan xonaning ro'parasidagi devonda SH.Rashidovni jiyani medik akademik O'ktam Oripov o'tirgan ekan. Bu kishi ko'p odamlar kelib Ibrohimakani toliqtirib qo'yibdi. Shu bois davolovchi vrach ruxsat bermaydi deb kirishga yo'l bermadi. Bu vaqtda Yahyo G'ulom ham davolanayotgan edi, ko'rib qaytdik.

Bir kundan keyin Yahyo qo'ng'iroq qilib darrov borishimni so'radi. Kelganimda Yahyo aka dedi: Ibrohim Mo'minov vrachlarni chaqirib: - Men bu yerga o'z oyog'im bilan yurib kelganidim, endi bo'lsa o'rnimdan turolmaydigan va yuraolmaydigan bo'lib qoldim. Sizlar qanaqa dori berdinglarki ahvolim borgan sari yomonlashibdi.

Menga bu gapni, - dedi Yahyo aka, - vrachlardan biri ayitdi.

Bu vrach Ibrohim akaga nisbatan noto'g'ri davolash usuli qo'llanilayotganligini ham ma'lum qilgan.

Shu tariqa Ibrohim aka sirli ravishda vafot etgan edi.

Kunlarning birida Ibrohim aka menga dedi: «Siz ko'rasiz, shunday vaqtlar keladiki, Amir Temurni ko'klarga ko'tarib, buyuk shaxs sifatida qadrlaydilar». Buni qarangki, uning bu bashorati hozirda ko'z o'ngimizda ro'yobga chiqib, Amir Temur mustaqillik va erkinlik ramzi sifatida qadr-qimmatini o'rniga qo'yildi. Bunday bo'lishida Prezidentimiz Islom Karimovning sa'y-harakati beqiyosdir.

Shuni aytish lozimki Ibrohim aka zamon taqozosiga ko'ra Amir Temurning ko'p qirrani faoliyatini yetarli darajada yoritma olmadi. U Amir Temurning "oqlash eshigi" eshigini ochib berdi; xolos. Shunga qaramay bunday qilishning o'zi o'sha suronli davrda katta jasorat va millatparvarlikning namunasi edi.

Ibrohim Mo'minov umriniig oxirigacha o'z vatani va millati ravnaqi uchun kuchini va bilimini ayamadi. U vatanparvarligi va ilm-fanning chinakam fidoyisi sifatida shuhrat qozonib, millatimizning milliy his-tuyg'ulari va siyosiy ongining o'sishiga katta hissa qo'shgan edi. Shubhasiz, uning ko'rsatgan jasorati va matonati hech qachon unutilmaydi.

Kezi kelganda aytish lozimki, Amir Temurni tamomila "oqlab" ko'klarga ko'tarish va xotirasini abadiylashtirish yurtboshimizning nomi bilan chambarchas bog'liqdir.



# **NAVOIY – SALTANAT TAYANCHI VA DAVLAT MADADKORI**

---

To qiyomatgacha va qiymatda ham ulug‘ hazrat (Navoiy)ning yaxshi ishlari va yoqimli fe‘llarining zikri zamon sahifalarida, kecha va kunduz varaqlarida mangu qolur. Donishmandlar yaxshi nom qoldirishni alohida bir umr deganlar.

## **XONDAMIR**

Mustaqillik sharofati ila ma‘naviy hayotning barcha sohalarida muhim o‘zgarishlar va yutuqlarga erishilmoqda. Boy tariximiz, xususan olimu fozillar, shoirlar, davlat arboblari va din peshvolarining faoliyati xolisona yoritilib, qadr-qimmatlari tiklanmoqda. Ularning orasida oliy hazrat Alisher Navoiy ham quyosh kabi porlab turibdi.

Shaxsan Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi Alisher Navoiyning haykali ozodlik, tinchlik, do‘stlik va hamkorlik ramzi sifatida mustaqillik bog‘iga o‘matildi. Mana shu tarixiy kundan boshlab hozirgacha uni minglab yurtdoshlarimiz, xorijiy mamlakatlarning atoqli davlat va jamoat arboblari, fuqarolari zo‘r hurmat va ehtirom ila ziyorat qildilar. Bunday ziyoratchilarning soni tobora oshib bormoqda.

Ammo jamoa orasida Alisher Navoiyni ko‘proq “she‘riyat sultoni” sifatida yaxshi tanilib, uning ko‘p qirrali faoliyati haqida yaxshi tasavvurga ega bo‘lmagan kishilar ham uchrab turadi. Bir

to‘yda ro‘paramda o‘tirgan yosh mehmonlar Alisher Navoiy she‘ri bilan aytilgan ashula eshitilgandan keyin menga shunday deyishdi:

— Aytingchi, nima uchun Alisher Navoiyning haykali mustaqillik bog‘iga qo‘yildi. Nima bizning tariximiz XV asrdan boshlanganmi?.. Axir, undan bir necha yuz yillar ilgari ham mashhur shoirlar, olimlar va boshqa kishilar o‘tganku?

— Savol juda to‘g‘ri, — dedim men, — Haqiqatan bir necha asrlar burun ko‘p tarixiy shaxslar faoliyat ko‘rsatgan. Biroq Alisher Navoiyga o‘xshagan faqat shoir yoki olim emas, balki, ayni paytda yirik davlat arbobi, bunyodkor va taraqqiyparvar bo‘lgan kimsani uchratish qiyin. Bu xususda unga tenglashadigan kishi yo‘q, deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘zbek tilini ravnaqi uchun ham kurashgan allomadir.

Men dalillar asosida Alisher Navoiyning ko‘p qirralari faoliyatini isbotlaganimdan keyin mehmonlar: - Endi yaxshi bildik. Haykal o‘rnatilishi bejiz bo‘lmagan ekan, deyishdi.

Mening keyingi kuzatuvlarim ham Alisher Navoiyning tarixiy xizmatini yetarli darajada bilmaydigan kishilar oz emasligini ko‘rsatdi. Shu bois mazkur maqolani yozishga kirishib, oliy hazratning ko‘p qirrali faoliyatini yoritishga harakat qildim. Avvalo, uning so‘z durlari bilan naqshlangan she‘rlari haqida ikki og‘iz so‘z izhor etilishi ayni muddaodir. Mana yuz yillar o‘tsa ham Navoiyning ajoyib she‘rlari hamon o‘zining shon-shuhratini yo‘qotgani yo‘q. Uning “She‘riyat Sultoni” deyilishi bejiz bo‘lmay o‘sha zamondayoq shuhrati olam uzrga taralganidi.

Navoiyning she‘rlari, - deb yozgan Xondamir, - G‘oyatda ochiq va yengilligi, ajoyib ma‘nolar bilan bezalishi, so‘z boyligi va betakallufigi, zo‘rakilikning yo‘qligi orqasida, oz muddatda bu baytlar va to‘la ziynatli nazmlarning latiflik va noziklik shuhrati shunday darajaga yetdiki, dunyo tevaragidagi mamlakatlarning podshohlari ataylab Hirot poytaxtiga suhondon elchilar yuborib, san‘at nishonli kulliyotlarni talab qildilar. Arab va boshqa mamlakatlari atrofidagi darvishlar ul hazratning shavqli she‘rlarining ohangidan lazzatlanib, uni zo‘r g‘ayrat bilan izlab yuradilar. Shuning uchun Xitoy va Xo‘tan mamlakatlarining chegaralaridan boshlab to Rum (Turkiya) va Mag‘ribzamon mamlakatlarning oxirigacha shoh va gado, yosh va qari, musulmon va kofir, yaxshi va yomon og‘zida ul hazratning go‘zal nazmlari



mazkur va butun xalq ommasi va ayrim tabaqalarning ko'ngil sahifalarida va qalb lavhalarida muborak she'rlari naqshlangandir"<sup>25</sup>

Mazkur satrlarda Navoiyning faoliyatiga shu darajada yuksak baho berilganki izohlashga o'rin yo'q.

Haqiqatan ham Navoiyga tenglashadigan shoirlarni topish amri mahol.

## **Siyosiy faoliyati**

Alisher Navoiy Temuriylar davlatining so'nggi bosqichida, ya'ni sulton Husayn Boyqaro hukmdorligi vaqtida saroyda muhrdorlik va vazir lavozimlarida ishlab, o'zining burchi va vazifasini katta mas'uliyat bilan ado etdi. Mashhur tarixchi va jonli guvoh Xondamirning yozishicha: "Hirot poytaxtiga sohibqiron (Boyqaro) saltanat va iqbol bayrog'ini tikladi va u fazl va kamol doirasining markazi (Navoiy) bu maqtoli shaharga muborak qadamini qo'ydi. Bunda eng yuqori darajaga ko'tarilib, podshoh noibligini qo'lga kiritib, hukumat arboblarning rahbarligini, butun xalq va hukumat masalalarini hal qilishni, mamlakat va millat ishlarini tartibga solishni, din va davlat ahvolini intizomga qo'yishni o'z ustiga olish bilan birga, butun vaqtini kitob iboratlarini tuzatish, ma'nolarini tekshirish, dalillar bilan isbot etish, masalalarni hal qilish, ilmlarning sirini ochish va aqliy fanlarning nozik nuqtalarini topishga sarf qildi"<sup>26</sup>.

Binobarin, Alisher Navoiyga hokimiyat boshqaruvida katta vakolatlar berilib, amalda u mamlakatda sultondan keyin ikkinchi o'rin egallaydi. Manbada ko'rsatilishicha, Alisher Navoiy "Xudoga, payg'ambarga va buyruq egalariga itoat qiling" va "Bir soatlik adolat oltin yillik ibodatdan afzal" degan so'zlarga amal qilib, amirlik taxtini va hukumat masnadini o'zining muborak qadami bilan ziynatladi va jabr-jafu raqamlarini davron sahifasidan mahv qilib, adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo'ydi. Yaralangan

---

<sup>25</sup> G'iyosiddin binni Humomiddin Hondamir. Makorimol-ahloq (yaxshi hulqlar), Toshkent 1967, 50-51 betlar.

<sup>26</sup> G'iyosiddin binni Humomiddin Xondamir. Makorimul-ahloq (yaxshi hulqlar), Toshkent, 1967, 39-bet.

davr jarohatlariga malham qo‘yib pur olam dahr kasallariga adolat sharbati bilan shifo baxsh etdi”<sup>27</sup>

Bayt:

***“Uning hashamati yer yuziga adolat qo‘lini yozdi,  
Uning haybati zulm ayog‘ini zanjirga soldi”.***

Demak, Alisher Navoiy siyosatni aql-idrok, bilimdonlik va halollik bilan yurgizishi orqasida mamlakatda adolat va insof hukm surib, davlatning kuch-qudrati ancha mustahkamlanadi. Haqiqatan ham dehqonlarni, hunarmandlarni va umuman mehnatkash ommaning manfaatlari hisobiga olingan holda ish yuritilishi orqasida oliy hazratni bilmagan va siylamagan odam qolmadi. Zero Navoiyning “yaxshiliklari, zikri va tavsiflarining ovozesi, dunyoning hamma tomoniga yoyilgan va odam bolalari orasida tildan-tilga o‘tib, og‘izdan-og‘izga ko‘chib aylanib yurgan, ochiq chehralardan ulug‘lik va yuksaklik nurlari porlab turgan”.

Shuni aytish lozimki, o‘rta asr sharoitida ish yuritish oson bo‘lgan emas. Chunki o‘zaro taxt uchun kurashlar va ziddiyatlar orqasida “suvni loyqalatib” to‘rilishi tez-tez ko‘zga tashlanib turardi. Mana shunday og‘ir va xatarli sharoitda jamiyat muvozanatini ta‘minlash har kimning ham qo‘lidan kelavermagan. Shuning uchun ham Husayn Boyqaro va butun jamoa ahli Alisher Navoiyning davlat va xalq oldidagi beqiyos katta xizmatlarini yuqori baholab, qadr-qimmatini o‘rniga qo‘yganlar. Hamda unga o‘zlarining minnatdorchiligini va ehtiromini izhor qilib turganlar. Bu haqda sulton Husayn Boyqaroning Navoiyni hajga borish haqidagi so‘roviga javoban yo‘llagan xati ham dalolat beradi. Unda shunday deyilgan: - “Saltanat rukni mamlakat tayanchi, din va davlat arbobining zudbasi, mulk va millat sohiblarining peshvosi, xayrli binolar muassasi, pokiza ishlarga yo‘llangan, haqqoniy davlatning madadkori, sulton hazratning yaqini Nizomiddin Amir Alisher janoblariga lutfomiz ko‘p duolar va shavq qo‘zg‘atuvchi salomlar to‘plamini yetkazamiz, fayzli muloqotlari orzusi sharh va bayon doirasidan ortiqdir. ...Gap shundaki, hammaga, balki olamga va olam ahliga oshkordirki, ul janob bilan birlik va hamjihatlik

<sup>27</sup> O‘sha joyda, 64-bet.

bogʻlanish aloqasi va hamnafaslikni kichiklikdan to shu kungacha qaysi darajagacha olib borganmiz va olib boramiz. Hamma vaqt va hamma ahvolda ul janobning sharif xotiri roziligini oʻzimizning muddao va talablarimizdan ustun bilib, bu jihatni mislsiz davlat dalillaridan sanadik va sanaymiz. Haqiqatan, uning qarshisida ul janobdan davlatxohlik asarlari, ixlos, yaxshi fikrdalik va yaqinlik kabi hislatlar yuzaga kelgan va yuzaga keladi. Bu quyoshdan ham ravshanroq boʻlgani uchun tafsil berishning foydasi yoʻq. Oʻzlari biladilarki, hech qachon oʻrtada takalluf va oʻzgalik boʻlmay, hamma vaqt soʻz shunday oʻtardiki, u saltanat tayanchining xotiriga hayrixohlik va yaxshi fikrlik yoʻli bilan nimaiki kelsa, toʻqqiz martagacha uni aytishgacha ruxsat berilgan edi, Bizning ham doimo xotirimizga nimaiki kelsa, mehribonlik yuzasidan izhor qilardik”<sup>28</sup>.

Ushbu hujjatni batafsilroq keltirishning sababi shundan iboratki, uni ikki muhim masalani hal etishda ahamiyati katta. Birinchidan, unda shaxsan sulton Husayn Boyqaro tomonidan Alisher Navoiyning “mamlakat ustuni”, “saltanat tayanchi”, “davlat madadkori” singari siyosiy faoliyatini ulugʻlovchi soʻzlarni aytilishi shu haqda guvohlik beradiki, usiz davlatni tinchligi va kuch-qudratini tasavvur qilish qiyin boʻlgan. Ikkinchidan, maʼlumki sobiq sovet davrida Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaroni va bir-birlariga dushman sifatida tasvirlashga va buni xalqni ongiga singdirishga koʻp harakat qilingan. Mazkur xat esa ular oʻrtasida “kichiklik”da yaʼni yoshlikda yuzaga kelgan mustahkam doʻstlik saqlanganligi, hech qachon jiddiy kelishmovchilik va toʻqnashish boʻlmaganligi haqida dalolat beradi. Ayni paytda oliy hazratga qattiq hurmat va ishonch yuzasidan sulton farmoni yoki koʻrsatmasiga toʻqqiz marotabagacha eʼtiroz bildirish huquqi berilgani metindek doʻstlikning yorqin namunasi emasmi.

Bu haqda Xondamirning quyidagi soʻzlari ham guvohlik beradi. Sulton Husayn Boyqaro yuqoridagi xatni Oliy hazratga Marv shahridan yuborgan edi. Alisher Navoiy uni olganidan keyin Hirotdan Marvga kelib sulton Husayn Boyqaro bilan uchrashadi. Shu munosabat bilan Xondamir yozadi: - “Hech qanday mubolagʻasiz, hashamatli podsho (sulton Husayn) hidoyatli Amir (Navoiyning) muloqotiga erishuvchi sababli shu qadar shodu

<sup>28</sup> Oʻsha joyda, 76-77-bet.

hurramlik izhor qildiki, agar mingidan biri va ko'pidan ozginasi bayon qilinsa, ehtimolki, lof-qof deb o'ylanar". Ko'rinib turibdiki, ikki do'stning uchrashishi ular uchun bitmas-tuganmas xursandchilik chashmasi hisoblangan.

Suhbat chog'ida hajga ketish masalasi yana ko'tarilganligi uchun sulton Husayn Boyqaro Navoiyga shunday degan: - "Aniq bilamanki, agar sizning sharif vujudingizdan bu mulk xoli qolsa, katta-kichik barcha xaloyiqning ahvolidagi qo'zg'olon yuz beradi"<sup>29</sup>. Shu onda Sulton Husayn Navoiyni qimmatli sovg'alar bilan taqdirlab Hirotga ketishga ruxsat beradi.

Shundan keyin ham u ruxsat berilishni sulton Husayn Boyqarodan yana so'raydi va roziligini oladi. Keyin u safar tayyorgarligini ko'radi, lekin bu harakat barcha jamoat ahlini qattiq tashvishlantiradi. Zero olimlar, shoirlar, ulamolar, katta-kichik mansabdorlar va boshqa nufuzli kishilarning, xususan, shayx Jaloliddin Abu Said Purniy, shayx ul-islom Sayfiddin, Ahmad Taftazoniy, Shayx So'fi Ali, Mavlono Muyniddin Farohiy, Mavlono Kamoliddin, Husayn Koshifiy, Mavlono Hamididdin Tabadqoniy, Xoja Imodiddin Abdulaziz Abxoriy, Sayyid va naqiblardan Amir Qivomiddin Husayn Mozandaroniy, Amir Jamoliddin Atoullloh Asiliy, Amir Nizomiddin Abdulqodir, Amir Shamsiddin Muhammad binni Amir Yusuf Roziy va Hirot shahri va atrofining boshqa nufuzli odamlari Navoiy huzuriga kelishib arz qildilar: - "Sizning fayz-barakali zotingiz Xuroson o'lkasi tinchligining sababi va insonlar osoyishining boisidir. Bu vaqtda budiyor sultoni sohibqiron vujudidan xolidir. Agar sizning ham muborak fayzli nuringizdan (mamlakat) chetda qolsa, mumkinki fitnalar yuz berib uning tadoruki imkonsiz bo'lib koladi". Shuningdek, Shayboniyni Movarounnahrni bosib olganligi va uni bu yerga hujum qilishi havfi uqdirib o'tiladi. Mamlakatni tinchligi va xavfsizligini nazarda tutilgan o'sha so'rovga hamisha ona yurt dardida hayot kechirayotgan Alisher Navoiy befarq qaray olmas edi. Shuning uchun "Mo'min qalbiga, - deb javob berdi u, - shodlik kiritish butun insonlar ibodatidan xayrlidir", degan so'z mulohazasi bilan sizlarni iltimosingizni qabul qilurmiz va insonlar

<sup>29</sup> O'sha joyda, 80-bet.

manfaati uchun bu navbat ham o‘zimizni bu istakdan qaytardik”<sup>30</sup>.

Bunday olijanoblik, tashrif buyurganlarning qalbini shu darajada to‘lqinlantirib yubordiki, ularni sevinchi va xursandchiligi oshib-toshib ketdi. So‘ngra ular chuqur minnatdorchilik izhor etib tarqaldilar.

Demak, Navoiy butun mamlakat tinchligi va barqarorligining ramzi hisoblangan.

VIII asrdan boshlab Turkiston zaminida dastavval arab, so‘ngra fors tili davlat, ilmiy va adabiy til hisoblangan. Alisher Navoiy bunday holatga barham berilishi uchun ona tilini kamsitishga qarshi kurashib uning boshqa tillardan qolishmasligini isbotladi, hamda uning boyligi, afzalligi va nafisligini yaqqol ko‘rsatib berdi. Bu tilning kuch-qudratini o‘zining ajoyib asarlari bilan ham namoyish etdi. Natijada o‘zbek tili tobora yuqori bosqichga ko‘tarilib bordi. Hatto sulton Husayn Boyqaro ona tilini davlat tili sifatida ishlatilishi haqida farmon chiqardi. Bunda Alisher Navoiyning ta’siri katta bo‘lgan albatta.

Xondamirning guvohligiga ko‘ra “uzoqni ko‘ruvchi Navoiyning ahlini matonati bilan davlat ishlari tartibga solindi. Aql va irodasining kuchliligi bilan mamlakat va xalq ishi saranjom topdi. Uning yorqin fikri porlanishidan chigallar ravshanlashdi va to‘g‘ri tadbiri barakasidan zo‘r ishlar yo‘lga solindi”.

## **Bunyodkorlik va taraqqiyparvarlik faoliyati**

Temur va temuriylar davrida mamlakatda yirik qurilish va obodonchilik ishlari amalga oshirilganligi ma’lum. Ularni orasida Alisher Navoiy alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining shaxsiy mablag‘i hisobiga shu darajada ko‘p va samarali ish qildiki bunaqasini ziyolilarning orasidan topish qiyin. Uning umummillat manfaatlarini uchun qilgan ishlari kishini hayratlantiradi va zavqlantiradi. U mamlakatning salohiyati va shon-shuhratini hashamatli binolar, ajoyib bog‘u ravonlar, ozoda va obod ko‘chalar, zilol suvli hovuzlar va bozorlar bilan o‘lchanishini yaxshi bilgan. U bularni shunchaki anglamay, balki butun umr bo‘yi aql-idroki, kuch-quvvati va boyligini shunga sarfladi. Xususan, quyidagi madrasalarni qurgan edi. Nihoyatda zeb-ziynatlangan “Ixlosiya” madrasasi o‘zining go‘zalligi

<sup>30</sup> O‘sha joyda. 84-85-betlar.

bilan ajralib, unda Amir Burhoniddin Atoullloh Nishopuriy, Qozi Ihtiyoriddin Hasan Turbatiy, Amir Murtoz, Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiy singari atoqli kishilar mudarrislik qilganlar.

O'sha madrasaning qarshisida "Halosiya" xonaqohi ko'rib, g'oyatda go'zal va ko'rkamligi bilan ajralib turgan. Bu yerda mashhur olimlar – Amir Jamoliddin Atoullloh, Asiliy, Amir Sadriddin Ibrohim Mashhadiy, Xoja Imoddiddin Abdulaziz Abhariy mashg'ulot o'tkazganlar. "Shifoia" madrasasi ham qurilib kishi havasini keltiradigan darajadagi ko'rinishga ega bo'lgan. Unda Mavlono G'iyosiddin Muhammad binni Jaloliddin tibbiyot fani bo'yicha dars berish bilan shug'ullangan.

"Nizomiya" madrasasi ham hashamatli ravishda qurilgan bo'lib, yirik allomalardan bo'lmish Amir Burhoniddin va Mavlono Karimiddin Dashtbayoziyilar dars berganlar. "Xusraviya" madrasasi Marv shahrida bino qilinib, o'zining go'zalligi bilan kishilarning havasini keltirgan. Navoiy tomonidan shaxsiy tashabbusi va mablag'i hisobiga ko'rilgan o'sha beshta madrasalarda talabalar uchun qulay sharoitlar yaratilib, ularga nafaqalar belgilangan edi. Ularda sharoit va bilim olish darajasi nihoyatda baland bo'lganligi uchun dovrug'i ko'p mamlakatlarga tarqalganidi. Bu xususda Xondamir shunday yozadi: "Donishmand arboblarning xotirida yashirin qolmasinki, yuqorida zikr qilingan binolarning sharofati va barokati butun dunyoga shu qadar mashhurki, bundan ziyodani xotirga keltirib bo'lmaydi. Ayniqsa, "Ixlosiya" madrasasi bilan "Halosiya" xonaqohi bino qilingan zamondan to shu kunga qadar yigirma yil muddat ichida dunyoning har taraf va har burchagidan bu ikki muborak joyga minglab talabalar kelib oz fursatda turli ilm va fanlarni o'rganishga muvoffaq bo'lib, olqishlar va maqtovlar bilan o'z vatanlariga qaytganlar. U guruhlardan ko'plari hozirgi Hirot shahrida mudarrislik mansabiga erishish bilan faxrlanadilar"<sup>31</sup>.

Navoiy "Xalosiya" xonaqohida minglab zaifalar va miskinlarni laziz taomlar bilan to'ydirgan. Har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, chakmon, ko'ylak va kafsh ulashgan.

Mamlakatda, xususan poytaxt Hirotida xonaqoh (darvishxona)-larga ehtiyoj katta edi. Shu bois Navoiy buni e'tiborga olgan holda "jamoatxona", "fanosiya", "Havz moxiyon", "Ahmadning

<sup>31</sup> O'sha joyda, 41-42-betlar.

muborak sarmazori”, “Langari sarmazori”, “Muslim sarmazori”, “Xonaqohi Ziyoratgoh”, “Hamadoniy sarmazori” singari xonaqohlarni qurgan. Bulardan tashqari Dor ul-xuffoz Mashhadda Imom Rizo ravzasida qurilgan bino Lojvard tosh va oltin bilan juda hashamatli ravishda qurilgan. Uni yonida baland va zebiziyatlangan ayvon bunyod etilgan. Bu yerda har kuni faqir, zaif va yetimlarga ovqat berish uchun mahsul galvurxon (oshxon) qurilgan. Navoiy Marv shahrida ham “Langari Mavloni Sirriy” xonaqohini qurgan. U Nishopurda hush manzarali joyda oʻrnashgan shayx Farididdin Attor Sarmazorida xonaqohni bunyod etgan.

Navoiy turli joylarda rabot (musofirxon)larni qurishga ham katta ahamiyat bergan. Masalan, Sari hiyoboni, Tufur rabot, Xavzak, Darai Zangi, Chixlduxtaron, Tarnob, Panjdex, Kutulush-murgʻob, Marvjoh, Puli Ahmad mushtoq, Baykur, Zohid, Xoja Duka, Chaxorshanba, Bobo Boʻri, Darii Koʻrkush, Kandagi, Okrabot, Yon bulogʻ, Shoraxt, Adraskon, Farmon shayx, Abulvalid, Muzduron, Puriyon, Puli Gʻuriyon, Poyobeq, Nizpul, Shuturxonai tirpul, Sahro Boganda, Jom, Xargird, Marammat, Bikrobot, Sabdobad, Xazira, Sangbast, Mashhadi muqaddas, Tepai Chavq, Dizbod, Gulidor, Sanglilar, Runiz, Isfaroyin, Chimoron, Ishq, Daxani taxti Sulaymon, Jurumjuy, Oxvon, Sari kuchai Alomat, Puli nigor, Bahra va Diyagar kabi rabotlar shular jumlasidandir. Jamlaganda Navoiy 50 dan ortiq rabotlarni qurganligi maʼlum boʻladi. Bu juda katta hajmdagi qurilishlarga koʻpdan-koʻp kuch-gʻayrat va mablagʻ sarflangan, albatta.

U shahar obodonchiligiga ham katta eʼtibor berib, Sepulak, Tulki, Soksalmun, Chixlduxtaron, Tarnob, Qalandaron, Qozbonon, Boyxoʻja, Hayrobod, Jurjonon, Nigor, Sharmardon, Kushanj, Tir (Marmardon), Nahri Arab, Chaxcharon va Turuk nomlaridagi koʻprik va toʻgʻonlarni qurgan.

Navoiy hammomlarni ham qurishga katta eʼtibor bergan. Chunonchi, Ziyoratgoh, Darrai Zangi, Tuvuchi, Chixlduxtaron, Tarnob, Panjdex, Fayziobod, Sabdobod hammomlarini bunyod etgan. Shuningdek, u shahar aholisini toza suv bilan taʼminlash maqsadida Mahallai Poydaraxti mirosiy, mahallai Sholbofon, Sur pushta, mahallai Chixlgazi, Xojai kalla, Pir Qivom, maxallai Qalandaron, Mahdumi sarmazori, Puriyon, Masjidi Kushanj, Jaraxa, Saxrayi Boganda, Shaxoni garmob, Zirbod, Ziyoratgoh,

Andxud va Rohi Xorazm hovuzlarini qurganligi ma'lumdir.

Navoiyning bunyodkorlik faoliyatida masjidlarni qurish ham alohida o'rin egallaydi.

U Hirotidagi Margani bog'ida va uni ro'parasida g'oyatda hashamatli ikkita masjidni qurdi. U qarovsiz va buzilib yotgan Hirot shahridagi Jomeye masjidini qayta qurishga kirishib, muhandis va ustalarni jalb etdi. Bu ishga shaxsan o'zi boshchilik qildi, ko'pincha "etakni bar urib, mardikorlar qatori ishladi, har necha kunda me'morlar, ustalar, balki barcha hunarmandlarga qimmatbaho to'nlar kiygizar va behad in'om va ehsonlar bilan ularni shodlantirardi". Natijada besh yilda qilinadigan ish bir yilda amalga oshirilib, ajoyib Jome' masjidi qad ko'tardi. Alisher Navoiy masjidni ochilish marosimiga bag'ishlab katta ziyofat uyushtirib 50 bosh qo'y va 9 bosh otni so'yirdi. Shunisi diqqatga sazovorki, oliy hazrat shaharda ham qishloqda ham masjidlarni bunyod etdi. Masalan, Sarpuli Injil, Tali Kutbon, Sari Quchai Ulug'-ota, Sari ko'chai Amir Islom, Chahorsuqi Mirzo Alouddavla, Qalandaron, Tarxoniyon, Mir Odil, Puli kord, Idgoh, Bahra, Isfizor, Gur, Qushnaj, Saraxs, Karoti Tarshiz, Astrobod nomlardagi masjidlar, shular jumlasidandir, Ulardan tashqari madrasa, honaqoh va rabotlarda ham masjidlar qurilgan edi. Umumlashtirganda Alisher Navoiy tomonidan 4 madrasa, 16 dan ortiq masjid, 11 honaqoh, 50 dan ortiq rabotlar, 18 hovuz, 16 ko'prik va to'g'on, 9 hammom qurilgan. Bir kishini hayratga soladigan ko'p va ajoyib binolarni... ko'prik va hovuzlarni qurish oson kechmay katta tashkilotchilikni, mablag'ni, obro'ni, bag'ri kenglikni va nihoyatda vatanga sodiqlikni talab qilgan. Alisher Navoiy mana shunday oliy fazilatlar sohibi bo'lganligi uchun ham ko'p podshohlar qilolmagan ishlarni amalga oshirdi.

Navoiy u yoki bu bino bitganda katta ziyofatni uyushtirgan. Masalan, u Hirot jome' masjidi ta'mirlangandan keyin sayyidlar, qozilar, olimlar, fozillar, amirlar, vazirlar va boshqa nufuzli ko'p kishilar ishtirokida ziyofat uyushtirib osh tortgan, imorat ishchilari, ustalar va mardikorlarga to'nlar kiygizgan.

## **Ilm-fan va madaniyatdagi faoliyati**

Alisher Navoiyning fan va madaniyat sohasidagi faoliyati ham maqtovlarga sazovordir. U olimlarni, shoirlarni va umuman ziyoli



ahlini homiysi va tayanchi sifatida olam uzra tanildi. “Amir, - deb yozadi Xondamir, - son-sanoqsiz ko‘ngilochar bog‘lar, shodlik orttiruvchi manzillarni sayidlarga, olim va fozillarga in‘om qilganlar. Yaxshi yerlar va go‘zal qorizlardan mahdumzodalarga va parda ichida o‘tirgan poshsho oyimlarga shunchalik tortiq qilganlarki, buning ham hisobiga yetishga aql ojizlik qiladi. Donishmand olimlar har vaqt uning oliy majlisidan joy olar, sof tabiatning yashirin sahifalaridan ko‘p-ko‘p foydalanar edilar. Mashhur Fozil ahillari har vaqt uning muborak va fayzli palosida o‘tirib, javohir so‘zlarini tinglardilar va manfaatlanardilar... Amirning yaxshi ahamiyat berishi va fayz sochuvchi dilining yo‘nalishi barakasidan olam toji sohibqironning podsholik davrida shoir va olimlarning daraja va martabalari yuqori ko‘tarilib, maqsad va istaklarning oxirgi chekiga erishdilar va imkon boricha fasohat va balog‘at sohasida ko‘p kuch sarf etib, ul hazratning madhida manzum kitoblar yozdilar... Amir hech qachon ahli dillar harakatiga payravlik qilishdan bir soat ham g‘ofil emasdi. Har doim ilm va irfon ahllariga ixlos va e‘tiqod qadami bilan xizmat qilardi”<sup>32</sup>.

Oliy hazratning g‘oyatda mehribonlik va g‘amxo‘rligi orqasida ko‘p asarlar yozilib fan va madaniyat keng ko‘lamda rivojlandi. Uning yordami va shaxsiy mablag‘i hisobiga quyidagi asarlar dunyo yuzini ko‘rdi.

Mavlono Shihobiddin Abdurahmon Jomiy. “Layli va Majnun”, “Xusrav va Shirin”.

Mavlono Alouddin Karmoniy “Masnaviyoti”.

Mavlono Ahliy Sheroziy “Qasidai masnu”.

Xoja Mavsud Gulistoniy “Yusuf va Zulayxo”.

Mavlono G‘iyosiddin Muhammad Jalol “Sihri hilol”.

Mavlono Shamsiddin Muhammad Badaahiy “Risolai muammo”.

Mavlono Kamoliddin Mir Husayn “Risolai muammo”.

Mahdumiy “Shavohid un-nubuvvat” va “Risola dar ilmi musiqiy”.

Amir Ixtiyoriddin Xasan Turbatiy “Iqtibosot”.

Mavlono Kamoliddin Abdulvose’ “Holoti hazrati Mahdumiy”.

Amir Xond (Mirxond) Muhammad “Ravzat us-safo fi siyaril-anbiyo val-mulk val-xulafo”. Shuningdek, Amir Nizomiddin Shayx Ahmad Suhayliy, Amir Kamoliddin Husayn Ali Jalayir,

---

<sup>32</sup> O‘sha joyda, 40, 55, 160-betlar.

Mavlono Nizomiddin Astrobodylarning asarlari chiqarildi. Ayni paytda “Tuhfatul-ahror”, “Subhat ul-abror”, “Xiradnomai Iskandariy” va boshqa asarlar yuzaga chiqdi.

Xondamir o‘z asarlarida “ulug‘ martabali Amirning nomi shariflariga atab” tayyorlangan zamon olimlarining quyidagi ishlarini ham tilga olgan:

Shayx ul-islom Sayfiddin Ahmad Taftazoniy “Sharxi Faroiz”.

Amir Jamoliddin Atoulloh Asiliy “Ravzat ul-aʼ6o6 fi siyratin-nabi val-ol val-asʼhob” (ikki jildli). Mavlono Kamoliddin Husayn Voizul Koshifiy “Tafsiri forsiy”.

Imom Navaviy “Sharhi arbain”.

Mavlono Fasihiddin Muhammad Nizomiy “Xoshiyai Muxtasar”, “Xoshiyai chag‘miniy”, “Xoshiyai sharxi Hidoyai hikmat”, “Xoshiyai sharhi ashkol”, “Taʼsis sharhi bist bobi usturnob”, “Xoshiyai mavoqif”, “Sharhi miatul-omil”.

Xoja Imoduddin Abdulaziz Abhariy “Shahri mushkot”.

Mavlono Kamoliddin Masʼud Shervoniy “Xoshiyai sharhi hikmati ayn”.

Mavlono Abdurazzoq Kirmoniy “Risola dar ilmi farosat”.

Mavlono Gʻiyosiddin Muhammad “Xoshiyai sharxi Mujizi Mavlono Nafis”.

Mavlono Nizomiddin Ahmad Pir Shams “Tarjimai adabiyoti nafahot”. Mavlono Darvish Ali Tabib “Tazkirat un-nufus”.

Xoja Abdulqosim Abdullaysiy “Xoshiyai Mutavval”.

Xoja Hovand Abudullaysiy “Xoshiyai Miftoh” va “Xoshiyai Talvih”.

Mavlono Gʻiyosiddin “Sharhi Mujaz”.

Ushbu nodir asarlar Navoiyning bevosita yordami tufayli yuzaga chiqqanki, mualliflar minnatdorchilik yuzasidan o‘z asarlarini uni nomiga bag‘ishlaganlar.

Shubhasiz, bir maqolada Alisher Navoiyning fan va madaniyatni rivojlantirishdagi muhim o‘rnini batafsil yoritish imkoni yo‘q. Biroq yuqorida qayd qilinganlarni o‘zi ham tabarruk zotning buyuk xizmatini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, Alisher Navoiy jamiyat ahlining barcha tabaqalarining umidi, ishonchi va madadkori sifatida gʻavdalanib davlatni mustahkamlash va salohiyatini ko‘tarishda g‘oyatda muhim o‘rin egalladi. Uning siyosiy faoliyati shu darajada

jo'shqin va samarali kechdiki, undan olinadigan saboq hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zero, u millat va davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yib, ona yurtni kuch-qudrati va taraqqiyotini ta'minlashga jonini ham, molini ham ayamadi. Uning katta xizmatlari tufayli harob holdagi Hirot eng obod va go'zal shaharga, fan va madaniyat markaziga aylandi. U buyuk shoir bo'lishi bilan bir qatorda mashhur davlat va jamoat arbobi, taraqqiyot va farovon hayot jarchisi sifatida shuhrat qozondi. Uning bunyodkorlik, fan va madaniyat sohasidagi faoliyati tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Oliy hazrat saxiylikda, xalqparvarlikda ham tengi yo'q edi. Minglab kishilar uning diydorini ko'rish va marhamatidan bahramand bo'lishga talpinganlar. "Navoiyning, - deyiladi manbada, - uzluksiz in'omlarini buluti olam fozillarining umid maysazoriga ko'm-ko'klik va tozalik bag'ishlardi. Ikrom va ehson bulutlari tomchisi hamma vaqt shayx va sayidlarning omonlik ekinzorini sabzovor va serob qilardi. G'arib va musofirlar dunyoning har tomondan yo'l ko'rsatuvchi ostonasiga to'planib, xayr va barakali noz-ne'matlaridan istagancha bahra olardilar. Faqir va muhtojlar Eron va Turon mamlakatining uzoq joylaridan kelib, xaloyiq to'planish joyi bo'lgan dargohiga sig'inib, karam va ehson dasturxonidan to'liq foydalanar va nasibaxo'r bo'lardilar"<sup>33</sup>. Shuningdek, ramazon oyida har kuni olimu fozillar, amirlar, shoirlar va fuqarolar Navoiy xonadonida iftor qilishgan. Bu vaqtda "Ul hazrat mehmonlarni rioya qilib, ovqatni o'zlari tortardi. Shundan keyin saxiy qo'lini taom yeyishga uzatardi". Iftorda kambag'allar va yetimlarga ham eshik ochiq bo'lib, ularga kiyim-boshlar in'om etilgan.

Xondamir Navoiyning oliy darajadagi insonparvarligi va sahiyligiga tegishli ko'p ma'lumotlarni keltirib shunday yozgan: "Amir Navoiy son-sanoqsiz ko'ngilochar bog'lar, shodlik orttiruvchi manzillarni sayyidlarga, olimlarga va fozillarga in'on qilgan. Yaxshi yerlar va go'zal korizlardan nufuzli kishilarga va parda ichida o'tirgan oyimlarga shunchalik tortiq qilganki, buning ham hisobiga yetishga aql ojizlik qiladi. Uning sahiyligidan amirlar, vazirlar va mansabdorlar ham bahramand bo'lganlar. Hatto,

<sup>33</sup> O'sha joyda, 99-bet.

bundan sulton Husayn Boyqaro chetda qoldirilmagan. Sulton Husayn Boyqaro tomonidan xalqqa og'ir soliqlarni solmoqchi bo'lgan vaqtlarda Navoiy: — “xalqning qiynalmasligi va bu hol saltanat tartiblariga buzuqlik solmasligi uchun” u mablag'larni o'zi tomonidan to'lab turgan. Bundan tashqari Sulton Husayn Boyqaro 100 ming dinor soliqni undirish haqida farmon berganida Navoiy xalq qiynalmasin deb o'sha miqdordagi mablag'ni bergan. “Xalq esa ul hazratni duo qilib, unga ko'pdan-ko'p rahmatlar aytgan”.<sup>34</sup>

Shuni aytish lozimki, Alisher Navoiyning faoliyati tekis yo'ldan borgani yo'q. U qora kuchlarning nayrang va fisq-fasodlari va taxt uchun to'qnashuvlar sharoitida kattiq kurashlar bilan kechdi. Ayniqsa, uni Sulton Husayn Boyqaroning so'nggi yillarda ichkilik va maishatga berilishi qattiq tashvishlantirmasdan iloji yo'q edi. Chunki, uni ko'z o'ngida temuriylar davlati zaiflashib bormoqda edi. Buni ustiga hazratning sog'lig'i ham yomonlashib, kuchsizlik va zaiflik yaqqol sezilib turardi. Ish jarayonida Alisher Navoiy bilan Sulton Husayn Boyqaro o'rtasida ba'zi kelishmovchilik va ziddiyatlarni bo'lishi tabiiy hol, albatta. Ammo ularni har ikki tomon o'rtasidagi dushmanchilikka yo'nish adolatdan emas. Zero ularning yoshlikdan toblangan do'stligi, hamkorligi va sirdoshligi umrlarini oxirigicha saqlandi. Oliy hazrat Hirotga safardan kelayotgan Sulton Husayn Boyqaroni kutib olayotgan vaqtida sog'lig'i yomonlashib, “Boshini baland darajali podsho quchog'iga qo'ya oldi... A'lo hazrat g'oyatda qayg'uli va g'amgin bo'ldi” - deydi Xondamir. Shundan keyin ham, Sulton Husayn Boyqaro eng ishonchli va aziz kishisidan judo bo'lganligi uchun ko'p ko'z yoshlarini oqizib, oliy hazratning uyida 3 kun motam tutdi. Hamda xudoyi va xatm buyurib taom tortdi. Uning hisobidan oliy hazrat vafoti yigirmasida 250 bosh qo'y, 75 bosh ot va qoramol, qirqida esa 100 qo'y va 18 ot so'yilib taom tarqatildi. Marosimlarda nihoyatda ko'p odamlar qatnashib yig'i-sig'i osmonu falakni qopladi. Shuningdek, Hirot shahrining masjidlarida jamoa ahli motam libosini kiygan holda o'tirishib, xatmi qur'on o'qidilar. Benihoya katta judolik butun mamlakat aholisini qayg'u va motamga soldi. “Uning o'limi sababli har uyda motam o'rnashdi. Uning vafoti jihatidan har burchakda nola qo'zg'aldi. Bu fojiali musibatdan va

<sup>34</sup> O'sha joyda, 107-bet.

qayg'uli o'limdan har bir tosh va temir qalbga o't tushdi".<sup>35</sup> Uni dafn etilgani kechasi sayyidlar, olimlar va boshqalar go'rni tepasida to ertalabgacha o'tirishib tinimsiz Qur'on o'qish bilan mashg'ul bo'lganlar.

Fursatdan foydalanib ayrim takliflarimni izhor qilmoqchiman.

**Birinchi**dan, poytaxtimizdagi Navoiy ko'chasini yanada obod va ko'rkam qilish lozim. Bu yerdagi har bir bino milliy me'morchilik asosida did va farosat bilan ta'mirlansa yaxshi bo'lardi.

Hozirda ko'chani tabarruk nomiga mos tushmaydigan ayrim binolar qad ko'tardi. Masalan, Markaziy telegraf va Madaniyat vazirligi ro'parasidagi yangi pastqam magazinlarning tomiga ko'rimsiz narsa o'rnatilgan. Ularga nazar tashlansa imoratlar xuddi yelkasida tobutlarni ko'tarib turganga o'xshab ketadi. Ularni o'rniga gumbazlar o'rnatilganda uzukka ko'z ko'yganday bo'lib sharqona ko'rinish hosil bo'lishi aniq edi.

O'rda ko'prigidan keyingi chorraha burchagida, sobiq tashqi savdo palatasining qarshisidagi ko'p qavatli binoning derazalariga bahaybat sementdan ishlangan qo'pol va uzun bloklar biriktirilgan. Ular ko'chani xunuklashtiradi xolos. Umuman aytganda ko'cha ulug' Navoiyning salohiyati va shon-shuhratiga mos holda ta'mirlanishi zarur deb o'ylayman.

**Ikkinchi**dan, ma'lumki Navoiy davri tarixini aks ettiruvchi yirik asarlar hanuzgacha yaratilmadi. Vaholanki, ularsiz Alisher Navoiyning faoliyatini to'la tasavvur etish qiyin.

Menimcha, shu kun talabidan kelib chiqqan holda Navoiy davri va merosini o'rganish bo'yicha yangi dasturni ishlab chiqish ayni muddadir. «Navoiy» spektakli va kinofilmni qayta ishlash vaqti keldi.

Alisher Navoiyning tanlangan asarini ingliz va boshqa xorijiy tillarda nashr etilsa yaxshi bo'lardi.

Navoiyning haykali yaqiniga Al-Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Buxoriy, Ulug'bek, Bobur va boshqa olimu fozillar byustlari qo'yilsa, o'tmishdagi yuksak madaniyatimiz va kim bo'lganligimiz yaqqol ko'zga tashlanardi.



---

<sup>35</sup> O'sha joyda, 129-bet.

# **BAHOUDIN NAQSHBAND**

## **TA'LIMOTI SIBIRDA**



O'zbeklar islom dinining rivojlanishiga va ma'rifatni tarqalishiga munosib hissa qo'shgan xalqlardai biridir. Bu borada ularning Kaspiy dengizidan tortib Volga daryosi va Qora dengiz qirg'oqlari orqali Sibir bo'ylab cho'zilgan bepoyon hududda ko'rsatgan jasorati va faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tmish zamonlarda mazkur joylarda asosan turkiy aholi yashab, shaman dini ma'naviy hayotning yo'naltiruvchi kuchi hisoblangan. Bu yerlarda Hazar, Bulg'or, Turk hoqonligi, Oltin O'rda va boshqa xonliklar hukm surganligi ma'lum. Mazkur davlatlar asrlar mobaynida qadimiy Turkiston bilan yaqindan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelgan. Chunki Kaspiy – Volga mintaqasi xalqaro karvon yo'llariga ega bo'lib, o'zbek savdo mahsulotlari uchun o'ta talabchan bozor hisoblangan. Shuning uchun ham Turkiston hukmdorlari va savdo-hunarmand doiralari u yerlarda o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilganlar.

Hatto milodiy bir minginchi yilda Volga bo'ylari va Xorazm mintaqasini birlashtirgan Xorazm-Hazar imperiyasining tashkil topgani tarixdan ma'lum. O'zbekistondagi din peshvolari hukmdorlarning yaqindan bergan yordami bilan Volga bo'ylari va Sibirda islom dinini tarqatish bilan shug'ullandilar. Bu harakatlar

rus knazliklarining ham diqqatini jalb etgan. X asrda rus knazi Vladimir islom dinini davlat diniga aylantirish uchun o'z elchilarini Xorazmga jo'natgan. Ammo bu ishni amalga oshirishning iloji bo'lmay, ruslar nasroniy dinini qabul qildilar. Volga bo'ylari va Sibirda turkistonliklarning diniy faoliyati Oltin O'rda davlati hukm surgan davrlarda (XIII-XV) keng quloch yoydi. Bu davlatning asoschilari Chingizxon avlodlari hisoblanib, pirovardida kelgindi mo'g'ullar tub aholi-qi pchoqlarga aralashib vaturklashib ketgan edilar.

Bu vaqtlarda o'zbeklar Oltin O'rdaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida salmoqli o'rin egalladilar. Ularning ta'sirida Oltin O'rda hukmdorlaridan birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan kishi Berkaxon (1257-1266) hisoblanadi. Bu kishining piri xorazmlik Najmiddin Kubroning shogirdlaridan biri mashhur Buxoro shayxi al-Baharziy edi. Berkaxon bu tabarruk zot ta'sirida masjidlar qurdirdi va islom dini uchun sharoit yaratdi. Bu holat Turkiston o'lkasi bilan aloqalarni yangi bosqichga ko'tarib, Urganch, Buxoro va boshqa joylardan din peshvolari, olimlar, savdogarlar, hunarmandlar, naqqoshlar Volga bo'ylariga kelib, doimiy yashash uchun o'rnatdilar. Shunday qilib, islom dini har ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin egalladi. Bundan tashqari, islom dinining qabul qilinishi Oltin O'rda davlatining xalqaro mavqeini ham ko'tardi.

Islom dini Oltin O'rda hukmdori O'zbekxon (1312-1342) vaqtida yanada kuchaydi. Bu ishda uning ustozlari va piri Shayx Nig'maniddin al-Xorazmiyning xizmati beqiyos katta bo'ldi. Uning bevosita qatnashuvida mamlakatda yangi masjid va madrasalar qad ko'tardi.

Islom dini Oltin O'rdaning ko'proq markaziy joylarida rivojlanib, uning uzoq chekka o'lkalarida, xususan, Sibirda hamon shaman diniga e'tiqod qilinmoqda edi. Shu bois, Bahouddin Naqshband Sibirda islom dinini tarqatishga alohida ahamiyat berdi. Men bu masalaga tegishli hujjatni asrimizning 50-yillarida Sibirda to'plagan ma'lumotlarim orasidan topdim. Uning muallifi sibirlik Sa'd Vaqqos ibn Rajab Ismatulla bo'lib, o'zbek tilida bitilgan. Afsuski, hujjatning yozilgan yili ko'rsatilmagan. Biroq, u juda noyob hujjatdir. Unda aytilishicha, Bahouddin Naqshbandning 366 mashoyixlari (muridlari) bo'lib, ularning bir qismi «Zikri xafiy va duo»,

ikkinchisi «Xaloyiqqa ilm o'rgatish» va uchinchisi «Islom dinini tarqatish» bilan shug'ullanganlar. «Qachon g'azot vaqti bo'ldi ersa, - deyiladi hujjatda, - hazrat eshon xoja Bahouddin sharif huzrina jam bo'ldilar, qayu tarafga ishorati Oliyalari bo'lg'ay, deb muntazir bo'ldilar. Xojayi Oliy juma namozi bomdoddin so'ng muborak yuzlarin mashoyixlar tomoniga o'gurub dedikim, tavorixi kabirda andoq ko'rdumkim, avval vaqtikim amir-ul mo'minin ala karamulloh jihati Hindistondin o'tub Chin Mochin viloyatina islom zohir qilib borganinda, Xitoyning yarmini islomga kelturdi va yarmini xirojga qo'yub erdi». Mazmunan bu yerda xitoylarning ma'lum qismi, yani hozirgi dungonlarning islom diniga kiritilishi haqida so'z borayotir. Bahouddin Naqshband so'zlarini davom ettirib, Irtish daryosi atrofidagi no'g'aylar va qoraqi pchoqlarni «dini diyonat bilmaslar, barisi qo'g'irchoqqa sig'inayotgan totorlardir», degan. So'ngra u muridlariga qarab: «Emdi sizlarga ijozatdur, onlarni islomga da'vat qiling, qabul qilmasalar g'azoi akbar qiling, deb ishorati oliyalari bo'ldi ersa, 366 otliq mashoyixlar «farmoningiz boshimiz uzra», deb yo'lga chiqqanlar. Bu satrlarda Bahovuddin Sibirda islom dinini tarqatish haqidagi orzusi undan ancha keyin amalga oshgan. Chunki uning izdoshlarining safari XV asrga to'g'ri keladi. Mashoyihlar Oltin O'rdaning Oq O'rda qismida, shu jumladan, Sibirda hukmronlik qilayotgan sulolaning bir vakili huzurida mehmon bo'lishib, 1700 kishidan iborat askarlar bilan Irtish daryosining yuqori tomoniga kelganlar. Bu yerda no'g'aylar va qoraqi pchoqlar bilan to'qnashuvlarda askarlardan 1440, mashoyixlardan 300 kishn halok bo'lgan. Shu ravishda tub aholining ma'lum qismi islom diniga kiritilgan edi. Sibirda mashoyixlardan uch kishi qolib, qolgan 63 tasi «Buxoroga qaytishib ahvollarini arzlaydilar. Bundan so'ng dinga ochilib, yo'l ochilib, Irtish bo'yidan karvonlar o'tdilar. Olimlar, xojalar, eshonlar din o'rgatmak uchun Sibirga kelaboshladilar», Masalan, buxorolik Eshon xo'ja Davlatshoh Abdul Vahob al-Isfijafiy, xorazmlik shayx Iskandar Mavlono singari din peshvolari shular jumlasidandir. Sibirda, shu jumladan, Tobolskiy, Tyumen, Tur va boshqa joylarda jami 251 turkistonlik din peshvolari islom dinini o'rgatish va rivojlantirishda jonbozlik



ko'rsatib, muqaddas burchlarini ado etganlar. Shuning uchun ham ular Sibirda avliyolar sifatida qadrlanib, qabrlari ziyoratgohga tanlangan. Hujjatda ko'rsatilishicha, ularning ismlari quyidagicha: Shayx Aziz, Shayx Boriy, Shayx Muso, Shanch Yusuf, Shayx Hakim, Shayx Kamol, Shayx Ahmadali, Shayx Darvishali, Shayx Abduhasan, Shayx Bahrom, Shayx Umarali, Shayx Nazar va boshqalar.

Shunisi diqqatga sazovorki, Sibirda islom dinini tarqatishda ayollar ham faol qatnashganlar, «Mashoyixlarning xotinlari, ba'zilarining qizlari, ba'zilarining o'g'illari g'azot ichida birga edilar. Oniy uchun ba'zi yerlarda xotindin, qizdin va yosh o'g'ildin poyostonalar (qadamjolar) bo'lur. Onlar avliyolar deyilsa ajab emas». Hujjatda islom dini yo'lida qurbon bo'lgan yoki mardlarcha xizmat qilgan Oqilabibi, Xadichabibi, Solihabibi, Orifabibi singari o'zbek ayollari hurmat bilan tilga olingan.

Shunday qilib ko'rdikki, olamga mashhur Bahouddin Naqshband tariqatining ta'sir doirasi uzoq Sibirni ham qamrab olgan edi.

XV asrning birinchi yarmida Oltin O'rda davlati parchalanib Astraxan, Qozon, Sibir va boshqa mustaqil xonliklar yuzaga keldi. Bu vaqtlarda hamon Turkiston o'sha xonliklar uchun islom dinining markazi sifatida gavdalanib turdi.

XVI asrning o'rtalarida Qozon va Astraxan xonliklari Rus davlati tomonidan bosib olindi.

1563 yilda Buxoro xoni Abdullaxon (1557-1598) Shayboniy xonadoniga mansub Ko'chumxonni qo'shin bilan Sibirga yubordi. Natijada Ko'chumxon taxtni egalladi. Shundan keyin Ko'chumxon Abdullaxon huzuriga elchi yuborib, shayxlar va sayyidlarni yuborishni so'raydi. Buxoroda elchilar Abdullaxon tomonidan hurmat bilan qabul qilinadi. So'ngra elchilar xonning xati bilan Xorazmga kelganlar. Ular bu yerdan din peshvolarini olib ketishlari kerak edi. Xorazmda Sibirga borib islom dinini rivojlantirishga xizmat qiluvchilarning soni 500 kishiga yetdi. Bular Yorim Sayyid va Shayx Sherbat singari din peshvolari boshchiligida Buxoroga kelishgan. Bu yerda ular Abdullaxon tomonidan hurmat bilan qabul qilinib, ularni 1000 kishilik askar

bilan Sibirga jo'natgan. Keyingi yillarda Sibirga xorazmlik Shayx Dinalixo'ja ham yuboriladi. Ko'chumxon unga qizi Nolishxonumni xotinlikka berib, mavqeini yanada ko'taradi.

Ko'chumxon islom dinini rivojlantirish siyosatini izchillik bilan amalga oshirayotgan paytda 1581 yilda Yermak boshchiligidagi rus kazaklari tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. Pirovardida, Rossiya Sibir xonligini egalladi. Shu ravishda XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Oltin O'rda davlatiga qarashli yerlarning asosiy qismida rus davlati hukmronlik qildi.

Shundan keyin ham ko'rsatilgan joylarning Turkiston bilan iqtisodiy va diniy aloqalari davom etaverdi. U yerlardagi tub aholining vakillari Buxoro, Xorazm va Samarqand madrasalarida ta'lim olib, so'ngra o'z vatanlarida ish yuritdilar. Volga va Ural bo'ylarida, Sibirda maktablar va madrasalar faoliyat ko'rsatdi. Ko'plab masjidlar qurildi. Men 50-yillarda bulardan birini Tyumen shahrining atrofida ko'rganman. U shu yerlik o'zbek boylari tomonidan bunyod qilingan ekan. Xullas, o'zbeklar islom dini va ma'rifat ravnaqi uchun azob-uqubatlarni, hatto o'limni ham bo'yinlariga olib, uzoq mamlakatlardagi aholining ma'naviy hayotini boyitish va takomillashtirish yo'lida beqiyos katta xizmatlarni ado etganlar.



# **O‘ZBEKLARDAN KIM BIRINCHI BO‘LIB JURNALDA MAQOLA CHOP ETGAN?**



Ma'lumki, O'zbekistonda gazeta va jurnallar rasmiy ravishda chor hukumati hukmronligi davrida yuzaga kelgan. Bu davrda ularda muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalarga doir ko'plab maqolalar va axborotlarni chop etdilar. Bular vatanimizning o'sha davrdagi hayotini o'rganishda muhim o'rin egallaydi.

Ayniqsa, jadidlar tomonidan chiqarilgan gazetalar va maqolalar diqqatga sazovordir. Bunday maqolalarda qo'yilgan bir qator muhim masalalar o'z ahamiyatini hanuzgacha yo'qotgani yo'q. Ixtiyorimizdagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, maqola va darslikni yozgan mualliflar faoliyati XVIII asrniig oxiriga, ya'ni O'rta Osiyo podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan ancha ilgarigi vaqtlarga to'g'ri keladi. Bunday kishilar Sibirda istiqomat qilayotgan o'zbeklar orasidan chiqqan edi.

Tabiiy, Sibirga o'zbeklar qanday qilib o'rnamashgan degan savol tug'iladi, albatta.

XVI asrning ikkinchi choragida va keyingi yillarda rus davlati Volga daryosi bo'yidagi Astraxan, Qozon, so'ngra Sibir xonliklarini bosib oldi. Bu joylarda qadimiy zamonlardan oq O'zbekistonning

savdo-hunarmand doiralari turar joylari yuzaga kelgan edi<sup>36</sup>. Ko'rsatilgan joylar aholisining o'zbek gazlama va kiyim-kechaklariga ehtiyoji katta edi. Bundan o'zbek xonliklari ancha foyda olardilar. Ko'rsatilgan yerlar rus davlatiga bo'ysundirilgandan keyin ham gazlama va kiyim-kechaklarga talab hamon mavjud edi. Rus davlati o'z chekka o'lkalarini mollar bilan yetarli ravishda ta'minlashga qodir emas edi. Shuning uchun u o'zbek savdo-hunarmand vakillarini chekka o'lkalarga, shu jumladan, Sibirga o'rnashishga taklif etib, ularga katta imtiyozlar berildi. Natijada, Sibir, Volga va Ural bo'ylarida o'zbeklar turadigan mahallalar yuzaga keldi. XVIII asrning oxirlarida bu yerga o'rnashgan o'zbeklarning soni 20 ming kishiga yetdi. Sibirda o'zbeklar maktablar va madrasalar ochdi, o'z til va urf-odatlarini saqladi. Tatarlarni islom diniga o'tkazdi. Ularning orasida savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlar bor edi. Shuningdek, o'qimishli kishilar ham ko'p bo'lgan. Hatto Sibirdagi o'zbeklar o'zlarining mahalliy boshqarish organi, ya'ni Buxoro volostlariga ega edi.

Rossiyada o'zbeklar mehnatsevar va sofdil kishilar sifatida obro' qozondi. Masalan, rus davlati poytaxtining «Sankt-Peterburg» jurnali 1806 yilda bunday deb yozgan edi: «Ularning aksariyati baland va ingichkadan kelgan ko'zlari kichik-kichik, quloqlari katta, aqllari esa rasodir. Ular vijdonli, tirishqoq, chidamli va hushmuomalali odamlardir».

Sibirdagi o'zbeklar mohir savdogarlar sifatida ham shuhrat qozonib, butun Sibirning ichki va tashqi savdosida salmoqli o'rinni egallaganlar. O'zbeklar orasidan maqola va darslik tayyorlagan kishilar ham yetishgan. Masalan, Tobolskiyda chiqadigan «Irtish» jurnalida o'zbek A.Mametovning «Mneniye magomstan o smerti proroka Moiseya» («Muso payg'ambarning vafoti xaqida musulmonlarning fikrlari») nomli maqolasini chiqargan. Rossiya viloyati jurnallari ichida ilg'or jurnallardan hisoblangan ana shu «Irtish»ga Sibirga surgun qilingan adabiyotchi P.Sumarakov boshchilik qilgan. Rus tilida chop etilgan bu maqola o'sha zamonda qiziqish uyg'otganki, jurnaldan o'rin berilgan. A.Mametov maqolaga berilgan sharhda Tobolskiydagi xalq bilim yurtida rus tilini o'rganganligiga minnatdorchilik izhor qilib, buning evaziga

---

<sup>36</sup> Bu haqda qarang: H.Ziyoyev "Sibir Volga va Ural bo'ylaridagi o'zbeklar". Toshkent, 2003.

ushbu maqolani rus tilida yozganligini bayon etgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra. A.Mametov "Irtish" jurnalidan tashqari «Lyubiteli nauki» («Fan muxlislari») jamiyatiniig a'zolaridan biri bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, yozuvchi Markovning «Sibir quvg'ini» («Sibirskiy izgnannik») romanida ko'rsatilishicha, A.Mametov mashhur rus yozuvchisi Radishchev bilan uchrashgai. Bu uchrashuz o'sha Sumarakovning xonadonida bo'lib o'tgan. Bu yerda Radishchev A.Mametov bilan do'stona suhbatlashib, uning «Irtish»da bosilgan maqolasini albatta, o'qib chiqajagini aytgan. Shu bilan bir qatorda, Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalariga doir asar yozishni A.Mametovga taklif etgan. U bu taklifni qabul qilib, ma'lum vaqtdan so'ng bu ishni amalga oshirish uchun Buxoroga ketgan. Biroq, A.Mametovning keyingi yillardagi hayoti haqida ma'lumotlar yo'q.

A.Mametov o'sha vaqtda Tobolskiydagi ilg'or kishilardan biri hisoblangan. Shuningdek, Niyat Boqining faoliyati ham diqqatga sazovordir. U o'zbeklar orasida o'z ona tilisi bo'yicha darslik yaratgan birinchi muallifdir. U kishi «Tatar va arab alifbosi» nomli darslik yozgan. Bu asar 1802 yilda Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan Sankt-Peterburgda bosib chiqarilgan. Usha vaqtlarda Rossiyada o'zbeklar va ozarbayjonlar tatarlar qavmiga mansub deb yuritilgan. Shuning uchun shu ikki xalqning tiliga oid darsliklarning nomiga tatar so'zi qo'shilgan. Hatto, Rossiyada O'rta Osiyoni Tatariya nomi bilan atab, asarlar chop etilganligi ma'lum. Darslikning mazmuni esa o'zbek tilining o'zginasidir. Unda grammatika bilan bir qatorda rus-o'zbek lug'atiga tegishli so'zlar keltirilgan.

Niyat Boqi yozgan darslikning Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilishi, unga yuksak baho berilganini ko'rsatish bilan bir qatorda, Rossiyada turkiy tillarni, jumladan, o'zbek tilini o'rganishga qiziqish bo'lganligidan dalolat beradi. Qozon va Ufa tilshunoslarining ta'kidlashicha, o'zbek tili Sibir tatarlarining tilini boyitishga ta'sir ko'rsatgan.

Shunday qilib, o'zbeklar tomonidan yozilgan birinchi maqola va darslik Sibirda dunyo yuzini ko'rgan edi.



# **TURKIY XALQLARNING TARIXDA TUTGAN O‘RNI VA TAQDIRI**

---

Bu xalqlarning turar joylari O‘rta Osiyodan boshlanib Kaspiy dengizi, Volga va Ural, Sibir orqali Mo‘g‘uliy, Tibet va Xitoygacha borib taqalgan. Arol, Kaspiy, Qora va Azov dengizlari, Dnepr, Don, Volga (Itil), Ural (Yoyiq), Irtish, Tobol, Yenisey (Ona Soy) va Bayqal (Boy Ko‘l) singari daryo va ko‘llar Turkiy aholining qo‘l ostida edi. Bu bepoyon yerlarning jug‘rofiy joylashuvi va iqlimi har xil bo‘lgan. Xususan, hozirgi O‘zbekiston o‘zining serquyoshligi, ajoyib-g‘aroyib bog‘lari, yam-yashil ekinzorlari, cho‘llari va tog‘lari bilan alohida o‘rinni egallagan. Boshqa mintaqalar esa iliq yoki sovuq iqlimga ega bo‘lib, afsonaviy o‘rmonlari, yaylovlari va tog‘ tizmalari bilan yashnab turgan. Turkiy xalqlar vatanida oltin, kumush, temir, mis, ko‘mir va boshqa noyob boyliklar to‘lib-toshib yotgan. Hozirda olinayotgan gaz va neft ko‘p davlatlarning milliy daromadini ta‘minlamoqda.

“Turk dunyosi”da Ollahning marhamati ila inson hayoti uchun nimaiki zarur bo‘lsa barchasi mavjud. U yerda o‘tmish zamonlarda Xorazm, Konqa, Kushanlar, Eftalitlar, Turk xoqonligi, Somoniylar, G‘aznaviylar Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Oltin O‘rda, Amir Temur saltanatlari vujudga kelib, jahon taraqqiyotiga

munosib hissa qo'shdilar. XI asrda "Turk dunyosi" haqida mashhur olim Mahmud Qashg'ariy shunday yozgan: "Xudo davlat quyoshini turklar burchida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni Turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko'tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo'liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to'g'ri yo'lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g'olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatdan qutuldi. Turklarning o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning hatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosubdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l - ularning tillarida so'zlashishdir. Chunki, ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto, o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so'zni payg'ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg'ambar qiyomatning belgilari, oxirgi zamon fitnalari va turklarning xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: turk tilini o'rganing, chunki, ularning hukmronligi uzoq davom etadi"<sup>37</sup>.

Shuningdek, o'sha olim turklarni oliy fazilatlar sohibi sifatida ta'riflab, Tangri ularni eng baland yerlarga, xushhavo joylarga o'rnatgan, ularda ko'rkamlik, yoqimlilik, odoblilik, so'zining ustidan chiqishlik, dadillik va kamtarlik singari xulqlar son-sanoqsiz.

"Turk dunyosi"ning markazi va rivojlangan mintaqasi hozirgi O'zbekiston yerlari hisoblangan. Miloddan oldingi asrlarda birinchi davlat Xorazmda yuzaga kelib, uning hukmronligi va ta'sir doirasi Qora dengizga va bu yerdan Sharqiy Ovro'poga borib taqalgan. Hozirgi Vengriya (Madyar)ning eng qadimiy podshohlik sulolasining asoschisi xorazmliklar bo'lgan. Uning aholisining qadimgi ajdodlari turk tilida so'zlashgan.

O'zbeklarning ajdodlari taraqqiyot fidoiylari sifatida "Turk dunyosi"ning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlar. Xususan, ular Kaspiy va Qora dengiz, Volga bo'yi, hatto, Sibirgacha borib o'rtnashib, hayotning barcha sohalarida faol qatnashganlar. Ularning

---

<sup>37</sup> Mahmud Qashg'ariy. Devoni lug'atit turk, tarjimon S.M.Mutalliboyev, 1-jild, Toshkent, 1960, 43-bet.

orasida amaldorlar, harbiylar, savdogarlar, din peshvolari, hunarmandlar, quruvchilar, naqqoshlar bor edi.

Avvalambor savdo ahli u yerga oʻrnashishni boshlab berganlar. Chunki oʻsha tilga olingan joylarda tashkil topgan Boʻlgʻor va Xazar podshohliklari Oʻzbekiston uchun tayyor mahsulotlar bozori sifatida katta ahamiyatga ega boʻlgan. U yerlarga ip, ipak va yung gazlamalari, kiyim-boshlar, guruch, roʻzgʻor buyumlari va boshqa oʻzbek mollari keltirilgan. Oʻzbekistonga esa savsar, tulki, babr, sassiq qoʻzan, oqsichqon va shularga oʻxshash qimmatli moʻynalar, oʻq-yoylar, oq terak poʻstlogʻi, choʻqqaygan telpak, qilich, qalqon, dubulgʻa, slavyan qullari, sigir va qoʻylar olib ketilgan.

Oʻrta asr olimi Maʼsudiyning soʻziga koʻra, Xazar podshohligida 10.000 musulmonlar yashab, ularning talay qismini xorazmliklar tashkil qilgan. Uning 12.000 kishidan iborat gvardiyasida faqat xorazmliklar xizmat qilganlar. Vazirlik lavozimiga ham xorazmlik tayinlangan. Oʻzbeklar dastavval Boʻlgʻorda, soʻng Xazarda islom dinini tarqatib 30 ta masjidni bunyod etganlar. Tatar olimi G. Yusupovning «Vvedeniye Bulgaro-Tatarskuyu epigrafiku» kitobida taʼkidlanishicha, Volga boʻylarida islom dinini tarqatgan oʻzbek din peshvolarining mozorlardagi qabr toshlari hamon saqlanmoqda. Kaspiy va Qora dengiz atroflari, Volga boʻylari bilan aloqalar shu darajada samarali boʻlganki, bir minginchi yilda birlashgan «Xorazm - Xazar» imperiyasi yuzaga kelgan vaqtlari boʻlgan edi. Hatto Kaspiy «Xorazm dengizi» deb yuritilgan vaqtlar ham boʻlgan.

Oltin Oʻrda davlati (XIII-XV asrlar) vaqtida ham Oʻzbekistonning tarixan shakllangan aloqalari davom etaverdi. Bu yerga oldingi asrlarda boʻlganidek, oʻzbek savdogarlari, olimlari, din vakillari, hunarmandar, naqqoshlar, quruvchilar va boshqa kasb sohiblari oʻrnashdilar. Ular birinchi navbatda moʻgʻul hukmdorlarini va oddiy kishilarni islom diniga jalb qildilar. Ular naqshlar bilan bezatilgan masjid, madrasa va xonaqolarni qurdilar. Oʻzbek tili Oltin Oʻrda yozuvini va uning badiiy adabiyotining shakllanishida asosiy oʻrinni egallagan. Hozirgi boshqird va tatarlarning ajdodlari Buxoro va Samarqandda taʼlim olganlar.

Savdo aloqalari ham keng quloch yoyib oʻzbeklar yetakchi oʻrinni egalladilar. Ularning orasida amaldorlar ham bor edi.



“Turk dunyosi” aholisi soni va mavqei jihatidan hozirgi Xitoy va Hindistonga o‘xshab dunyoda oldingi safda turgan. Ammo, qadimgi davrlardan boshlab turli xorijiy mamlakatlarga borib o‘rnashdilar. Zero, turkiy aholining bir katta qismi Xitoydagi qadimgi Tan dinastiyasiga asos soldilar. Hozirgi 60 million kishini o‘z ichiga olgan Turkiya respublikasi aholisining ajdodlari turkistonliklar edi.

Oltin O‘rdaning tub aholisi qi pchoqlar mamluklar nomida Misrga o‘rnashib 100 yildan ortiq (1250-1382) hukmronlik qildilar.

O‘zbek xalqining mashhur qahramoni Jaloliddin Chingizxonga qarshi jangda mag‘lubiyatga uchraganidan keyin sardorsiz qolgan ko‘p sonli askarlari Misr, Suriya, Livan, Falastin, Turkiya va boshqa mamlakatlarga ketganlar. Shuningdek, Afg‘oniston, Eron va Hindistonda turkiy davlatlar xukmronlik qilganlar.

Tarixshunos olim Murod Adjinning Moskvada 2006 yilda chiqarilgan “Yevropa, Tyurki i Velikaya step” kitobida yozilishicha, bolg‘arlar, serblar, xorvatlar, chexlar, avstriyaliklar, bavarlar, saksonlar, germanlar va ispanlarning eng qadimiy ajdodlari turkiy tilli aholi hisoblangan. Shuning uchun bu til Ovro‘poda XVI asrgacha xalqaro til sifatida ishlatilgan. Garchand mazkur fikrlar hali maxsus o‘rganish va to‘la isbotlanishni taqozo etsa-da, lekin ular “Turk dunyosi” ning ta‘sirini jahon uzra taralganligini anglatadi.

Shunday qilib turkiy xalqlar ko‘p asrlar mobaynida o‘zlarining vatani va xorijiy mamlakatlarda taraqqiyotni yuzaga keltirishda muhim o‘rinni egallagan edilar. Bu borada “Turk dunyosi” da xristian dynidan ancha ilgari yakka xudolikka, ya’ni tangriga sig‘inishning joriy etilganligi katta ahamiyat kasb etadi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘zbeklarning qadimiy ajdodlari turkiy tilli xalqlarning bosh bo‘g‘ini hisoblangan. Bu xususda Amir Temur shunday degan:

Biz kim - mulki Turon,  
Amiri Turkistonmiz.  
Biz kim - millatlarning,  
Eng qadimi va eng ulug‘i  
Turkning bosh bo‘g‘inimiz.

Buni Turkiyaning mashhur davlat arbobi Otaturkning “Ota

Turkiston” deb uni ulug‘lashi ham tasdiqlaydi. Turkiy tilli aholi ota-onasi bir, lekin farzandlari turli ismlar bilan atalganidek, o‘zbek, turk, qozoq, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq, ozarbayjon, uyg‘ur, tatar, boshqird, qorachay, oltaylik, tuvalik, yoqut, kumik, bolqar, xakas, shors va boshqa nomlar bilan yuritilmoqda.

“Turk dunyosi”dagi taxt uchun kurashlar, xorijiy mamlakatlarning tajovuzlari, hukmronliklari va talofatlari davlatni har jihatdan zaiflashtirdi. Buning ustiga ustak turkiy xalqlarning boshqa joylarga borib o‘rnashishi “Turk dunyosi”da odam zahiralari siyraklanishiga olib keldi. Bu borada ayniqsa, XVI asrning boshlarida Oltin O‘rdadan Shayboniy boshliq minglab odamlarning O‘rta Osiyoga kelib o‘rnashishi o‘lkani huvullatib qo‘ydi. Har jihatdan nochor ahvolga tushib qolgan Oltin O‘rda Qrim, Qozon, Astraxon, Sibir singari kichik va mayda xonliklarga parchalanib ketadi. Bu vaqtlarda Oltin O‘rda panjasidan qutulib va kuchga to‘lib borayotgan rus davlati XVI asrning ikkinchi yarmida o‘sha xonliklarni bosib olib, oltin, kumush, mis, temir, ko‘mir va boshqa bebaho boyliklarni, Kaspiy, Qora va Azov dengizlari va daryolarni, o‘rmonlarni, xalqaro karvon yo‘llarini qo‘lga kiritib jiqqa moyga botdi. Bularning barchasi rus davlatining kuch-qudrati, taraqqiyoti va jahondagi mavqeini rivojlantirib imperiyaga aylantirgan asosiy omil hisoblandi.

Chor hukumati yangi chekka o‘lkalarini zarur mahsulotlar bilan ta‘minlashga qodir emas edi. Shu bois asrlar mobaynida O‘zbekiston bilan davom etib kelayotgan aloqalarni tiklashdan boshqa iloji qolmagan edi. Astraxandan boshlab Volga va Ural bo‘ylari orqali Sibirga borib taqalgan yerlarning aholisini o‘zbek mollariga muhtojligi hamon juda katta edi. Chor hukumati buni e‘tiborga olib o‘zbeklarni Rossiyaga jalb qilib O‘rta Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlari bilan aloqani o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan siyosatni yurgizdi. O‘zbeklarga qator imtiyozlarni berib ularga Rossiyaning chekka o‘lkalariga o‘rnashishga ruxsat berdi. O‘z navbatida, o‘zbek xonliklari Volga va Ural bo‘ylari, Sibir qadimdan tayyor mahsulotlar bozori bo‘lganligi uchun Rossiya bilan aloqani o‘rnatishdan manfaatdor edi. Natijada ikki tomon o‘rtasida o‘zaro elchilik vasavdo aloqalari toborakuchayib bordi. Ip, ipak, yung,

kiyim-bosh va boshqa turli mollar Rossiyaga keltirilib turildi. Volga va Ural bo'ylarida, Sibirda o'zbek mahallalari vujudga kelib ular savdogarlarni, din peshvolarini, hunarmandlarni va boshqa kasb egalarni o'z ichiga olgan edi. Hatto Sibirda mahalliy boshqaruv tizimi — “Buxoro volostlari” tuzildi. O'zbeklar islom dinini rivojlantirishda jonbozlik ko'rsatib, masjidlar qurildi. Maktab ham ishga tushirildi.

O'zbeklar Astraxanda tarvuz, qovun va boshqa polizchilik ekinlarini birinchi bo'lib iqlimlashtirdilar. Ular Sibirda bug'doy ekishni, ko'nchilik va gilam to'qishni joriy etdilar. XVIII asrning oxirida ularning soni 20.000 kishiga yetgan edi. O'zbek savdo ahli Rossiyaning O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Eron bilan aloqalarida vositachilik qildilar. Oxir oqibatda ular Tatarlarga aralashib ketadilar. Ularning ma'lum qismi O'zbekistonga va katta guruhi Turkiyada boshpana topdilar. Bu mamlakatdagilar o'zlarini hamon Sibirlik o'zbeklarning avlodlarimiz deb aytmogdalar.

XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasi o'zbek xonliklarini ham urushib olib o'z hukmronligini o'rnatdi.

Shu tariqa, chor Rossiyasi “Turk dunyosi”ning asosiy qismini egallab uni mustamlakalika va ulug' millatchilik iskanjasida ushlab turdi. Bu siyosatni sovet davlati avjiga mindirib boylklarni taladi. Minglab kishilarni qirdi yoki umrlarini qamoqxona va surgunlarda chiritdi. U “Turk dunyosi”ning yaxlitligi, birdamligi, do'stligi, hamkorligi va kuch-qudratini sindirish maqsadida uni O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Qoraqalpog'iston, Boshqirdiston, Tatariston, Oltoy, Tuva singari respublikalar va avtonom respublikalarga parchalab tashladi.

Nihoyat, qizil imperiya ag'darilib O'rta Osiyo va Ozarbayjon respublikalari mustaqillikni qo'lga kiritdilar. Vaqti kelganida “Ovro'po ittifoqi”ga o'xshash turkiy davlatlar ittifoqi tuzilsa ajab emas. Shundagina O'zbekistonda ko'tarilgan “Turkiston umumiy uyimiz” - degan g'oya kishilarning onggi va qalbiga singishiga shubha yo'q.



# TOSHKENT

## TARIXIDAN LAVHALAR

---

### Devor qurshovidagi shahar

Toshkent o'zining ko'p asrlik tarixi davomida juda og'ir va mashaqqatli yo'llarni bosib o'tgan. U ayniqsa chet el bosqinchilarining tajovuzlari va hukmronliklari vaqtida misli ko'rilmagan azob-uqubatlarga va vayronalarga duchor bo'lgan. Natijada, shahar bir necha bor halokat yoqasida turgan. Ammo xalq ommasi vatani va dini uchun qahramonona kurashib fidokorona mehnat qildi. U dushmanning hujumlaridan saqlanish uchun shahar mudofaasini mustahkamlashga ko'p mablag' va mehnat sarfladi. Chunonchi, qadim tarixiy davrlardanoq shahar bir necha chaqirim masofa uzunlikdagi qalin va baland devor bilan qurshab olingan. Bizgacha yetib kelgan ayrim ma'lumotlarga ko'ra, IX asrda Toshkent shahri uch qator aylanmali devor bilan qurshab olingan. Birinchisi, shahar ichidagi qal'a devori hisoblanib, Abulabbos, Qasr va Gumbaz singari uchta darvozasi bo'lgan. Ikkinchi aylanma devorida Hamdon, Oxanin, Miv, Farqon, Qad, Karmonx, Quyi sahl, Rashidijon va Qashki dahqon singari darvozalarni o'z ichiga olgan. Shaharning uchinchi aylanma katta devori esa Farhod,

Hashkat, Sandijak, Oxanin, Bakrdijak, Sakrak va Bafard nomlardagi darvozalaridan iborat bo'lgan.

Aytib o'tish lozimki, vaqt o'tishi bilan darvozalarning soni va nomi o'zgarib turgan. Masalan, XIV asrning oxiri va XV asr boshlarida shahar devorida Qiyot, Turk, O'zbek, Taxtapul, Qorasaroy, Chig'atoy, Suv-baniyon, Ko'kcha, Qamandoran, Qang'li, Sag'bon va Qatag'on singari darvozalar bor edi.

1735 yilda Ufada toshkentlik Nurmuhammad Mulla Olimning ma'lumotlariga ko'ra: «Shahar devor bilan o'rab olingan, shahardan chiqadigan minorali darvozalar bor. Shahar Devori g'oyat qalin bo'lib, uning ustidan ikki otliq kishi yonma-yon yurishi mumkin; dushman sharpasi ko'rinishi bilanoq, soqchilar devor usti bo'ylab chopishib, xalqni jangga tayyor bo'lishlariga da'vat etadilar. Shaharning u darvozasidan bu darvozasiga borish uchun tushdan kechqurungacha yuriladi. Devorning ko'ndalangiga ham masofasi shuncha. Masjidlar va uylarning hammasi g'ishtdan qurilgan. Har bir uyning darvozasi oldida bir xonali, ikki xonali va hatto uch xonali imoratlar bo'lib, atrofi mevali bog'lar bilan o'ralgan». Nurmuhammad Mulla Olim shaharning ichki joylashishi to'g'risida quyidagi ma'lumotni beradi: «Shahar darvozasidan boshqa darvozalarga olib boradigan yo'llar katta va to'g'ri bo'lib, kichik-kichik har xil ko'chalar ham bor. Suv tog'dan, Chirchiq daryosi orqali butun shaharga keltirilgan va har bir xonadon suv bilan bemalol ta'minlangan. Toshkent shahrining qoq o'rtasida qal'a joylashgan bo'lib, u alohida g'ishtdan mustahkam qilib qurilgan. Qal'aga oltita darvoza bilan kirish mumkin. Uni eski Toshkent deb ataydilar: imoratlar zich joylashgan, bu yerda din peshvolari ham istiqomat qiladi. Ko'kcha darvozasi oldida, masjid yaqinida maktablar, qozixona joylashgan».

Bayon etilgan misralarda ayrim xatoliklar, jumladan, uylarning g'ishtdan qurilishi, u darvozadan bu darvozasigacha yarim kun davomida yurilishi hisobga olinmaganda, ular haqiqatni to'la-to'kis aks ettiradi. 1741 yilda Toshkentda bo'lgan tatar savdogari Shubay Arslonovning Toshkent haqidagi ma'lumotlari ham diqqata sazovordir. «Toshkent shahri, - deb yozadi u, - qalin paxsa devor va zovur bilan o'rab olingan. Shahar kattaligi jihatidan Qozonga

teng keladi. Uning 12 ta darvozasi bor. Bu yerda imoratlar tartibsiz holda, paxsa devor bilan qurilgan. Shaharda bog'lar va masjidlar ko'p. Katta masjidlarda hayit kunlari ko'pchilik bo'lib namoz o'qiladi. Darvozalar oldida alohida xonada mirshab turadi. Ularda to'p yo'q, uzoqqa otadigan miltiqlar bor. Bunday miltiqlar Toshkentda yasaladi. Bu vaqtlarda Xondayliq, Xo'jakent, Parkent, Zarkent, Nushpiya, Nomdanak, Koramurt, Chimkent va Sayram Toshkentga qarashli edi. Shaharni o'n kishidan tashkil topgan Kengash boshqargan. Hukumat qarorgohi Ko'kcha Darvozasi yonidagi qal'ada ish yuritadi. Toshkent Buxoro, Samarqand va o'lkadagi boshqa shaharlardan tashqari Qashqar, Hindiston, Xitoy, Afg'oniston, Rossiya va boshqa joylar bilan savdo qiladi. Toshkentdan Turkistongacha bo'lgan yo'lni yuk karvoni 6 kunda bosib o'tgan. Irgiz daryosidan Ufagacha uch kun, Buxorogacha o'n kun, Balxgacha yigirma uch kun, Badaxshongacha o'n besh kun yurilgan».

Garchand, Toshkent devor qurshovida bo'lsa-da, lekin uning ichida hayot hamisha qaynab turgan. Xalq ommasi chet el bosqinchilarining tajovuzlariga, o'zaro urushlariga va tabiiy ofatlarga qaramay, qanday bo'lmasin, shaharni halokatdan saqlash uchun kurashgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, shaharning o'zida va va uning atroflaridagi qishloqlarda bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Uzum, shaftoli, behi, nok, olxo'ri, gilos, olcha, yong'oq, olma, qovun, tarvuz, sabzi, turp va boshqa xilma-xil mahsulotlar yetishtirilgan. Donli ekinlardan bug'doy, arpa, suli, sholi, tariq, jo'xori, shuningdek, kanop va zig'ir ekilardi. Uzumdan shinni va sharob tayyorlangan. Uzum shu darajada bo'liq va shirin bo'lganki, to'rt kishi bir boshiga bemalol to'ygan. Ayniqsa, charos, husayni, chillaki, qora va urug'siz mavziy nomli uzumlar mashhur bo'lgan. Shaftolining yozgi, kuzgi, tuksiz oq va boshqa turlari bor edi. Shaftolining shunday navi bo'lganki, bir donasidan bir piyola sharbat olingan. Shaftolining anjir xili ham yetishtirilgan. Anorlar ham sersuv va shirin hisoblanib, yirigi chaqaloqning boshidek kelgan. Behi ham shu kattalikda hosil bergan. Yong'oqlardan ayniqsa, g'alvir navi ko'p bo'lib, uning mag'zi ko'rinib turgan. Balxi va shoh nomida tutlar ko'p bo'lgan. Bundan tashqari, mevasi balxiy tut mevasiga o'xshash qizil, nordon va shirin meva bo'lgan.

Toshkent o'zining xilma-xil qovunlari bilan ham dong chiqargan. Ayniqsa, Achchida va Zog'arig'i bo'ylab ekilgan amiriy, ko'kcha, bekdodiy, shakarpora, gulobi va oq urug' kabi navlari shuhrat qozongan. Sariyog'ochga boradigan yo'ning ikki tarafida ham ko'plab qovunlar yetishtirilgan. Toshkentda qovun, tarvuz va boshqa dehqonchilik mahsulotlarini qishga g'amlash odati keng tus olgan edi. Har bir oila qovunlarni chetanga solingan aravalarda uylariga tushirardi. Xonadonlardan to bahorgacha ho'l va quruq mevalar arimagan.

Toshkent o'zining ajoyib tabiiy manzarasi, gullari va chamanzorlari bilan dong chiqargan. O'rta asr manbalaridan birida shunday deyilgan: «Toshkent lolasi mashhurdir. U 8-12 yaproqli bo'lib, ular bir-birlariga o'xshamaydigan turli tusdagi ranglar bilan qoplangan. Lolaning barglarida yetti va ba'zida o'ndan ham ortiq ko'zni qamashtiradigan ranglar bo'lgan. Lolazorda bir buloq bordirkim, uni «chashmai purjush», ya'ni qaynar buloq deydilar. Buloq suvi hammavaqt oqib turgan. Bu buloq-lolalar barq urib ochilganda 20 gaz balandlikda havoga sochilib yomg'ir kabi lolalarni sug'organ». Shunga o'xshash ma'lumot Muhammad Solihning «Toshkentning yangi tarixi» asarida ham uchraydi. Uning yozishicha, Chig'atoy va Sag'bon darvozalaridan uch farsax (6-7 km) masofada Afrosiyob zamonida (miloddan avval) ekilgan lolazor bo'lib, bir tomonda qizil lola, ikkinchi tomonda esa sariq lola o'sib yotgan. Bu lolazorlarda 21 mart, 21 aprel kunlarida buloqlar qaynab turgan, yozda esa u qurib qolar ekan. Lolazor shahar ahlining sayilgohi hisoblangan.

Xullas, Toshkentning lolazori Buxoroning guli surxiga (qizil gulga) o'xshab olamga mashhur bo'lgan.

Afsuski, bayon etilgan lolalarning va boshqa noz-ne'matlarning nodir turlari tabiatga nisbatan qilingan yovuzlik orqasida yo'q qilinish yuborilgan. Shunga o'xshash ajoyib-g'aroyib buloqlar va quduqlar ham barbod etildi. Toshkentda qabziyatni davolaydigan bir quduq suvi bo'lgan ekan. Uning suvi boshqa joyga olib ketilsa, ko'p saqlansa toshga o'xshab qotib qolar ekan. Agar u suvni hayz qoniga qo'shib quduqqa tashlansa portlar ekan. Shunday bir buloq bo'lgan ekanki, unda osmonni bulut qoplaganda suv paydo bo'lib, ochiq havoda esa to'xtab qolar ekan.

Toshkent atrofining bepoyon yerlarida koʻzni qamashtiradigan yaylovlar, chamanzorlar va toʻqaylar koʻp boʻlib, turli-tuman qushlar, hasharotlar, vahshiy hayvonlar, xususan, yoʻlbars, boʻri, tulki va boshqalar behisob boʻlgan. Chirchiq daryosining qumidan oltin kukuni olingan. Toshkentliklar sohibjamol va muruvvatli, shijoatli, mard va jangovar xalq sifatida maʼlum boʻlganlar, Ular chet el bosqinchilaryning tajovuzini hisobga olib, hamisha bir qoʻlida ish quroli, ikkinchi qoʻlida yarogʻ-aslaha bilan hayot kechirgan. Chunki dushmanga qarshi har qanday sharoitda doimo tayyor turish har bir kishining burchi hisoblangan. Janglarda kattayu kichikning barchasi faol qatnashgan.

Toshkent koʻplab olimlar, shoirlar, din peshvolari, mohir sanʼat va hunar egalarini yetishtirdi. Masalan, Hazrat Imom Kaffoli Shoshiy (X asr), Abu Muhammad Matroniy (X asr), Shoshiy Umiriy (X asr), Isʼhoq Ibrohim Ash-Shoshiy (X asr), Sharofuddin Abu Abdulloh, Muhammad ibn Yusuf al-Iloqiy (XI asr), Muhammad ibn Ali al-Iloqiy (XI-XII), Sharofiddin Iloqiy (XI), Abu Bakr Shoshiy (XI-XII), Ali Banokatiy (XIII), Abu Sulaymon Banokatiy (XIV), Badriddin Chochiy (XIV) Jamshid Shoshiy (XIV), Hamiduddin Toshkandiy (XV), Abduvadud Kotib (XV-XVI), Hofiz Koʻhakiy (XVI), Ubaydulloh Kahhol (XVI), Yormuhammad Toshkandiy (XVI), Shoh Kahhol (XVI), Bakiy Jarroh Toshkandiy (XVI), Muhammad Yusuf Kahhol (XVI), Mavlono Obid Hattot (XVI), Mir-Muhammad Haydar (XVI), Jamil Miran Toshkandiy (XVI-XVII), Shohakiy Toshkandiy (XVII-XVIII) va boshqalar shular jumlasidandir.

Koʻrsatilgan moʻtabar shaxslar fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qoʻshganlar. Bu yerda shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, moddiy va maʼnaviy kuchlarning talay qismini dushman tajovuziga qarshi kurashga, shahar mudofaasini mustahkamlashga va oʻzaro urushlarni bartaraf qilishga sarflanishi taraqqiyotning bir tekisda va uzviy ravishda oʻsib borishiga katta toʻsiq boʻldi. Ayniqsa, ozodlik kurashlarida minglab kishilar yostigʻining qurishi va vayronagarchiliklar katta ziyon keltirdi. Ayniqsa, XVIII asrda Toshkentda ogʻir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat yuzaga keldi. Chunonchi, 1723 yilda Toshkentni qalmoq koʻchmanchilari



egallab, qozoq xoni Jo‘lbarsni o‘z vassali sifatida shahar boshlig‘i qilib tayinlashdi, Bu vaqtlarda Toshkent viloyatiga Chelak, Xondaylik, Xo‘jakent, Zarkent, Parkent, Nomdanak, Qoramurt, Sayram, Chimkent va boshqa atrofdagi joylar qarardi. Qalmoq bosqinchilari belgilangan soliqlarni va buyumlarni olib turganlar. Bu ishni o‘sha Jo‘lbarsxon amalga oshirib turgan. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, soliqlarning miqdori 40 ming tilla hisoblanib, bundan tashqari, turli gazlamalar, gilamlar, oltin, kumush, yarog‘-aslaha va boshqa qimmatli narsalar olingan. Qalmoqlarning zulmi shu darajada xalqni azobga soldiki, 1739 yilda toshkentliklar Jo‘lbarsni o‘ldirdilar. Ammo, uning o‘rniga qozoq xoni Tulabiy tayinlandi. Bu holat 1758 yilgacha, ya‘ni Xitoy tomonidan qalmoqlar, (jungorlar) qirib, tashlangunga qadar davom etdi. Shundan, keyin qozoq xonlari Toshkentga bir necha bor hujum uyushtirib, hatto bu yerda hukmronlarini o‘rnatgan vaqtlari ham bo‘lgan.

## **Mustaqil Toshkent hokimligining vujudga kelishi**

Nihoyat 1874 yilda mahalliy yuqori tabaqa vakillarining biri Yunusxo‘ja Shayhontohur, Beshyog‘och, Sebzor va Ko‘kcha dahalarini qo‘l ostiga birlashtirdi. U hokimiyat tepasiga kelganda Toshkentning ahvoli nihoyatda, og‘ir, edi. Buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan rus tog‘ muhandislari shunday yozgan, edilar: “Shahardagi vayronaga, aylantirilgan ko‘p yodgorliqlar shu haqda guvohlik, beradilarki, u bir vaqtlar, ancha obod, boy va, katta kuchga ega bo‘lgan. Ammo shahar ichki va tashqi urushlar orqasida orqaga ketgan. Hatto urushlarning ayanchli oqibatlaridan bir necha bor halokat yoqasida turgan. Yunusxo‘janing taxtga o‘tirish arafasida o‘zining tarafdorlariga qal’asiga va quroliga ega bo‘lgan ikki guruh o‘zaro urushayotgan edi. Urushlardan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik honavayronlikka uchrab, odamlar sevimli hunarlari bilan shug‘ullanish o‘rniga qo‘lida qurol bilan doimo havotirlikda yashashga majbur bo‘lgan. Qozoq xonlari bunday vaziyatni qo‘ldan bermay, Toshkentdan Chimkentni,

Turkistonni va boshqa joylarni bosib oldilar. Oqibatda, Toshkent faqat shahar bilangina chegaralanib qoldi, xolos. «O'zaro urushlardan tinka madori qurigan xalq, - deb o'z so'zini davom etadi, - Yunusxo'janing tarafiga o'tib, o'zaro parokandalikka barham berdi. Ammo xonavayronlik va yo'qchilikka muhtalo bo'lgan shaharni oyoqqa turg'azish uchun xalq va Yunusxo'jadan qo'p mashaqqat, mehnat va g'ayrat talab qilinadi, albatta».

Yunusxo'ja hokimiyat tepasiga kelganday keyin avvalo shahar mudofaasini mustahkamlash va qo'shin jangovarligini oshirishga qaratilgan choralarni izchillik bilan amalga oshirib bordi. U deyarli xarobaga aylangan shahar devorini hashar yo'li bilan tuzattirdi va mustahkamladi. 1800 yilgi ma'lumotga ko'ra, devor osti qalinligi 1,8 metr va ustki qismi 0,9 metr atrofida bo'lib, aylana uzunligi 18 chaqirimdan ortiq edi. Devorning balandligi esa 7-9 metr hisoblangan.

Yunusxo'ja 6000 kishidan iborat qo'shin tuzib, pilitali miltiq, qilich, nayza, qalqon va to'plar bilan qurollantirdi. Bu qo'shin «qoraqozon»lar nomi bilan yuritilib, unda asosan turli shaharlardan kelgan musofir kishilar va asirlar xizmat qilganlar. Ular Yunusxo'ja va boshqa hukumat amaldorlari o'rtasida taqsimlangan bo'lib, tinchlik paytlarida ularning yerlarida hamda uylarida dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa yumushlarni bajarganlar. Ular o'z egalaridan ish haqi olmay ishlaganlar. Shuning uchun bo'sh vaqtlarida boshqa joylarda ishlab tirikchilik o'tkazganlar. Yunusxo'ja urush vaqtlarida o'troq va ko'chmanchi aholidan 50-60 ming askar yig'ish imkoniga ega bo'lgan. Qo'shin turli rangdagi bayroqlar, nog'ora, karnay va surnaylar bilan ta'minlangan. Urush paytlarida har bir xonadondan bir-ikki kishi qo'shinga jalb qilingan.

Harbiy aslahalarni tayyorlash ham ancha takomillashdi. «Poroxni, - deyiladi manbada, - toshkentliklarning o'zlari ishlab chiqarardi. Toshkentning selitralli joylari ko'p. U yerlar bunday o'g'itga boy. Qo'rg'oshin Turkistondan keltirilib Toshkentda eritiladi. Lekin uning miqdori oz».

Yunusxo'ja davlatni boshqarishni ham birmuncha tartibga solib, yakkahokimlik tarzida ish yuritgan. Biroq, u davlat qoshidagi kengash a'zolari bilan bamaslahat ish olib borgan. Bu to'g'rida manbada shunday deyilgan: «Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja)

o‘z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo, u atrofdagi eng yaxshi amaldorlar bilan maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo‘jaga eng sodiq va ishonchli xo‘jalar qatnashadi. Shaharni bosh xo‘ja mansabidagi amaldor boshqarib, tartib-intizom va obodonchilikka doir masalalar bilan shug‘ullanadi. Bosh xo‘ja aybdorlarni jazolash huquqiga ega edi. Ammo, kimki uning hukmidan norozi bo‘lsa, bevosita Yunusxo‘jaga murojaat qilishi mumkin edi. Bosh xo‘ja Yunusxo‘ja ko‘rsatmasi asosida alohida soliqlarni solgan. U hukmdor yo‘qligida viloyatni boshqarish huquqiga ega bo‘lgan». Hukumat amaldorlaridan birortasiga maosh berilmagan. Biroq, ular o‘z qo‘l ostidagi «qoraqozon»lardan vaqti-vaqti bilan o‘z yerlarida va uylarida dehqonchilik, chorvachilik hamda boshqa yumushlarda ish haqi to‘lamay foydalanganlar. Aftidan, ular ishlagan vaqtlarda amaldorlar tomonidan oziq-ovqat bilan ta‘minlangan. Bosh xo‘ja davlatda Yunusxo‘jadan keyin ikkinchi shaxs hisoblangan. Undan keyingi ma‘muriy pog‘onalarda mingboshi, yuzboshi, o‘nboshi va oqsoqollar singari kishilar xizmat qilganlar. Bu toifadagi ma‘muriyat vakillari bevosita Yunusxo‘jaga o‘z ishlari haqida hisobot berib turganlar. Bosh xo‘ja qo‘l ostidagi oqsoqollar orqali soliqlarni to‘plash va xazinaga topshirish bilan shug‘ullanganlar. Belgilangan tartibga ko‘ra, har bir jon boshiga bir oyda daromadiga qarab 5 tangadan 10 tangagacha, yerdan olingan hosil bo‘yicha esa 10 dan bir qismi hajmida soliq olingan, savdoda molning 40 dan bir qismi olingan. Soliqlardan «qoraqozon»lar ozod qilingan. Bunda ularning qo‘shinda va amaldorlarning yerlarida xizmat qilishlari inobatga olingan, albatta. Yunusxo‘ja davrida o‘tmish xaroba qoldiqlari tamomila tugatilmagan bo‘lsa-da, lekin hayot ilgarigi vaqtlarga nisbatan ancha yaxshilandi. Shaharda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdogakeng yo‘l ochildi. Paxtachilik, ipakchilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik o‘tdi. Shahar Chirchiq daryosidan keladigan ariq suvlari bilan ta‘minlanib, deyarli har bir xonadonning hovlisidan oqib turgan.

Shaharda hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, gazlama to‘qish keng quloch yoygan. Gazlamalar ichki va tashqi bozorning muhim buyumi hisoblangan.

Yunusxo‘ja ichki va tashqi savdoning o‘shishiga e‘tibor berdi. Natijada, Toshkent Qo‘qon, Buxoro, Xo‘jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand va boshqa joylar bilan savdo-sotiq olib bordi. Shuningdek, u Hindiston, Xitoy, Qashqar, Tibet, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari olib borganligi ma‘lumdir. Yunusxo‘ja o‘z davlatini yanda kuchaytirish va mustahkamlash maqsadida faol tashqi siyosatni yurgizdi. U avvalo, Chimkentni, Turkistonni va uning atrofidagi yerlarni Toshkent viloyatiga qaytadan qo‘shib olishni maqsad qilib qo‘ydi. Chunki, bu joylar shaharning Qozog‘iston cho‘llari, Rossiya, Qashqar va boshqa joylar bilan aloqasida muhim ko‘priq hisoblangan. Bundan tashqari, ular siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Toshkent bilan chambarchas chatishib ketgan edi. Endilikda esa ularni qozoq xoni tomonidan bosib olinishi har ikki tomon manfaatlariga putur yetkazmoqda edi. Buni yaxshi anglagan Yunusxo‘ja 1794 yilda Chimkent va Sayramni, 1799 yilda esa Turkiston shahrini bosib oldi. 1800 yilda Yunusxo‘ja Chirchiq daryosining chap qirg‘oqlarini va Qurama mavzeini qo‘lga kiritdi. Shuningdek, Parkent, Nomdanak, Adanak, To‘ytepa, Kereuchi, Angren daryosi qirg‘og‘idagi Matin va Qahrans qal‘alari, Chordara, Niyozbek, Do‘rmoncha va Turbat singari joylar mustaqil Toshkent davlatining tarkibiga kirgan edi. 1800 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahrining o‘zida o‘rta hisobda 80 mingga yaqin kishi yashagan. Shunday qilib, Yunusxo‘ja Toshkentni oyoqqa turg‘azishga erishgan. Bu vaqtga kelib, toshkentliklarning savdo-hunarmandchilik faoliyati shu darajada jonlanib ketdiki, ular Qozog‘iston va G‘arbiy Sibir yerlaridagi savdo aloqalarida salmoqli o‘rinni egalladilar. Bu joylar Toshkent uchun tayyor mahsulotlarni, birinchi navbatda, turli gazlamalarni sotish uchun talabchan bozor hisoblangan.

Bundan tashqari, Toshkentda rus mollariga talab mavjud edi. 1792 yilgaoid ma‘lumotlarga ko‘ra, Toshkentdan Semipalatinskga 104910 gaz bo‘z, 21710 gaz dab (bo‘zga o‘xshagan) gazlama, 1238 gaz xom surp, parda, doka, yarim doka, yaltiroq ip gazlama, kanop, surp, belbog‘, to‘n, mayiz va turshak, bug‘doy va oz miqdorda paxta keltirilgan. Toshkentlik savdogarlar Qashqardan, Chugchakdan va G‘uljadan olingan gazlama, choy,

ravoch va kumush kabi mollar bilan ham Sibirda savdo qilganlar. Xullas, ular Semipalatinsk, Petropazlovsk, Ust Kamenogork va Sibirning boshqa yerlarida savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar. U vaqtlarda Sibir va Rossiyaning boshqa chekka o'lkalarida rus savdogarlari o'z faoliyatini hali yetarli darajada o'stira olmagan edi. Ular yo'llarda karvonlarning qaroqchilar tomonidan talanishini hisobga olib, O'rta Osiyo va Qashqarga kamdan-kam borardilar. Shuning uchun rus hukumati ko'rsatilgan joylar bilan savdoni olib borishda asosan toshkentlik savdogarlardan vositachi sifatida foydalandi. U bunga erishmoq uchun o'zbeklarga imtiyozlar berdi va ularning Sibirda doimiy yashashlari uchun sharoit yaratdi. Natijada, Sibir hududida toshkentliklarning mahallalari yuzaga keldi. Bu holat har ikki tomonning bir-birlari bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Yunusxo'ja Rossiyada tog' sanoati yaxshi rivojlanganligini bilib, rus hukumatining yordamida Toshkentda tabiiy boyliklardan foydalanishga qattiq kirishdi. Bundan maqsad, qo'shinni zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlash bilan bir qatorda hokimiyatni moddiy jihatdan mustahkamlash bo'lgan, albatta.

Yunusxo'ja 1794 yilda savdo karvoni orqali Sibirdagi mahalliy hokimiyatga maxsus xat yuborib, o'zaro savdo aloqalarni kuchaytirish va tog' konlari bo'yicha mutaxassislarni Toshkentga yuborilishini so'ragan. Jumladan, mazkur xatda Yunusxo'ja shunday degan: «Hozirda bizga qozoqlarning katta juzi va Toshkent viloyati bo'ysundirildi. Endilikda ular bir bosh va bir tan bo'lib, do'stlarimizning do'sti, dushmanlarimizning dushmani bo'lib qoldilar. Biz hozirgi qulay vaziyatdan foydalanib, karvonboshi Muhammadxo'ja va Azizxo'ja orqali muhrlangan xatimizni yubormoqdamiz. O'z navbatida sizlar ham o'z savdogarlaringizni Toshkentga yuboringlar». Shu mazmundagi xat bilan Toshkent vakillari Omskga kelib rus ma'muriyatiga Yunusxo'janing og'zaki so'rovini ham ma'lum qildilar. Bunda Toshkent atrofida oltin koni topilganligi va tog' koni bo'yicha mutaxassislar yuborilishi bayon etilgan. Rus hukumati Yunusxo'ja xatiga ijobiy javob yozishni Sibir hududining boshlig'i general Shtardmanga topshirdi. Shundan keyin Shtardman A.S.Beznosikov va T.S.Burnashevlardan iborat elchilarni Toshkentga yuborishga qaror qildi. Ulardan biri -

Burnashev tog' koni bo'yicha mutaxassis edi. Rus elchilari Omskdan Troitsk qal'asiga keldilar. Bu yerda ularga 80 tuyadan iborat bo'lgan tatar savdogarlarining karvoni qo'shildi. Ular 1795 yil 25 yanvarda Buxoroga yetib keldilar. Chunki ularga Buxoro orqali Toshkentga borish buyurilgan edi. Bu yerda rus elchilari bilan dastlabki suhbatni Buxoro xonining ko'rsatmasiga binoan to'nchiboshi va yasovullar olib borgan. Suhbatda rus elchilari o'zlarining Omskdan general Shtardman tomonidan Buxoro xoni Shomurodxonga, Toshkent hokimi Yunusxo'ja, Xo'jand hokimi Xudoyorbekga va Turkiston shahri atrofidagi qozoq sultoni Bo'kayga xat bilan yuborilganliklarini ma'lum qildi. Shundan so'ng xon saroyida rus elchilariga nisbatan munosabat og'irlashdi. Chunki xonlikning hukmron doiralari Sibir hududi boshlig'i nomidan Buxoro xoniga elchi va xat yuborilishini mensimaslik deb tushundi. Odatda, rus elchilari shaxsan rus imperatori nomidan maxsus yorliq bilan kelar edi.

Shuningdek, xon saroyida Toshkent, Xo'jand hokimlariga va Bo'kay Sultonga general Shtardman tomonidan xat yuborilishi qoralandi. Shuning uchun rus elchilariga quyidagi savollar berildi:

1. Toshkent hokimi Yunusxo'ja, Xo'jand hokimi va Bo'kay Sulton nomiga yozilgan xatlarning mazmuni nimadan iborat?

2. Nima uchun Bo'kay Sulton Buxoro hukmdorining qo'l ostida bo'lgan bir paytda, u xatda Rossiya imperatorining sodiq ta'basi deb ko'rsatilgan?

Rus elchilari Bo'kay Sulton Rossiya tobeligida ekanligini bildirib, xatlarda Buxoro xonligi manfaatlariga zid keladigan fikrlar yo'qligini bayon qildilar. Shuningdek, ular xatlar Buxoro xonligiga emas, balki Toshkent va Ho'jand hokimlariga tegishli bo'lganligini aytishib, ularni bermadilar. Biroq, Buxoro mansabdorlari Yunusxo'ja nomiga bitilgan xatdan boshqalarini olishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo, rus elchilari so'roviga qaramay, ularni shaxsan xon qabul qilmadi. Ularni Qushbegi qabul qilib suhbatda general Shtardmannning Buxoro xoniga xat yozishi katta xato ekanligini, ammo uning bu ishi kechirilganligi ma'lum qilindi. Shuningdek, rus elchilarini Toshkentga qo'yimaslik bildirildi. Bunga yo'lda rus elchilarining hayoti xavf ostida qolishi bahona qilib ko'rsatildi.

Toshkent hukmdori Yunusxo‘ja Buxoroga rus elchilari kelganligini va Toshkentga qo‘yilmayotganligini savdogarlar orqali xabar topgan. U maxsus kishi orqali xat yuborib, rus elchilarini Buxorodan Toshkentga yuborishni uyushtirishni ayrim nufuzli kishilardan so‘ragan. Ammo, rus elchilariga ruxsat berilmaganidan keyin, ular Orenburgga qaytishga majbur bo‘lganlar. Shundan keyin Sibir general-gubernatori Shtardman 1796 yilda ikkinchi marotaba Toshkentga rus elchilarini yuborishga kirishdi. Bu gal rus elchilari qilib D.Telyatnikov va oldingi elchilardan biri Beznosikov tayinlandi. Bu elchilarga Yunusxo‘ja nomiga yozilgan xat va sovg‘alar berildi. Ular zimmasiga Toshkentning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma‘lumotlar to‘plash va tog‘ jinslarini tekshirish vazifasi yuklatildi. Ularga Yamishev ko‘li orqali O‘rta juz qozoq yerlari bo‘ylab Toshkentga borish buyurildi. Mazkur yo‘l orqali rus elchilarn 1796 yil 27 avgustda Toshkentga keldilar. Bu yerda ular hurmat bilan qarshi olindi. Afsuski, Telyatnikov va Beznosikovlarning Toshkentdagi faoliyati haqida ma‘lumotlar juda oz. Shu narsa ma‘lumki, ular Toshkent atrofidagi tog‘larda oltin va kumush topilmaganligi va o‘sha joylarda temir jinslarigina borligi, lekin bu tog‘ jinslari ham texnikaning yo‘qligi tufayli ishga solinmayotganligi haqida gapirgan. Rus elchilari 1797 yilning I iyunida Yunusxo‘janning Mullajon Oxun va mingboshi Ashirmat Botir singari elchilari bilan birga o‘z vataniga yo‘l oldilar. Toshkent elchilari Omskda o‘zlarining Peterburgga boradiganligi va shaxsan rus imperatori bilan uchrashishini ma‘lum qildi. General Shtardman rus hukumatidan bunga ruxsat olgandan keyin Telyatnikov va Beznosikovlar Toshkent elchilari bilan Omskdan yo‘lga chiqib, Yekaterinburg, Perm, Qozon va Moskva orqali Psterburgga keldilar. Yo‘lda mehmonlarga izzat-ikrom ko‘rsatildi. Toshkent elchilari Peterburgda Yunusxo‘janing imperator nomiga yozgan maktubini taqdim etdilar.

Maktubda Yunusxo‘ja rus elchilari Toshkentda o‘z vazifasini bajarganliklari va o‘zining javob elchilarini yuborganligini ma‘lum qilib unda tog‘ konlari bo‘yicha bilimdon mutaxassislarni yuborishni so‘ragan: «Mening qo‘l ostimdagi yerlardan topilgan beshta konni tekshirish uchun metallurgiyani biladigan ikkita mutaxassis yuborishingizni Siz ulug‘ podshohdan so‘rayman».

Aftidan, Yunusxo‘ja rus elchilari yaxshi mutaxassis emasliklarini bilgan. Chunki, u maktubida rus imperatoridan «metallurgiyani yaxshi biluvchi kishilarni yuborishni» so‘ragan. Haqiqatdan ham Telyatikov metallurgiya bo‘yicha katta mutaxassis emas edi. Buni general Shtardmanning rus hukumatiga yozgan raportida Telyatnikovni «metallurgiyani qisman biluvchi kishi» deyishi ham isbotlaydi.

Toshkent elchilari Yunusxo‘ja topshirig‘iga muvofiq, rus hukumati vakillari bilan savdoga oid masalalar bo‘yicha ham suhbat o‘tkazdilar. Bunda Toshkent bilan Rossiya o‘rtasida savdo aloqalarini rivojlantirish hamda do‘stona munosabatlarni o‘rnatish haqida fikr yuritildi. Shuningdek, siyosiy masala ham ko‘rib chiqildi. Chunonchi, Toshkentga qarshi basharti, Xitoy davlati hujum qilgudek bo‘lsa, rus hukumatidan yordam berilishi so‘ralgan. Ma‘lumki, XVIII asrning o‘rtalarida Xitoyda hukmronlik qilayotgan Sin sulolasi Sharqiy Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatib, O‘rta Osiyoga xavf tug‘dirayotgan edi. Bu vaqtlarda Sin sulolasining tajovuzi va quvg‘ini orqasida ko‘p qashqarliklar Farg‘ona vodiysi va Toshkentda muhojirlar sifatida yashab, o‘z vatanlarini ozod qilish uchun harakat qilganlar. Ular yordam so‘rab hokimiyat rahbarlariga va xalqqa murojaat qildilar. Binobarin, Xitoyning O‘rta Osiyoga bostirib kirish xavfi ko‘ndalang turgan. Aftidan, Yunusxo‘ja bu holatni hisobga olgan holda Xitoyga qarshi rus hukumatidan yordam so‘ragan.

Muzokaralarning yakuni nima bilan tamomlanganligi kansler A.A.Bezborodkonin general Shtardmanga yozgan xatida bayon etilgan. Bu xatda shaxsan rus imperatorining ko‘rsatmasiga muvofiq, Toshkent hokimi Yunusxo‘ja bilan aloqa o‘rnatish vazifasi general Shtardman zimmasiga yuklatildi. Xatda Peterburgdan o‘z vataniga qaytib ketayotgan Toshkent elchilariga Omskga borganda dam berilishi va so‘ngra ularni hurmat bilan kuzatib qo‘yilishi Shtardmanga topshirildi. Shuningdek, bu amaldor Sibirdan Toshkentga tog‘ konlari bo‘yicha mutaxassislarni yuborishi va bu bilan Yunusxo‘janing iltimosini qondirishi kerak edi. Shuning bilan birga xatda rus elchilarining Toshkent haqida ma‘lumotlarni to‘plash lozimligi qayd qilingan: «Elchilar o‘z safarlari vaqtida u yerlarning sharoiti, otda va piyoda ravishda qatnovchilarni oziq-ovqat bilan ta‘minlash hamda manzilgoh qurishga imkon berish-bermasligini,



bir vaqtning o'zida u yerga qancha odam yuborish mumkinligini bilsinlar. Shuningdek, Toshkentda bo'lgan vaqtlarida u yerdagi konlarni tekshirsinlar, konlarning foydali qazilmalarga boy yoki kambag'alligini aniqlasinlar, ular imkoni boricha u yerning shart-sharoitini, joylanishini, u yerga borilgan taqdirda, qancha odam joylashtirish mumkinligini va odamlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash imkoniyatini sinchiklab tekshirsinlar».

Ko'rinib turibdiki, rus hukumati Yunusxo'janing Xitoy tajovuzi xavfi sodir bo'lganda unga qarshi so'ragan yordami amalga oshirilgan taqdirda, u yerda rus qo'shinlarining ta'minoti va joylashtirish masalasini oldindan hal qilib qo'yimoqchi bo'lgan, lekin bu maqsad Yunusxyjaga ochiq izhor qilinmaganligi sezilib turadi. Xatda Xitoyning hech vaqt Toshkentga hujum qilmasligi va agarda hujum qilib qolsa, rus hukumatining o'rtaga tushishi, tegishli choralar ko'rish haqida Yunusxo'jani xabardor qilib qo'yish general Shtardmanga topshirilgan. «Janobi oliylari, - deyilgandi xatda. - Siz o'z tomoningizdan uni (Yunusxo'jani) xotirjam qiling. Xitoyning hech qachon hujum qilmasligiga ishontiring, basharti hujum bo'lib qolgan taqdirda (buni amalda hech kutish mumkin emas), bizning shohimiz imperator hazrati oliylarining Butunrossiya imperiyasi va Xitoy davlati o'rtasida mavjud do'stlik va birdamlikdan foydalanib o'rtaga tushishini va o'z tomonidan chora ko'rishini bildiring».

Demak, rus hukumati Yunusxo'janing harbiy yordam to'g'risidagi iltimosiga juda ehtiyotkorlik bilan javob bergan. U Xitoy bilan aloqani buzib qo'ymaslik uchun shunday qilgan.

Kansler Bezborodko rus imperatorining Toshkent savdogarlariga Sibir bernalol va erkin savdo qilishi uchun ijozat berganligi haqida gapirib, rus savdogarlariga ham Toshkentda shunday imkoniyatlarning berilishini so'ragan. Toshkent elchilariga rus imperatorining va kansler Bezborodkoning Yunusxo'ja nomiga yozgan xatlari va turli sovg'alar topshirildi. Chunonchi, Yunusxo'janing rus imperatoriga yuborgan 45 to'p ipakgazlamasi va o'n juft qimmatbaho mo'ynasi evazigahar biri yigirma gaz keladigan 2 to'p, 12 gaz ko'k movut va oltin zanjirli oltin soat hokimga, Mullajon Oxun va Ashiomat Botirga 12 gazdan parcha va 6 gazdan ko'k movut berilgan. Elchi Mullajon Oxun rus imperatoriga

shaxsan qalam va 3 ta qoplon terisi sovg'a qilganligi uchun podshoh tomonidan oltin soat va oltin uzuk sovg'a qilingan. Yana har ikki elchiga 1000 so'mdan pul mukofoti, ularning xizmatkorlariga sovg'a va pul mukofotlari berilgan.

Telyatnikov va Beznosikovlarning ham xizmati inobatga olinib, ularning unvoni ko'tarilgan va pul mukofoti bilan taqdirlangan. Ular zimmasiga elchilarni Omskga kuzatib borish vazifasi yuklandi.

Elchilar 1798 yil 17 martda Peterburgdan yo'lga chiqib, 22 iyunda Omskga keldi. Bu yerdan ular o'z vataniga qaytdilar. Rus imperatorining ko'rsatmasiga binoan, general Shtardman 1800 yilda ikkita tog' muhandislari - M.Pospelov va T.Burnashevlarni elchi sifatida Toshkentga yubordi. Ular tog' jinslarini o'rganish bilan barobar Toshkent haqida ma'lumotlar to'plashlari lozim edi.

Teshkentda rus elchilari hurmat bilan qarshi olinib, Yunusxo'ja tomonidan qabul qilindi. Suhbatda ularga tog' jinslarining namunalari ko'rsatildi». Ular bularni tekshirib quyidagilarni aniqladi: «Tog' jinslarining biri oltingugurt va boshqasi mineral moddalar aralashmasi bo'lib, uni bir pudidan ikki qadoq mis olinar ekan. Bu jins oltin rangida bo'lganligi uchun toshkentliklar uni juda qimmatbaho narsa deb o'ylaganlar. Ikkinchisi esa tiniq chaqmoq tosh bo'lgan, uchinchisi binafsha rangli eritma va oqtosh kukuni bo'lib chiqqan».

Shu ravishda rus elchilari ular orasida oltin yoki boshqa qimmatbaho jinslar yo'qligini ma'lum qilganlar. Shundan so'ng, rus elchilari o'sha jinslar olingan joylarni ko'rish lozimligini aytadilar. 1800 yilning sentabr oyida ular Chirchiq atrofidagi tog'larda tekshirish o'tkazadilar. Ammo bu yerlarda faqat ohaktoshli jinslar bo'lib, hech qanday kon va qimmatbaho narsalar yo'qligi aniqlandi. Rus elchilari so'ziga qaraganda, ular shaharga qaytib kelgach, Yunusxo'jaga o'zlari bilan olib kelgan ba'zi jinslarni ko'rsatgan, tushuntirgan hamda qazib chiqarishga arzimastligini aytgan. Lekin Yunusxo'ja shunga qaramay, bu rudalarni qazish va eritish istagini bildirgan. Bunga javoban rus elchilari tog' konlarini qayta ishlash uchun uskuna-asboblarni yo'qligini ma'lum qilgan. Shuningdek, tog' konlarida ishlar mutaxassislar nazoratida olib borilishini aytishgan. Ammo Yunusxo'ja tog' konlarini ishlashni

e'tiborsiz qoldirmasligini va buning uchun rus davlatidan yordam so'rashni gapirgan. Hatto, Yunusxo'ja tog' jinslari namunalari tekshirish uchun Rossiyaga olib ketishga ruxsat bergan.

Rus elchilari Toshkentda selitra ishlab chiqarish bilan ham qiziqqan. Ularning aniqlashicha, selitrani xususiy ravishda ishlash o'lim jazosi bilan taqiqlangan bo'lib, u faqat hokimning saroyida qattiq nazorat ostida ishlangan. Porox tayyorlash ham shu tartibda olib borilgan. Xullas, rus tog' muhandislari Omskga qaytganlaridan so'ng, o'zlarining hukumat vakillariga yozgan hisobotlarida, Toshkentda oltin va boshqa qimmatli jinslar yo'qligini, faqat mis borligini, kon sifatida ishga solish va bularni Toshkentdan Rossiyaga keltirish xarajatlarini mutlaqo oqlay olmasligini ko'rsatgan. Bu ish shu haqda guvohlik beradiki, rus hukumati Toshkentda kon ochilishiga yordam bergan taqdirda, buning evaziga ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum qismini Rossiyaga olib kelishni mo'ljallagan.

Burnashev va Pospelovlarning hisoboti va fikr-mulohazalari shaxsan imperatorga ma'lum qilindi. U bu masalani sinchiklab ko'rib chiqishni Berx-kollegiyaga (tog' konlari boshqarmasi) topshirdi. Berx-kollegiya uni har tomonlama o'rganib, quyidagi qarorga keldi: «Pospelov va Burnashevlarining hisobotida qayd etilgan ruda namunalari ba'zilar eritishga arzimaydigan bo'lishiga qaramay, ularning miqdori ma'lum emasligi, atrofidagi tog'larning xatarliligi, yog'ochning yetishmasligi, ularni qidirib topish nihoyatda qiyinligi, ruda eritish uchun zarur ko'mirni olib kelishning qimmatga tushishi, undan tashqari, kerakli temir va boshqa asbob-uskunalar bilan ta'minlash jihatidan u yerning juda uzoqligi, yo'llarning xavf-xatarli va og'irligi rudalarning judo boy bo'lishini talab qiladi. Ularni qazish va eritishdan maqsad shunga yarasha foyda olishdir».

Haqiqatdan ham, u vaqtlarda Toshkentda konlarni ishga solish uchun asbob-uskunalariga emas, balki mutaxassislarni topish ham amri mahol edi. Bularni Rossiyadan keltirish yo'lining og'irligi va uzoqligi orqasida juda qimmatga tushardi. Shu boisdan, Berx-kollegiya tog' jinslarni chetdan, jumladan, Toshkentdan emas, balki Rossiyaning o'zida ishlab chiqarish ham arzon, ham qulayligi haqida qaror qabul qildi.

Shunday qilib, Yunusxo‘janing Rossiya ko‘magida tog‘ konlarini ishga solish harakati amalga oshmadi.

Xo‘sh, nima uchun Yunusxo‘ja bu masalada Rossiyaga murojaat qildi? U vaqtlarda Yunusxo‘ja boshliq mustaqil Toshkent davlati Qo‘qon xonligi va Buxoro amirliklarining, ya‘ni ikki o‘t orasiga tushib qolgan edi. Bu xonliklar qanday bo‘lmasii, Toshkentni o‘ziga bo‘ysundirishga qattiq bel bog‘lagan edi. Buni yaxshi anglagan Yunusxo‘ja o‘z qo‘shinini yarog‘-aslaha bilan ta‘minlash va mustahkamlashni birinchi vazifa deb bildi. Bunga erishmoq uchun ma‘danlar zarur edi. Buni chet mamlakatlardan olishning iloji bo‘lmagan. Shuning uchun u Toshkentning o‘zida tog‘ konlarini ishga solishga kirishdi. Bu ishni o‘sha vaqtlarda faqat Rossiya yordamida amalga oshirish mumkin edi. Chunki, bunday yordamni Hindiston, Afg‘oniston, Xitoy va Erondan olib bo‘lmas edi. Yunusxo‘ja o‘z savdogarlari orqali Sibirda va Rossiyaning boshqa joylarida tog‘ konining ancha rivojlanganligidan xabari bo‘lgan. Biroq, rus hukumati Yunusxo‘janing takliflarini amalga oshirishda birinchi navbatda o‘zining manfaatlarini ko‘zlab ish yuritdi. U vaziyatdan foydalanib, o‘z elchilari orqali Toshkent va atrof-joylar haqida g‘oyatda qimmatli ma‘lumotlarni qo‘lga kiritdi.

Yunusxo‘janing tashqi siyosatida Qo‘qon xonligi muhim o‘rin egalladi. Ma‘lumki, XVIII asrning oxirlari - XIX asr boshlarida bu xonlik ancha kuchayib, o‘z yerlarini kengaytirib bormoqda edi. Uning hukmdori Norbo‘tabiy 1794 yilda Toshkentni bosib olish uchun harbiy yurish qilib, Chirchiq daryosi bo‘yigacha keldi. Biroq, u Yunusxo‘ja qo‘shini bilan jangda yengilib chekindi. Shundan keyin Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Qurama nomidagi joylar Toshkent viloyatiga qo‘shib olindi. Qo‘qon qo‘shinlari. 1799 yilda Toshkentga yana bostirib kelib Chirchiq daryosidan o‘tdi va Qorasuv arig‘i atrofiga joylashdi. Bu yerda qattiq jangdan so‘ng Yunusxo‘ja g‘olib chiqdi, Qo‘qon lashkarboshisi Xonxo‘ja, 70 ta nufuzli-harbiy kishilar va askarlar asirlikka olindi. Bu asirlar shaharning Chorsu dahasida dorga osildi.

Yunusxo‘janing Qo‘qon qo‘shini ustidan ikki marotaba ustun kelishi uni ruhlantirib, yubordi. Endi u Qo‘qonga harbiy yurish qilishga ahd qilib tayyorgarlikni kuchaytirdi. Bu vaqtda Qo‘qon

xoni Olimxon O'ratepa, Jizzax va Xo'jandni Buxoro xonligidan tortib olgan edi. Shu boisdan Toshkentning ulamolari, nufuzli kishilari Yunusxo'jaga Qo'qonga hujum qilmaslik haqida ko'p maslahat qildilar. Lekin va'zu nasihatlar uning yuragidagi hoxish o'tini yanada alangalantirib yubordi.

Yunusxo'ja 1800 yilda 7-8 minglik qo'shin bilan yo'lga chiqib, Qo'qon shahri yaqinidagi Po'ngon degan joyga keldi. Bundan xabar topgan Olimxon «o'zidan martabasi past kishi bilan teng kelish va muqobil bo'lishni or deb bilib» Yunusxo'jaga qarshi «Haram saroy» mavzeining hokimi So'fialixo'ja Mirasad boshchiligida qo'shin jo'natdi. Qattiq janglardan keyin qo'qonliklarning qo'li baland kelib, Yunusxo'ja askarlari sarosimaga tushadi. Bu vaqtda orqa tomondan Xo'jand hokimi Rajab qushbegi qo'mondonligida askarlar ko'rinadi. Bular Olimxon ko'rsatmasiga binoan, urushga otlangan edilar. Pirovardida, Yunusxo'ja askarlari mag'lubiyatga uchrab qochadilar. Qo'qonliklar ularni quvlab, Toshkentga qarashli, «Qirovchi» qal'asinn egallaydilar. Shundan keyin Qurama mavzei Qo'qon xonligi qo'l ostiga olindi.

1801 yilda Yunusxo'ja sil kasalligiga uchrab vafot etdi. Bu mustaqil Toshkent davlatining zaiflashishiga olib keldi. Yunusxo'ja o'zining 15 yillik hukmronligi vaqtida Toshkentni yirik davlatga aylantirish va Farg'ona vodiysini egallashga harakat qildi. Biroq, bunga erishishlikka Toshkentda yetarli kuch va mablag' yo'q edi. Bu kamdek, unda nasha chekish odati bor ekan. Shuning uchun ham u mahalliy manbalarda «bangi» sifatida qoralanadi: «Yunusxo'janing chekishi, - deyiladi manbada, - shu darajada oshib borgan ediki nashani chekib, uning tutuni va hidi ketmasdan turib takror chekaverardi. U kecha-kunduzi shu ahvolda yashab, mast holda o'zini goh jang maydonida, goh bazmda his qilib, dunyoda yolg'iz o'zim bor, deb hisoblardi». Bizning fikrimizcha, bu satrlarda mubolag'a mavjud. Chunki bunday nashaga berilgan kishining hukmdorlik qilishi aqlga barobar kelmaydi. To'g'ri, nasha chekkan bo'lishi mumkin, lekin bayon etilgan darajaga bormagan. Bordi-yu, shunday bo'lgan bo'lsa, u vaqtda buni yuqorida qayd qilingan rus elchilari sezishlari turgan gap edi. Ular, aksincha, Yunusxo'jani «ishbilarmon», «jasur» va «taraqqiyparvar» shaxs sifatida ta'riflaydilar.

Darhaqiqat, Yunusxo‘ja o‘z davrining mohir hukmdori hisoblangan. Aks holda, mustaqil davlat tuzib xarobaga aylanayotgan Toshkentning qaddini ko‘tarishga qodir bo‘lmas edi. U tabiiy boyliklardan davlat va xalq manfaati uchun foydalanishning o‘ta foydaligini anglagan birdan-bir hukmdordir.

Shunisi diqqatga sazovorki, Yunusxo‘ja Toshkent tarixida birinchi bo‘lib to‘pdan foydalanishni joriy etdi. Uning yigirmata to‘p qurdirtirganligi ma‘lumdir. Afsuski, Yunusxo‘ja shaxsiga va faoliyatiga tegishli masalalar hali atroflicha va batafsil o‘rganilganicha yo‘q. Rus elchisi Beznosikovning ko‘rsatishicha, Yunusxo‘ja Toshkentdagi to‘rt dahaning biri - Shayxontohurning boshlig‘i Ulug‘xo‘janing o‘g‘li bo‘lgan. Ulug‘xo‘ja o‘zaro kurashlar avjiga minib, xavf-xatar tug‘ilganligi tufayli to‘rtinchi o‘g‘li Yunusxo‘jani bir ishonchli kishi bilan Toshkentdan chiqarib yuborgan. Aftidan, u qozoqlar yashaydigan yerda istiqomat qilgan. Yunusxo‘ja otasining o‘limidan so‘ng 40 kishidan iborat sodiq toshkentliklar va qozoqlar bilan birgalikda shaharga yashirincha kirgan. U dastavval otasiga tegishli Shayxontohurni egallashga va nufuzli kishilarni o‘z tarafiga tortishga erishgan. Shundan keyin Yunus‘ho‘ja uzoq o‘zaro kurashlarda toliqqan raqiblarni, shu jumladan, Turobxo‘jani yengishga va to‘rt dahani birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Yunusxo‘ja o‘limidan so‘ng uning o‘g‘li Muhammadxo‘ja hokimlik qildi. Uning vaqtida Toshkentda «qahatchilik» va qimmatchilik yuzaga kelib, shaharning ahvoli nihoyatda og‘irlashdi. U uch yillik hukmronlikdan so‘ng vafot etib, o‘rniga ukasi Sultonxo‘ja o‘tirdi.

Qo‘qon xoni Toshkentdagi og‘ir vaziyatdan foydalanib, ketma-ket to‘rt marta hujum qildi. Pirovardida, 1808 yilda Toshkent shahri qattiq janglardan so‘ng bosib olindi. Shundan keyin, Toshkent Qo‘qon xonligining tarkibida tobora rivojlanib, yirik shaharga aylandi. Bu vaqtlarda Oqmachit, Avliyoota (Jambul), Turkiston, Chimkent va atrof-joylarni boshqarish Toshkent hokimiga topshirilgan edi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib shahar aholisining soni 80-100 ming kishiga yetgan.



# ROSSIYADA XIVA XONLIGI TO'G'RISIDA TO'PLANGAN MA'LUMOTLAR<sup>38</sup>

---

## Chegarasi

Xiva xonligi deb ataladigan o'lka, aslida, Amin yoki Amudaryo quyi oqimining har ikki tomonidagi aholi yashaydigan joylardir. Xonlikning janub tomoni mazkur daryoning har ikki qirg'og'i bo'ylab cho'zilib ketgan tog'larga tutashib boradi. G'arbda cho'l, qumliklar hamda Ustyurt yaylovi bilan, shimolda Orol dengizi, sharqda esa Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi qumlik va cho'llar bilan chegaralangan. Xonlik tasarrufidagi bu yerlar shimoldan janubgacha 300 chaqirimdan ziyodroq, g'arbdan sharqqacha 100 chaqirim bo'lgan masofani tashkil qiladi.

Biroq Xiva xoni o'z davlati chegarasini Sirdaryo bo'ylab, to Qo'qon xonligining yerlarigacha, undan nari Amudaryo qirg'oqlarida

---

<sup>38</sup> Bu ma'lumotlar Xivada uzoq vaqt yashagan rus asirlari, o'rta osiyoliklar va boshqa ayrim kishilarning axborotlari asosida rus hukumati vakillari tomonidan XIX asrning 30-yillarida tuzilgan. Bular Xiva xonligini siyosiy iqtisodiy va madaniy turmashini o'rganishda nodir va qimmatli hujjatlar bo'lib, shu paytgacha e'lon qilinmagan va ilmiy ishlarda foydalanmagan. Ushbu ma'lumotlar Xiva xonligining rus davlati bilan aloqasi va buning siyosiy, iqtisodiy zaminlari to'g'risida yaxshi tasavvur beradi. SGIA Rossii v Sankt-Peterburge. f.18, OP.4.D.568, L.3-61.

joylashgan Kabakli degan joygacha cho'zilgan deb hisoblaydi. Xivadan Buxoroga olib boradigan yo'lining o'rtasida xonlikniig bekati bo'lib, unda 40 kishi xizmat qiladi. Marv shahrida 500 navkarli Xiva garnizoni bo'lgan. Maridan Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i bo'ylab Emba daryosigacha bo'lgan talay joylar xonlik ta'sirida bo'lgan. Bu yerlarda yashovchi ko'chmanchi elat va qabilalarning ba'zilari Xiva xoni hukmronligi ostida bo'lsa, ba'zilari uning ta'sirida edi.

## **Topografik ma'lumot**

Xiva xonligi Amudaryo havzasidagi vodiya joylashgan bo'lib, umuman, pasttekisliklardan iborat. Ba'zi joylari daryo sathidan 1-3 sarjin baland, o'lkaning ba'zi yerlarini, daryo qirg'oqlaridagi uncha baland bo'lmagan ayrim qumloq tepaliklarni hisobga olmaganda yer usti tuzilishi qariyb bir xilda tekis.

Vodiyning o'ziga xos sharoiti Amudaryoning xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xonlik aholisining turmushi xuddi misrliklarnikidek faqat daryo xosiyatiga asoslangan. Shuning uchun ham Amudaryo alohida ahamiyatga egadir.

### **a) Amudaryoning ta'rifi**

Amudaryo Xiva xonligi bo'ylab, avval shimoli g'arb tomonga, so'ngra Huziy... shahri yonidan shimolga burilib, Qo'ng'iro't shahri biqinidan shimoli sharqqa qarab oqadi. Daryo suvi soatiga 6 chaqirim tezlik bilan oqib, toshqin paytlarida bu tezlik yanada oshadi. Daryo oqimi bo'ylab yelkansiz va eshkaksiz suzib ketayotgan qayiq bilan barobar ketish uchun qirg'oq bo'ylab otda yo'yish borish lozim bo'ladi.

Daryoning eni 200 dan 500 sarjingga boradi; to'lib oqqan vaqtda esa 2-5 chaqirimga yetadi. Daryo toshqinlari har yili 3-4 marta bo'lib turadi. Toshqin aksari aprelning o'rtalari yoki oxirlarida, mayning boshlarida yuz berib, bunday kezlarda suv qirg'oqdan 0,5-1 sarjin, hatto, undan ham baland ko'tariladi. Suv bir yoki ikki hafta shu qabilida turib, so'ngra asliga qaytadi. Yoz mobaynida ham daryo sathi shu xilda ikki, uch va undan ham ko'p marta ko'tarilib-pasayib turadi. Ba'zan qishda ham ko'tariladi. Lekin



bularning hammasi birinchi toshqinchalik bo'lmaydi. Daryoning tez oqishiga qaramay, unda suzish juda qulay. Tuyabo'yin degan tabiiy to'siq, Yumur va Ilanqir tog'lari ro'parasida baland qirg'oqlarning yemirilishidan hosil bo'lgan ostonalar bo'lib, ular daryoda suzishga aslo monelik qilmaydi. Daryoda kechuvlar yo'q; daryo tubi qum, loy va balchiqdan iborat bo'lib, suvi loyqaroq.

Bu dunyo tubidagi cho'kindi, loy to'q kulrang bo'lib, juda yopishqoq. Unda Nil daryosidagi cho'kindi kabi yerni hosildor qilish xususiyati yo'q. Shuniig uchun xivaliklar kanallarni tozalash vaqtida bunday cho'kindilarni olib tashlashadi yoki o'z uylarini suv toshqinidan saqlash uchun uni hovlilariga tashib keltirishadi. Daryo suvi bunday cho'kindi loyni xo'plab oqizib kelishi natijasida kanalning ichini bir gaz va undan ham ziyod qalinlikda loy bosib yotadi.

### **b) Kanallar va daryo shoxobchalarining ta'rifi**

Amudaryo vodiysida juda ko'p kanal va tabiiy shoxobchalar bor. Daryoning chap sohilida: Polvon, G'azavot, Shovot, Yormish, Qilichboy, Gurlan, Yangi kabi kanallar, Arna, Qorao'zak, Louzan, Sharqrauk, Suvali va boshqa shoxobchalar mavjud. Ung sohilda esa: Inak, Mayxar va Yeltezarxon kanallari bor. Kanallarning kengligiga oid ma'lumotlarni 1-jadvalda keltiramiz.

Kanallarning chuqurligi joyning holatiga bog'liq, umuman, Amudaryoning o'n sohilidagi kanallar yerning daryo satqidan ancha baland bo'lganligi sababli chuqurligi - 3 sarjinggaacha boradi. Bu kanallar suv toshqini hisobga olingan holda, daryo sathidan 2 gaz past qilib qazilgan.

Rus asirlarning aytishiga ko'ra, jadvalda sanab o'tilgan kanal va shoxobchalardan tashqari Amudaryoning chap sohilidagi yerlarning ikki joyida shu daryoning eski o'zani ko'rinib turadi: 1) G'azavot va Shovot kanallari oralig'ida, 2) Yermish, Qilichboy kanallarining o'rtasida. Yerli aholi birinchi eski o'zanni Doudan, ikkinchisini esa Ko'hna Daryolik yoki to'g'ridan-to'g'ri «eski daryo o'zani» deb yuritadilar. Ularning har ikkisi ham g'arb tomonga Kaspiy dengiziga borib, botqoq va qumloq chuqurliklar bilan tutashib ketgan. Bu eski o'zanlar ancha chuqur bo'lganligi sababli

yerli aholi suv ko'payib ketgan vaqtlarda kanallardan toshgan suvni ana shu o'zanlarga oqizadi. Bundan tashqari, Parsi degan qishloqning qarshi tomonida, Louzan shoxobchasining boshlanish joyiga yaqin, ya'ni xon to'g'oni qurilgan joyda juda keng soysumon pastlik bo'lib, ba'zan unga suv urib ketadi, bu pastlik o'rmonga tutashgan joyda bir qancha tarmoqlarga bo'linib ketadi. Tarmoqlar Ko'hna Urganch shahri yaqinida qayta birlashib Sharkara-uka nomini oladi. So'ng Ko'hna Daryolik o'zaniga (ikkinchi eski o'zan) kelib tutashadi. Ehtimol shuning uchun ham bu pastlik bir vaqtlar Amudaryo eski o'zanining bir tarmog'i bo'lgan. Hozirda yashab turgan kishilarning fikricha, bu tarmoqning suvi qurib qolganligi sababli Ko'hna Urganch shahri tushkunlikka uchragan.

**1-jadval**

Kanalning nomi	Yuqori oqimining kengligi (sanjin hisobida)	Quyi oqimining kengligi (sanjin hisobida)
Polvon	20-25	-
G'azavot	20-25	10
Shovot	25-30	6
Yermish	10-12	4
Qilichboy	20-25	15
Inak	8-10	2
Mayxar	4-5	2
Yeltezaoxon	6-8	2
Gurlan	15-20	Gurlan yaqinida 4
Yangi	12-15	Xitoy yaqinida 4

### v) Ko'llar

Bu yerda ko'llar, ayniqsa, Xiva xonligining g'arbiy chegaralarida va shimol tomonda - Ko'hna Urganchdan Orol dengizigacha cho'zilgan joylarda juda ko'p. Bu ko'llar turli shoxobchalar bilan bir-biriga tutashgan bo'lib, kanallar yoki yuqorida qayd etilgan daryo shoxobchalari orqali suvga to'ladi. Daryoda suv ko'payishi

bilan ko'llarning ham suvi ortadi. Ko'llarning sohilini qamish, qo'g'a va qiyog bosib ketgan.

### **g) O'rmonlar**

Xivada o'rmonlar yo'q hisob: Bu yerda qora terak, qayrag'och va boshqa nav daraxtlar o'sadi. Bu daraxtlar ko'proq Parsi qishlog'idan Ayberur... va Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda uchraydi, o'ng sohilda, Gurlan shahriga qarama-qarshi tomonlar esa Shiu-jeli tog'lari etagiga tutashgan; shaharning janubiy tomonida o'rmon juda kam. Xivaliklar o'zlarining xo'jalik ehtiyojlari uchun kanal yoqalariga va bog'larga daraxt ko'chatlari o'tqazishadi. Shunga qaramay, mintaqadan tashqarida, o'troq aholi yashaydigan, masalan, Pitnak shahrining janubiy tomonida o'rmonlar bor: daryoning ikkala sohili bo'ylab Uch-uchaka degan joygacha ikki chaqirimcha cho'zilgan yerda qora terak, qayrag'och va boshqa xil daraxtlar o'sadi; aholi yashaydigan joylardan 50 chaqirim nari sharq va g'arb tomonlarda esa saksovul o'sadi. Lekin xivaliklar bu o'rmon va daraxtzorlarni imorat uchun, o'tin va ko'mir o'rnida ishlatish uchun ko'plab qiyratishadi.

### **Yerning sifati va nishabligi**

Hamma joyda yerning yuzasi qizil va sariq tusda, 0,5 va 1 sarjin, hatto, undan ham ziyod qalinlikda oq va sariq qum bilan qoplangan yopishqoq loyli zamindan iborat. Qora tuproqli yer juda kam bo'lib, sho'rxok yerlar ko'pdir. Amudaryodan suv ichadigan joylar yaxshi ishlanib, juda ko'p daraxtlar ekilgan, aholi yashamaydigan va ekin ekilmaydigan yerlar kam.

Amudaryoning chap sohilidagi kanal va shoxobchalar tezoqardir, ayniqsa, ularning yuqori qismlarida suv tez oqadi. Suv ko'paygan chog'lari ularda suzadigan qayiqlarning tezligi soatiga 4-4,5 chaqirimga to'g'ri keladi. Bu kanallarning hammasi g'arbg'a va shimoli g'arbg'a qarab oqadi. Chunki daryoning chap sohili tabiatan Kaspiy dengizi tomon nishab bo'lib ketgan va kanallardagi suvning tez oqishiga qaraganda bu nishablik ancha izchil

bo'lishi kerak. Xo'jayli shahri bilan Kelasskap shoxobchasi, Ko'hna Urganch va Oyburgi oralig'idagi yerlarning g'arbga tomon nishabi uncha bilinmaydi, shuning uchun ham Urganch stansiyasidan Oyburgigacha bo'lgan saksovulzorlar bilan qoplannb yotgan joylar ancha baland. Bu yerlardan suv toshib o'tolmasligi sababli ko'l va shoxobchalar to'plangan. Amudaryoda suv kamayishi bilan ularning bir qismi daryoga oqib tushadi, qolgan qismi esa Orol dengiziga quyiladi. Kellaskap shoxobchasi Amudaryoning chap qirg'og'iga Ustyurt yaylovining yaqinligi sababli, daryoga nishabroqdir, u yerda bir qancha shoxobchalar mavjud bo'lib, ular yo bevosita daryoga yoki Orol dengiziga quyiladi.

Suv ko'paygan taqdirda Amudaryoning o'ng sohilidagi kanallarda suv sekin oqadi. Bu kanallar ancha chuqur, bu esa daryoning o'ng sohili chap sohilidan baland ekanligidai dalolat beradi. Bu hol shuni ko'rsatadiki, Amudaryo etagidan Kaspiy dengizi tomon yer tabiiy nishab bo'lishi kerak, binobarin, daryo bir vaqtlar o'sha tomonga oqqan bo'lishi mumkin, bu holat bizning savdo ishimiz uchun juda muhim bo'lgani sababli, men surishtirish chog'ida bunga alohida e'tibor berdim.

Sobiq Xiva asiri Kozma Shmelevning bergan ma'lumotiga qaraganda, 1834 yildagi Amudaryo toshqinida Sharqrauq o'zaniga shunchalik ko'p suv urib ketganki, natijada xonning buyrug'i bilan Amudaryo orqali Ko'hna Urganch shahriga kemalar keltirilib shaharni ko'chirishga harakat qilingan. Bu vaqtda Shmelev Gurlan shahrida bo'lgan va xivaliklarning toshqindan juda xavflanib, suv qayergacha bosganini bilmoq uchun choparlar yuborishganini hamda o'zaro "ruslar yerimiz (Novo-Aleksandrovsk)da o'rnashib olishadi; endi xudo ularga suv ham berdi, daryo ular tomon, Bolqon bo'g'oziga oqib bormoqda" deb tashvishlanib gapirishganini eshitgan. Boshqa asirlar ushbu ma'lumotni tasdiqlashmadi. Kozma Shmelevning o'zi esa Amudaryodan toshib ketgan suv qaysi tomonga qarab oqqanini batafsil aytib berolmadi. Uning gaplari ancha puxta va umuman, unga ishonsa bo'ladi, buning ustiga mazkur ma'lumotlar bizning savdo faoliyatimiz uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu voqea yaqinda bo'lib o'tganligi uchun uni

qirg'izlar, turkmanlar yoki xivaliklarning o'zlaridan batafsilroq va aniqroq surishtirib bilib olish lozim bo'ladi.

#### d) Orollar

Orol dengizida bir qancha orollar bor. Ularning ba'zilari sho'rxok; [rus] asirlarning aytishicha, Amudaryoning quyilish joyidan 20 chaqirim narida joylashgan To'qmoqota oroli ana shu orollarning eng kattasi hisoblanadi. Orolida o'tloq va daraxtzorlar bor, chorvachilik va dehqonchilik uchun qulay sharoit mavjud. Orolida To'qmoqota degan g'oyat mashxur avliyoning qabri bor bo'lib, (orolning nomi ham shundan bo'lsa kerak) xonning o'zi ham kuz mavsumida ziyoratga boradi. Chunki yilning ana shu faslida orolni qit'adan ajratib turadigan suv ancha sayozlanib qoladi. Shu tufayli sayozlikdan kechib bemaol orolga o'tish mumkin bo'ladi. Amudaryo oqizib kelgan qumloq cho'kindilar sababli bo'g'oz yildan-yilga sayozlanib bormoqda. Qishda bu orolga qoraqalpoqlar ko'chib kelishadi va chorvalarini ham olib o'tishadi.

### Iqlim

Xivaning havosi musaffo, bu yerda, ayniqsa, yoz vaqtida isitma va bezgak kasalligi ko'proq uchrab turadi, buni haddan tashqari ko'p qovun iste'mol qilinishining oqibatidan, deyishadi. Ulat yoki shunga o'xshash mahalliy yuqimli kasalliklar bo'lmaydi. Biroq 1829 yilda vabo paydo bo'lib, uzoq vaqt davom etdi<sup>39</sup>.

Xiva xalqi, umuman, sog'lom bo'ladi va ko'p yashaydi; ba'zilari 100 yil va undan ham ko'p umr ko'rishadi. Bu yerda qish odatda noyabr oyidan boshlanib, fevral va undan keyin ham davom etadi; qish ba'zan juda sovuq kelishi tufayli Amudaryo yuzasi chorak-chorakam bir gazgacha qalinlikda muzlaydi. Lekin ba'zan sira muzlamaydi

---

<sup>39</sup> Vaboni talanchilik qilib Eronga bosib kirgan Xiva xonining askarlari yuqtirishgan. Ancha askarlar yo'ldayoq vaboga duchor bo'lib o'lib ketgan. Vabo Xivaning o'ziga ham yetib kelib, bu yerga keng ko'lamda yoyilib ketdi. Xiva shahrida yoz mavsumida boshqa shaharlarga qaraganda, umuman, o'lim ko'proq. Buning sababi shahar ychiga o'lik ko'milishida bo'lsa kerak.

ham. Qor juda kam yog'adi, daraxtzor joylarni hisobga olmaganda, 3-4 kun ichida erib ketadi. Shuning uchun bu yerda chana rasm bo'lmagan. Yomg'ir va do'l ham kam yog'adi, momaqaldiroq ahyon-ahyonda bo'lib turadi. Shunday bo'lsa-da, ko'klam va kuz mavsumlarida bulutli kunlar ko'p, yozda esa kam bo'ladi, ba'zan behosiyat tuman va shamollar bo'lib turadi, ayniqsa, ko'klamda shimol va g'arb tomonlardan kuchli shamol keladi, bunday kezlarda quyuq shudring tushadi. Ahyon-ahyonda yer qimirlaydi. Xivaliklar keyingi vaqtlarda iqlimning qattiqlashib borayotganidan zorlanishmoqda.

## **Tabiat mahsullari**

a) O'simliklar olami. 1) Bug'doy. Xivaliklar bug'doyni faqat kuzda, sentabrning oxirlarida sepadilar; uni, asosan, o'zbeklar ko'proq sepishadi; Pitnak qishlog'idan to Shovot shahrigacha bo'lgan joylar bug'doykon yerlardir. Bir tanob yerga 3-5 puddan urug' sepiladi. Hosil yaxshi bo'lgan yili har tanobdan 60 pudgacha g'alla olinadi. Bug'doy iyunning oxirida o'rib olinib, uning o'rniga ba'zan qovun, tariq, jo'xori ekiladi. 2) Mayning o'rtalarida jo'xori sepiladi. Uni ko'proq o'zbeklar Shovotdan Qo'ng'irotgacha cho'zilgan yerlarga ekishadi. Jo'xori mavsumda 4-6 marta sug'oriladi, shunga ko'ra u suvga serob joylarga ekiladi. Jo'xori doni juda to'yimli bo'lib, odamlar uni ovqat va ot yemiga ishlatishadi; bo'yi bir sarjindan ziyod, yo'g'onligi bir dyumcha bo'lib, o'sadigan poyasini qoramol yaxshi yeydi; bir tanob yerga sepilgan 6-10 qadoq urug'dan 100 puddan ham ko'proq hosil va 250 dan 400 pudgacha poya olinadi. Jo'xorini ekishdan oldin va ekilgandan keyin 2 bor go'ng solib mola bostiriladi. 3) So'k sersuvlikni xohlaganligi uchun ko'proq pasttekisliklarga sepiladi. Bir tanob yerga sepilgan 3-4 pud urug'dan 40-50 pud va undan ham ko'proq hosil olinadi. 4) kunjut. Tanob boshiga 5 qadoqdan urug' sepishib, 10 pudlab hosil ko'tarishadi; kunjutdan moy olinadi, bir pud kunjut yarim pud moy beradi. Kunjarasini molga berishadi. Kunjut ko'p suv talab qilmaydigan ekindir; u ko'proq Agaris, Xo'jayli, Qo'ng'irot, Toshovuz, Ilyilla, Kachavot, Mingit, ayniqsa, Gurlan tomonlarida ekiladi. 5) paxtaning har tanobidan 15 dan 25 pudgacha

hosil olinadi. Shuncha hosil esa 4-5 pud tola va 7-10 pud chigit beradi. Chigitdan moy va kunjara olishadi, keyin bu moyni oqlab olib, iste'mol qilish mumkin. Chigit, odatda, aprelning oxiri yoki mayning boshlarida ekiladi. Chigit ekiladigan yer, agar oriqlab ketgan bo'lsa, ekish chog'ida, 3 marta g'o'za to'rtquloq bo'lganda va nihollarning bo'yi yarim gaz bo'lganda yaxshilab go'nglanadi; semiz yerga faqat ekish boshlanishida bir marta go'ng solinadi. Avgustning oxirlaridan yoki sentabrning boshlaridan boshlab paxta pishib yetiladi va u shundaygina qo'l bilan terib olinadi, g'o'zapoyalari yo joyida qolib ketadi yoki yig'ib olib, o'tin o'rnida yoqiladi. Paxta ko'proq Gurlan, Yangi Urganch, Xiva, Xonqa va Glavot atroflariga ekiladi. Bundan tashqari 6) mosh (no'xatga o'xshagan), 7) tariq, 8) arpa kabi don ekinlarn ham ekiladi. 9) zig'ir. Uning donidan moy olinib, poyasi hech nimaga yaramaydi. 10) kanopdan ham moy olinadi, poyasidan esa arqon ishlanadi. 11) ko'knoridan faqat afyun tayyorlanadi. Shunga ko'ra kam ekiladi. 12) beda juda ko'p joylarga ekilib, undan mollar uchun pichan tayyorlanadi. Yuunchku jnut (?) (boshqa don o'simliklariga o'xshash) cholg'i bilan emas, balki oddiy o'roq bilan o'rib olinadi. Bir marta sepilgan urug'dan unib chiqqan o'tni mavsumda 3-5 martacha o'rib, 5 yilgacha pichan olinaveradi. U juda qalin, tizza bo'yi bo'lib o'sadi. Tanob boshiga sepilgan 6-10 qadoq urug'dan bir mavsumda 500 pudgacha pichan o'rib olinadi. 13) chigin (mayda tariqning bir turi). Uning doni mollarga yem bo'ladi. 14) Ro'yan o'simligining ildizidan olinadigan qizil bo'yoq jun vai p bo'yashda ishlatiladi. Uni yilning xohlagan vaqtida, asosan, iyun oyida sepish mumkin; urug' ustidan albatta go'ng sepiladi, so'ngra keyingi yillari ham yer go'nglab turiladi. Ekin uchinchi yilga boribgina yetiladi. Shundan so'ng ildizlari kavlab olinib quritiladi, so'ng to'yilib, g'alvirdan o'tkazilgach suv qo'shib qozonda qaynatiladi. Tegishli miqdordarang tashlab aralashtirilgan anashu qozongaip yoki jun bostiriladi, natijada bo'yoqdan chiqqan narsaning rangi aynimaydi. 15) Polizchilikdan: qovun, tarvuz, bodring, qovoq, garmdori, piyoz, sarimsoq, sholg'om, sabzi, lavlagi, tamaki, kartoshka va karam ham ekila boshladi. 16) Xivada o'tloq yerlar yo'q hisob. Shuning uchun xivaliklar mollarga ko'k qamish va qizilmiya

degan o't berishadi. Bu o't ariq va zovurlarda, hamma pasttekisliklarda, shudgor o'rtalarida, uvatlarda juda ko'p uchraydi. Kuz kezlari g'allasi o'rib olingan dalalarga ham mol qo'yib yuboriladi. Mevali va mevasiz daraxtlardan: tut, olma, olisha, olxo'ri, xurmo, shaftoli, o'rik, tok, terak, qoraterak, qayrag'och, sariq tol, qaraman, (qayrag'ochga yaqin turgan qattiq yog'och bo'lganidan arava g'ildiragi uchun ishlatiladi), narvon (bo'yi 20 sarjingacha o'sadigan dubga o'xshash bir nav) kabi har xil daraxtlar o'stiriladi. Bulardan tashqari, o'rmonlarda yovvoyi xurmo, shuningdek, saksovul va turli xil butalar o'sadi.

b) Hayvonlar olami. Qamishzorlarda ko'plab to'ng'izlar, shuningdek, oqquyruq (buqa)lar<sup>40</sup>, qoplon, chiyabo'ri, quyon, tulki, bo'ri va boshqalar uchraydi. Uy hayvonlaridan; bir o'rkachli va ikki o'rkachli tuyalar, yilqi, eshak, yirik qoramol, qo'y va echkilar boqiladi. Parrandalar olamida: yovvoyi g'oz, oqqush, turna, o'rdak, qur<sup>41</sup>, qirg'ovul, bedana, loyxo'rak, kaklik, zag'izg'on, qarg'a, chumchuq, bulbul (juda ko'p) va to'rg'ay kabi qushlar bor. Xivaliklar tovuq va kaptar kabi uy parrandalarinigina boqishadi. Pashsha va chivinlar juda ko'p bo'ladi, so'na va chigirtkalar ham uchraydi.

Baliqlarning turi ham juda ko'p; bu yerdagi suvlarda laqqa baliq, osiyor, cho'rta nbaliq, sazan, sudak<sup>42</sup>, lesh va boshqa xil baliqlar bo'ladi. Asosan o'zbeklar va qoraqalpoqlar baliq ovlash bilan shug'ullanishadi; ular daryolarda, ko'llarda va suv toshgan joylarda ov qilishadi, baliq ovi to'rlar bilan shuningdek, sayoz joylardagi baliqlarni maxsus tayoqlar bilan haydash orqali bajariladi.

Xonlikda qazilma boyliklar ham bor: Xiva shahridan 30 yoki 40 chaqirimcha janubi g'arbda joylashgan tog'lardan oltingugurt va ohak qazib olinadi. Pitnyak yuqorisidagi tog'lardan tosh ko'chirib tegirmon toshlari yasaladi. Ko'hna Urganch atroflaridagi yerlardan selitra olinadi. Pitnyakdan 35 chaqirim janubdagi Sultonsaroyning sho'r yerlaridan va Qo'ng'irotdan 50 chaqirim uzoqda joylashgan Ustyurtdagi Qoraumbet yeri ostidan tuz qazib olinadi. Metall rudalari yo'q; qo'rg'oshin, mis, temir, cho'yan Rossiyadan; oltin va kumush Eron, Rossiya, Qo'qon va Buxorodan keltiriladi.

<sup>40</sup> Tuyuqlilar turkumining kenja oilasiga kiradigan sut emizuvchi hayvon.

<sup>41</sup> O'rmonda yashaydigan yovvoyi tovuqlarning bir xili.

<sup>42</sup> Olabug'a baliqlar oilasiga kiradi.



## Dalalarni sug'orish ta'rifi

Amudaryo sathidan uncha baland bo'lmagan vodiya joylashgan Xiva xonligi suv toshqinlari vaqtida suv ostida qolib ketishi ham mumkin. Shu xavfni oldini olish uchun xivaliklar daryoning har ikki qirg'og'i bo'ylab suv urib ketadigan joylarga suvdan saqlanish maqsadida ko'tarmalar ishlashgan. Dalalarni sug'orish uchun daryodan bir qancha kanallar chiqarilgan. Amudaryodan chiqqan shoxobchalar va kanallarning har ikki qirg'og'i bo'ylab tegishli joylarda hamda ekinzorlarga yaqin yerlarda dala va qishloqlarni suv toshqinidan himoya qiladigan ko'tarma ishlangan. Bunday ko'tarmalar joyiga qarab, ba'zi yerlarda oqim bo'yi va undan ham baland qilib ishlangan. Xon kanali deb ataladigan eng asosiy kanallar xususida yuqorida aytib o'tilgan edi.

Asosiy kanallardan tashqari shu kanallardan va shoxobchalardan oqib chiqadigan, eni 4 yoki 5 sarjincha keladigan yana ko'pgina mayda, yordamchi kanallar ham mavjudki, ular ayrim jamoalarga qarashli bo'lgan. Ana shu mayda kanallardan har bir yer egasi o'z dalasiga qarab alohida ariqlar o'tkazadi. Kanal qazishdan chiqqan tuproq kanalning ikki tomoniga olib tashlanishi natijasida dalalarni toshqindan asraydigan ko'tarmalar hosil bo'lgan. Suv olish kerak bo'lgan joylarda ana shu ko'tarmalarning bir chetini ozgina buzib eski ko'tarmalarga o'rnatilgan maxsus yog'och tarnovlar orqali ekinzor yoki bog'larga suv yuboriladi. Shu tariqa, har bir bog'bon yoki dehqon o'z yerining kerakli qismini sug'oradi. Daryo qirg'oqlari va kanallarda qilingan mazkur ko'tarmalarga qaramay, ba'zan Amudaryo toshqini natijasida ko'tarma ostidagi qumloq tuproqdan suv urib ketib dalalarni, ekinzorlarni bosib ketgan va talay zarar keltirgan vaqtlar ham bo'ladi. Bunday kezlarda odamlar o'z yerlarini butunlay tashlab ketishga majbur bo'lishadi.

Ko'pincha suv shiddatli kuch bilan xon kanallaridagi, shoxobchalardagi yoki Amudaryoning o'zidagi ko'tarmani buzib, butun atrofni bosib ketadi; bunday vaqtlarda hamma qo'shni aholi bir jon-bir tan bo'lib, suv urgan joyni darhol bekitishga kirishishadi. Bu mashaqqatli ish shunday bajariladi:

suv urib ketgan joyga bir necha qator qoziq qoqiladi; yaqinroq bir joyga kanop losidan eshilgan mustahkam maxsus arqonlar yozib qo'yib, unga qamish yoki shox-shabba tashlanadi, so'ngra ustiga qalin qilib tuproq yoki chim bosiladi, keyin yana bir qavat shox-shabba yoki qamish to'shaladi, uning ustidan esa yana tuproq bosiladi, shu tariqa uning qalinligi 6 vershok<sup>43</sup> qilinadi, keyin hosil bo'lgan qatlamni mahkamlab o'rab, arqonlar bilan pishiq qilib bog'lanadi, uzunligi bir yarim yoki ikki sarjinch, qalinligi bir-bir yarim sarjin bo'lgan bir necha shunday qatlamlar yasab, suv urgan joyga qoqib qo'yilgan qoziqlar ustiga tashlanadi, qatlamlar orasiga va ularning ustiga tuproq tashlab yaxshilab shibba uriladi. Bu usul oddiy bo'lishiga qaramay juda qulaydir, qatlamlardagi shox-shabba yoki qamishlar orasiga solingan chim va tuproqlarni suv osonlikcha yuvib ham, oqizib ham ketolmaydi, ular o'z og'irligi bilan qoziqlar orasida mahkam o'rnashib qoladi. Qish kunlarida yoki boshqa zaruriyat tug'ilib qolganda, asosiy kanallarni ham ana shu usul bilan to'sib qo'yiladi. Suv juda ko'payib ketgan kezlari suv urib ketishining oldini olish maqsadida, xivaliklar falokat ro'y berishi ehtimol tutilgan joylarga qorovullar qo'yishadi, ketmon, bel va boshqa asboblardan qurollangan odamlarni oldindan tayinlab qo'yishadi. Ayni vaqtda suv urish joylarini kamaytirish maqsadida yakka xo'jaliklarga qarashli hamma ariq va zovurlarni bekitib tashlashga amr qilinadi. Lekin suvning damini qaytarish uchun Amudaryo, Dou-Danu va Dervilik kabi eski daryo o'zanlariga Shovot, Kachavot, Qilichboy, Yormish kanallaridan suv yo'li ochib qo'yiladi. Xivadagi asosiy kanallar va shoxobchalarning suvi qish kunlari cho'kindilarga to'lib qolmasligi uchun har yili kuzda ularning suvi tashlab qo'yiladi. Qish ichi umuman kanaldan suv kelishining hojati ham yo'q. Bu tadbirning yana bir muhim tomoni shuki, bordiyu, Amudaryo yilning ana shu vaqtida toshgudek bo'lsa, falokatni bartaraf qilish qiyinroq ko'chadi, chunki suv urib ketgan joylarni qish kunlariga qaraganda kuzda tuzatish oson, ko'klamda suvsiz kanal, ariqlarni tozalash kishini qiynaydi.

<sup>43</sup> 4,4 santimetr ga baravar uzunlik o'lchovi.

## Xiva xonligida aholining joylashishi

Xonlikda dala va ekinzorlar qo'rg'onga yaqin bo'ladi. Ayniqsa bog'larni va ekinzorlarni sug'orish ishi buni taqozo qiladi. Shunga ko'ra, xivaliklar bizlardagi xutor tipidabo'lgan ayrim hovlilarda yashaydi. Bu yerda katta yeri va ko'p quli bo'lgan xo'jaliklar kam. Ko'pchilik xo'jaliklarda qul bo'lmaydi, yerni o'z oila kuchlari bilan goho bir yoki ikkita odam yollab ishlaydilar. Har bir xo'jalikda 8-12 tanob yoki 4-6 botmongacha yer bo'ladi. Shuning uchun ham Xiva xonligining aholisi bir-biriga yaqin turgan juda ko'p sonli xutor yoki qishloqchalar tarzida joylashib, ularda bitta, ikkita, uchta xo'jalik, unda ham qarindosh-urug'lar birga turishadi. Faqat Xiva atroflarida, Nov, Urganch, Xazorasp, Shovot, Xo'jayli shaharlarida 20 va 30 xonadonni o'z ichiga olgan bir qancha qishloqlar bor. Shunday qilib, Xiva xonligida xalqning ko'pchilik qismi xutorlarga sochilgan holda kanal bo'ylarida, suvli joylarda yashaydi. Odam yashaydigan joylarning atrofi, shahar va qishloqlardagidek, suv toshqinidan saqlanish maqsadida balandligi bir sarjin bo'lgan tuproq devor bilan o'rab qo'yiladi. Yangi joyga ko'chishni istagan har bir xonadon bunday devor qurib olish uchun qo'shnilaridan yordam oladi.

Shuningdek, paxsa yoki kesak devor yohud yarim sarjin qalinlikda, 1-2 sarjin baland ko'tarma quradi. Hovli ikkiga ajratilgan bo'ladi; yo'l yoki kanalga tutashadigan tashqar qismida mehmonxona, otxona, saroy, molxonalar joylashadi. Ichkarida esa oila a'zolari uchun uylar, oshxona, omborxonalar<sup>44</sup> joylashgan bo'ladi. Uylar bizning uylarimiz kattaligida paxsa yoki guvaladan quriladi. Uyning balandligi 2 sarjincha bo'lib, tomlari yassi qilib qamish, bordon bilan yopiladi, qamish ustidan tuproq solinib, so'ng loy bilan suvaladi; tutun chiqishi va yorug' tushishi uchun mo'ri chiqariladi. Uy ichidagi buyum va ashyolar qozoqlardagidek tartibda joylashtiriladi, ya'ni to'rda sandiq turadi, devorga kiyim-

<sup>44</sup> Don saqlanadigan bu omborlarning tagiga poxol to'shaladi, chetlariga chiy-qamish terilib, bug'doy to'ldirilgach, qamishlar bug'doy ustiga yopib qo'yiladi va yana poxol to'shalib, uning ustidan tuproq tortiladi.

kechak osib qo'yiladi, uying ikki yonida boshqa uy anjomlari turadi, o'rtada o't yoqiladigan chuqurcha bo'ladi. Uy ichiga gilam yoki namat to'shaladi. Qo'rg'on orqasida yoki uning atrofida bog'lar bo'ladi. Kanal va ariqlarning yoqasiga daraxtlar o'tqazilib, ularni juda avaylab parvarish qilishadi. Xivaliklar ko'pincha shu daraxtlarni kesib, imoratga ham ishlatishadi. Ularning dalalari qo'rg'on dan uzoq bo'lmaydi. Xiva shaharlari tartibsiz rejasiz qurib tashlangan hovli va binolardan tashkil topgan, ko'chalarning egri-bugri va haddan tashqari tor bo'lganligi sababli qarshi kelib qolgan ikki arava o'tib ketolmaydi, ba'zilariga esa arava mutlaqo kirolmaydi. Shaharlarda amaldorlar, savdogarlar, hunarmandlar yashaydi, dehqonlar yo'q hisob. Har qaysi shaharning tevarak atroflarida bog'lar mavjud. Har bir shahar yoki qishloqda haftada ikki marta bozor bo'ladi.

Eng yirik shaharlardan: Xivada – xon qarorgohi joylashgan, shahar eni 4 sarjin, balandligi 2 sarjin, uzunligi 3 yoki 4 chaqirim keladigan paxsa devor bilan o'ralgan. Xon saroyida harbiy anjomlar, qurol-aslahalar turadi. Shaharda 10 ta g'ishtli machit, g'ishtdan ishlangan 2 ta minora; shahar chetida 2 g'ishtin ko'prik bor. Xiva atrofida juda katta yerlarni qoplagan bir talay obod bog'lar bor. Xiva – poytaxt shahar bo'lganligi sababli, bu yerda turli urug'lardan va bir-biriga do'st bo'lmagan qabilalar vakillaridan iborat davlat boshqarmalari to'plangan. Agar ular itoatdan bo'yin tovtasalar xon osonlik bilan hatto, qurol ishlatmay ularni itoatkor qilib qo'yadi, ya'ni o'z qarorgohini ulardan ajratib turgan bosh kanallarga suv qo'ydirib yuboradi.

Hazorasp Xivadan kichikroq bo'lsa ham davlatning eng mustahkam shahri hisoblanadi; bu shaharda xonning birodari turadi. Shahar tuproq ko'tarma yoki paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, uning atrofida chuqurligi salkam ikki sarjin, eni 20 sarjincha keladigan suv to'la xandaq bor. Shahar atrofida, ayniqsa, olmalari bilan dong chiqargan yashnab turgan juda ko'p bog'-'rog'lar mavjud.

Yangi Urganch Xivadan ancha kichik. Shaharni o'rab turgan devorlar butunlay xarobaga aylangan; bu shahar o'z sanoati va savdosi bilan xonlikda muhim ahamiyatga ega.

Tashovuzning maydoni Xivaga baravar keladi, atrofi paxsa devor bilan o'ralgan, aholisi kamroq bo'lib, unda asirga tushgan eroniylar yashaydi.

Kesh shahri ham paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, Urganchdan kichik, Hazorasga baravarlashadi. Devor atrofidan suv to'la xandaq o'tkazilgan.

Shovot, Gurlan, Xonqa, Xo'jayli, Qo'ng'iroq shaharlari ham kattaligi jihatidan Kesh shahriga baravar bo'lib, ularni o'rab turgan devorlar buzilib ketgan.

Tintak, Uyg'ur, Kachavot, Mang'it, Qipchoq, Qilichboy, Ilalla, Xitoy, Anbar va boshqa ko'pgina shahar va katta qishloqlarda aholi kam. Bir vaqtlar ular atrofiga qurilgan paxsa devorlar hozir nurab, buzilib ketgan.

Xiva xonligining chekkalarida xarobalar ko'p; sobiq Ko'hna Urganch shahri xarobalari ular ichida eng mu'tabaridir. Bu yerda eski machit binosi saqlanib qolgan bo'lib, u pishiq g'ishtdan ishlangan, eni ham, bo'ni ham 8 sarjingga boradi. Sobiq shaharda yana bir obida – tagining eni 6 sarjin, balandligi 20 sarjin keladigan g'isht minora bor, minora ichidan yuqoriga chiqish uchun o'ziga xos narvon bor<sup>45</sup>. Xivaliklarning aytishicha, minora tepasiga chiqib, dushmanlardan boxabar bo'lish uchun chor atrofni kuzatib turishgan. Bu yerda buzila boshlagan yana bir minora bor. Bundan tashqari, toshdan bunyod qilingan bir necha maqbaralar ko'zga tashlanib, ular ichida Druaxon yoki Toxanalarning maqbaralari xivaliklar nazarida eng muqaddas hisoblanadi. Bu maqbaralarning ichi va tashqarisi katta koshinlar yoki koshin-g'ishtlar bilan qoplangan. Ko'hna Urganchda selitra chiqadigan mozar ham bor. Xivaliklar bu selitradan miltiq dori ishlaydilar. Yaqinda ana shu xarobalar o'rni bozor qilinib, yana aholi yashaydigan joy bo'lib qoldi.

Asirlarning aytishicha, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida ham ilgari aholi yashagan joylar va shaharlarning ko'pgina xarobalari uchraydi. Ayasqal'a (aytishlariga qaraganda uning bir qismi yer ostida qolib ketgan), Dushanqal'a, Guldursin, Shabbos va Sidmaroy xarobalari shular jumlasidandir. Bu xarobalarning ba'zilarida Ko'hna Urganchdagidek g'ishtdan barpo qilingan minoralar ham bor. Bundan 25 yil muqaddam daryoning o'ng

<sup>45</sup> Sidmaroy shahrida va Buxoroda xuddi ana shunday minoralarni ko'rgan asir Kozma Shmelev mazkur ichki narvon to'g'risida shunday deydi: har ikki qator g'ishtdan so'ng ko'ndalangiga tashlangan, uzunligi minora diametriga teng bo'lgan tut yog'ochidan ishlangan to'sinchalar minora devorini gulf-kalit qilib turishi bilan birga, ayni vaqtda, narvon vazifasini ham bajaradi.

qirg'og'idagi yerlarga kanal qazib suv chiqarilishi bilan bu yerlarga ko'plab xivaliklar ko'chib kelib, tegjoylik bo'lib qolishdi. Inah-Shabbosvali, Ovli va boshqa qishloqlar ana shunday barpo bo'lgan. Bu yerda qadimiy suv yo'llarining izlari hozir ham saqlanib qolgan.

## **Xonlikda yashaydigan qabilalar**

Xiva xonligining aholisi o'zaro noahil bo'lgan va xonga zo'rba-zo'r itoat etgan turli-tuman qabilalardan tashkil topgan. Ular orasida eng yiriklari: 1) Shaharlarda va shahar atroflarida, asosan, Xo'jaylidan Tashovuz va Gurlangacha cho'zilgan yerlardagi xutorlarda o'zbeklar yashaydi. Shuni ham aytish kerakki, xonlikka qarshi bosh ko'tarishgani uchun ko'p o'zbeklar xonlikning boshqa chekkalariga badarg'a qilingan. O'zbeklar, asosan, baliq ovi, bog'dorchilik, dehqonchilik vaqisman i pakchilik bilan shug'ullanishadi.

2) Xiva, Yangi Urganch, Xonqa, Kesh va Shovot shaharlari atroflarida va ko'proq shaharlarning o'zida ham o'zbeklar yashaydi, chunki ular g'allakorlikdan tashqari, asosan, savdo ishi bilan, hunarmandchilik vai pakchilik bilan shug'ullanishadi. Aholi Qo'ng'iro't va uning atroflarida orolliklar yashaydi. Ular g'allakorlik, chorvachilik va baliq ovi bilan shug'ullanishadi. 3) Amudaryo etaklarida, Xo'jaylidan Orol dengizi tomon cho'zilgan yerlarda va Orol dengizidagi orollarda qoraqalpoq xonadonlari joylashgan. Ular, asosan, chorvachilik va qisman g'allakorlik bilan shug'ullanishadi. Qoraqalpoqlarning qariyb hammasi ko'chmanchilik bilan hayot kechirishadi. Ularning joylari volost yoki okruglarga bo'lingan bo'lib, har qaysi elat o'z okrugi doirasidagina (masalan, bizdagi boshqirdlar singari) ko'chib yurishga haqli.

4) Tamaguch va Ilallo shaharlarndan Ko'hna Urganchgacha cho'zilgan yerlarda turkmanlar yashaydi. Bularning mashg'uloti g'allakorlik va chorvachilikdir.

5) Xonlikning Tolguzi, Ilallo va boshqa joylarida qizilboshlar deb yuritiladigan sobiq eroniy asirlar yashaydi. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Hali ozodlikka chiqmaganlari o'z xo'jayinlarining yerida ishlab o'sha yerda yashaydilar.

6) Ilallo va Tashovuz oralig'idadehqonchilik vai pakchilik bilan shug'ullanuvchi buxorolik asirlar tag joylik bo'lib qolishgan.

7) Xonlikning turli joylarida ozod qilingan sobiq rus asirlari yashaydi. Ularning soni juda oz bo'lib, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi. Hali ozod bo'lmaganlari o'z xo'jalariga qarashli joyda yashashadi. Ruslar ko'pincha yollanib ish qilishadi, ba'zilar boylar qo'lida gumashta sifatida xizmat qiladi.

Xonlik aholisi o'zi yashab turgan joyiga ko'ra, okrug yoki uyezdlariga ajralgan. Shahar yoki qishloq hokimlari, odatda, o'sha yerdagi okruglarni ham boshqaradi.

## **Aholining asosiy mashg'uloti va mahsulot ishlab chiqarish usuli**

Xiva xonligida aholining asosiy mashg'uloti va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hamda boyish usuli dehqonchilik, chorvachilik, savdogarchilik, hunarmandchilik va bog'dorchilik orqalidir.

### **a) Kanallar qazish**

Xiva xonligining zamini o'zining iqlim sharoitiga va boshqa xususiyatlarga ko'ra, ko'proq hosil berishi uchun yetarli ravishda suv bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham Amudaryodan suv keladigan kanallarni o'z vaqtida tozalash, qazish kabi ishlar dehqonchilik qiladigan aholining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu ishga juda ko'p mehnat sarflanadi. Xon kanallari yoki asosiy kanallarni chuqurlashtirish yoki kengaytirish uchun, shuningdek, yangi kanallar qazish uchun har yili butun xonlik miqyosida o'lpon to'laydigan va yeri bo'lgan xonadonlardan qozon boshiga bir kishidan ishlovchi olinadi. Bu odamlar ish ko'lamiga qarab bir necha qismlarga bo'linib, navbatma-navbat ishlashadi. Har qaysi navbatdagi kishi 15 kundan ishlab berishga majbur. Ishni to'la g'ayrat bilan qilish talab etiladi. Ishboshilar yoki yasovullar dangasa yoki sekin ishlayotganlarni shafqatsiz jazolashadi. Hatto chala o'lik qilib kaltaklash hollari ham bo'lgan. Bu og'ir mehnat azobidan qutulish maqsadida ba'zi birlar o'z o'rniga kuniga 2-3, hatto, 15 so'mgacha bo'lsa ham odam yollashgan. Qazish ishlari

shitob bilan bajarilgan. Bir xivalik bir kunda loyqumlik zaminda 2 kub sarjinga yaqin joyni qaziy oladi. Yoshlikdan boshlab ishning haddisini olish va bu ishga o'rganish bo'lib qolganlik hamda yaxshi ishlangan Xiva belkuraklari bu uqubatli mehnatni yengillatishga yordam beradigan omillardir. Bu xil belkuraklar temirdan yoki temir bilan cho'yan qotishmasidan ishlanadi, bo'yi yarim, chorakkam bir gaz, og'irligi 5 qadoq, o'rta joyning eni 6-10 vershok bo'ladi, ikki cheti biroz bukilgan bo'lib, uchi o'tkir, tilsimon cho'ziq doira shaklida yasaladi.

Jamoa kanallarini yoki mayda kanalchalarni tozalash uchun har bir okrugda har 8-10 tanob yerga bitta odam hisobidan ishlovchi olinadi, bundagi ishlar bir oy va undan ham ko'pga cho'ziladi. Nihoyat, har bir yer egasining joyidan o'tgan ariq va kichik kanalchalarni tozalash uning o'ziga yuklatiladi.

### **v) Dehqonchilik**

Dehqonchilik aslida sermehnat ishdir. Xiva xonligida sepiladigan donning asosiy xillari yuqorida sanab o'tilgan edi. Bu ekinlarning parvarishi uchun qariyb to'xtovsiz mehnat qilish kerak bo'ladi. Toshqin olib kelgan cho'kindi loy bu yerda yerni aslo semirtirmaydi. Undan tashqari, qora tuproqli yer ham yo'q, shuning uchun kuzda va qishda yerga soladigan o'g'it tayyorlab qo'yiladi. Chunonchi, dalaning ma'lum bir joyiga dastavval qum tashib keltirilib, 2 vershok qalinlikda yerga yoziladi. Uning ustiga shu qalinlikda go'ng tashlanadi, undan so'ng bir qatlam sho'rxok tuproq solinib, hammasi qorishtiriladi; so'ngra uning ustiga yana shu uch qatlam qayta-qayta solinib aralashtiriladi. Shu tariqa, 2000 va undan ham ortiq arava go'ng tayyorlanadi. Bahor boshlanishi bilan mart oyining boshi yoki o'rtalaridan kanal, ariq va zovurlarni tozalash va tuzatishga kirishiladi, so'ngra tayyorlab qo'yilgan haligi o'g'itni dalaga tashlanadi. Bunda, masalan, qovun va jo'xori ekiladigan joyda har tanobiga 250-300 arava, bug'doy uchun 200 arava hisobidan o'g'itlanadi. Paxta, kunjutlarga o'g'it solinmaydi, chunki ular ilgari bug'doy va jo'xori sepilgan semiz yerlarga ekiladi. O'g'itlangan yerni bir necha bor shudgor qilinadi. Masalan,



guruch, qovun, bug'doy, jo'xori ekiladigan yerlar agar mavridi bo'lsa, 10-12 marta shudgor qilinib, ustidan suv beriladi. Nam yerga urug' sepilgach, yana ikki marta shudgorlanadi va ustidan mola bostiriladi. Paxta, kunjut, mosh, tariq sepiladigan yerga esa eng avval suv beriladi, so'ng urug' sochib, ikki-uch marta shudgor qilinadi, keyin mola bostiriladi. Ekinlar ichida eng erta ekiladigan qovun; may boshlarida paxta, jo'xori; mayning o'rtalarida kunjut, mosh, so'k va tariq; kuzda, avgustning oxirlarida bug'doy sepiladi. Mola bostirish ikki usulda: birinchi bor six mola bilan, keyingi safar tekis taxta bilan amalga oshiriladi.

Qovun, jo'xori urug'lari va chigit yerdan unib chiqqach, ketmon bilan nihollar ostiga tuproq tortib, begona o'tlar o'ldiriladi. Boshqa don ekinlari esa bu xil parvarishsiz ham o'saveradi.

Petr ayyomlaridan keyin bug'doy pisha boshlaydi. Iyul o'rtalaridan o'rimga tushiladi. Ana shu vaqtda qovun ham pishadi, avgust boshlarida esa kunjut, tariq, mosh yetiladi; sentabrda guruch pishadi, oktabr boshlarida yoki o'rtalarida jo'xori hosili yig'ib olinadi, bordiyu bundan burunroq o'rilgudek bo'lsa g'aramlanganda bo'rsib ketib chirishi mumkin. Shundan keyin g'allani yanchish boshlanadi. Bu ish ot-ulov yordamida bajariladi. G'alla yanchiladigan joylar qishga shay qilib qo'yilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu yerda yil bo'yi ish to'xtamaydi. Asirlar ta'biricha, Xivaning yeri qattiq bo'lib, bir par ho'kizi va bir par oti bor odam agar kanal tozalash va boshqa ishlarga safarbar etilishdan ozod qilinsa, 6 yoki yetti tanob, ya'ni bizningcha 3 yoki 3,5 desyatina yerni arang eplaydi. Agar suvni bizlarda ham bo'lgani kabi, chig'iriy bilan chiqarib dehqonchilik qilinadigan bo'lsa, 5 tanobdan ziyodiga kuch yetmaydi. Bu yerda yer asosan omoch bilan shudgor qilinadi, u o'zining qulayligi, oddiyli va ishga mosligi bilan dehqonchilik qurollari ichida eng afzalidir.

Omochga cho'yandan ishlangan tish o'rnatilgan bo'ladi. Xivada toshloq va shag'alli zamin qariyb yo'qligi sababli bunday cho'yan tishlar temirdan qilinganlariga qaraganda yaxshiroq bo'ladi, ular bukilish va o'tmaslanish u yoqda tursin, balki ishlatilgan sari o'tkirlashaveradi va ehtiyotsizlik orqasida ba'zan qo'shga qo'shilgan ho'kizlarning oyog'ini qirqib ham ketishi mumkin.

Omochning uzun shotisi bo'ladi, shotiga bo'yinturuq o'rnatiladi va unga bir par ho'kiz qo'shiladi. Bo'yinturuqda mix kirib turadigan bir necha teshikchalar bo'ladi. Agar mayda shudgor qilish kerak bo'lsa, mixlarni yaqinroqdagi teshikchalarga kiritiladi, bordi-yu, shudgorni chuqurroq qilish lozim bo'ladigan bo'lsa, mixlar uzoqroqdagi teshikchalarga suqib qo'yiladi. Bu qurilmada, ho'kizlarning yuqori bo'yni va yon tomonlariga ko'proq kuch va og'irlik tushadigan bo'lgani uchun bo'yinturuqning pastki, bo'yin osti tomoni faqat arqon bilan mahkamlanadi. Xivaliklar yerni dastavval 1-1,5 vershok chuqurlikda mayda shudgor qilishadi, so'ngra omochni asta-sekin chuqurroq tushirib, chorak gazgacha yetkazib shudgorlashadi. Bir juft yaxshi ho'kiz va bir omoch bilan bir sutkada bir tanob yerni 2 marta haydab, urug' sepib, ikki marta molalash mumkin.

Xivaliklarning o'rog'i hajm jihatidan bizlarnikicha keladi, ammo, to'g'ri bo'lib, uch tomonigina bir oz egik qilib ishlangan. Chalg'i mutlaq ishlatilmaydi.

Xivada sho'rxok yerlar ko'p, biroq ularga bug'doy sepilaveriladi, shuning uchun yerning sho'ri yuviladi, yerga urug' sepilgach, tez-tez sug'orib turiladi. Agar yer tepalik bo'lib suv chiqishi qiyin bo'lsa, sho'rxokliklardagi oqarib turgan dog' joylar qirtishlab tashlanadi, so'ng iloji boricha ko'proq o'g'it solinib, turli xil don urug'lari sepiladi.

Hosilning ko'p-ozligi daryolardan oqib o'tadigan suvning miqdoriga bog'liq bo'lsa-da, suv tanqis kelgan yillar uchun suvni zapas qilib turadigan jamoa suv omborlari yo'q. Lekin xonlikning g'arb tomonida, Xiva yaqinida joylashgan ko'pgina ko'llar ana shunday suv omborlari qurishni yengillashtirishi ham mumkin edi. Hozirgi vaqtda chig'iriy yoki kanallarni bo'g'ib, suvni ko'tarish yo'li bilan baland joylarga suv chiqarish mumkin. Umuman, Xivaning janub qismida, daryoning chap sohili Pitnyak shahridan to Shovotgacha cho'zilgan yerlarga va o'ng sohildagi joylarga qariyb hamma vaqt chig'iriy orqali suv chiqariladi, chunki bu yerlar ancha baland, asirlar ta'biricha, chig'iriyli joylardir. Agar suv kamchil bo'lsa, chig'iriyning ham nafi tegmaydi, bunday vaqtlarda kanallarning o'zida suv quriydi, natijada halokatli hosilsizlik boshlanib, bir pud bug'doyning narxi 5, hatto, 15 so'mgacha chiqib ketadi. Lekin bunday qiyinchiliklar va yetishmovchiliklarga

qaramay, dehqonchilik xonlikning rivojlanib borayotgan sohasi bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy usuli hamda tashqi savdoning muhim vositasi hisoblanadi.

### **s) Bog'dorchilik va o'rmonchilik**

Xonlikda bog'dorchilik va o'rmonchilik ham yaxshi ahvolda deyish mumkin. Bular bilan shahar atrofida yashovchi aholi ko'proq shug'ullanadi. Bu yerda tut, olma, nok, olcha, olho'ri, o'rik, shaftoli, xurmo va boshqa mevali daraxtlar urug'dan ekib ko'kartiriladi. Shuningdek, qoraterak, qayrag'och, sariq tol, yovvoyi xurmo, tog'terak, terak singari o'rmon daraxtlari o'stiriladi. Bular erta bahorda qoziq qilib yoki bo'yi yarim gaz tanasi jimjiloqdek bo'lgan ko'chatlarni o'tqazish yo'li bilan ko'paytiriladi. Daraxtlar bir-biridan yarim gaz chamasi oraliqda kanal bo'ylariga o'tqazilib, ularga suv quyiladi yoki ariq ochiladi. Mevali daraxtlarga yetarli miqdorda go'ng solinadi. Daraxtlar bu yerda yaxshi o'sadi. Masalan, qoraterak, terak, tog'terak 8 yil ichida eni 4 gazga, bo'yi esa 3 sarjingga yetadi va arava shotisi hamda boshqa narsalarga yaraydigan bo'ladi. Meva daraxtlari to'rtinchi yili hosilga kiradi, bog'larda kapalak qurti bo'lmaydi, lekin ko'pincha qish sovg'i mevalarni urib ketadi.

### **d) Chorvachilik**

Xiva xonligida chorvachilik bilan asosan, ko'chmanchi qabilalar shug'ullanishadi, o'troq aholi esa yem-xashakning kamligi sababli faqat dehqonchilikda, yuk tashish, minib yurishda ish beradigan zarur hayvonlarni va echki, qo'ylarnigina saqlaydilar.

### **s) Savdo**

Xivaliklar uchun savdo – tirikchilikning muhim omillaridan birini tashkil qiladi. O'ziga to'q kishilarning hammasi ham qariyb savdo qilishadi, alohida savdogar tabaqasi yo'q.

Xivadan Rossiyaga, Eronga tuya karvonlari qatnaydi, Buxoroga esa mollar tuyalardan tashqari suv orqali kemalarda ham jo'natiladi.

Ichki savdo quruqlik yo'llar bilan tuyalar, ikki g'ildirakli aravalar orqali, Amudaryo va kanallar bo'ylab suv orqali olib boriladi. Aholi yashaydigan har qaysi qishloq va shaharda bozorlar mavjud bo'lib, ularda yirik qoramollar, tuyalar, ot va qo'ylar (ularni ko'proq qozoqlar haydab kelishadi) kabi chorva mollari, turli g'alla, kiyim-bosh, chopon, ipak vagazlamalar, porox, qurol-aslaha, belkurak, dehqonchilik qurollari, ikki g'ildirakli aravalar, egar va boshqa jabduqlar; yog'och, ko'mir, ishqor, tuz va boshqa juda ko'p mollar oldi-sotdi qilinadi. Bu mollar ayirbosh ham qilinadi, pulga ham sotiladi. Xiva xonligida pul qimmati tilla hisobida yuritiladi, tangasi abbos deb yuritiladi: 1 tilla – 28 dan 35 tanga o'rnida, tanga kumush pul bo'lib, ikki tanga 1 abbosga baravar, 1 tanga esa 35 dan 50 pul yoki qora chaqa o'rnida yuritiladi; tanga bizdagi – yarim so'mlikka, abbos – so'mga, tilla – 15 so'mga baravar keladi. Pul qimmati doim o'zgarib turadi. Hozir (1837-1838 yillar) oltin va jezning qadri oshgan, kumushning qadri esa past tushgan, kumush rupiya hisobida Erondan olinadi. Shunday qilib, hozir bir tilla 18 kumush so'mgacha chiqdi; bir tangananing qimmati esa 37 puldan oshmaydi. Ishlatganlik uchun haq va mollarning narxi hosilga, barshchinaga va boshqa omillarga qarab o'zgarib turadi. Amalda hozir yurib turgan narx-navolar quyidagicha.

Bir odamni ot-aravasi bilan daryodan o'tkazib qo'yish uchun bir tanga, otliq kishini o'tkazib qo'yish uchun yarim tanga olinadi. 25-30 pud yukni Gurlandan Xivagacha ot-aravada olib borish 5 so'm turadi. Bir kishining bir oy ishlagan haqi 7 so'm bo'ladi. Ariqlar uchun bir tanga, xon ariqlari uchun 5-6 tanga va undan ham ortiq to'lanadi. Sudxo'rlar oy sari protsent oladi. Qarzdorlar bir tillaga har oyda 1 so'mdan to'lashga majbur. Rus asirlari yoshi va kuch-quvvatiga qarab 60-90 tilladan sotiladi. Lekin hozir bu narx 30-35 tilladan oshmayotir, chunki ular bizning hukumatimiz tomonidan olib ketilmoqda. Eroniy asirlarning bahosi bu narxdan 15-30 tilla past yuradi. Tuyaning bahosi 4 tilladan 12 tillagacha, qo'y bizdagidan qimmat, ho'kiz va otlar arzon bo'ladi, eshakning bahosi 5 so'mdan 30 so'mgacha boradi, aravaning bahosi 4-8 tilla, hozirda esa 10 tillagacha sotiladi. Ularning og'irligi taxminan

20 pudgacha boradi, g'ildiraklariga temir qoplanmaydi<sup>46</sup>. Bir botmon bug'doy (bizdagi 49...ga baravar) 60 tiyindan 1 so'mgacha sotiladi. Boshqa mollarni ham botmonga hisoblaganda bahosi quyidagicha bo'ladi; jo'xori 40-80 tiyin; arpa 40-60 tiyin; guruch 2-3 so'm; kunjut 2-4 so'm; kunjut moyi 6-8 so'm; tariq 40-60 tiyin; turshak 3-4 so'm; chigiti olinmagan paxta 3-4 so'm (hozir 2-3 so'm); chigitdan tozalangan paxta 8-10 so'm (hozir 7-8 so'm); paxta tolasi 14-16 so'm (hozir 12-14 so'm); (paxta tolasini xivaliklar bizlarga 30 so'm va undan ham qimmatga sotishadi. Lekin Orenburggacha olib borish uchun sarf bo'ladigan yo'l xarajati xivaliklar uchun hammasi bo'lib 3-4 so'mdan oshmaydi). Bir botmon temirning bahosi 8-10 so'm (hozir 18-20 so'm) turadi; cho'yan 2,5-3 so'm (hozir 6-8 so'm); oddiy plug tishi 1-1,5 so'm, qo'ng'irotniki 2 so'mgacha; o'roq 50-75 pul; uncha katta bo'lmagan va bizdagi oddiy boltalarga qaraganda ikki baravar ensiz bo'lgan boltalar 2-3 so'm (hozir 5 so'm); motigalar 3 so'm (hozir 4-5 so'm); oddiy belkuraklar 2 so'm (hozir 3 so'm); cho'yan temirlisi 3-4 so'm (hozir 6-6,5 so'm), uzunligi 4 sarjincha, yo'g'onligi 6 vershok bo'lgan qoraterak xodalari 12-15 so'm; boshqa xil yog'ochlar bundan qimmatroq; arava o'qi yasaladigan g'o'lalar 11,5 so'm; etiklar 4-5 so'm (hozir 14 so'm); bulg'ori charm 10-12 so'm (hozir 30-40 so'm); porox 1-2,5 so'm; yerning bir tanobi o'zining sifatida va joyiga qarab 15-500 so'mgacha boradi; Xiva va Yangi Urganchga yaqinlashgan sari yerning narxi oshib boradi.

## **Kasb va hunarmandchilik**

Xiva xonligining manufaktura va fabrika sanoatida yirik korxonalar yo'q. Xivaliklar paxtavi pakni har qaysilari faqat o'z oilahtiyojlari yoki chakanalab sotish uchun o'z uylarida oddiy usul bilan ishlaydilar. Paxta savdosi, asosan, Yangi Urganch va Xivada bo'ladi, u yerlardan esa Rossiyaga chiqariladi.

---

<sup>46</sup> Maslav degan kazakning gapiga qaraganda, g'ildirak to'g'inlariga baliq yelimi surtiladi, so'ng yoriq va chetnoqlari maydalangan ko'mir aralashtirilgan paxta moyi bilan moylanadi. Bu tadbir g'ildirakni chirishdan saqlaydi. G'ildiraklarning balandligi bir sarjin, tegarchakning eni 1-1,5 vershok, qalinligi 1-6 vershok bo'ladi. G'ildirak kegalari odatda 18 dona qilinib, yo'g'onligi bir vershok qilib ishlanadi, gupchakning uzunligi yarim gaz. O'qining uzunligi biznikidek bo'ladi.

Paxta quyidagicha qayta ishlanadi: dalada terib olingan paxtani ayollar qo'lda po'choqlardan tozalab olishadi, undan keyin oftobda 3-4 hafta quritishgach (agar paxta yetilib pishgan bo'lsa, bir hafta va undan ham oz vaqt quritiladi), chigitdan tozalanadi, bu ish ikki valikli (v, s) mashina yordamida bajariladi. Bu, mashina chertejida *A* litrli belgi bilan ko'rsatilgan. Bu ikki valik *a* belgili sop va valiklar uchiga o'rnatilgan *d, s* belgili tishli g'ildiraklar vositasida aylantiriladi. G'ildiraklar bir-biriga qarama-qarshi aylangani sababli ular orasiga tushirilgan paxta tishlarning harakati bilan chigitdan tozalanib chiqariladi. Shundan so'ng tozalangan paxta charxda yigiriladi, bunda bir qo'l bilan charx qulog'i aylantirilsa, ikkinchisi bilan charxda aylanib turgan duggao'ralayotgan paxtaipini tutib turiladi. Paxtani tozalash, yigirish va undan oddiy bo'z to'qib chiqarish – xotinlarning uyda o'tirib bajaradigan yumushlari jumlasiga kiradi.

Juda ko'plar, ayniqsa, shaharliklar kosibchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi. Bu yerdagi asosiy kasb va hunarlar tubandagilardir: birinchidan, qurol-aslaha yasash, temirchilik, quymachilik hunarlari bor; xivaliklar o'zlari miltiq, qilich, nayza va boshqa qurol-yarog' yasay olishadi. Hozir bu yerda qurol yasashda dong chiqargan ikki usta bor, ulardan biri Yangi Urganchda, ikkinchisi – Hazoraspeda yashaydi. Xivalik temirchilar ustara, qaychi, pichoq, o'roq, g'ildiraklar uchun vtulka<sup>47</sup>, arra, bolta, motiga va shu singari turli-tuman temir va po'lat buyumlar yasashadi. Rus asirlari, ayniqsa, ularning belkuraklarini juda maqtashadi, bu yerda temirdan va cho'yan-temir aralashmasi qotishmasidan ishlangan belkuraklar bo'ladi. Bulardan birinchi xili bizlardagidek yasaladi-yu, ammo, ikkinchisi boshqacharoq, ya'ni tubandagi yo'l bilan yasaladi: qum aralastirilgan loydan ko'ra yasalib, ichi o'ra qilib kavlanadi. O'raning chuqurligi va eni 0,5 gaz bo'ladi. O'raning bir yonida teshik qoldirilib unga ikkita bosqon o'rnatiladi. Ko'raga ko'mir so'ngra ozgina temir va cho'yan tashlanib, ko'mir o't oldiriladi. Bosqinlardan berilgan damning ta'sirida ko'mir alanga olib temir bilan cho'yan eriy boshlaydi, kerak bo'lsa yana ko'mir tashlanib olovni kuchaytiriladi. Ko'radagi metall butunlay erib, suyuq holga kelgach va rangi oqargach,

<sup>47</sup> Serbar, halqasimon temir.

temir cho'mich bilan botirib olib, qolip o'rnatayyorlab qo'yilgan qum ichiga kerakli miqdorda quyiladi, shundan keyin tegishli shaklda qotib qolgan metallni toblash yo'li bilan haqiqiy belkurak shakliga keltiriladi. Ko'raga yoqish uchun saksovul ko'miri ishlatiladi, bu ko'mir asirlarning aytishicha, yonganda juda zo'r issiqlik hosil qilar ekan. Plug tishlari ham xuddi ana shu usul bilan yasaladi. Qo'ng'irotda esa tayyor mahsulotning mo'rtligini kamaytirish va yopishqoqligini orttirish maqsadida qorishmaga bir oz mis qo'shib eritishadi. Bu tishlarning a belgisi orqa uchi qalin shaklda quyilib, uning ichida kavak qoldirilgan bo'ladi. Tish ana shu kavak orqali so'qaga kiygiziladi. Tayyor bo'lgan tishning uchi aylanib urgan tegirmon toshida charxlab, o'tkir qilinadi yoki so'qaga kiydirib qattiq yerda ishga solinib tobiga keltiriladi.

Ikkinchidan, oltin va kumush buyumlar yasaydigan zargarlar bo'ladi. Uchinchidan, tuvak va g'isht quyuvchi hunarmandlar sopol idish va g'ishtlarni yantoq yoqib pishirishadi. Idishlar har xil hajm va shaklda juda puxta va chiroyli qilib yasaladi. Bular biznikidan ham sifatliroq, har xil naqsh gullar solib ishlanadi. Kulolchilik loyiga qamish momig'i va shunga o'xshash narsalar qo'shiladi, natijada loy juda yopishqoq holga kelib, undan katta hajmdagi idishlar yasash oson bo'ladi. Xivada, ayniqsa, bu yerdagi ruslar orasida duradgorlar hamda to'quvchilar, kosiblar ko'p, tatarlar orasida esa kiyim tikuvchilar, bundan tashqari ko'pchilik, kigiz bosuvchilar, tokarlar va boshqa kasb egalari ham juda ko'p.

## **Kemachilik**

Xonlikda kemachilik yaqindagina rivojlana boshladi. Kemalar faqat Shovot va Polvon kabi kanallardagina qatnamasdan, hatto, Amudaryo bo'ylab Buxoroga va Orol dengizi bo'ylab Sirdaryoning quyilish joyigacha boradi.

Asirlarning bergan ma'lumotiga qaraganda, yuk tashuvchi ko'pchilik kemalar Xivadan chiqib, Amudaryoning quyilish joyidan Orol dengiziga tushadi va dengizning sharqiy sohili bo'ylab suzib, Sirdaryoning quyilish joyiga boradi. Xivaliklar bu uzoq suv yo'lidan suzib o'tayotganda, ayniqsa, Orol dengizining o'rtalarida

bo'ladigan girdoblarga tushib qolishdan qo'rqib, mumkin qadar qirg'oqqa yaqinroq joylardan o'tishadi. U yerlarga g'alla va boshqa har turli mollar olib borishadi, xivaliklar kanallar bo'ylab tuz, ko'mir, g'alla, qamish tashishadi yog'ochni qilib oqizishadi. Kemalarning tagi yassi bo'ladi, kemaning ikki tomoni uzunasiga solingan 2 yoki 3 ta to'sindan, tagi esa qora terak yoki boshqa xil yog'ochdan ishlanadi. Kemaning yon tomonlari tirnoq va o'yiq chiqarib bir-biriga mahkamlangan kalta taxtalar bilan bekitiladi. Bu taxtalar yog'och mixlar vositasida uzunasiga qo'yilgan to'sinlarga qoqiladi. Mixlar chirimaydigan tut yog'ochidan yasaladi, taxtalarning uchi temir skobalar bilan mahkamlanadi, shuningdek, kemaning uchi va quyruqlari ham temirlar bilan birlashtiriladi. Kemalar uchun qora terak, terak, sariq tol kabilar bog'larda hamda ariq bo'ylarida xivaliklar o'zlari ekib ko'kartirgan daraxt yog'ochlaridan ishlanadi. Qurib bitkazilgan kemaning chok va tirqishlari qamish momig'i bilan yaxshilab berkitiladi. Kemaning ruli va yelkani bo'lmaydi, uni uzun xodalar va qo'pol ishlangan eshkaklar yordamida yurgiziladi, ba'zan u xodalarga taxtachalar ham qoqishadi. Kemaning kattaligi har xil bo'ladi. Uzunligi 10 sarjingga boradigan kemaning eni 2,5, balandligi 1,5 gaz bo'ladi. Lekin uzunligi 12 sarjin va undan ham ortiq bo'lgan 700 pudgacha yuk ko'tara oladigan kemalar ham bo'ladi. Bunday kemalarda ustiga yuk ortilgan 10 ta tuya yoki 100 kishini bir yo'la tashish mumkin, kema bir gaz chamasida suvga botib turadi. Aholining juda ko'pchiligida, ayniqsa, o'z shaxsiy qayiqlariga ega boylarda bir va ikkitadan rasmana kema bo'ladi. Har bir shaharda ana shunday kemalardan 20 talab bo'lib, ular faqat mol, g'alla, yog'och, tuz tashishdan tashqari karvonlarni Amudaryodan o'tkazishda ham ishlatiladi. Karvonlarning daryo bo'ylab Buxoroga borishi uchun Xonqa degan joydan daryoni kesib o'tadigan yo'l asosiy hisoblanadi. Yangi Urganch, Gurlan shaharlarining qarshisida, Yumur shahrining pastrog'idagi Qipchoq, Xo'jayli, Qo'ng'iro't shaharlari yaqinidan ham kemalar narigi sohilga yuk olib o'tadi. Bunday o'tish joylarini yassi kemalar tanlab beradi. Suvning chuqur joylaridan o'tish qiyinroq bo'lib, bunda yuqorida tilga olingan xodalarning (eshkaklar) ham nafi tegmaydi. Kemani bir oz burib



daryo oqimi bo'ylab solinadi. Bu vaqtda kema eshkakka o'xshatib ishlangan uzun xodalar yordamida boshqarib boriladi. Shu yo'sinda kema suzib borib, sayoz duch kelib qolsa, yana xodalar bilan boshqarishga o'tiladi. Daryoning bunda narigi qirg'og'iga o'tish, uchun kemani suv oqimiga qarshi, yuqoriga tomon 4 chaqirim va undan ham ko'p haydab borish lozim bo'ladi, lekin ba'zan oqim aksincha uni orqaga oqizib ketadi. Shu sabablarga ko'ra, daryodan o'tish juda mashaqqatli ish hisoblanadi. Shuning uchun daryo suvi ko'paygan vaqtlarda kema bir; sutkada bir marta daryodan o'tishi mumkin, suv kamaygan kezlarda esa, ikki marta o'tsa bo'ladi.

## Yo'llar haqida

Xiva xonligining ko'chalari, umuman, tor bo'lib, dala tomonga ketganlari shudgor o'rtalaridan kesib o'tadi. Eni 3-10 sarjin keladigan ko'chalar ham bor, bunaqa ko'chalarni suv toshqinidan saqlash maqsadida ularni ikki cheti ko'pincha ko'tarmalar bilan ixota qilingan bo'ladi. Kuz va bahor chog'lari, hatto, yomg'irli yoz kunlarida ham ko'chalarning ko'pi loy va botqoq bo'lib yctadi, bunga sabab bu yerlarda umuman, sho'rxok va loyli joylarning ko'p bo'lishidir. Ayniqsa, Amudaryo yoqalab ketgan yo'l daryo toshqini vaqtida ko'pincha suv ostida qolib ketadi. Bunaqa kezlarda bu ko'chadan aravalar mutlaqo yurmaydi, faqat otlarga yoki tuyalarga minib arang o'tish mumkin. Ko'hna Urganchdan Xo'jayligacha va undan nari Qo'ng'irotga olib boradigan ko'cha ham shu ahvolda. Shuning uchun suv toshqini vaqtida, aravada Qo'ng'irot yoki Qoragumbat shaharlariga borish uchun Ko'hna Urganch orqali Oybugri shahriga o'tib, bundan Ustyurt bo'ylab so'ng Qo'ng'irotga borishga to'g'ri keladi.

Xiva xonligidagi ko'chmanchilarning Ko'hna O'rganchga qadar bo'lgan yo'lning har ikki tomonida qishloqlari va ekinzorlari bor. Ko'hna Urganchdan Oybugrigacha va undan nari Ustyurt tomondagi yerlarda ham ekinzorlar, ko'llar va qamishzorlar bor. Bu yerlarda yilqichilik uchun boy manbalari ko'p, ayniqsa, bahor va yozda yosh qamishlar otlar uchun yaxshi ozuqa bo'ladi. Ustyurtning pastlik va balandliklari Oybugri Kachak Suat va Karagushbet degan joylarga qaraganda juda qulay, hatto, aravalar

ham o'tishi mumkin. Hazoraspdan Xivaga va undan Shovot, Toshgauga va Buldushsach shaharlariga olib boradigan yo'l Xiva xonligida eng yaxshi va qulay yo'l hisoblanadi.

Xonlikdagi hamma asosiy kanallarning yo'llarni kesib o'tadigan joylariga yog'och ko'priklar solingan. Bu ko'priklar shunchalik torki, undan bitta arava zo'rg'a o'tadi. Uncha katta bo'lmagan ariqlarda esa ko'prikning o'zi bo'lmaydi. Ariqning yo'lni kesib o'tgan joylarida uning ikki tomonini qiyalatib, yassi holda nishab qilib qo'yiladi, natijada bunday nishabliklardan aravalar ham o'tib ketaveradi.

Umuman, xonlikning juda ko'p ariqlarida yog'och kamligi sababli ko'priklar bo'lmasligi ayrim tur qo'shinlarning, masalan, to'plar va obozlarning<sup>48</sup> harakatini qiyinlashtirishi mumkin, chunki bitta yo'l bo'ylab bitta kolonnada kelayotgan qo'shin uchun yo'lning tor bo'lishni olg'a siljishni susaytiradi. Bundan tashqari, yo'llarning har ikki tomoni, (biroz qumloqligini va ekin ekilmaydigan joylarni hisobga olmaganda) tilim-tilim ariqlar cho'zilib ketgan dalalardan iboratligi va ariq yoqalariga daraxtlar ekib tashlanganligi ham qo'shinning harakatiga g'ov bo'ladi.

## **Xalqning mol-mulk va huquq masalalariga qarab tabaqalanishi**

Xiva xonligida mol-mulkka qarab bizlarda bo'ladigan kabi keskin ayirmachilik yo'q. Har qanday xivalik yoki, umuman, Muhammad ummati bo'lgan musulmon kishi ham savdogar, ham navkar, ham dehqon, ham hunarmand bo'lishi va qul ishlatib yerga yoki boshqa mulkka ega bo'lishi mumkin. Lekin hamma majburiyatlarni o'z vaqtida ado etishi, chunonchi, jon boshiga soliqlar to'lashi, kanal va ariqlarni tozalashga odam berishi lozim. Qul xo'janing shaxsiy mulki hisoblanganligi, insonlik huquqidan mahrum bo'lganligi uchun xo'jalar qul uchun soliq to'lamaydi. Ko'pchilikda 10 va undan ham ortiq qullar bo'ladi. O'rta hol xivaliklarning ham bir yoki ikki quli bo'ladi. Qoraqalpoqlar ham ayni shu huquqlarga ega bo'lishadi. Qoraqalpoqlar to'laydigan soliqlar boshqacha bo'ladi,

---

<sup>48</sup> Aravalar karvoni.

ular xon talabiga muvofiq, urushga va shikorga chiqishga majburlar (xon har yili kuzda Amudaryoning quyi oqimidagi joylarga shikorga chiqadi). Bu yerlarga ko'chib kelgan turkmanlar jon boshiga to'lanadigan soliqni xivaliklar bilan bir xilda to'lashadi, lekin xon talabi bilan har 10 xonadondan bitta navkar berishlari lozim, buning evaziga xon oila boshiga 10 tanobdan yer beradi.

Xiva xonligida xalqning faqat bir guruhi, ya'ni hojilar deb atalgan saidzoda (Muhammad avlodi) ruhoniylar tabaqasigina alohida huquqlarga ega bo'ladi. Ular hech qanday soliq to'lashmaydi, ishlashmaydi, xon kanallari va ariqlar tozalashga chiqarilmaydi. Hojilarning hammasi 1500 oiladan iborat bo'lib, asosan, Xo'jayli yaqinida istiqomat qiladilar. Ularning asosiy kasbi savdogarchilik, dehqonchilik va hunarmandchilikdir. Xalq hojilarni juda hurmat qiladi, xojilar xon nazarida ham mo'tabar hisoblanib, ba'zi ishlar xususida xon ular bilan kengashadi.

## Xonlikning nufuzi

Ba'zi ma'lumotlarga asoslanib, Xiva xonligidagi aholining sonini taxminan aniqlash mumkin, yuqorida xon kanallarini qazish va tozalash uchun hamma xivaliklarning jon boshiga soliq to'lashi va odam berishi to'g'risida gapirilgan edi. Ana shu ishlar bajarilayotgan vaqtda hamma ishlayotgan ishchilarning aniq sonini bilib olish natijasida soliq to'lagan hamma aholi sonini ham bilib olish mumkin.

Petr Maslov degan kazakning aytishicha, bundan o'n yil ilgari xivaliklar qo'lida asir bo'lgan chog'ida Shovot kanallarini qazishda ishtirok etgan. Ana shunda har 200 ishlovchiga 50 sarjindan kanal qazish taqsimlangan, qazilayotgan kanal esa Shovotdan Ombor degan joygacha bo'lgan 20 chaqirimlik masofaga cho'zilgan edi. Ana shu hisobga qaraganda, kanalda 40000 kishi ishlagan bo'lib chiqadi. Maslovning o'zi ham o'sha vaqtda xuddi ana shuncha nafar odam ishlaganini eshitgan edi. 15 kundan keyin ularning o'rniga ishlovchilarning boshqa navbati kelgan. Ularning soni ham xuddi shuncha bo'lgan. Ayni shu vaqtda Polvon kanalida ham 40000 kishi ishlagan. Shunday qilib, butun xonlikda kanal qazishga kelgan ishlovchilar 120 ming kishini tashkil qilgan. Har yoki xonadon

ëки qozonboshidan bir ishlovchi chiqqanligi sababli xonadonlarning soni ham 120 mingga to'g'ri keladi. Har qaysi xonadon, o'rta hisob bilan, 4 jondan deb hisoblasak, 480000 raqami kelib chiqadi. Bunda soliq to'laydigan asl xivaliklarning nufuzi kelib chiqadi.

Xiva qo'shinidagi 40000 navkarni nazarga olsak, ularni yuborgan xonadon yoki oilaning soni ham shuncha bo'ladi; turkmanlar ham taxminan 1000 xonadondan iborat, qoraqalpoqlar 10000 uylik. Shunday qilib, boyagi 120.000 oila bilan hammasi bo'lib, 171.000 oila soni kelib chiqadi. Har bir oila o'rta hisob bilan 4 kishidan iborat deb hisoblasak, xonlikda yashab turgan butun aholining nufuzi 684000 kishi ekanligi kelib chiqadi, lekin bu 10 yil ilgari hisob. Agar keyingi vaqtlarda qo'shilgan asirlar va qullarni ham birga qo'shib hisoblaganda xonlikda yashab turgan aholining sonini 800000 kishidan iborat deyish mumkin. Xonga tobe bo'lgan ko'chmanchi qozoqlar va turkmanlar bu hisobga kirmaydi.

## **Xonning daromadlari haqida**

Xon quyidagi daromad manbalariga ega:

1) Hojilar, navkarlar va ko'chib kelgan turkmanlardan tashqari barcha o'troq ozod xivaliklardan jon boshiga soliq undirib olinadi. Bu soliq 3 darajaga bo'linadi: eng badavlat kishilar xonadon yoki qozon boshiga 3 tilladan (bizning pulga aylantirib hisoblaganda sal kam 45 so'mga to'g'ri keladi), o'rtacha davlatmandlar 2 tilladan, kambag'allar esa 1 tilladan to'laydi. Bu soliqni xonlik amaldori qushbegi yig'adi. Xalqni darajalarga bo'lish, ro'yxatga olish ham ana shu qushbegi qo'lida bo'ladi. Soliq solish uchun har 6-7 yilda bir marta ro'yxat qilinadi. Chunonchi, qushbegi xonlikni aylanib chiqar ekan, okrug oqsoqollaridan va imomlardan ma'lumot oladi. Imomlar qasamyod qilishib, o'z qo'l ostlarida bo'lgan xonadonlar soni va ularning ahvoli haqida xabar beradilar. Qushbegi ular bergan ma'lumotlarga ishonib ro'yxat tuzadi va shunga asosan soliq yig'iladi. Agar oila boshlig'i o'lib qolsa, u xonadon soliqdan ozod qilinadi. Maslov degan kazakning gapiga qaraganda 3 tilladan soliq to'lovchi xonadonlar aholining yarmini, 2 tilladan to'lovchilar uchdan birini, qolganlari 1 tilladan soliq to'lovchi xonadonlarni tashkil qiladi. Shu

hisobga ko'ra 120000 so'm soliq undirilib olingan bo'ladi. Bu soliq xivaliklarning tinkasini quritadi, ayniqsa, soliq yig'ishga mutasaddi bo'lgan amaldorlar firibgarlik va aldamchilik qilishadi.

Qoraqalpoqlar va Xiva atrofidagi ko'chmanchi qozoqlar qo'y boshiga 25 tiyin va yirik qoramol boshiga 74 tiyin hisobidan chorva solig'i to'lashadi, yilqi va tuyalar uchun soliq olinmaydi. Puli yo'qlar bahosiga qarab chorva bilan to'layveradi. Ko'chmanchi turkmanlardan esa har qirq boshga bir hisobidan chorva solig'i olinadi.

2) Xonga qarashli yerlardan keladigan daromadlar, Xiva xonligidagi ekin ekiladigan yerning qariyb yarmisi xonning o'ziga qarashlidir. Xon bu yerlarning bir qismini maosh o'rnida amaldorlarga ulashib bergan, bir qismiga o'zining shaxsiy qullari orqali ekin ektiradi, bir qismini esa ijaraga beradi, ijara haqi xonning jo'mardligiga bog'liq: uchdan bir, to'rt dan bir, beshdan bir qilib belgilanadi. Bundan bir talay daromad yig'ib olinadi.

3) Bojdan keladigan daromadlar. Xiva xonligi orqali Rossiyaga, Eronga va Buxoroga boradigan yoki Xivaning o'zidan chiqib ketadigan savdo karvonlaridan har bir yukli tuya boshiga 1 tildan boj olinadi. Xivaga kirib kelgan mollardan esa qirqdan bir ulush olinadi. Bundan tashqari, bozorlarda sotiladigan jami mollardan ham boj olinadi. Bitta tuya sotganligi uchun — 3 so'm, ot, xo'kiz, sigir uchun — 1 so'm, qo'y uchun 50 tiyin, qul sotganligi uchun — 15 so'm hisobida xonlik xazinasiga boj to'lanadi, shuningdek, keltirilgan asirlarning o'ndan biri, ba'zan esa beshdan biri xonga tegishli hisoblanadi.

4) Xon daraxtzorlaridan kesib olingan har arava yog'och uchun 1 so'mdan jarima olinadi.

5) Xiva yerlari atrofida ko'chib yuradigan ko'chmanchi qozoq va turkmanlardan ular bosib olgan mollarning o'ndan bir ulushi hisobida o'lpon olinadi. Xonlik yerida joylashib qolgan turkmanlar, qoraqalpoqlar va ozod etilgan qullar birinchi ikki yoki uch yilgacha hamma jarimalardan ozod qilinadi.

6) Xonga qarshi jinoyat qilgan kishilarning butun mulki xon tasarrufiga o'tadi.

7) Mehmonxonalardan keladigan daromadlar, sovg'alar va yana boshqa xil daromadlar ham xonning xazinasiga tushadi.

## Qo'shin

Xiva xonining qo'shini quyidagicha tashkil topgan: 1) Maosh olib xizmat qilayotgan o'zbeklardan. Navkarlikka ko'pincha soliqlarni to'lashga qurbi yetmagan kambag'allar yoziladi. Navkarlikka yozilgan har bir kishining yaxshi oti bo'lishi kerak, mextarning buyrug'i bilan otga tamg'a bosiladi va shundan boshlab, bu ot lashkarga qarashli hisoblanadi. Navkarlikka yozilgan kishi harbiy yurishlarga o'z otini minib chiqadi. Sobiq kazak asirlarining aytishicha, xivaliklar, xonlik lashkarining soni 40.000 navkardan iborat, deb aytishgan. Lashkarga yozilgan kishining oilasi soliqlardan, xon kanallarini qazishga chiqarishdan ozod etilgan. Har qaysi yurishdan so'ng navkarlar 5 tildan, harbiy amaldorlar esa ko'rsatgan xizmatlari va xonning jo'mardligiga qarab 10, 20, 50, 100 tildan va undan ham ko'proq in'om olishadi. Biylar 50-100 tilla, yuz boshilar 10-20 tildan olishadi. Shuni ham aytish kerakki, faqat amaldorlarga pul maoshi olishadi, oddiy navkarlarga esa xon tayin qilgan bahoda g'alla beriladi. Xon lashkarini yaxshi deb bo'lmaydi. Lashkarga yaxshi otlar tanlab olinsa-da, yurishlarda yem-xashakning yetishmasligi sababli ko'p otlar o'lib ketadi. Yurishda o'lgan ot uchun egasiga faqat 5 tilla to'lanadi, xolos. Shuning uchun ko'plar yurishga nochor ot bilan chiqishga harakat qiladi, ba'zilar o'z o'rniga odam yollab yuboradi, poraxo'r amaldorlar bunday nayranglardan qo'p foyda ko'rishadi.

Tinch vaqtlarda navkarlar hech qanday maosh olishmaydi. Ular o'z mulkida yashab, xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishadi. Agar xon biron bir yurishga chiqishni ixtiyor qiladigan bo'lsa, odatda bir necha hafta yoki oy ilgari bozorlarda jar soldiradi, bundan xabar topgan navkarlar belgilangan kunga tayyor bo'lishlari va otlarini boqishlari lozim. Bunda yig'ilish vaqti va joyi belgilanadi. Belgilangan vaqtda xonning o'zi yoki birodari to'plar bilan qurollangan ko'pchiligi o'zbeklardan tuzilgan Xiva atrofidagi lashkar bilan yurishga chiqadi. Lashkarning yig'ilib ulgurmagan qismi ham jam bo'lib, xon buyrug'iga binoan uning ketidan yo'lga chiqadi. Yo'lga chiqqan xon, odatda, qolgan lashkarni kutib biron bir cho'lda 10-15 kun qo'nib turadi. Yurish vaqtida xon lashkarni

oziq-ovqat bilan ta'minlamaydi. Har bir navkar o'z rizqini o'zi topib yeyishi kerak. Odatda 2 yoki 3 navkar sherik bo'lishib 1-1,5 oyga yetadigan o'z oziq-ovqatlarini tuyaga yuklab olishadi, kambag'allar esa ovqatni o'zlari mingan otda olib yurishadi. Oziqlari tugasa, o'g'irlik, bosqinchilik, talonchilik qilishadi, yo'llarda uchragan qoramol va yilqilarni so'yib go'shtini olishadi. Xon alohida o'rnak ko'rsatgan navkarlarga o'z aslahaxonasidan miltiq, o'q va porox in'om qiladi. Bunday navkarlar yurishda ham, jangda ham xonga yaqin joyda yuradi, uni muhofaza qiladi. Bunday navkarlar eng mushkul damlarda xavfli joylarda jang qilishadi. Ular 1000 nafar bo'lishadi. Qolgan navkarlar duch kelgan narsalar bilan qurollangan bo'ladi. Umuman, lashkarlarning juda ozchiligida miltiq bo'lib, ularning asosiy quroli nayza, qilich, o'q-yoy va shu kabilardir. Ularning miltiqlari og'ir bo'lsa-da, buning ustiga tepkisiz bo'lib, pilik yoqib otiladi. Otishma sekin bo'lsa ham ko'pchilik o'q xato ketmaydi va 100 sarjin masofadagi odamga tegadi. O'qlarni qo'rg'oshindan o'zlari quyishadi. Otliq lashkar ortidan to'plar olib yuriladi. Xonning to'plari unchalik kuchli emas. Xon saroyida eng kattasining og'ziga mushtum arang sig'adigan kichik kalibrli 20 tacha to'p bor xolos; ulardan 6 tasigina, asirlar xabariga qaraganda, lafetga (stanok) o'rnatilgan bo'lib, yurishlarga olib chiqiladi. Bu to'plar yaxshi o'rnatilmagan bo'lib, ularning chuqurcha bo'lib qolgan joylari bor, bu to'plarda nishonga to'g'ri otib bo'lmaydi, yomon porox tushib qolsa otilgan o'q 100 yoki 150 sarjindan uzoqqa bormaydi. Hozir to'p o'qi cho'yandan quyiladigan bo'ldi. Ilgari temirni toblab yasalardi, lekin o'qlarning o'lchovi to'pning kalibriga mutlaq to'g'ri bo'lishi kerakligi haqidagi qoidaga amal qilinmaydi. O'qlar, odatda, kigiz yoki lattaga o'ralib to'p og'ziga solib otiladi. Poroxni xivaliklar o'zlari ishlab, bozorlarda sotishadi, lekin ular juda sifatsiz bo'ladi; asirlarning aytgan so'ziga qaraganda, Xivada bizning porox ham bo'ladi. To'p xizmati uchta to'pdan iborat bo'lib, har birida 4 tadan rus asiri, 2 yoki 3 tadan eroniy qullar turadi. Bunday to'p xizmati epchil harakat qilmaydi, 100 sarjindan ham nishonga tekkizolmaydi. Hozirgi xon tomosha uchun ba'zan mashq o'tkazadi, bunda u to'pning faqat tez va qattiq ovoz chiqarib otishiga qiziqadi, o'qning nishonga tekkan-tegmaganligi bilan ishi bo'lmaydi.

Yurishlarda to'plarni 4 ta yoki 5 ta, hatto, undan ham ko'p ot tortib yuradi, porox o'qlar esa otlarga ortiladi. Umuman, bu to'plar muntazam lashkar uchun qo'rqinchli emas va xivaliklarning o'zlari ham uni yovni qo'rqitish maqsadida ishlatishadi.

2) Xiva xonligi yerida o'mashib qolgan turkmanlar har 10 xonadonga bittadan navkar berishadi. Bularga ham xonlikdan maosh va oziq-ovqat berilmaydi, turkmanlar o'z istaklari bilan yurishlarga chiqaverishadi.

3) Xiva xonligi yaqinidagi ko'chmanchi turkman va qozoq hamda qoraqalpoqlardan soliq to'lashga qodir bo'lmaganlari yurishlarga chiqishga majburdirlar. Ular ham maosh va oziq-ovqat bilan ta'minlanmaydi, yurishga chiqqanda esa bosqinchilik qilishadi. Shuning uchun ham ularning ko'pi yurishlarga ko'ngilli bo'lib chiqadi.

Xon navkarlari orasida turkmanlar eng dovyurak hisoblanadi. Lekin ulardagi bu dovyuraklik qiziqqonlik va tezblik bo'lib, bir-ikki hujumdan so'ng so'nib qoladi. Shundan keyin agar dushman ularga tashlanib qolgudek bo'lsa, turkmanlar qochishga chog'lanadilar. Qoraqalpoqlar, aksincha bo'lib, yaxshi navkar hisoblanishadi, mudofaada turishganda ko'pdan-ko'p dushman hujumlarini mardlarcha qaytarishadi. O'zbeklardan ham botir navkarlar ko'p chiqadi.

## **Davlatni idora qilish usuli va ilm darajasi**

Xiva xonligini idora qilish usuli yakka hokimlik asosiga qurilgan bo'lib, o'lim jazosidek og'ir hukmlarni ham xonning yolg'iz o'zi chiqaradi, qog'ozga yozilgan va aniq bo'lgan qonunlar yo'q, kishilarning huquqi aniq belgilanmagan. Xalqni rivoyat, urf-odat, qur'on va umum maslahati bilan idora qilinadi. Shuning uchun ham zo'raonlik, adolatsizlik hodisalari ko'plab sodir bo'lib turadi. Poraxo'rlik katta-kichik barcha amaldorlar o'rtasida odat tusiga kirib qolgan, hatto, xonning o'zini ham har qanday ish uchun ma'lum miqdorda sovg'a berish bilan qo'lga olish mumkin.

Hozirgi xon o'z qo'l ostidagi fuqarolari yerlarining yaxshi arg'umoqlarini va shunga o'xshash shaxsiy mulklarini agar yoqtirib qolgudek bo'lsa, zo'rlik qilib tortib olgan vaqtlari ko'p bo'lgan, uning amaldorlari ham bu ishda xondan qolishmaydilar. Xalq xondan norozi, biroq bunga sabr qilish odat bo'lib qolgan. Xalq



nazdida hokimiyat va zo'rvonlik bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Bizning hukumatimizning risoladagi hukumat ekanini, insonparvar va adolatli ekanini xivaliklar bilishadi, hatto, ba'zilar rus asirlari bilan gaplashib qolganda, ruslar kelib Xivani olishsa edi, degan istaklarni bildirishadi. Ular Buxoro qum ostida qoladi, Xivani suv va ruslar xarob qiladi degan rivoyatlarga ishonadilar. Umuman o'z xoniga ixlos qo'ygan xivalik juda kam; ko'pchilik xalqning hayoti zulm va zo'rvonlik iskanjasidan o'tadi. Islom aqidalari, ayniqsa, xalq zakovatini, qobiliyatini o'tmas qilib qo'yadi. Xivaliklar agar urush bo'lib qolsa xonni ham, vatanlarini ham himoya qilmay, balki o'z shaxsiy mulk va manfaatlarini ko'zlab, mol-mulklarini ko'targanlaricha panoh izlab qochib ketishgan bo'lishardi. Novoaleksandrovsik istehkomi barpo qilingan vaqtda qoraqalpoqlar va turkmanlar shamol qayoqdan tursa, biz ham o'sha yoqqa, degan gapni aytishgan edi.

Xon yo'q vaqtlarda uning o'rnida ukasi o'tiradi.

Xiva xonligidagi asosiy amaldorlar: 1) vazir yoki qushbegi birinchi amaldor hisoblanib, u kanallarni qazitish uchun ishlovchilarning ro'yxatini tuzdiradi va xonlikning Qo'ng'irotdan Xivagacha va undan Yangi Urganchgacha bo'lgan Shimoliy qismida soliqlarni yig'adi, janubda Pitnyakkacha bo'lgan yerlarda esa xonning ukasi uchun maxsus amaldorlar soliq yig'adi. 2) Mehtar navkarlarga maosh to'lash, ularga xizmat naryadi tuzish bilan shug'ullanadi. 3) Mecha mahram va unga yordamchi Xo'ja mahram karvonlardan, Xivaga keltirilgan qoramoldan va bozorlarda sotiladigan mollardan zakot yig'adi. 4) Biylar tinch vaqtlarda o'z zimmalariga topshirib qo'yilgan shahar va okruglarni idora qiladi; qushbегining farmoniga binoan soliq yig'adi. 5) Qozilar biylar bilan birgalikda sud qilishadi, kishilar o'rtasidagi janjallarni hal qilishadi; biy bo'lmagan vaqtlarda uning o'rnida ish ko'rishadi. 6) Raislar shaharliklardan bo'lib, shaharlarda tartib saqlanishi, bozorlarda to'g'ri o'lchash ustidan va diniy marosimlarning bajarilishi ustidan nazorat qilib yurishadi. 7) Bachmanlar Mecha mahram qo'l ostidagi xizmatchilar bo'lib, shaharlarda va bozorlarda sotilayotgan chorva mollaridan zakot yig'ishadi. 8) Yuz boshi urush vaqtida xizmat qiluvchi kichik amaldor. 9) Yasovullar xon kanallarini qazish ustidan nazorat qiladi.

Xiva musulmonlari sunniylar mazhabiga mansubdir. Shuning uchun ham ularga eroniylarni qul qilish huquqi berilgan. Oxun ruhoniylarning boshlig'i hisoblanib, u Xivada istiqomat qiladi. Hojilar, qozilar, raislar, mullalar, imomlar uning qo'l ostida hisoblanadi. Imomlar xudoga ibodat qilish marosimlarini amalga oshiradi. Davlat qaramog'ida bo'lgan bola o'qitiladigan bilim yurtlari yo'q. Lekin xususiy kishilar qo'lida maktablar bo'ladiki, unda mullalar bolalarga savod va qonunlarni o'qitishadi. Savodli kishilar anchagina bor. Yerni tanoblab o'lchashlariga qaraganda, xivaliklar geometriyadan boshlang'ich tushunchaga ega va ularda qandaydir yer o'lchovlari bor deyish mumkin. Xalq juda ishchan va mehnatkash, biroq juda ta'magirlik, tovlamachilik va o'g'rilikka moyil bo'ladi. Ayniqsa, qullar va turkmanlar ko'proq o'g'rilik qilishadi, anchadan beri ichkilikbozlik avj olgan. Amaldorlar poraxo'rlikka shunchalik mukkasidan ketganki, har qanday vaziyatda ham pul berib, ularni qo'lga olish mumkin. Bu yerda o'g'rilik, tovlamachilik, janjal, kanallarda suvni bo'g'ib qo'yganliklari uchun, hatto, odam o'ldirish kabi jinoyatlar ham tez-tez bo'lib turadi. Ayniqsa, suv kamchil vaqtlarda baland joylarda yashovchilar kanalni bo'g'ib, o'z yeriga oqizib qo'yishadi, shu tufayli etakda yashovchilar suvsiz qolishadi.

\* \* \*

Yuqoridagilardan ma'lumki, Xiva xonligi ilm-fan sohasida past darajada turadi, lekin bu yerda dehqonchilik, bog'dorchilik va gidrotexnika ishlarining ahvoli yaxshi. Bu xalqning turmushida ilgari ko'chmanchilik hayotining asorati hali ham saqlanib qolgan. Xonlik asta-sekin kuchayib bormoqda; aholi ko'paymoqda, kanallar kengaytirilmoqda, ularning umumiy uzunligi oshmoqda, yana yangilari qazilmoqda; ko'chmanchi xalqlar xon tomonidan qilinayotgan imtiyozlar tufayli o'z kuch va imkoniyatlarini rivojlantirishga bajonu dil kirishmoqdalar.

Hozirgi vaqtda Xiva o'zining asosiy ehtiyojlariga ko'ra Rossiyaga juda bog'lanib qolmoqda. Bu ehtiyojlarning eng muhimi va asosiysi temir va cho'yan bo'lib, undan belkurak, o'roq, motiga, bolta,

omoch tishi, miltiq, qilich, pichoq, iskana, nayza va boshqa eng zarur qurollar yasashadi. Belkurak imorat solish, devor qurish, kanal qazish va bog‘dorchilik ishlarida kerak bo‘ladi. Belkuraklar bu yerdagi og‘ir va tinimsiz ishlarda faqat 2 yoki 3 yilgacha chidash beradi. Har bir xonadonda bittadan belkurak bo‘lsa, uning vaznini 5 qadoqdan deb hisoblasak, u holda jami xonadonlardagi belkuraklarning umumiy vazni (ularning soni 160 000) 20 000 pudni tashkil qiladi. Demak, har ikki, uch yilda birgina belkuraklar yasash uchungina ana shuncha metall kerak bo‘ladi, yiliga esa bu ehtiyoj uchun 6-10 ming pud metall ketadi. Omoch tishi ham shuncha vaqtga yetadi. Agar bitta tishning o‘rtacha vaznini 5 qadoq deb olsak, hamma xonadonlar uchun omoch tishlari quyishga har yili 6 ming pud cho‘yan ketadi. Bundan tashqari har xil uy-ro‘zg‘or buyumlari, six, mola, arra, kemalarni biriktiradigan temir qism, qurol-aslaha va turli-tuman asboblari yasash uchun ham ancha miqdorda temir va cho‘yan zarur. Yana Rossiyadan olinadigan boshqa zarur narsalar, chunonchi: achchiqtosh, to‘tiyo hamda poyabzal, yugan va boshqa anjomlar ishlash uchun bulg‘ori charm ham borki, aholining ko‘payib borishi bilan bularga bo‘lgan ehtiyoj yildan yilga oshaveradi, binobarin, Xiva xalqining, umuman, O‘rta Osiyodagi o‘troq xalqlarning Rossiyaga qaramliligi ham oshib boradi. Cho‘yan va temir O‘rta Osiyoga faqat Rossiyadan keltirilishi mumkin. Yetishtiriladigan paxtani, paxta mahsulotlarini, har turli mevalarni xivaliklar faqat bizga sota oladilar, lekin bu mahsulotlarni Buxoroga, Eronga va Afg‘onistonga sotisholmaydi, chunki Xivaga kerakli molni Rossiya yetkazib bera oladi. Shuning uchun ham xivaliklar savdo ishlarida tamoman Rossiyaga qaramdir.

Xivadan jo‘natilgan bir necha asirlar Orenburgga kelishi natijasida u yerdagi savdoning ahvoli to‘g‘risida axborot bergan. Bu axborotlardagi ma‘lumotlarni nazarga olganda, bizning O‘rta Osiyo bilan bo‘layotgan savdomizning bundan buyon yaxshilanishiga umid qilamiz.

Xiva savdogarlarining hukumat tomonidan Rossiyada ushlanib qolinishi Xivada rus mollarining narxini favqulodda ko‘tarilib ketishiga bevosita turtki bo‘ldi. Buni 1837 yil yanvarda Xivaga yuborilgan Buxoro vakili tuzgan tubandagi 2-jadvaldan ko‘rish mumkin.

Bu narxlar bir joyda turib qolmay, balki charm, taxta tunuka

kabi mollarning narxi yanada oshib ketmoqda. Bu o'ringda Yangi Urganch aholisining (Xiva xonligining eng katta sanoat markazi) Amudaryo bo'ylab suv yo'li orqali Buxoro bilan aloqa qilayotganliklari ham, xonning buyrug'i bilan Buxoro karvonlarini Xivaning har ikki tomonidan shaharga majburan kiritib, Rossiyadan olib kelishayotgan mollarning bir qismini sotirilishi ham bunga yordam bermayotir.

Shunga qaramay, Xivaning Rossiya bilan aloqalarini to'xtab qolishi Xiva uchun zarar qilgan holda, bizning savdomizga zarar berish u yoqda tursin, savdomizning kengayishiga, hatto, foyda keltirishiga sabab bo'ldi.

Bojchilar bergan ma'lumotlarga ko'ra, chetga mol chiqarish 3-jadvaldagidek bo'lgan.

Xiva xonligi, garchi bizning ishlab chiqarish mahsulotlarimizning sotilishi uchun unchalik ahamiyatli joy bo'lmasa-da, lekin uning O'rta Osiyodan Rossiyaga olib boradigan yo'l ustida joylashganligi, Buxoro va Balxga olib boradigan Amudaryo suv yo'li hamda Toshkent va Qo'qonga ketadigan Sirdaryo suv yo'li boshlarida turishi, Rossiyaning O'rta Osiyodagi barcha savdo korxonalarini uchun alohida diqqatga sazovor darajadagi joy hisoblanadi. O'rta Osiyo bilan bo'ladigan savdoning foydasi shubhasiz katta, bunga quyidagi misol dalil bo'la oladi. Chitning bir gazi Nijegorod yarmarkasida 48-54 tiyin turadi. U yerdan Orenburggacha bo'lgan yo'l xarajati 0,5 tiyin, yana olinadigan xiroj 0,5 tiyin, Buxorogacha yo'l xarajatlari 3 tiyin turadi; shunday qilib bir gaz chitga qilinadigan jami xarajatlar 5 tiyindan iborat. Lekin Buxoroda shu chitning bir gazi 61-71 tiyindan sotiladi. Yoki har to'pi 32 so'm turadi. (Bir to'p chit 45-52 gaz bo'ladi).

Binobarin bir gaz chit 10 tiyin yoki 20 protsent foyda keltiradi. Shu hisobdan kelib chiqsak, turli tovarlarning foyda protsentlari tubandagicha bo'lmoqda:

Osiyo tovarlaridan keladigan foydalar: paxtadan yigirilgan ipning Buxoroda bir botmoni 24 chervondan sotiladi, ya'ni bizningcha bir pud 48 so'm bo'ladi. Xivada ipning har pudidan 1 so'm 20 tiyindan boj olishadi, Orenburggacha yo'l xarajati 5 so'mni tashkil qiladi, Orenburgda undan 4 so'm boj olinadi, Nijniy Novgorod shahrigacha yo'l xarajati 2 so'm bo'ladi. Hammasi bo'lib, har

## 2-jadval

Mollar	Orenburgdagi bahosi, so'm	Xivadagi bahosi, so'm	
		1836 yildan	1856 yildan
		avval	keyin
Qo'ng'ir charm, 10 teri	120	130	270
Arzimas charm, 10 teri	140	135	300
Achchiq tosh, 1 pud	8	12	40
Simob, 1 pud	200	240	600
Bo'yoqlar, 1 pud	140	155	600
Kashinini, 1 pud	460	500	675
Chit, 50 gazi	30	35	40
Qand, 1 pud	45	50	68
Mitkal ip gazlama, 50 gazi	18	22	30
Kalenkor, 10 dona 16 gazdan	200	240	300
Cho'yan, 16 pud	72	112	150
Taxta tunuka, 1 pud	4	9	18
Po'lat, 1 pud	7	12	20
Rangli so'kna, 1 pud	125	150	240
Paxta tolasi, 1 pud	24	12	6

Nanka 30 protsent.  
 Kalenkor 18 protsent.  
 Ip ro'mol 33 protsent.  
 ro'mol 37 protsent.

Qizil so'kna 46 protsent, boshqa rangdagilari 41 protsent.  
 Zarbobli kimxob 18 protsent.  
 Charm 29 protsent.  
 Mum 44 protsent.

Qand 44 protsent  
 Xivichsimon sim 6 protsent.  
 Taxta tunuka 9 protsent.  
 Cho'yan qozon 35 protsent.

Mis 2 protsent.  
 Qalayi 15 protsent.  
 Simob 42 protsent.  
 Zangori to'tiyo 75 protsent.  
 Xomsurp 5 protsent.

pudiga 12 so'm 20 tiyindan to'g'ri keladi. Bu yerda uning pud

salkam 80 so'mdan sotiladi va foydasi 33 protsentni tashkil qiladi. Shu hisobdan, yigirilgan paxtai 56 protsent, yigirilgan Buxoro va Xivapaxtai 53 protsent, bir toy paxta 15 protsent foydakeltiradi. Osiyoga yuboriladigan bizning tovarlar o'rta hisobda 24 protsent,

Osiyo tovarlaridan keladigan foyda 33 protsentni tashkil qiladi. Binobarin, har bir savdo oborotidan keladigan daromad 100 so‘mning 65 so‘mi hisobiga to‘g‘ri keladi.

Endi bitta masala, bu ham bo‘lsa savdoning hozirgi tor ko‘lami doirasida qolib ketishi yoki uning rivojlanishi masalasi hal bo‘lmay qolmoqda.

3-jadval

Qayerga	1834 yil	1835 yil	1836 yil	1837 yil	1838 yil
	so‘m	so‘m	so‘m	so‘m	so‘m
Buxoroga mollar	793152	1051985	1384738	138313	1167423
pullar	60135	10000	194590	142086	496122
Xivaga	68493	97876	54248	-	-
Hammasi	921783	1159861	1636566	1525220	1663545

Binobarin, buxoroliklar 1835 yilga nisbatan keyingi yillarda shuncha ko‘p tovar kiritishgan. Chunonchi: 514342 s. 463234 s. 601560 s. 1835 yilda kiritilgan tovarlar so‘mmasi keyingi yillardagiga nisbatan shuncha kam edi. Chunonchi: 292124 s. 223272 s. 17562 s. 1835 yilda kiritilgan tovarlarning jami so‘mmasi. Keyingi yillardagi jami so‘mmadan shuncha kam. Chunonchi: 476704 s. 366481 s. 593684 s.

Bu masalani ijobiy hal qilish uchun O‘rta Osiyo to‘g‘risida biz to‘plagan ushbu ma’lumot hali mutlaqo to‘liq emas, lekin tubandagi omillarni nazarga olganda O‘rta Osiyo bilan bo‘ladigan savdo o‘z ko‘lami jihatidan ham ancha foyda keltirishi mumkin deb umid qilishimizga imkon beradi:

1. Bu bozor juda keng bo‘lib, Xitoy, Toshkent, Qo‘qon, Badaxshon, Balx, Buxoroni o‘z ichiga oladi hamda bu yerda Afg‘on va Loharga tranzit savdo yo‘li o‘tadi.

2. Bu yerda sanoat ishlab chiqarishi mavjud.

Har yili savdo karvonlari qatnab turadi, ular G‘uljadan Kashmirga 20 kunda, Qashqarga (Xo‘tan, Yorkent, Oqsuv orqali) 30 kunda, Qashqardan Qo‘qongacha 23 kunda, Qo‘qondan Turkistonga (Toshkent orqali) 13 kunda, Buxoroga 21 kunda boradi.

Shuningdek, Buxorodan Afg‘onistonga, Samarqand, Toshkent, Turkiston, Balx, Fayzobod shaharlariga va bu shaharlarning biridan ikkinchisiga ham karvonlar qatnab turadi.

3. Masofalarning uzoqligi yo'llarni yaxshilash, Amudaryo va Sirdaryoda suv yo'llarining ochilishi bilan savdo faoliyatini yana ham kuchaytirib yuborish mumkin.

4. O'rta Osiyo bizning ba'zi mahsulotlarimizga juda ehtiyojmand, biz esa kerak bo'lgan hamma mahsulotlarni boshqa yevropaliklarga nisbatan arzonroq baholarda u yerga chiqarish imkoniyatiga egamiz.

5. U yerdan ba'zi tovarlarni keltirishimizning qulayligi bor (chunonchi: paxta, ipak, choy, ko'k rang, nil bo'yog'i, za'far, qalampir, ravoch, feruza, sholi va boshqalar).

6. Bizning Buxoro bilan olib borayotgan savdomiz xivaliklarning dushmanligi va Afg'onistondagi isyonlar kabi noqulay sharoitlarda ham uzluksiz o'sib bormoqda.

7. Nihoyat savdo ishlarida tajribakor bo'lgan inglizlar Hindiston va Eron orqali bu yerga suqilib kirishga intilmoqda (1830 yildayoq G'ulja, Xitoy orqali Chorjo'y va boshqa joylarga ularning oz miqdordagi tovari, Banoras orqali Buxoroga ko'proq miqdordagi tovari keltirilib, aql bovar qilmaydigan arzon baholarda sotilgan edi. Masalan, 16 gazli kalenkor to'pi bizda 25 so'm bo'lsa, inglizlar 3 so'mdan, 12 gazli ikki enli chitni 12 so'mdan sotishdi. Bu jo'mardlik garchi ularning o'zlariga zarar keltirsada, bizning savdomizga putur yetkazishga qaratilgan tadbirdir).

Mening fikrimcha, biz nima qilib bo'lsa ham osiyoliklarni o'zlari asriy g'aflat "uyqularidan" uyg'onishlarini kutib o'tirmay, ularga yon berishimiz lozimga o'xshaydi.

O'rta Osiyoning sharqiy qismida Chorjo'y va Qashqar bilan bevosita aloqalar ochish, g'arbiy qismida eng asosiy bozor hisoblangan Buxoroga olib boradigan yo'llarni Xivaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali bexatar qilishni va Kaspiyda kemalar qatnovini kengaytirish - ana shu xususda qilinadigan faoliyatning zaruriy shartlaridan bo'lur edi.



# **O‘ZBEK XONLIKLARINING CHORIZM TOMONIDAN BOSIB OLINISHI**

## **Chor hukumati tajovuzining dastlabki bosqichlari**

Avvalo, shuni ko‘rsatib o‘tish lozimki, O‘rta Osiyo va Rossiya oralig‘idagi Volga, Ural va Irtish daryolarining bo‘ylarida va ularning atroflarida bepoyon yerlar mavjud edi. Bu joylarda qadimdan asosan turkiy tilli qipchoqlar istiqomat qilganlar. Shuning uchun ham u joylar Dashti Qipchoq deb yuritilgan. Chor hukumati ko‘rsatilgan joylarni bosib olgandan keyingina O‘rta Osiyoga bostirib kirish imkoniga ega bo‘ldi. Shu boisdan Dashti Qipchoq haqidama’lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Dashti Qipchoq bilan O‘rta Osiyo o‘rtasidagi aloqalar eramizning birinchi ming yilligidayoq yuqori darajaga ko‘tarilganligi ma’lum. Chunonchi, Volga bo‘yida tashkil topgan Turkiy Bulg‘or va Hazar podshohliklarida O‘rta Osiyoning savdo-hunarmand, ruhoniylar va ma’muriy vakillarining roli katta bo‘lgan. U joylarda xorazmliklarning maxsus turar joylari yuzaga kelgan. Hazar podshohining vaziri va gvardiyasi xorazmliklardan tashkil topgan. Hatto, Hazar-Xorazm imperiyasi vujudga kelgan vaqtlari bo‘lgan.



O'zbeklar keyingi asrlardaham Dashti Qipchoq hayotidamuhim o'rin egalladi. XIII asrning 30-40-yillarida Chingizxonning nabirasi Botu bir qator harbiy yurishlardan keyin Volga bo'yida Oltin O'rda nomida yirik davlat barpo etdi. Bunga Qrim va uning dengiz bo'yi shaharlari, Darbandgacha cho'zilib ketgan Kavkaz va Boku, Shimoliy Xorazm va uning Urganch shahri, rus knazliklari, Dnestrdan boshlangan dashtliklar, G'arbiy Sibir va Sirdaryo etaklari kirgan.

Oltin O'rda Volga-Kaspiy, Ural va Sibir orqali o'tadigan karvon yo'llarini egallab, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Xitoy, rus knazliklari, Sharqiy Ovrupo, Arabiston va boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini olib bordi. Oltin O'rda davlati ayniqsa, O'zbekxon (1312-1342) vaqtida yuksaldi.

Oltin O'rda davlati aholisining asosiy qismini, tashkil etgan qipchoqlar mo'g'ul qabilalarini o'zigasingdirib yubordi. Natijada, XIV asrda turkiy til Oltin O'rdaning adabiy tiliga aylandi. Bu davlatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotining o'sishida o'zbeklar muhim o'rin egallab, ichki va tashqi savdosi ularning qo'l ostida edi. Oltin O'rdaning markaziy shaharlari hisoblangan Botu saroyi (Astraxan yonida) va Berka saroyiga (Volgograd atrofida) O'zbekistondan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar, ruhoniy vakillari, naqqoshlar kelib o'r mashganlar. Ularning bevosita qatnashuvida Oltin O'rdada islom dini keng tarqalgan.

Ayniqsa, Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimidagi shaharlar Oltin O'rdaning so'zlashuv tiligagina emas, balki uning badiiy adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatgan. Saroy Berka shahrida xorazmliklar yashaydigan mahallalar yuzaga kelgan. Ularning orasida yirik davlat mansabidagi kishilar bo'lgan. Masalan, Muhammadxo'ja Xorazmiy O'zbekxon vaqtida Azov viloyatining hokimi hisoblangan.

«Xorazmliklar, - deya yozadi A.YU. Yakubovskiy, - Oltin O'rda poytaxtida madaniyatning turli sohalarida ishlaganlar, ayniqsa, ular orasida hunarmandlar ko'pchilikni tashkil qilgan... Xorazmlik ustalar o'zlariga xos bo'lgan rang-barang naqsh bezaklariga jilo berib ishlash xususiyatlarini koshinkorlik mozaikalarida takrorlaganlar, bu rang-barang naqshli bezaklar Ko'hna Urganchdagi To'rabek xonim maqbarasi kabi ajoyib binoni hozirgacha bezab turibdi. Shu bilan birga xorazmlik ustalar avvalgi

ishlarni takrorlabgina qolmay, bu yangi joyda yangi-yangi usullarni ham yaratdilar.

Saroy Berkada XIII-XIV asrlarda qurilgan turli-tuman binolardagi xilma-xil koshinlar majmui bu yerdati pik musulmon san'ati bo'lganligini ko'rsatadi. Gullarning rasmini to'r-to'r chiziqlar va bezak harflardan yozilgan arabcha xat bilan birga qo'shib ishlash, ko'k, feruza, oq, yashil, sariq sirlar Urganch uchun juda ham xarakterli bo'lgan qizil rang (angob bo'yoq) bilan birga qo'shib tovlash, bularning hammasi O'rta Osiyo va Eron davlatlari shaharlarining xalqlari uchun xos bo'lgan arxitektura formalari bilan birgalikda Volga bo'yi shaharlariga ko'chgan»<sup>49</sup>.

Xorazmliklar Oltin O'rdada kulolchilikning rivoj topishiga ham katta hissa qo'shganlar. Xullas, o'zbeklar qanday bo'lmasin, Dashti Qipchoqda o'z mavqelarini saqlashga qadimdan qattiq harakat qilganlar. Chunki Dashti Qipchoq O'zbekmollari uchun talabchan bozor bo'lishi bilan birga, qator Sharqiy Ovrupo va Sharq mamlakatlari bilan bog'lovchi joy hisoblangan.

Oltin O'rda bilan aloqa O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga ijobiy ta'sir etgan. Shu boisdan, o'zbek savdo, hunarmand va hukumat doiralari Oltin O'rdada o'z mavqeini mustahkamlashga nihoyatda manfaatdor bo'lganlar. O'z navbatida O'zbekiston bilan aloqadan Oltin O'rda davlati ham ko'p foyda ko'rgan.

Amir Temur Oltin O'rdaning muhim ahamiyatga molikligini hisobga olgan holda, dastavval uni tinchlik yo'li bilan o'ziga qaram qilishga harakat qildi. Biroq, bunga erisholmadi. Buning ustiga, Oltin O'rda xoni To'xtamish Amir Temur davlatiga zarba berish maqsadida 1387-1388 yillarda Sirdaryo bo'yidagi shaharlarga qo'shin bilan bostirib kirdi. Biroq, u Temur qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchratildi. Amir Temur 1395 yilda Oltin O'rdani qo'lga kiritdi. Shundan keyin bu davlat o'zining sobiq qudratini yo'qotib, borgan sari zaiflashdi. Shu ravishda, Amir Temur Oltin O'rdaning «belini sindirib» bukchaytirgan edi.

Bu rus knazlarini Oltin O'rda panjasidan ozod bo'lishiga imkon yaratdi. XV asr oxiri - XVI asrning birinchi yarmida markazlashgan

---

<sup>49</sup> Grekov B. D., Yakubovskiy A. YU. Oltin O'rda va uning qulashi. T., 1956, 144-145-betlar.

rus davlati yuzaga keldi. Bu vaqtda Oltin O‘rda davlati Astraxan, Qrim, Qozon, No‘g‘ay va Sibir singari mayda xonliklarga bo‘linib ketgan edi. Bular siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaif edilar. Endilikda sobiq Oltin O‘rda yerlariga tobora kuchayib borayotgan rus davlati harbiy yurishlarni uyushtirdi. 1552 yilda Qozon xonligi, 1556 yilda Astraxan xonligi, keyinchalik Sibir va Qrim xonliklari rus davlati tomonidan bosib olindi. Shu ravishda rus davlati O‘rta Osiyo va Qozog‘iston bilan bevosita qo‘shni bo‘lib qoldi. Oltin O‘rdaga qarashli joylarning bosib olinishi nihoyatda boy tabiiy boyliklarni va muhim karvon yo‘llarining rus davlati qo‘liga to‘planishiga va uni qudratli davlatga aylanishiga olib keldi. Endilikda u joylarda yuz yillar davomida o‘z mavqeini saqlab kelayotgan O‘zbekiston manfaatiga katta zarba berildi. Bu uning taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ettan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Rus davlati sobiq Oltin O‘rdaning bepoyon yerlarida o‘z mavqeini mustahkamlab olgandan keyin, O‘rta Osiyo va Qozog‘istonni egallashni rejalashtirdi. Bu ayniqsa, Pyotr I zamonida yaqqol ko‘zga tashlandi.

Pyotr I 1714 yilda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida Xivaga qarshi harbiy yurish uyushtirish haqida farmon chiqardi. Hukumat senati Pyotr I farmoni asosida Bekovich-Cherkasskiyga 6240 kishidan iborat qo‘shin birlashtirish haqida ko‘rsatma bergan. Pyotr I Bekovich-Cherkasskiyga 13 banddan iborat topshiriqlarni belgiladi. Bunga ko‘ra Bekovich-Cherkasskiy Volga-Kaspiy yo‘li orqali Xiva tomon yurish qilib, Amudaryo qirg‘og‘ida» harbiy qal‘a qurishi, Amudaryoni Kaspiy dengizi tomon burishi va Xiva xonligini bosib olishi lozim edi. Agar Xiva xonligi egallansa, u vaqtda Bekovich-Cherkasskiy Xonlik kishilari bilan birga ikki rus kishisini Yorkentga oltin borligini aniqlash uchun yuborishi kerak» edi. Shuningdek, Bekovich - Cherkasskiy zimmasiga Buxoro amirligining ham rus davlati tobeligiga o‘tish masalasini aniqlash vazifasi yuklatilgan edi. Uch yillik tayyorgarlikdan so‘ng, 1717 yil 9 iyunda Bekovich-Cherkasskiy 3727 piyoda, 617 otliq dragun, 2 ming kazak, 230 dengizchi va 22 to‘p bilan Guryev shahridan Xiva xonligi tomon yo‘lga chiqdi. Bu vaqtda Xiva xonligida rus qo‘shinlari kelayotgani haqida ma‘lumotlar olinib, u yerda tayyorgarlik ko‘rilayotgan edi.

Xiva xonligiga uch kunlik yo'l qolganda, ya'ni Porsu degan joyda Xiva qo'shini rus askarlarini qurshab oldi. Uch kun davomida har ikki tomon o'rtasida jang bo'ldi. Dushman vatan himoyachilariga qarshi to'plardan o'q yog'dirdi. Bu yerda shuni ko'rsatib o'tish lozimki, Xiva qo'shinlari nayza, o'q-yoy va boshqa shunga o'xshash oddiy yarog'lar bilan qurollangan edi. Mahalliy va rus manbalarida har ikki tomon o'rtasida yuz bergan jang haqida batafsil ma'lumotlar yo'q. Shu narsa ma'lumki, Hiva xonni Sherg'ozini Bekovich-Cherkasskiy huzuriga elchilar yuborib, masalani tinch yo'l bilan hal qilishni taklif qilgan. Bunga ko'ra rus qo'shinlarini beshga bo'lib, xonliklarning turli shaharlariga taqsimlash va so'ngra muzokara yuritish ko'zda tutilgan. Xon rus kishilari ko'p bo'lgani uchun bir yerda oziq-ovqat va joy bilan ta'minlashning iloji yo'qligini ma'lum qilgan. Rus manbalarining ko'rsatishicha, Bekovich-Cherkasskiy soddalik qilib, bu taklifga rozi bo'lgan. Xiva xoni esa rus qo'shinlarining bo'linishidan foydalanib, ularni birin-ketin qirib tashlagan. Bekovich-Cherkasskiy va uning o'rinbosari Zamanovninke-silgan boshlari Xiva bozorida osib qo'yilgan. Bekovich-Cherkasskiy qo'shinining ancha qismi qirib tashlangan. Qolgan ma'lum qismi asirga olinib ishlatilgan. Ayrim rus kishilarigina Astraxanga qochishga muvaffaq bo'lgan. Shunday qilib, Pyotr I ning harbiy kuch bilan Xiva xonligini bosib olish harakati muvaffaqiyatsizlik bilan tugallandi.

Buxoro amirligi Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy yurishdan xabardor bo'lsa-da, biroq unga qarshi biror chora ko'rmay xolis turdi. Bu bilan Buxoro amirligi rus davlati bilan aloqaning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutgan edi. Xiva xonligi o'z g'alabasini namoyish qilish maqsadida Bekovich-Cherkasskiy kallasini Buxoroga yuboradi. Bu yerda amir uni olmay Xivaga qaytarib yuboradi.

1720 yilda Xiva xoni Sherg'ozixon Vaysmamat (Uvays Muhammad) ismli kishini elchi sifatida Rossiyaga yuboradi. Bu elchi olib kelgan xon yorlig'ida xonlikning Eron bilan urush olib borayotgani xabar qilinib, rus davlati bilan yaxshi munosabatlarni tiklash zarurligi Pyotr I ga ma'lum qilingan. Bu bilan barobar Bekovich-Cherkasskiy ko'p sonli qo'shin bilan kelib, xonlikni bosib olmoqchi bo'lganligi uchun uning qo'shinlariga zarba berilganligi uqtirib o'tilgan. Bekovich-Cherkasskiyning xonlikdagi

mag'lubiyati rus davlatining xalqaro obro'yiga putur yetkazmasligi mumkin emas edi, albatta. Bu holat Pyotr I ni va umuman, rus hukumati doiralarini g'azabga solgan. Shuning uchun ham Pyotr I oddiy elchilik qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzgan holda o'sha Xiva elchisini 4 ta hamrohi bilan Astraxandan soqchilar nazoratida Peterburgga keltirib, Petropavlovsk qamoqxonasiga tashladi. Keyin elchi tashqi ishlar hay'atiga chaqirilib, u bilan suhbat o'tkazilgan.

Bu yerda o'ldirilgan Bekovich-Cherkasskiyning va rus askarlarining xuni uchun elchini osib o'ldirish lozim deyilganda, elchi bu «Sizlarning ishingiz» deb javob bergan. 1721 yilning 10 martida elchi qamoqxonada vafot etgan, ehtimol u qasddan o'ldirilgandir. Uning hamrohlaridan biri Kuchek (Kichik) nomli kishigina rus hukumatining rus asirlarini ozod qilish haqidagi xati bilan Xivaga jo'natilgan, qolgan 3 kishi 1724 yilda surgun sifatida ishga yuborilgan.

Jahondagi yirik imperiyalardan hisoblangan rus davlati qo'shinining kichik bir xonlikdan yengilishi xalqaro miqyosda sharmandalik edi. Shuning uchun bu holat Pyotr I ni qattiq larzaga solgan. Mashhur rus yozuvchisi Pushkinning so'zicha, Pyotr I Xiva xonligidan o'chini ololmay, qattiq alamda jon bergan.

1725 yilda Buxoro amirligi bu yerga kelgan rus elchisi Beneveni orqali Pyotr I nomiga xat yuborgan. Bunda o'zaro savdo aloqalarini samarali davom ettirish taklifi bilan bir qatorda, Xiva xoni Sherg'ozining Bekovich-Cherkasskiyga nisbatan bo'lgan munosabati qoralangan. Hatto, xon yorlig'ida Xiva xonligiga qarshi Buxoro askarlari yuborilganligi ma'lum qilingan. Aftidan, bu vaqtda har ikki davlat o'rtasida jiddiy kelishmovchilik bo'lgan. Xullas, Buxoro amiri Abulfayzxon o'zini rus davlati tomonida ekanligini ko'rsatishga harakat qildi.

Vaholanki, Pyotr I Xiva xonligini bo'ysundirgandan so'ng Buxoroni ham egallash niyatida edi. Pyotr I Sharqda Rus davlatining ta'sirini o'rnatishda Qozog'istonga alohida ahamiyat bergan.

“Sharq bilan aloqada, - degan edi u, - Qozog'iston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun millionlab pul sarflansa ham, Qozog'istonni bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa u yerda Rossiya ta'sirini o'rnatish zarurdir”. Uning bu orzusi ko'p vaqt o'tmay vaziyat taqozosida tinchlik yo'li bilan ro'yobga chiqdi. Chunonchi, uning vafotidan keyin, ya'ni, 1731 yilda qozoqlarning

Kichik Juzi, 1732-1740 yillarda O'rtta Juzi rus davlatining tobeligiga o'tdi. Bu holat rus davlatiga kelajakda O'zbek xonliklariga bostirib kirish uchun katta imkoniyatlarni yaratdi. Chunonchi, rus davlati Qozog'istonda Orenburg, Semipalatinsk, Petropavlovsk, Troitsk va boshqa shaharlarni hamda o'nlab harbiy istehkomlarni qurdi. Ularda harbiy qismlar bilan bir qatorda ruslar ham joylashtirildi. Shuningdek, tog' konlari ishga tushirilib, rus davlatining boyligiga boylik qo'shildi.

Shu tarzda rus davlati o'zbek xonliklariga borgan sari yaqinlashib xavf tug'dirdi. U o'zining yovuz niyatlarini tinch-totuv qo'shniçilik, savdo-sotiq va karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash bayrog'i bilan niqobladi. Aslida esa chor hukumati o'zbek xonliklari haqida ma'lumotlar to'pladi va uning zaif tomonlarini batafsil o'rgandi. Ayni bir paytda, ochiqdan-ochiq xonliklarni bosib olishga harakat qildi. Masalan, 1837 yilda rus imperatori Xiva xonligini bosib olish uchun harbiy tayyorgarlikni ko'rish haqida Orenburg general-gubernatori Perovskiya ko'rsatma berdi. Puxta tayyorgarlikdan keyin 1839 yilda general Perovskiy boshchiligida 22 ta to'p bilan ta'minlangan 5 mingdan ortiq rus qo'shinlari Orenburgdan Xiva xonligi tomon yo'lga chiqdilar. Ular uzoq yo'lni bosib, Oqbuloq degan joyga o'rmashdilar. Bundan xabar topgan Xiva xoni u yerga o'zining lashkarboshisi rahbarligida qo'shinini yubordi. 42 kun davomida ikki tomon o'rtasida otishuvlar bo'lgan. Natijada vatan himoyachilaridan 80 kishi, dushman tomonidan esa 5 kishi o'ldirildi va 13 kishi yarador qilindi.

O'sha yili Orenburg va Xiva xonligi oralig'idagi yo'llarda qish nihoyatda sovuq kelgan. Rus askarlarining orasida o'lish va kasallik tobora avj oldi. Ko'p kishilarning qo'l va oyoqlarini sovuq urgan. Shuningdek, singa kasali katta xavf tug'dirgan. Buning ustiga, oziq-ovqatning kamligi tufayli yurishni davom ettirishning iloji bo'lmay qoldi. Ish hayvonlarini yem-xashak bilan ta'minlash ham og'irlashgan.

Shular boisidan 1840 yilda Xiva xonligiga 600 chaqirim qolganda general Perovskiy og'ir sharoitni hisobga olgan holda, o'z qo'shinlariga Orenburgga qaytish haqida buyruq berdi. Rus qo'shinidagi yuzlab kishilar adashganligi yoki betobligi tufayli xivaliklar tomonidan asirlikka olingan.

1839 yilgi harbiy yurishda davlat xazinasidan 1 million 800

ming so‘m behudaga sarflandi. Ko‘p kishilarning yostig‘i quridi yoki dardga chalindi. Biroq, Xivani bosib olish niyatidan qaytilmadi. General Perovskiy Xivaga qarshi yangi harbiy yurishni taklif qildi. Buni amalga oshirish uchun 9,5 million so‘m va askarlarning sonini 19 ming kishiga yetkazishni so‘radi. Bundan tashqari, 15 ming ot va 17 ming tuya ajratilishi lozim edi. Biroq, rus davlatidagi ichki va tashqi vaziyat rejani amalga oshirishni orqaga surdi.

XIX asrning 40-yillarida o‘zbek xonliklariga qarshi yurish boshlab yuborildi. Bu vaqtlarda qozoq xalqining sodiq farzandi Sulton Kenisarin boshchiligida chorizm hukmronligiga qarshi harakat kuchaydi. 1843 yilda rus harbiy kuchlari o‘sha qo‘zg‘olonni bostirish uchun yuborildi. Natijada vatan himoyachisi Sulton Kenisarin qo‘lga olindi va o‘ldirildi. Shu ravishda chor hukumati o‘zbek xonliklari tomon yurishda uchraydigan barcha to‘siqlarni bartaraf qilib bordi. Ayni bir vaqtda harbiy istehkomlar qurdi. Masalan, 1845 yilda To‘rg‘ay daryosi bo‘yida Orenburg istehkomi qayta qurildi, Mang‘ishloq yarim orolida esa Novopetrrovsk [keyinchalik Aleksandrovsk] istehkomi barpo qilindi. 1847 yilda esa Sirdaryoning Orolga quyilish joyida Raim (Kazalinsk) harbiy istehkomi bunyod etildi. Bu ishni general Obruchev qo‘mondonligidagi 4 rota, 3 yuzlik va 4 zambaraklik askarlar amalga oshirdi. O‘sha yili 23 avgustda polkovnik Yerofeyev boshchiligidagi 2 zambarak bilan qurollangan 200 rus qo‘shini Xiva askarlarini mag‘lubiyatga uchratib, Jonxoja qal‘asini bosib oldi. Shundan keyin “Nikolay” va “Konstantin” kemalaridan iborat Orol flotiliyasi yuzaga keltirildi. Keyingi 1848 yilda Xiva xonligiga qarashli Xoja Niyoz qal‘asi rus qo‘shini tomonidan egallandi va ostin-ustun qilib tashlandi. 1850 yilda 50 piyoda, 175 kazaq va 2 zambaraklardan tashkil topgan rus qo‘shini Qo‘qon xonligining To‘ychibek qal‘asini bosib oldi va buzib tashladi. O‘sha yili dushman kuchlari Qo‘shqo‘rg‘on qal‘asini egalladi.

1851 yilda polkovnik Koraboshev boshchiligida 5 rota, 5 yuzlik, 6 zambarak va 1 raketa moslamasiga ega askarlar Oqbuloq degan joyning yaqinida Yoqubbek boshchiligida Qo‘qon qo‘shiniga zarba berdi. Bu vaqtda Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, To‘qmoq, Oqmachit va ularning atrofidagi bepoyon yerlar Qo‘qon xonligining qo‘l ostida edi. Shu boisdan rus qo‘shinlar» birinchi

navbatda xonlikning kuchlari bilan to'qnashdi. Oqmachit (hozirgi Qizil O'rda) xonlikning eng muhim qal'alaridan biri hisoblangan.

1852 yilda unga rus qo'shinlari hujum qildi, lekin 72 kishini qurbon berib ham ololmadilar. O'sha yil rus qo'shinlarining harbiy otradi (1-2 rota, 2 yuzlik va 5 zambarak) bilan Kumushqo'rg'on, Chimqo'rg'on, Qo'shqo'rg'on singari Qo'qon qal'alarini bosib oldi. 1853 yilda shaxsan general Perovskiy boshchiligida 12 ta to'plar bilan 2 mingdan ortiq askarlar Oqmachitni qamal qildilar. General Perovskiyning taslim bo'lish haqidagi taklifiga vatan himoyachilari: «Bizlar bir dona porox va ko'chada bir kesak qolguncha hamma qurollarimiz tamoman sinib bitguncha kurashamiz», deb javob qaytarganlar.

Qal'ada bor-yo'g'i 250 kishi mudofaada edi. Lekin shunga qaramay, jasorat va qahramonlik namunalarini namoyish etib, dushmanni hayron qoldirdi. Bunga tan bergan general Perovskiy boshliqlarga yozgan axborotida mudofaachilar «Qal'aning devorlarida va ichki tomonidan qo'mondon Muhammad Alixonning halok bo'lishiga qaramay, yuzboshi Lafas boshchiligida nihoyatda katta jasorat va matonat bilan jang qildilar. O'zlari qasam ichganidek, oxirgi daqiqagacha imkoni boricha kurashdilar», degan edi. Shunisi diqqatga sazovorki, qal'a himoyasida o'zbek ayollari ham qatnashib, dushmanni hayratda qoldirgan. Rus qo'shini qal'a devorining ostiga porox qo'yib portlatib, ichkariga bostirib kirgandan so'ng, erkaklar va ayollar qo'llaridagi qurollarini va o'qlarini tashlab qilichbozlik jangiga o'tib, shu darajada urushdilarki, bunday manzarani osmonu falak hali hech ko'rmagan va eshitmagan edi. Qal'adagi erkak va ayollar asir tushishni or bilib, o'zlarini o'limga mahkum etganliklari ruslarni juda hayratlantirganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

1853 yil 28 iyulda 22 kunlik jangdan keyin Oqmachit qal'asi tor-mor etildi. Bu yerdagi 250 himoyachidan 74 kishi tirik qolgan, ulardan 35 yarador hisoblangan, o'lganlarning orasida ayollar ham bo'lgan. Rus askarlaridan 25 kishi halok bo'ldi va 46 kishi yarador bo'lgan. Qal'adan 80 ayolva 25 bola asir olindi.

Oqmachitning o'rnida «Fort Perovskiy» nomli rus qal'asi barpo etildi. Oqmachitning qo'ldan ketishi butun Qo'qon xonligini larzaga soldi. U yerga bir necha marotaba Qo'qon qo'shini va ko'ngillilar yuborilib, jang qilindi. Bunday janglarning birida, 1853 yilning



18 dekabrda vatan himoyachilaridan 2 ming kishi halok bo'lgan. Lekin har bir urinish mag'lubiyat bilan tugallandi. Qrim urushi munosabati bilan rus davlatining o'zbek xoniiklariga qarshi yurishi ancha susaydi.

1854 yilda Olmaotada-Verniy nomida rus harbiy istehkomi qurildi hamda Ili vodiysi qo'lga kiritildi. Bu yerda Iliorti bo'limi tashkil etildi. 1856 yilda polkovnik Xarmentovskiy boshchiligidagi 1 rota, 1 yuzlik va 1 raketa dastgohli rus qo'shinlari qozoqlarning Katta Juziga tegishli tapay qabilasini bo'ysundirdi. Shuningdek, 320 piyoda, 300 kazak, 3 zambarak va 2 raketa moslamasidan tashkil topgan general-mayor fon Fitingraf qo'mondonligidagi qo'shin Xo'ja Niyoz harbiy istehkomini bosib oldilar. 1857 yili esa o'sha general 200 piyoda, 300 kazak va 2 zambarak bilan Xiva qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi hamda ular tarafini olgan bir guruh qozoqlar jazolandi.

Rus davlati tomonidan birin-ketin xonlik yerlarining bosib olinishiga qarshi Toshkentda katta kuch to'plandi va Iliorti tomonga yuborildi. Bu yerlarda 1858 yilda 5000 kishilik Toshkent va Qo'qon harbiy kuchlari bilan podpolkovnik Peremeshalskiy boshliq qo'shin o'rtasida jang bo'lib, vatan himoyachilari Chuy daryosi vodiysiga surib tashlandi.

1860 yilda 6 rota, 600 kazak, 12 og'ir zambarak, 4 raketa moslamasidan tashkil topgan askarlar Pishpek va To'qmoq singari Qo'qon istehkomlariga hujum uyushtirdi. Dushman 5 minglik vatan himoyachilari hujumini qaytarib, qo'li baland keldi. U Pishpekni egallash uchun 954 ta snaryad va 13 mingga yaqin o'q ishlatdi. Himoyachilardan ko'p kishilar o'ldirildi va yarador qilindi. Shuningdek, To'qmoq qal'asi ham dushman tomonidan egallandi. Bu hol butun xonlikni katta tashvishga soldi. O'zbek, qozoq va qirg'izlar birgalikda Toshkent hokimi boshchiligidagi rus davlati tajovuziga qarshi bosh ko'tarib 1860 yil 21 oktabrda Qorako'z tog' daryosi bo'yidagi Uzunyog'ochda bosqinchilar bilan to'qnashdi. 20 ming kishilik vatan himoyachilari bilan podpolkovnik Kalpakovskiy boshchiligidagi qo'shin [3 rota, 2 yuzlik, 6 zambarak va 2 raketa moslamasi] o'rtasida Pishpek ostonasida jang bo'lib, dushman g'alabaga erishdi. Rus qo'shini tomonidan 2051 snaryad, 31879 ta to'p o'qi o'tildi. Bu jangda vatan himoyachilaridan 1500 kishi o'ldirildi va ko'p kishilar yaralandi. Dushman askarlaridan

13 kishi o'ldirildi va 29 kishi jarohatlandi, 574 himoyachi asirga olindi. Ularning orasida 82 savdogar, 92 ta ayol va bolalar bor edi. Dushman tomonidan Pishpek va To'qmoq istehkomlari yer bilan yakson qilingan edi. Garchand, vatan himoyachilari birin-ketin mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, lekin ozodlik uchun kurash davom etaverdi.

## **Avliyoota, Turkiston va Chimkentning olinishi**

1861 yilning 25 sentabrida general-leytenant Debu boshchiligidagi rus qo'shini xonlikning Yangiqo'rg'on qal'asini vayron qilib tashladi. Keyinchalik 1862 yilda polkovnik Kolpakovskiy 4 rota, 2 yuzlik va 4 zambarakli qo'shin bilan Marki nomidagi Qo'qon istehkomini egalladi. Shuningdek, general-leytenant Debu 550 piyoda, 300 kazak va 19 zambarak bilan Din qo'rg'on qal'asini bosib oldi. 1863 yil 4 iyunda polkovnik Chernyayev o'z qo'l ostidagi G'arbiy Sibir batalyonining 5-rotasi, G'arbiy Sibir batalyonining 35-o'qchi rotalari, 9-harbiy Sibir kazaklar artilleriyasining 1-vzvodi, piyoda tog' batareyasi va 1-Sibir kazaklar polki bilan Avliyootani bosib oldi.

O'sha yili 18 iyundan 1 iyulgacha podpolkovnik Lerxning 2 rotasi, 1-2 yuzlik, 2 tog' zambarak va 1 raketa moslamasi bilan Qorabura dovonidan oshib, Qo'qon askarlarini qirib tashladi va qoraqirg'iz qabilalarini bo'ysundirdi. 1864 yilning 12 iyunida 4 rota, 1 otliv vzvod, 10 ta zambarak, 6 martira va 2 raketa moslamasi bilan polkovnik Vrevskiy Turkistonga hujum qildi. Bu jangda mahalliy xalq vakillaridan ko'p kishilar halokatga uchradi va jarohatlandi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, chor qo'mondoni agar, shahar taslim bo'lmasa, Ahmad Yassaviy maqbarasiga to'p otilishi va vayron qilinishini ma'lum qilgan. Shundan keyingina himoyachilar urushni to'xtatishga majbur bo'lganlar. Bu voqea 1864 yil 14 iyunda yuz bergan.

Turkistonning rus davlati tomonidan egallanishi Toshkent va umuman, Qo'qon xonligi uchun katta xavf tug'dirdi. Qo'ldan ketgan joylarni qaytarib olish va chor hukumati askarlarining yurishini to'xtatish uchun Qo'qonda tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Chunonchi, xonlikning hamma joylaridan qo'shin

to'planib, harbiy qurollar bilan ta'minlandi. So'ngra Qo'qon xoni Sulton Saidxon va lashkarboshi Alimqul askarlari bilan Toshkentga jo'naydi. Bu yerda ham harbiy tayyorgarlikka zo'r e'tibor berilib, Alimqul ko'p qo'shin bilan Chimkentga yo'l oladi. Chunki bu vaqtda Chernyayev boshchiligidagi rus o'tradining Avliyootadan Chimkent tomon yo'lga chiqqanligi haqida xabar olingan edi. Shundan keyin vatan himoyachilari tongotar paytida yo'lga o'tlanib, har bir mahalla oldida xalqdan «duo va fotiha» olib shahardan chiqib ketgan. Bularni xalq yaxshi niyat va yig'i-sig'i bilan kuzatib qolgan.

Xon qo'shinlaridan har bir shaharning askari alohida qismni tashkil etib, o'z boshlig'iga ega bo'lgan. Masalan, toshkentliklarga MirzaDavlat, qipchoqlarga Mingboy, marg'ilonliklarga Yusufboy, xo'jandliklarga Mirzaahmad Qushbegi boshchilik qilgan. Shunga o'xshash andijonliklar, namanganliklar, o'shliklar va boshqa joylarning harbiy qismlari mavjud bo'lgan.

Shuningdek, Kalonxo'ja, Mo'minxo'ja Sudur, Mirbobo ponsodboshi va Avaz Muhammadbiy singari sarkardalar ham qo'shinga boshchilik qilganlar. Qo'shinga shaxsan xonlik lashkarboshisi Alimqulning o'zi boshchilik qilgan. Chimkentda urushni oldin qipchoqlar boshlab, keyin toshkentliklar davom ettirganlar. Dastavval bir kecha-kunduz davomida har ikki tomon o'rtasida to'plardan otishuv bo'lgan.

So'ngra to'rt tomondan askarlar otdan tushdi va to'rt tomondan karnaylar chalinib, rus qo'shinlariga qarshi hujumga o'tildi. O'sha onda hozir bo'lgan kishilarning so'zicha, xon qo'shinlari 2-3 ming qadamgacha to'xtovsiz olg'a qarab chopdilar. Ikki o'rtada bir yarim ming qadamcha masofa qolganda, rus askarlari birdaniga to'p va miltiqlardan yomg'irdek o'q bo'ron qildilarki, maydonda birdaniga 12 ming kishi o'ldirildi, yaradorlarning oh-nola va faryodlari osmonga taraldi. Hatto, bu fojeali manzaradan ruslarning o'zlari ham, hayratda qolib, barmoqlarini tishlab, baland ovoz bilan baqirib:

«Ey musulmonlar, biz urushni to'xtatdik, o'lik va yaradorlarni maydondan olinglar», dedilar. Shundan keyin Qo'qon lashkarboshisi Alimqul huzuriga N.A. Seversev nomli rus elchisi kelib sulh tuzishni taklif etadi. Bu taklif sardor va amaldorlar muhokamasiga qo'yilib, fikr almashuv o'tkazildi. Ayrim amaldorlar

sulh tuzishni quvvatlagan bo'lsa-da, boshqa bir guruh kishilar, shu jumladan, Toshkent amaldorlari unga qarshi chiqib, sulh tuzish aldashlik nuqtai nazaridan taklif etilayotganligini uqtirib o'tdilar. Pirovardida, rus otradlarining Turkistonga qaytib ketishi haqida rus elchisi bilan kelishildi. Shunga binoan, rus qo'shinlari Turkistonga yo'l oldi. Bu holat shu haqda guvohlik beradiki, rus otradlari Chimkentni egallashga qurbilari kelmay, orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Lekin rus qo'shinlariga yo'lda Turkistondan qo'shimcha kuchning kelib qo'shilishi orqasida Chernyayev boshchiligida Chimkentga qayta hujum qildilar. Bu joy qal'asi tashqarisida joylashgan «Janan» qabristonining bir tomonida qattiq jang bo'lib, Qo'qon qo'shinlari g'alaba qozondi. Rus qo'shinlari esa Turkistonga qaytib ketdilar.

## **Toshkentning bosib olinishi**

General Chernyayev bu shaharni egallash uchun tayyorgarlik ishlarini ko'rib oziq-ovqat, qurol-aslaha va boshqa narsalarni Toshkentga olib borishni uyushtirish vazifasini Alimqul tomonidan o'ldirilgan Boyzoqboyning o'g'li Oqmullaga topshirdi. Qo'qon qo'shinlari artilleriyasi ancha yaxshi uyushtirilgan bo'lib, uning uzoqqa otinishi va nishonga tegishi maqtovga sazovor bo'lgan. Shuning uchun ham general Chernyayev Chimkentda tayyorgarlik ko'rib, 1864 yilning sentabrida Toshkentni egallash maqsadida yo'lga chiqdi. Bu vaqtda Toshkent mudofaasi mehnatkash ommaning umumiy harakatiga aylanib, shahar atrofidagi devorlarda askarlar va xalq ko'ngillilari joylashgan edi. Shahar aholisi ona yurtini himoya qilishni o'zining muqaddas burchi hisoblab, mudofaachilarga tinmay g'amxo'rlik qilganlar. «Shahar g'ariblari, fuqarolari va qariyalari, ibodatu namozdan ko'ra qo'lidan kelganча yordam berish afzalroq va savob, deb askarlarga, g'oziylarga suv, oziq-ovqat tashib turdilar». Rus askarlari 1864 yil 1 oktabrda Yunusobod tomonidan shaharga yaqinlashib, uni to'plardan o'qqa tutdi. Rus askarlaridan bir guruhi shahar qal'asining atrofida qazilgan zovurlar ichiga tushib qoldilar. Bularga qo'shilish uchun bir guruh rus askarlari chopib kelayotganda ularga qarshi to'p otildi. Natijada,

dushman otradlari orqaga chekindi. Shundan keyin shahar mudofaachilaridan bir qismi zovurdagi dushman ustiga shiddatli hujum qilib, rus askarlaridan 72 kishini o'ldirdilar. Shunday qilib, toshkentliklar g'alaba qozonadilar. General Chernyayev urushni to'xtatishga va Chimkentga qaytishga majbur bo'ladi. Shundan keyin Alimqul Toshkentga kelib, bo'lajak urushga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirib, so'ngra Qo'qonga qaytadi. Xon ko'rsatmasiga ko'ra, Toshkent hokimi nomidan Hofiz-ko'haki mahallalik Muhammad Said nomli savdogarni tinchlik sulhi tuzish maqsadida elchi sifatida general Chernyayev huzuriga yuborildi. Biroq, general Chernyayev sulh tuzishdan bosh tortadi va elchi Toshkentga qaytib keladi. Toshkentda urushga tayyorgarlik hamon kundalik hayotning birinchi navbatdagi vazifasi hisoblangan. Bu yerda lashkarboshi Alimqul boshchiligida Turkistonni rus qo'shinlaridan ozod qilish uchun tayyorgarlik ko'rilgandan so'ng, askarlar Shayxontohurning katta yo'lidan o'tib Sag'bon ko'chasi orqali Sag'bon darvozasidan Sariyog'och yo'liga chiqdilar. Bu yurish 1864 yil noyabr oyi oxirida yuz berib, havo juda sovuq va qor yog'ib turgan payt edi. Askarlar Turkistonga yaqin joyda Rossiya qo'l ostidagi Iqon degan qishloqda rus otradini tor-mor etdilar. Alimqul garchand g'alaba qozongan bo'lsa ham, Turkistonga qarab yurmay, Iqondan Toshkentga qaytishga majbur bo'ladi. Bunga xonlikdagi ichki ziddiyat va qo'shimcha harbiy kuchlarni to'plash sabab bo'lgan. Alimqul Toshkentga kelgan paytda Chernyayev tomonidan yuborilgan josus ushlendi. Bu josus Toshkentning amaldorlaridan biri Abdurahmonbek Shodmonbekovning (asli shahrisabzlik) Chernyayev nomiga yozilgan xati bilan qo'lga tushgan. Binobarin, Chernyayev ma'lum kishilar orqali Toshkent haqida zarur ma'lumotlarni olib turgan. Abdurahmonbek Toshkentdan qochishga ulgurib, Chimkentga Chernyayev huzuriga boradi. U xoinlikda ayblanib, uy-joyi yondirilib mol-mulki musodara qilindi.

Bu vaqtda general Chernyayev Toshkentga qayta hujum qilish tadbirlarini tamomlab, 1865 yil 28 aprelda Chirchiq yonidagi Niyozbek qal'asini jang bilan egalladi. Yuqorida qayd qilingan Abdurahmonbekning maslahati bo'yicha shaharni suv bilan ta'minlaydigan Bozsuv arig'i to'g'onini buzib, uni Chirchiq

daryosiga burib yubordi. Bu bilan shaharni suvdan mahrum etib, uni taslim ettirish edi. Biroq shahar xalqi buni pisand qilmay mudofaani mustahkamlab jangga tayyor turdi. 1865 yilning may oyida Qo‘qon xoni Sulton Said lashkarboshi Alimqul bilan Toshkentga yetib keldi. Bu holat toshkentliklar ruhini ko‘tarib, ular Qo‘qon qo‘shinini zo‘r xursandchilik bilan qarshi olganlar.

Alimqul shahar saroyida yig‘in o‘tkazib, mahalliy hokimiyat vakillari va qo‘shin boshliqlariga qarata nutq so‘zlagan. Shu yig‘inda Alimqul katta-kichik, boy-kambag‘al fuqarodan yordam so‘rab, bu to‘g‘rida Toshkent ahli fuqarolarining ko‘rsatgan g‘ayrat, shijoat va qahramonliklarini aytib, ularga o‘z minnatdorчилигинi va xursandчилигинi izhor qilib, bir tomchi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashishga da‘vat etdi. Alimqul Buxoro amiri Muzaffarxonni qoralab, uning rus qo‘shinlariga qarshi kurash ishiga katta putur yetkazayotganligini ham gapirgan.

Toshkentga xonlikning Andijon, Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon va boshqa joylaridan kelgan qo‘shinlar Alimqul boshchiligida shahar mudofaa chizig‘ini egalladilar. Qozoq Siddiq To‘ra boshliq Qo‘qon qo‘shinining razvedka bo‘limi dushmanning otlig va piyoda otradi bir to‘p bilan Sho‘rtepadan chiqib, Oltintepa orqali o‘tib Salor suvi bo‘ylab kelayotganligi haqida Alimqulga xabar keltirgan. Shundan keyin Alimqul o‘z qo‘shinlari bilan ko‘rsatilgan tomonga jo‘nadi. Dushman qo‘shinlari Salor suvidan o‘tib, Qo‘qon qo‘shinlariga qarata to‘plardan o‘q uzdilar, natijada ikki tomon o‘rtasida qattiq jang boshlanib, vatan himoyachilari hujumga o‘tdilar. Bunda Alimqulning shaxsan o‘zi qatnashib, urushga rahbarlik qilgan.

Rus otradi hujumga bardosh bera olmay, Sho‘rtepaga chekingan. Bu g‘alaba shaharda katta shodu xurramlik bilan qarshm olinib, karnay-surnay sadolari yangragan. «Shahar xalqi 7 yoshdan 70 yoshgacha erkak-xotin, yosh-qari xizmat kamarini bellariga bog‘lab, pishgan taomlarni boshlariga ko‘tarib, qatiq, sut, sharbat, issiq nonlar, shirin mevalarni savatlarga solib, askarlar turgan joylarga olib kelib iltijo, tavallo, tamanno va dildorlik qilishib, ko‘zlaridan hasrat yoshlarini oqizib, ko‘z yoshlari suvi bilan askarlarning yuzlaridagi chang-g‘uborlarni yuvib, artib, ko‘zguna tozalab, ovqatlarni yeb bitirishlarini iltijo qildilar», Bu satrlar keng

mehnatkash ommaning vatanparvarlik harakatlarini juda jonli va yorqin ravishda bayon etgan. Lashkarboshi Alimqul hokimiyat vakillari va harbiy boshliqlarini yig'ib urushni qanday davom ettirish masalasini o'rtaga tashlaganda, toshkentliklar rus qo'shinlari ustidan qozonilgan g'alaba hujumga o'tishga da'vat qilishini va aka-uka Siddiq To'ra va Arslon To'ra boshchiligida askarlarni Chimkentni egallash uchun yuborishni taklif etdilar. Ular Chimkent bosib olingandan so'ng, bu yerdan askarlarning bir qismini Turkiston va Oqmachitni, ikkinchi qismini esa Avliyoota, To'qmoq va G'uljagacha bo'lgan joylarni ruslardan qaytarib olishga jo'natilishini gapirdilar. Ammo, Qo'qon amaldorlaridan Otabek nomli kishi Alimqulga pichirlab: «Agarda toshkentliklar rus qo'shinlarini tor-mor qilib, ko'rsatilgan joylarni olsa, u vaqtda ular mustaqillikni istab, Qo'qonga bo'ysunmay qolishi mumkin», degan. Shu nuqtai nazardan, Otabek toshkentliklar taklifini rad qilishni Alimqulga maslahat qilgan. Alimqul bu maslahatga ko'nib, mudofaa bilan chegaralanib turishni buyurdi.

Shunga ko'ra, Sho'rtepada har ikki tomon urush, chizig'ini egallab, dastavval to'plardan otishuv boshlangan. So'ngra vatan himoyachilari hujumga o'tib, Alimqul urush maydonida jangchilarni ruhlantirgan va urushga jalb qilgan. Alimqul va sardor Abdullabek dushman qo'shinlari bilan yuzma-yuz kelib, ularni qilichdan o'tkazgan. Ammo, dushman o'qi Alimqulning chap biqinidan kirib qornini teshib, kindigi ustidan chiqib ketadi. U ot ustidan yiqilmay, uning bo'ynidan mahkam ushlab o'zini tutib olib, to'p turgan joyga bordi. So'ngra, Alimqul Toshkent fuqarolarini asta-sekin orqaga qaytib, o'zlarini shahar ichiga olishlari va boshqa jangchilarning urushni davom ettirishlari haqida farmon bergan.

Ikki tomon o'rtasida to'plardan yana otishuv boshlangandan keyin, xon askarlari hujumga o'tib, so'ngra asta-sekin rus askarlari hujumi ostida Salor bo'yiga chekindilar. Natijada, birinchi galda sebzorlik jangchilar Hakimxo'ja qozikalon boshchiligida qochishni boshlaydi. Ularning ketidan qi pchoqlar, qirg'izlar va andijonliklar qo'lga tushgan narsalarni olib Farg'ona tomonga qochdilar. Boshqa kishilar ham shahar ichiga qochib kela boshladilar. Lashkarboshi Alimqulning yarador bo'lishi askarlarning va xalqning ruhini

tushirib, pirovardida ularning chekinishiga sabab bo'lgan omillardan biri bo'ldi. U og'ir ahvolda shahar ichiga keltirildi va bu yerda o'ldi. U katta izzat-ikrom va katta alam-qayg'u bilan Shayxontohur qabristoniga dafn etildi. Chekinishdagi parokandalik va harbiy boshliqlarning vahimaga tushib qolishi, shahar mudofaasiga salbiy ta'sir etmasdan qo'ymas edi, albatta. Kunlar o'tishi bilan qo'qonliklarning ruhsizlanishi kuchayib, ular to'da-to'da bo'lib o'z vataniga qaytish harakatiga tushib qolganlar. Hatto Alimqul bilan birgalikda rus qo'shinlariga qarshi kurashda faol qatnashgan Qo'qon xoni Sulton Said bir guruh amaldorlari bilan shaharni tashlab ketmoqchi bo'lgan. Biroq, Toshkent amaldorlarining siquvi ostida o'z fikridan qaytgan. Shundan keyin amaldor va harbiy boshliqlar o'zaro kelishib, dushmanga qarshi tadbirlarni belgilash haqida fikr almashuvi o'tkazishdi. Bunda bir guruh kishilar Qo'qonga qochib ketgan askarlarni orqaga qaytib kelishlarini so'rab, u yerga elchi yuborilishini aytdilar. Boshqa bir guruh kishilar Buxoro amirining huzuriga elchi yuborib, yordam so'rashlik haqida o'z fikrlarini izhor qildilar. Maslahatchilar orasida hatto, Xorazmga yordam so'rab murojaat qilish zarurligini bayon etgan kishilar ham bo'ldi.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonliklariga rus otradlariga qarshi birgalikda kurash haqidagi xat bilan elchilar jo'natildi. Qo'qonga yuborilgan elchi yo'lda Toshkentdan qochib borayotgan qo'qonliklarning orqasidan yetib borib, ularga xatni topshirdi. Biroq qo'qonliklar Toshkentga qaytish o'rniga, aksincha Sulton Saidxonni Qo'qonga olib ketish va taxt begonalarga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarurligini bayon etdilar. Buxoro amiri ham Toshkentga yordam berishdan bosh tortib, avvalo Sulton Saidxonni Buxoroga kelishi zarurligi haqida javob xati yubordi. Bu bilan amir Sulton Saidxon Buxoroga bo'ysungan taqdiridagina yordam berilishi ma'lum qilingan edi. Buxorodan kelgan javob xati amaldorlar va harbiy boshliqlar muhokamasiga qo'yilganda, ayrim qo'qonliklar amir taklifini qabul qilish kerakligini aytdilar. Bu muhokamada nufuzli kishi va mudarris Solih Toshkandiy ham qatnashib, yuqoridagi masala bo'yicha o'z fikrini bildirgan. U Sulton Saidxonni Buxaroga ketishiga qarshi chiqib, har bir hukmdor o'z burchini bajarmasa, u vaqtda fuqarolar dushman qo'lida asir bo'lib qolishi



mumkinligini bayon etgan. Bu fikrga boshqa kishilar ham qo‘shilib, «biz yordam so‘rab har tomonga murojaat qildik. Endilikda xoh yordam bersinlar, xoh, bermasinlar, baribir urushni davom ettiramiz», deb ahd qildilar. Toshkentliklar Sulton Saidxonga shunday deyishdi: «Shahar xalqi butun urush xarajatlarini o‘z zimmalariga olib, nimaiki zarur bo‘lsa, hammasini yetkazib beradilar». Ko‘rinib turibdiki, toshkentliklar qanday bo‘lmasin, shaharni dushmandan himoya qilishga qattiq bel bog‘lagan edilar.

Rus qo‘shinlari shahar qal‘asini to‘pga tutib, hujum qilgan vaqtida, ularga qarshi ustalik bilan to‘plarda» javob o‘qi otildi, natijada, dushman orqaga chekinishga majbur bo‘lgan. Shundan so‘ng, Sulton Saidxonni Buxoroga yuborish haqidagi masala yana ko‘tarilib, pirovardida uni jo‘natish va Buxorodan yordam olishga qaror qilindi. Aftidan, Sulton Saidxonning o‘zida ham Buxoroga borish istagi bo‘lgan. Shuning uchun u 500 kishilik askar va bir to‘p bilan shahardan chiqib ketdi. Shunday qilib, Qo‘qon amaldorlari va askarlari urushni oxirigacha yetkazmasdan, shahar mudofaasini o‘z xohishlaricha tashlab ketgan edilar. Shunga qaramay, shahar aholisi dushmanga qarshi kurashni davom ettirdi. 1865 yil 14 iyunda rus askarlari erta saharda shahar qal‘asini to‘plardan o‘qqa tutdi. Natijada, ular Kamolon darvozasi orqali shahar ichiga yorib kirib, mudofaachilarning otradlari bilan to‘qnashdilar. Jumladan, bunday to‘qnashuvlar Shayxontohur, Beshyog‘och, Qashqar mahallalarida va boshqa joylarda bo‘lgan edi. Hatto, dushmanga qarshi barrikadalar ham qurildi. Masalan, Anhor ko‘prigining g‘arb tomoni aravalar bilan to‘silib mustahkamlandi. Ayni bir vaqtda, Anhor yonidagi do‘konlar ichiga mudofaachilar kirib olib devorlar teshigidan dushmanga o‘q uzdilar. Bir yarim soatlik og‘ir jangdan so‘ng rus askarlari chekinib, Shayx Shibli arig‘i orqali qal‘a devorining shimol tomoniga o‘rnashdilar. Ular chekinayotganlarida O‘rdadagi do‘konlarga o‘t qo‘yib qochganlar. Chuqur ko‘prikda ko‘chalarning ham og‘zi bekitilib, rus otradiga qarshi kuchlar qo‘yilgan. Ayrim rus otradlari masjidlar ichiga kirib olib, urushganlar. Biroq, bular o‘rab olinib tor-mor etilgan. Shayx Shibli arig‘i orqali chekingan rus otradlari yana O‘rdaga bostirib kirishga harakat qildi. Bularga qarshi Qiyot

mahallasining aholisi Abdurahim yasovulboshi boshchiligida devorlarning orqasiga va pastqam joylarga oʻrnashib mudofaa chizigʻini egalladilar. Bular orasida Miryusuf bogʻbon oʻgʻli, Umarxon Toʻraxon oʻgʻli, Mirsodiq Mirshodi oʻgʻli, Normuhammad va Mullasher singari merganlar, Mullajon Muso Muhammad Alibobo podachining oʻgʻli va boshqa mard yigitlar bor edi. Xalq koʻngillilari shahar mudofaasining asosiy kuchini tashkil etgan edi. Abdurahim yasovul boshchiligidagi koʻngillilar otradi yogʻin yogʻishiga qaramay, kun boʻyi dushman hujumini qaytarib turdi. Oxiri, rus otradi shahar chetiga chiqib ketishga majbur boʻldi. Bundan keyin ham Qiyot mahallasining koʻngillilari Anhorga qaytib kelgan rus otradi bilan qattiq jang qilgan. Shu vaqtlarda shahar aholisining iqtisodiy ahvoli ogʻirlashib, suvsizlik va tashnalikdan azob chekmoqda edi. Toshkentliklar bunday tanglikka qaramay, shaharni qoʻldan bermaslikka qattiq harakat qildilar. Biroq, rus otradi ayrim xoin kishilar orqali shahardagi oʻq-dori omborini topib, uni portlatishga muvaffaq boʻldilar. Bu shahar mudofaa taqdirini hal qilgan omillardan biri hisoblanadi. Suvsiqlik, yoʻqchilik va oʻq-dorilar yetishmasligi pirovardida shahar xalqining tinkasi quridi. Natijada, 1865 yil 17 iyunda toshkentliklar dushman hujumiga bardosh bera olmay, taslim boʻlishga majbur boʻldilar. General Chernyayev Shayxontohur, Beshyogʻoch va boshqa aholi gavjum yashaydigan joylarga toʻplarni oʻrnatib darhol tinchlik sulhi tuzilmasa, shaharni yondirib5 va buzib tashlash haqida eʼlon tarqatdi. Shundan keyin general Chernyayev Hakimxoʻja qozikalon, Abulqosimxon eshon, domla Solihbek oxun dodho va boshqa shahar kattalari bilan maxsus majlis oʻtkazdi. Bunda savdogarlar va sardorlar ham qatnashgan edi. Muzokara natijasida tinchlik sulhi tuzilib, har ikki tomon ahdnomaga imzo chekdi. Ahdnomada shahar xalqining oʻz dinida qolishi va barcha ishlar «shariat» asosida olib borilishi koʻrsatilgan. Zakot va xirojlar ham shariat boʻyicha, har yilda emas, balki har oyda olinishi lozim edi. Shuningdek, hovli, bogʻ va maydonlar avvalgidek oʻz egalari qoʻlida qoldirildi. Aholidan yillik soliq olinishi taʼqiqlandi. Chakalak, oʻtloq va qamishzorlardan soliqlarni mutlaqo olmaslik ahdnomada koʻrsatilgan edi. Shuningdek, yerli xalqdan rus qoʻshiniga odamlarni

jalb qilmaslikka kelishildi. Ahdnomaga har to'rt dahaning muhri bosildi. So'ngra general Chernyayev shahar kattalariga duxoba va zar yoqali chakmonlar kiydirdi.

Shu ravishda Toshkentning rus davlatiga taslim bo'lishi haqidagi hujjat rasmiy ravishda qabul qilindi. Ahdnoma tuzilgandan keyin general Chernyayev shahar kattalarini o'z tomoniga jalb etish va ularga tayanish maqsadida Hakimxo'ja qozikalon uyiga borib, unga qimmatli sovg'alar va oltin medal berdi. So'ngra general Chernyayev Registon rastasiga borib, kambag'al va gadoylar orasiga tangalar sochdi. Urushda yaralangan kishilarga tibbiy yordam ko'rsatildi.

General Chernyayev shahar mudofaasida qatnashgan kishilarni jazolamay, ularni qo'yib yubordi. U madrasalarga borib, o'qishlarni davom ettirishni taklif etdi. Urush vaqtida buzilgan uy-hovlilarni va do'konlarni tiklash uchun general Chernyayev tomonidan mablag' ajratildi.

General Chernyayev o'z ta'sirni o'rnatish maqsadida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirgan. Shuni aytib o'tish lozimki, general Chernyayev yuqori rahbar doiralarning ruxsatisiz o'zboshimchalik bilan Toshkentga yurish qilib, uni egalladi. Bu g'alaba Peterburgda zo'r mamnuniyat bilan qabul qilingan bo'lsa-da, lekin davlat ishlarida qilingan o'zboshimchalik ayrim yirik hukumat vakillari noroziligining kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Buning ustiga Toshkentning bosib olinishi, xalqaro matbuotda katta shovqin-suron ko'tarilishiga olib keldi. Shuning uchun ham general Chernyayev o'z harakatini oqlash maqsadida go'yo Toshkent ixtiyoriy ravishda rus qo'shinlariga bo'ysunganligi haqida hujjat uyushtirishga kirishdi. U shahar kattalarini to'plab aholi nomidan quyidagi mazmunda xat tayyorlashni buyurdi: «Necha zamonlar va yillardan beri Turkistonda Farg'ona xonlari hukmronlik qilib, fuqarolarga ko'p jabr-zulm o'tkazgan. Ular zakot, xirojlarni shariat asosida olmasdan, ortiqcha olganlar va hech qachon marhamat qilmaganlar, qadimgi urf-odat taomilidan voz kechib, ko'p yillar mansab uchun katta kishilarni o'ldirib, fitnachi va ig'vogarlar so'ziga amal qilganlar. O'rtada nohaq qonlar to'kilib, ular shariatga va ulamolar so'zlariga amal qilishdan bosh tortdilar. Farg'ona va Turkiston zaminida ko'p vaqtlar vako'pincha qipchoq, qozoq va qirg'iz avboshlari va

beboshlari hukmronlik qilib keldilar. Shuning uchun fuqaro va mamlakat tinchligi uchun tamomi ixtiyorimiz va ragʻbatimiz bilan rus askarlarini olib kelib ularga shaharni topshirdik».

Koʻrinib turibdiki, toshkentliklar boʻlib oʻtgan hamma jang va voqealarni inkor qilib, ixtiyoriy ravishda rus askarlariga boʻysunganliklarini tan olishlari lozim edi. Koʻrsatilgan xatning mazmuni bayon etilgandan keyin shahar kattalari hayron boʻlib turgan paytida, domla Solihbek oxun dodho shunday javob qilgan: «Bizlar voqea va hodisalarni bekitmasdan maʼlum qilamizki, Toshkentdan Oqmachitgacha va bu yerdan Gʻuljagacha boʻlgan shahar va qalʼalar Toshkentga qarar edi. Bu joylarni rus askarlari urush va talash bilan qoʻlga kirgizdilar. Urush toʻsatdan, muhlatsiz va soʻzsiz olib borildi. Toshkent shahri zulhijja oyining yarmidan boshlab safar oyining 12 chisigacha, yaʼni 42 kun davomida suvsiz, oziq-ovqatsiz qoldirildi. Mulla Alimqul lashkarboshi shahid boʻlgandan keyin sardorsiz qoldi. Buxoro, Xorazm va fargʻonaliklar yordam bermadilar. Toshkent fuqarolari vatanlari va dini uchun qattiq turib, urush-talashni davom ettirib, seshanba kuni yarim kecha oʻtgandan keyin, saharga yaqin rus askarlari hiyobon darvozasi va qalʼaning devori ustidan kirdi. Shundan keyin yana urushga kirishib, payshanba kunigacha ikki kecha-kunduz urushib turdilar. Bu oʻrtada koʻp imoratlar, doʻkonlar va uy-joylarga oʻt tushib, och, tashna, suvsiz yakkama-yakka urushib oxirida yarashish sulhi tuzildi». Bu haqiqiy ahvolni aks ettiruvchi javob general Chernyayevni gʻazabga keltirdi. U domla Solihbek oxun dodho soʻziga qoʻshiluvchi kishilarni bir tarafga oʻtishlarini buyurdi. Shundan keyin shahar kattalaridan 6 kishi, jumladan, Halimboy, Berdiboy, Azimboy Fozilbachcha, Mulla Mirzaaʼlam oxun, Mulla Muzaffarhoji va Mulla Fayzilar domla Solihbek oxun dodhoning soʻzini quvvatlab, koʻrsatilgan tomonga oʻtdilar. Bu kishilar va domla Solihbek oxun dodho darhol rus askarlari tomonidan oʻrab olinib qamoqqa joʻnatildi. Bu holat toʻplangan shahar kattalariga taʼsir koʻrsatgan boʻlsa kerak, ular general Chernyayevning aytgan ahdnomasini, u koʻrsatgan mazmunda tayyorlab berishni zimmalariga oldilar. Chunonchi, Hakimxoʻja qozikalon ahdnomani bezash va tuzishni Abdusattor Qoraboshi oʻgʻliga topshirdi.

Ahdnoma tayyorlangandan so'ng, unga shahar kattalari va savdogarlari imzo chekib va muhr bosib general Chernyayevga topshirishdi. General Chernyayev domla Solihbek oxun dodho va uning hamrohlarini Tomskka surgun qildi.

General Chernyayev ahdnomani Abdusaid va Hodihoji nomli savdogarlarning qo'liga berib, Peterburgga, podshohga olib borib berishni buyurgan. Rus hukumati bu ahdnomani bosqinchilik siyosatini bo'yash va xalqaro matbuotda shovqin-suronni bartaraf qilish maqsadida chet mamlakatlarga tarqatdi. Jumladan, Turkiyadagi rus elchixonasi ahdnoma nusxalarini ko'paytirib, Istambuldagi ko'chalarga, bozorlarga, do'konlarga, umuman, ko'zga tashlanadigan joylarga yopishtirib qo'ygan. Shunday qilib, general Chernyayev Toshkentga bostirib kirgandan so'ng ikki ahdnomani, ya'ni sulh shartlari va haqiqiy ahvolni buzib ko'rsatuvchi hamda mustamlakachilik siyosatiga xos bo'lgan qalbaki hujjatni tuzishga erishdi.

General Chernyayev Toshkentda yuqori tabaqa vakillarining ixtiyoridagi qullarni bo'shatish haqida farmon chiqardi. Natijada, bir vaqtlar urush paytlarida asirlikka olingan yoki ko'chmanchilar tomonidan keltirilib sotilgan turli millatdagi, unchalik ko'p bo'lmagan qullar ozod qilindi. General Chernyayev mahalliy yahudiylarni kamsitishga qaratilgan ayrim odatlarni bekor qildi. Jumladan, yahudiylarning bellarini ip bilan bog'lab yurishi va belgilangan xildagi telpakni kiyishlari to'g'risidagi talab yo'q qilindi.

1865 yil sentabr oyida Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Toshkentga kelib shaharni mustaqil, deb e'lon qildi. Buni u Toshkentning Buxoro amirligi va Qo'qon xonligining ta'siriga berilib ketmasligi uchun qilgan edi. Chunki, bu vaqtlarda shaharda ayrim guruhlar orasida Buxoro amirligi va Qo'qon xonliklariga yordam so'rab murojaat qilish harakatlari hamon davom etmoqda edi. Buning ustiga, Buxoro amiri Muzaffarxon Toshkentga elchi yuborib, shahardan rus qo'shinlarining olib chiqib ketilishini Chernyayevdan talab etdi. Ammo, endi fursat qo'ldan berilgan edi. G'alabalardan ruhlangan general Chernyayev o'zboshimchaligini davom ettirib, o'z boshlig'i Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy bilan munosabatini keskinlashtirib yubordi. General Chernyayev qo'shini 1866 yilning fevral oyida

Jizzaxda vatan himoyachilari tomonidan mag'lubiyatga uchratildi. Natijada, Krijanovskiy Markazga murojaat qilib, 1866 yilning mart oyida general Chernyayevning chaqirilib olinishiga va uning o'rniga general D.I.Romanovskiyning tayinlanishiga erishdi.

1866 yil avgust oyida rus imperatorining Toshkentni rus davlati tobeligiga olganligi haqidagi rasmiy farmoni e'lon qilindi. 1867 yilda esa Sirdaryo va Semirechensk (Yettisuv) viloyatlarini o'z ichiga olgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, bu mansabga general K.P.Kaufman tayinlandi. Toshkent Turkiston general-gubernatorligining markazi bo'lib qoldi.

Shu ravishda Toshkent rus davlatn mintaqasining bir qismiga va chor hukumatining keyinchalik O'rta Osiyoda to'la hukmronligi o'rnatilishida muhim tayanchga aylantirildi.

## **Buxoro amirligining urushib olinishi**

Buxoro amirligining hukmdori Muzaffarxonning butun mintaqa taqdiri qil ustida turgan bir paytda chor hukumatining tajovuziga qarshi keskin choralarni ko'rmasligi xalqning qattiq nafratini uyg'otdi. U shu darajada uzoqni ko'rmaganki, toshkentliklar umum dushmanga qarshi harbiy yordam so'raganlarida saroy ahli huzurida shunday degan: «Men bir oddiy rus lashkarboshisi bilan urushni o'zimga or deb bilaman. Agar urushmoqchi bo'lsam, u vaqtda to'ppa-to'g'ri Moskvaga yoki Peterburgga borib jang qilurman». Amirning bu mantiqsiz so'zlari Buxoro jamoasining qonini qaynatib yubordi. Bu holat ayniqsa, rus qo'shinlari tomonidan Toshkent bosib olinganidan keyin avjiga mindi. Xususan, ruhoniy va ziyoli vakillari amirni qo'rqqoqlikda va beparvolikda qoraladilar. Aholi amir saroyini qurshab, toshbo'ron qildi. Hatto, Muzaffarxon xoinlikda ayblanib, o'ldirilishi ma'lum qilindi. Nihoyat, xalqning qattiq siquvi va talabi orqasida Muzaffarxon ayrim choralarni ko'rdi. Masalan, Jizzax qal'asini mustahkamlashga mablag' ajratilib, qo'shin kuchaytirildi. Natijada, bu yerning mudofaa qobiliyati ancha mustahkamlandi.

1866 yil yanvar oyining oxirida general Chernyayev 14 piyoda rotasi, 110 kazak va 16 to'plar bilan Jizzaxga hujum qildi. Vatan

himoyachilarining qahramonona jangi tufayli Jizzaxni ololmay, Toshkentga qaytishga majbur bo'ldi. Bu g'alaba barcha qatori Muzaffarxonni ham ruhlantirdi. Shundan keyin Muzaffarxon umumiy «g'azovot» e'lon qilib, 100 ming odam to'pladi. Ularning orasida qo'shindan tashqari qo'lga nima tushsa shu bilan qurollangan xalq ko'pchilikni tashkil qilgan. Ular amir Muzaffar boshliq Jizzaxga va bu yerdan Sirdaryoning chap qirg'og'idagi Sassiqlik degan joyga keldilar. Buni qarangi, Muzaffarxon bo'lajak jangga puxta tayyorgarlik ko'rish o'rniga ichki kiyimda o'tirib shaxmat o'ynash va ashula eshitish bilan vaqtini o'tkazdi. Shu asnoda rus qo'shinlari hujum qilganda amir Muzaffar ichki kiyimda otga minib qochadi. Xalq olomoni va qo'shin ham turli tomonga qochib to'zib ketadi. Bu voqea 1866 yil 8 mayda Sassiqlik yaqinida joylashgan Irtar degan joyda sodir bo'ldi. Bu yerda rus qo'shinlari general Romanovskiy boshchiligida urushdilar. Qanchadan-qancha odamlar halok bo'ldilar va jarohatlandilar. Ko'p odamlar qaytishda yo'llarda misli ko'rilmagan azob-uqubatlarni boshdan kechirganlar. Mana, xohlasam, Moskovga borib urushaman, deb chirangan hukmdorning asli basharasi qanday bo'lgan. Rus qo'shinlari ko'p miqdorda harbiy qurollarni, jumladan, 26 to'pni, 670 puddan ortiq poroxni va 220 ming patronni o'ljaga oldilar. Ular 1866 yil 19 maydan 20 mayga o'tar kechasi 18 ta to'plardan o'q uzib Xo'jandga hujum qildilar. Bu yerda xalq shu darajada qattiq jang qildiki, bundan g'azablangan dushman qo'shini shaharni yalpisiga o'qqa tutishi orqasida 20 mingdan ortiq kishi o'ldirildi va uy-joylar vayronaga aylantirildi.

1866 yilning 11 oktabrida chor qo'shini general Krijanovskiy boshchiligida Jizzaxni qurshab oladi. Jizzaxdagi jang shu darajada dahshatli bo'lganki, to'kilgan odam qoni bamisoli ariq suviga o'xshab oqqan. Himoyachilarning qahramonligi va jasoratini hatto chor qo'shinlari ham tan olgan. Bu jangda himoyachilardan 2 yarim ming kishi o'lib, ko'plab kishilar yarador bo'lgan. Pirovardida, Jizzax dushman tomonidan egallandi. Bosqinchilar 1867 yilning 7 iyunida Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan Yangiqo'rg'onda 45 ming kishilik Buxoro qo'shini va xalq ko'ngillilarini qattiq jang bilan mag'lubiyatga uchratdi. 1868 yil mayda esa Samarqand shahri ostonasidagi Cho'ponota tepaligida urush bo'ladi. Bu yerda himoyachilardan ko'p kishi qirildi va yarador qilindi.

Chor askarlari ertasiga Samarqand shahriga bostirib kiradilar. Bundan xabar topgan amir Muzaffar qattiq dahshatga tushib, xabarchini «shum soʻzlari» uchun darhol osib oʻldirishga farmon beradi. Uning vasvasasi asta-sekin yigʻiga aylanib: «Xudo meni Samarqanddan mahrum qilgandan koʻra jonimni olgani yaxshi edi», deb nola chekadi. Amirning noshudligi va magʻlubiyati xaloyiq orasida yurt sohibiga qarshi norozilik va gʻazabni yanada kuchaytiradi. Ayniqsa, uning chor hukumati bilan sulh tuzishga moyilligi vaziyatni oʻta keskinlashtiradi. Natijada, Buxoro atrofidagi ahli jamoa amirdan «qanday boʻlmasin urushni davom ettirishni» talab qilib qoʻzgʻolon koʻtaradilar. Amir Muzaffar xalq qoʻzgʻolonining butun Zarafshon vodiysiga tarqalib ketishidan qoʻrqib, darhol chorizmga qarshi harbiy yurish uyushtirdi. Choʻli Malik degan joy qoʻzgʻolon markaziga aylandi. Bu yerda oybolta, soʻyil, nayza va shunga oʻxshash narsalar bilan qurollangan qoʻzgʻolonchilarning asosiy kuchlari toʻplangan edi. Biroq, qoʻzgʻolon bostirildi.

Talvasaga tushgan amir nima qilishni bilolmay oʻz atrofidagi beklar bilan kengash oʻtkazib sulh tuzish yoki urushni davom ettirish masalasini muhokamaga qoʻydi. Kengashda birinchi boʻlib soʻz olgan lashkarboshi Usmonbek shunday deydi: «Amirlik xalqi urushni davom ettirishni talab etayotgan bir paytda kofirlarga kontributsiya (tovon) toʻlashdan koʻra bir tomchi qon qolguncha kurashish afzalroqdir». Bu fikrni kengash qatnashchilari qoʻllab-quvvatladilar. Shundan keyin 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 toʻpdan iborat qoʻshin Zirabuloq tepaligiga kelib oʻrnashdi. Qoʻshinni ruhlantirish va gʻalabaga chorlash niyatida amir Muzaffar ularga quyidagi tarzda murojaat qiladi: «Sodiq musulmon fuqarolari, sizlarning zahmatlaringiz uchun rahmat, sizlarni ishontiramanki, gʻalaba biz tomonda boʻlgʻay, Samarqand va Kattaqoʻrgʻonning qoʻldan ketishi biz uchun unchalik yoʻqotish emas. Biz temuriylar avlodimiz, biz oʻz yerimizni qanday qaytarib olishni koʻrsatib qoʻyamiz. Musulmonlar, men dinimiz va Vatanimiz uchun musulmon ahlining qahramonona jang qiliishini kofirlar koʻz oʻngida namoyish etishingizga umid qilaman. Xalq bizdan gʻalaba kutyapti, u jangdan soʻng sizlarni qarshi olganida din va Vatan himoyasi uchun kurashgan va yerimizni kofirlardan



tozalaganlar, deb aytishsin. Zirabuloq jang maydonida halok bo'lganlar sharafiga shonli yodgorlik o'rnatiladi. Musulmonlar, Turkiston general-gubernatori tovon sifatida talab qilayotgan 125 ming tilla, [500 ming so'm] sizlarga beriladi. Ishonchim komilki, sizlar mening umidlarimni ro'yobga chiqarib, samarqandliklar to'nidagi qora dog'ni yuvasizlar. Musulmonlar, sizlarga zafar yor bo'lsin!» Ushbu murojaat to'p o'qlari ovozi ostida o'qib eshittiriladi. 1868 yil 2 iyunda general K.P.Kaufman qo'mondonligi ostidagi qo'shin va himoyachilar o'rtasida jang boshlandi. Buxorolik mudofaachilar: «Olinglar, oldirmanglar axir...» deyishib, dushmanga qarshi hujum qildilar. Ammo ko'p talafot ko'rib mag'lubiyatga uchradilar. Bu haqdagi xabar butun Buxoro xalqi g'azabini yanada kuchaytirdi. Amir qo'rqib Qizilqum tarafga qochib ketdi. Zirabuloqdagi jang vaqtida Samarqandda chorizmga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlandi. Yurt himoyasiga shahar atrofidagi qishloq va ovullardan minglab kishilar kelib qo'shildilar. General-gubernator K.P.Kaufmanning yozishicha, Qattaqo'rg'ondan to Samarqandgacha bo'lgan yerlarda kyshilarni kam uchratgan. Bunga sabab naymanlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlar, qirg'izlar va boshqa qabilalar Jo'rabek va Bobobek boshchiligida Shahrisabzdan kelayotgan 20 ming kishilik qo'shin va qasoskorlarga qo'shilib, Samarqanddagi qo'zg'olonchilar safini to'ldirgan edi. Samarqand chorizmga qarshi umumxalq kurashining o'chog'iga aylandi.

Bir necha ming kishilik qo'zg'olonchilar shahar qal'asida o'rnashgan chor qo'shinini qurshab olib jangga kirishdilar. Ammo Shahrisabz beklari chor qo'shinlariga yordamchi kuchlar kelayotganligidan xabar topib, Samarqandni tashlab chiqadilar. «Shundan keyin, - deb yozadi K.P.Kaufman, - shahar ahli qishloqlardan kelayotgan xalq ko'ngillilari bilan birgalikda qal'aga hujum qilishni davom ettiradilar». Bu vaqt ichida har ikki tomondan ko'plab kishi qurbon bo'ladi va yarador qilinadi. 8 iyunda general K.P.Kaufman boshchiligida qo'shinlar shaharga bostirib kirib, qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Ular shahar bozorini o'qqa tutadilar. Qo'zg'olon qatnashchilaridan 19 kishi o'limga va 19 kishi Sibirga umrbod surgunga hukm qilinadi. Buning ustiga qo'zg'olonchilarning aksariyati jangda o'ldirildi va yarador etildi.

Boshqa joylarda esa bosqinchilar bunchalik ko'p talafot ko'rmagan edi. Shuning uchun general K.P.Kaufman: «Samarqand qal'asidagi talafotni juda katta yo'qotish», deb baholaydi. Bu vaqtda amir Muzaffarning obro'si va mavqei tobora tushib, taxtda zo'rg'a ilinib turardi. Amir Karmanaga kelib, o'z amaldorlari ishtirokidagi kengashda chor hukumati bilan sulh tuzishdan bo'lak chora qolmaganini ma'lum qilib: «Endilikda barcha qo'shin va qurol-aslahalarni, to'plarni oq podshohga topshirib, menga Makkaga, hajga borishga ruxsat berishini undan so'rayman. Sezib turibmanki, mening o'limim yaqin, taqdirim va hayotim xalqning qo'lida», deydi.

1863 yilning 23 iyunida amir Muzaffarning elchilari Samarqandga K.P.Kaufman huzuriga kelib, sulh tuzishga rozilik bildiradilar. Sulhga ko'ra Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi amirlikdan ajratib olinib, Rossiya tarkibiga kiritildi. Amir tovon sifatida 500 ming so'm tilla pul to'lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o'rnatmaslikka rozilik beradi. Shuningdek, Rossiya savdogarlariga amirlik tasarrufida bemalol savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishga hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etildi. Ular to'laydigan savdo bojlari miqdori buxoroliklar to'laydigan bojlardan oshmasligi kerak edi.

Xullas, shartnoma tuzilgandan so'ng, Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, rus davlatiga tobeligini tan oladi. Bu esa vatanparvar va hur fikrli odamlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. Hatto, amirning o'g'li Kattato'ra va bir necha nufuzli beklar birlashib, Muzaffarxon va chorizm istilochilariga qarshi kurashni davom ettirdilar. Ular amirning taxtdan mahrum etilganligini e'lon qilib, Shahrisabz va Kitobda katta kuch to'pladilar. Shahrisabz beklari Katta to'rani amir deb e'lon qiladilar. Natijada, amir Muzaffarning ahvoli nihoyatda og'irlashadi. Ota-bola qo'shinlari o'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda amir sarbozlari yengiladi. Shundan so'ng amir chor ma'muriyatiga harbiy yordam so'rab murojaat qiladi. Buni inobatga olgan general Abramov 1870 yilda Shahrisabz va Kitobda Jo'rabek va Bobobek boshchiligidagi qo'shin va olomoni yengib, u joylarni amir Muzaffar ixtiyoriga topshiradi. Bundan ilgari, ya'ni 1868 yilda chor qo'shinlari tomonidan bosib olingan Qarshi shahri ham amirga

qaytariladi. Bu bilan chor hukumati amir Muzaffarning rus davlatiga yanada itoat etishini mustahkamlab bordi. Amir esa sulh shartlarini og‘ishmay amalda bajaraverdi.

## **Xiva xonligining zabt etilishi**

Chor hukumati Xiva xonligini bosib olish uchun katta tayyorgarlik ko‘rdi. Vaholanki, Xiva xonligida 1869 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, 1500 kishidan iborat muntazam armiya bo‘lib, harbiy texnikasi nihoyatda past darajada edi. Shunga qaramay, chor hukumati xonlikka qarshi uch tarafdin, ya‘ni Turkiston general-gubernatorligi, Orenburg va Kaspiy dengizi tomonidan o‘z harbiy kuchlarini tashlaydi. Qo‘shin yaxshi qurollangan 12 ming kishidan iborat edi. Hatto, qo‘shinga imperator xonadonidan buyuk knaz Konstantin Konstantinovich Romanovskiy, knaz Yevgeniy Maksimovich Romanovskiy ham qo‘shiladi. Aftidan, bu bilan harbiy yurish mavqeini yanada oshirish mo‘ljallangan bo‘lsa kerak. Qo‘shinga general K.P.Kaufman umumiy qo‘mondonlik qiladi. Chor qo‘shinlari uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tib, Xiva xonligi chegarasiga yetib keladilar. 1873 yilning may oyida yo‘lma-yo‘l xivaliklar qarshiligini yengib borgan chor istilochilari 28 mayda Xiva shahri ostonasiga kelib to‘xtaydilar. Bu vaqtda Said Muhammad Rahimxon qochishga ulgurgan edi. Qo‘shin general Veryovkin boshchiligida Xiva shahriga hujum boshlaydi. Pirovardida, urush to‘xtatiladi va general K.P.Kaufman Said Muhammad Rahimxonni qaytadan taxtni egallashga da‘vat qiladi. Shundan so‘ng Said Muhammad Rahimxon Xivaga kelib, rus davlatining vassali sifatida o‘z taxtni egallaydi. 1873 yil 12 avgustda o‘zaro sulh tuzilib, Xiva xonligi o‘z siyosiy mustaqilligini yo‘qotadi. Shuningdek, u tovon to‘lashni va Rossiya savdogarlariga xonlikda bimalol ish yuritish uchun sharoit yaratib berishni bo‘yniga oladi. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i Rossiya ixtiyoriga o‘tkazilib, u yerda general-gubernatorlikning Amudaryo bo‘limi tashkil etiladi.

Shunday qilib, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan boy berib, Rossiya tarkibiga kiradi. Amirlik va xonlik saqlangai bo‘lsa-da, ular rus davlati manfaatlarini doirasida ish

yuritganlar. Chor hukumati minglab kishilarning yostig'ini quritgan va nogiron qilgani yetmaganidek, urush harajatlarini undirish uchun Buxoro amirligini 500 ming oltin pul, Xiva xonligini esa 2 million 200 ming so'm tovon to'lashga majbur etadi. Bu og'ir jarima mehnatkash ommaning mushkul hayotini yanada og'irlashtiradi.

## **Qo'qon xonligining barbod qilinishi**

Chor istilochilarining galdagi niyati Qo'qon xonligini tugatish edi. Ular Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa joylarni bosib olib, Qo'qon xonligiga qattiq zarba bergan edi. Qo'qon xoni Xudoyorxon qo'rroq va shijoatsiz bo'lganligi uchun Vatan himoyasi yo'lida biron arzigulik ish qilmadi. Aksincha, chor hukumati panohida o'z taxtida o'tirishni o'ylardi, xolos. U 1868 yili podsho Rossiyasi bilan sulh tuzib, amalda unga qaram bo'lib qoladi.

Bunga ko'ra, xonlik yerlarida rus savdo-sanoat vakillariga katta imtiyozlar berildi. Xudoyorxonning mazkur siyosati aholining g'azabini toshirib yubordi. Buning ustiga xonning zulmi tobora kuchayib bordi. Natijada, 1873 yilda Po'latxon boshchiligida xalq qo'zg'oloni ko'tarildi va u tobora avjiga mindi. Xalq nafratiga uchragan Xudoyorxon o'zining boy xazinasini 80 aravaga yuklab Xo'jandga qochib ketadi. Bu yerdan Toshkentga yuboriladi. General Kaufman uning boyliklarini hukumat foydasiga musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Rus arxiv manbalariga ko'ra, Xudoyorxon bu yerdan qochib Afg'oniston orqali Hindistonga va so'ngra Saudiya Arabistoniga borib haj qilgan. Shundan keyin yana Afg'onistonga qaytib, ko'p o'tmay vafot etgan. Qo'zg'olonchilarga xonlikdagi hukmron doiralarning vakillari Abdurahmon Oftobachi, Mulla Iso Avliyo, Sulton Murodbek va boshqalar ham qo'shilib chor hukumatiga qarshi kurash olib bordilar. Bu harakat shu darajada keng quloch yoydiki, butun Farg'ona vodiysini qamrab oldi. Qulay fursatni kutayotgan chor hukumati askarlari 1875 yil 6 avgustida Farg'ona vodiysiga bostirib kiradi. Qo'zg'olonchilar bosqinchilarga qarshi qattiq jang qiladilar. Shafqatsiz dushman qo'shinlari bir necha aholi turar joylarini yer bilan yakson etadi. Birgina Andijondagi jangda qo'zg'olonchilardan 20 ming kishi

yovuzlarcha yer bilan yakson etildi. Bu fojea general Skobelevning buyrugʻi va bevosita ishtirokida roʻy beradi.

Xalq qoʻzgʻoloni shafqatsizlik bilan bostirilib, 1876 yil 16 fevralda Qoʻqon xonligi tugatiladi.

Shunday qilib, chor hukumati 1853-1876 yillarda, oʻzbek xonliklariga qarashli shahar va qishloqlarni birin-ketin bosib olib, Oʻrta Osiyoning hukmdori boʻlib qoladi. Minglab oddiy xalq vakillari bolta, tayoq bilan qurollanib, oʻzidan har jihatdan bir necha barobar kuchli va yaxshi qurollangan chor qoʻshinlariga qarshi mardonavor kurashadi. Ular askarlarning toʻplar va miltiqlardan otilgan oʻq yomgʻirlariga koʻkraklarini tutdilar. Xonlar esa mamlakat mudofaasini mustahkamlash va harbiy texnikani takomillashtirish oʻrniga oʻzaro kurashlarni davom ettira berdilar. Ayniqsa, Buxoro xonligining Qoʻqonga nisbatan olib borgan dushmanlik siyosati chor hukumati uchun katta foyda keltirdi. Urush harakatlari shuni koʻrsatadiki, uchala xonlikni hukmdorlari harbiy jihatdan mutlaqo savodsiz kimsa boʻlib chiqdi. Bundan Qoʻqon lashkarboshisi Alimqul mustasnodir. U chor hukumatiga qarshi kurashda oʻzining harbiy mahoratini namoyish etib, qoʻshinga va xalq qasoskorlariga bilimdonlik va jasorat bilan boshchilik qildi. U joʻshqin vatanparvar va qahramon shaxs sifatida jang maydonida halok boʻldi.

Oʻzbek xonliklari yerlarining bosib olinishi podsho Rossiyasining yuqori tabaqasi tomonidan zoʻr xursandchilik bilan qarshi olindi. Rossiya moliya vaziri Vishnegorodskiy bu joylarni «rus tojidagi eng qimmatbaho javohirdir», deb baholadi.

Turkiston general-gubernatorligining chegarasi vaqt oʻtishi bilan kengayib bordi. Pirovardida, Sirdaryo, Fargʻona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiy orti yerlarini oʻz qaramogʻiga kiritdi.

Buxoro amirligida 28 beklik viloyatning Chorjoʻy, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Kitob, Shahrizabz, Chiroqchi, Yakkabogʻ, Gʻuzor, Boysun, Qorategin, Denov, Hisor, Darvoz, Boljuvon, Shugʻnon, Roʻshon, Koʻlob, Qoʻrgʻontepa, Sherobod, Xalif, Karki, Burdaliq, Qarshi, Qabodiyon, Qoboliq singari joylarini oʻz ichiga olgan.

Xiva xonligi esa Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qoʻshkoʻprik, Qiyot, Shoxobod (Shovot), Toshhovuz, Ombor, Manoq, Gurlan, Mangʻit, Qilich, Niyozboy, Qipchoq, Porsu, Ilyoli, Koʻhna Urganch, Xoʻjayli, Shumanay va Qoʻngʻirot degan joylarni qamragan.

Ko'rinib turibdiki, amirlik va xonlikning yerlari ilgoriga nisbatan juda qisqargan. Bundan, ayniqsa, Buxoro amirligi katta talafot ko'rdi. Qo'qon xonligi esa butunlay tag-tomiri bilan qo'porib tashlandi. Uning markaziy qismida Farg'ona viloyati tashkil etildi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Turkiston xalqlarining o'ta vatanparvarligi va erksevarligi orqasida rus davlati uni tezkorlik bilan bosib ololmadi. Natijada urush o'rta hisobda 25 yil davom etdi. Xalq ommasida millatparvarlik tuyg'ulari shu darajada kuchli ediki, agar harbiy mahorat va harbiy texnika talabga javob berarli darajada bo'lganda rus davlatining yovuz niyati yuzaga chiqmasligi turgan gap edi. Nachora, o'lka hukmdorlarining nodonligi va o'jizligi hamla bir guruh kishilarning xoinligi Turkiston o'lkasining Rossiya panjasiga tushishiga sabab bo'ldi. Chor hukumati tub aholi vakillarini oliy va o'rta mansablardan mahrum qildi, natijada o'lkani boshqarish rus generallari va ofitserlarining qo'liga o'tdi. Shu ravishda milliy davlat tugatilib, rus tili davlat tili hisoblandi. Milliy tilning va milliy madaniyatning rivojlanishiga yo'l berilmay, «ulug'millatchilik» siyosati amalga oshirildi. Butun o'lkada mustamlakachilik va milliy zulm hukm surdi. U Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilib, boshiga son-sanoqsiz azob-uqubatlar tushdi. Shuning uchun xam xalq ommasining ozodlik kurashlari davom etdi. Masalan, 1892, 1898 va 1916 yillardagi xalq harakatlari shular jumlasilidir. Bunday Mustaqillik uchun kurashlar 1917 yil oktabr to'ntarishidan keyin sovet davlatiga qarshi qaratilgan «bosmachilik» harakatlarida ham o'z ifodasini topdi. Aslida, milliy ozodlik mohiyatiga ega bo'lgan bu umumxalq harakatlarida xalqning barcha tabaqalari faol qatnashib, vatanparvarlik namunalarini namoyish etdilar.

Inshoolloh, O'zbekiston Mustaqilligi tiklandi. Garchand, zamon taqozosiga ko'ra, bu tarixiy voqea bir tomchi qonsiz sodir bo'lgan bo'lsa ham, lekin uning uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari rus davlati tajovuzini boshlagan vaqtlarga borib taqaladi. O'shandan buyon Vatan mustaqilligi uchun 10 minglab kishilar jonini ham, molini ham ayamadi. Nihoyat, ko'z o'ngimizda o'zbek xalqining asriy orzu-niyatlari ro'yobga chiqib, ona yurtimiz mustaqillikka erishdi.



# **JADIDLAR**

## **HARAKATINING SIYOSIY VA**

## **IJTIMOIIY-IQTISODIY ZAMINI**

---

Mustaqillik sharofati ila matbuot sahifalarida Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Naim Karimov, Ahmad Aliyev, Dilorom Alimova, Karim Normatov va boshqa mualliflarning jadidlar faoliyatiga bag'ishlangan sermazmun maqolalari chop etildi. Ular tariximizda o'chmas iz qoldirgan, lekin sovet davrida surbetlarcha qoralangan jadid harakatini xolisona o'rganish, oqlash va ommalashtirishga hissa qo'shdilar.

Ammo, jadidlar harakatini yuzaga keltirgan zaminlariga doir masalalarni yoritish hamon o'z yechimini kutmoqda. Mazkur ishda ularni o'rganishga harakat qilindi. Shubhasiz, bu katta masalani bir maqolada to'la-to'kis hal etishning iloji yo'q, albatta. O'ylaymanki, muhtaram o'quvchilar buni hisobga oladilar.

Ma'lumki, muhim tarixiy voqealar tasodifan va favqulodda sodir bo'lmay, o'zlarining ildizi va zaminiga ega bo'ladi.

Shunga o'xshash, jadid g'oyalari va harakati ham XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi sharoitga bog'langan holda shakllandi va toblandi. Boshqacharoq aytganda, ular o'sha davr siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotining aks sadosi sifatida gavdalandi.

## Siyosiy zamin

Jadidlar siyosiy faoliyatining negizi mustaqillik va ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Bu g'oyalar, avvalambor XIX asrning 50-70-yillarida o'zbek xalqining Rossiya tajovuziga qarshi janglarida o'z ifodasini topgan edi. Ular rus davlatining Turkiston zaminida hukmronligi o'rnatilganidan keyin ham xalqning qalbida jo'sh urib turdi. Bu hamisha o'z xalqining dardida yashagan va uning ozodligi uchun jonini tikkan jadidlarning ham ongi hamda qalbini chulg'ab oldi.

Chunki rus davlati mintaqada milliy davlat va qo'shinni tugatib, mustaqillikni barbod etdi. U o'zining manfaatlarini ta'minlaydigan siyosiy-ma'muriy tizimni tashkil etib, butun mintaqaning yagona egasi bo'lib qoldi. Rus hukumati 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligini tashkil etib, K.P.Kaufmanni gubernator qilib tayinladi. U 1868 yil 1 yanvar kuni Toshkent shahrining nufuzli kishilari huzurida nutq so'zladi. U o'z so'zida rus davlatining Turkiston zaminiga bostirib kirishini va qonli urushlarni «oqlash», «xaspo'shlash» uchun ko'p nayrangbozlik qildi. Zero, u xonliklar davrida o'lkada adolatsizlik va zo'rvonlik hukm surib, xalq ommasini hamisha og'ir ahvol va azob-uqubatda yashaganligini ta'kidladi. Chor hukumati tub aholiga ozodlik va farovon hayot baxsh etish maqsadida Turkistonda egallagan emish. U o'lkada o'zi tuzgan mustabid siyosiy-ma'muriy tizimni maqtab shunday deydi: «Baxt-saodat keltiruvchi yangi tartib va qonunlarni, ulug' imperatorning marhamatini anglashga tub aholining aql-idroki yetarlimikan?.. Takror ogohlantiramanki, sizlarning taqdiringiz o'zlaringizning qo'llaringizda. Agar o'zlaringizni foydangizni o'ylab va bizning marhamatimizni his etib, chor hukumatiga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lsangizlar baxtli hayotga erishasizlar. Bordiyu, sizlar boshqacha ish yuritib hukumatga qarshi tursangiz, hokimiyat kuch ishlatishga o'tadi».

Ko'rinib turibdiki, K.P.Kaufman xalqni chor hukumatining atrofigaji pslashishgada'vat etdi. Aks holda, harbiy kuch ishlatishini bayon qildi. U rus davlatini imkoni boricha, adolatli va insonparvar davlat sifatida tasvirlashga harakat qildi. O'zini esa, mana shunday «salohiyatli» davlatning Turkistondagi vakili sifatida gavdalandirdi.



Ammo, ko'p o'tmay rus davlatining ham, shaxsan o'zining ham niqobi yirtilib, haqiqiy basharasi oshkor bo'ldi. Chunonchi, K.P.Kaufman bosqinchilik va talonchilik urushini davom ettirib, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini vahshiylarcha bosib oldi. Shundan keyin rus hukumati mintaqani Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidan iborat uch qismga parchalagan holda boshqardi. Rus hukumati general-gubernator lavozimiga ulug'millatchilik ruhi bilan sug'orilgan va qattiqqo'l kimsalarni tayinladi. Ular o'lkada mustamlakachilik siyosati va milliy zulmni izchillik bilan amalga oshirib, boyliklarni talashda muhim o'rin egalladilar. Shu bois, ularning ism-shariflarini o'quvchilarning bilib qo'yishi foydadan holi bo'lmaydi, deb o'ylayman:

**K.P.Kaufman (1867-1882),**  
**M.G.Chernyayev (1882-1884)**  
**N.O.Rozenbax (1884-1888),**  
**A.B.Vrevskiy (1889-1898),**  
**S.M.Duxovskiy (1898-1901),**  
**N.A.Ivanov (1901 - 1904),**  
**D. I. Subbotin ( 1905-1906),**  
**N.I.Grodekov (1907-1908),**  
**A.I.Samsonov (1909-1913),**  
**Flug, Martson, Yerofeyev (1914-1916),**  
**A.N.Kuropatkin (1916-1917).**

General-gubernatorlar o'zlarining yordamchilari va maxsus kengash a'zolari bilan ish yuritganlar. General-gubernatorlik qoshida ijroiyy organ - uch bo'limdan iborat idora (kanselariya) bo'lgan. Birinchisi, boshqaruv va ma'muriy shaxslar; ikkinchisi, yer, soliqlar, qurilish, aloqa, o'quv va sanitariya; uchinchisi, moliya va yer soliqlariga doir masalalar bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu bo'lim vaqf mulklari, statistika va xorijiy fuqarolarni ham nazorat qilib turgan. Idora qoshida Buxoro amirligi va Xiva xonliklari bilan aloqani ta'minlovchi diplomatiya bo'limi ham faoliyat ko'rsatgan. O'lkaning oliy va o'rta boshqaruv lavozimlariga rus generallari va ofitserlari tayinlandi. General-gubernatorlik

tarkibiga Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlari kiritilib, Toshkent shahri uning markaziga aylantirildi. Viloyat va unga qarashli uyezd boshliqligiga ham harbiy kishilar qo‘yildi.

Viloyat harbiy gubernatorlari o‘z qo‘l ostidagi shahar, qishloq va ovullar ustidan qattiq nazorat o‘rnatib, mustamlakachilik siyosatini amalga oshirganlar. Bu ishda viloyat boshqarmasi ijroi organ sifatida muhim o‘rin egalladi.

Viloyat hisobidagi uyezdlarga katta-kichik shaharlar, qishloq va ovullardan tashkil topgan volostlar kirgan. O‘lkadagi quyi boshqaruvga, xususan, volost, qishloq va ovul oqsoqollik lavozimlariga mahalliy aholining vakillari «saylov» yo‘li bilan tayinlangan. Ular rus ma‘muriyatining ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajaradigan va o‘ta itoatkor kishilar hisoblangan.

Shunday qilib, mahalliy yuqori tabaqa vakillari oliy va o‘rta boshqaruv lavozimlaridan mahrum etilib, siyosiy maydondan surib tashlandi. «Mahalliy xalqning orasida, - deb yozgandi Farg‘ona viloyati gubernatori, - xonning amaldorlari va ayniqsa, ruhoniylar singari dushmanlarimiz ko‘p. Biz bu o‘lkaga kelganimizdan keyin ular faqat sobiq mavqelaridangina emas, balki yaxshi hayotni ta‘minlovchi imkoniyatlaridan ham ayrildilar. O‘sha toifadagi kishilar o‘z jamiyatining ruhi va zaif tomonlarini yaxshi bilganliklari uchun avvalgi tartiblarni tiklash maqsadida xalqni ruslarga qarshi otlantirishga qodirdirlar».

Darhaqiqat, xonlik davrida o‘z vatani uchun xizmat qilgan kishilar oz emas edi. Ular faqat daromadlaridan ayrilganliklari uchun emas, balki ona yurt mustaqilligini tiklash uchun kurashga tayyor edilar. Hatto, ulardagi mustaqillik uchun kurash harakati XX asr boshlariga, ya‘ni keyingi avlodga meros sifatida o‘tib bordi. Bu xususda arxiv manbalarida shunday deyilgan: «Rus davlatiga bo‘ysundirilganiga qadar, Farg‘ona mustaqil davlat hisoblanib, o‘zining tarixi, hukmron sinfi va boshqaruv tizimiga ega edi. Ularning yo‘qolganiga hali chorak asr bo‘lgani yo‘q. Shuningdek, yangi sharoitga moslashish uchun bir kishining umri o‘tgani yo‘q. Ilgari hukmronlik qilgan nufuzli tabaqalarning oddiy kishilarga aylanish jarayoni juda qiyin va alamli kechmoqda. Shuning uchun tasodifiy hodisalarning bo‘lishini nazarda tutgan holda, mahalliy aholini qattiq nazorat ostida saqlab turish zarur. Chunki ular o‘z

holiga tashlab qo'yilganligi uchun doimiy ravishda nazorat qilishning imkoni yo'q. Yangi tartib va qonunlar orqasida ularning faqat jamiyatdagi mavqeiga emas, balki vaqf yerlaridan olinadigan daromadlarning qisqartirilishi tufayli iqtisodiy manfaatlariga ham ziyon yetkazildi»<sup>50</sup>.

Rus hukumati birinchi navbatda, din peshvolarini eng xavfli dushman hisoblab, ularni imkoni boricha «burchakka qisib» qo'yishga harakat qildi.

Ma'lumki, rus hukumati qozilik sudini saqlagan bo'lsa-da, lekin qozilar qattiq nazorat ostida ushlab turildi. Ular va quyi ma'muriyat vakillari birgalikda «gah desa qo'lga qo'nadigan» tarzda ishlatilgan. Hatto arzimagan bahonalar topib vahimada va qo'rquvda ushlab turilgan. Masalan, Qo'qonda 25 ta qozilar eski qabristonlarni buzmaslikni so'rab ariza yozganlarida, ulardan bir nechtasi lavozimlaridan chetlatildi. Shundan keyin, bir guruh nufuzli kishilar norozilik xatini yozdilar. «Xonlar vaqtida, - deyilgan unda, - qozilar, - shariat qonunlarini bilganliklari uchun mukofotlanganlar. Ammo xaloyiq qozilarning bekordan-bekorga lavozimlaridan bo'shatilganini bilmaydi. Chunki ular hech qachon shariatga zid ishlarni qilmaganlar»<sup>51</sup>.

Rus ma'muriyatining qozilarga nisbatan qo'llagan adolatsizligi jamoa ahlining noroziligi va nafratini yanada kuchaytirdi. Shuning uchun viloyat harbiy gubernatori A.A.Abramov qo'zg'olon ko'tarilishidan qo'rqib, agar tartibsizliklar ro'y bersa, u vaqtda qozilarni Sibirga surgun qilinishini ma'lum qildi<sup>52</sup>. Ayni paytda, Qo'qon uyezdining boshlig'i: «Agar din peshvolari tartibsizliklarda qatnashsalar, madrasalarning yopilishini va vaqf yerlari tamomila davlat ixtiyoriga o'tkazilishini»<sup>53</sup>, bildirdi. Shikoyatga imzo chekkan qozilardan 10 kishi hibsga olingan edi.

Shuningdek, ularga xayrixohlik bildirgan ellikboshilardan 8 tasi qamaldi. Bu hol og'ir hayot girdobida turmush kechirayotgan xalqning noroziligini kuchaytirib, olomon to'plana boshladi. Natijada xavfli vaziyat yuzaga kelib, qo'zg'olon ko'tarilishi ayon bo'lib qoldi. Bundan cho'chib ketgan harbiy gubernator qozi va ellikboshilarni qamoqdan ozod etishga majbur bo'ldi. Qozi Mulla Ashur

<sup>50</sup> Sentralny Gosudarstvennyy arxiv Rossii v Sankt-Peterburge. F. 1282, op. 3. d. 412, l. 27.

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, F. 19, 1-ro'yxat, 332-ish, 43-6.

<sup>52</sup> O'sha joyda, 22-b.

<sup>53</sup> O'sha joyda, 27-b.

shikoyatning tashabbuskori sifatida Sibirga surgun qilinishi kerak edi, lekin vaziyat keskinlashganligi tufayli bu hukm ham bekor qilindi<sup>54</sup>.

Rus hukumati o'lkada o'ziga mustahkam tayanch hosil qilish va yerlarni o'zlashtirish maqsadida rus shaharlari va posyolkalarini bunyod etdi. Bu joylarga minglab ruslar joylashtirildi.

XIX asrning oxiriga kelib o'lkadagi ruslarning soni 197.420 kishiga yetdi. 1909 yilda esa ular 619.320 kishini tashkil etdi. Natijada, o'lkadagi o'troq va ko'chmanchi aholi unumdor yerlar va yaylovlarning talay qismidan mahrum bo'lib, og'ir ahvolga tushib qoldi. O'lkada ruslarning tobora ko'payib borishi siyosiy jihatdan ham tub aholiga o'ta xavfli edi. Zero, ular rus davlatining mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosatini mustahkamlovchi omilga aylanishi turgan gap edi.

Shunday qilib ko'rdikki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston zaminida mustamlakachilik va ulug'millatchilikka asoslangan siyosiy-ma'muriy tizim barpo etildi. Rus hukumati o'zbek va boshqa tub aholiga siyosiy va insoniy huquq berishni xayoliga ham keltirmadi. Rus matbuoti va ilmiy asarlarda Turkiston o'lkasi ochiqdan-ochiq «Rossiya mustamlakasi» nomi bilan izohlandi. Ish shu darajaga borib yetdiki, «Russkiy Turkestan» («Rus Turkistoni») atamasini ishlatish odat tusiga aylandi. Shuningdek, tub xalq o'zbek va qozoq singari asl nomlari bilan emas, balki «inorodes» («begona zot»), «tuzemes» («yerli aholi») deb yurgizildi. Qozoqlar esa «kirgizi» («qirg'izlar») nomi bilan ataldi.

Mustaqillikning yo'qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini chor hukumatiga qarshi qudratli muxolifatga aylantirdi. Ularning orasida mahalliy yuqori tabaqalarning ilg'or vakillari ham bo'lib, ozodlik g'oyalari borgan sari kuch-quvvatga to'lib bordi. Bu g'oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga da'vat etdilar. Zero, Abdurauf Fitrat shunday yozgan: «Ey ulug' Turon, arslonlar o'lkasi. Senga na bo'ldi. Dunyoni «Urxavalari» bilan titratgan yo'lbars bolalaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir?.. Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarin o'zgalarga nechun qo'ydilar»<sup>55</sup>.

<sup>54</sup> O'sha joyda, 53-54-b.

<sup>55</sup> «O'zbekistoni adabiyoti va san'ati», 1992 y., 5 iyun.

Binobarin, jadidlarning yo‘lboshchilaridan biri bo‘lmish Fitrat xalqni dovyuraklikka chaqirib, ona yurt uchun kurashga otlantiradi. U o‘zining «Temur sag‘anasi» nomli pyesasida chor hukumatining mustamlakachilik siyosati orqasida Turkiston zamini o‘zining sobiq kuch-qudratini va shon-shuhratini yo‘qotib, misli ko‘rilmagan darajada oyoq-osti qilingani, xo‘rlangani, talangani va xonavayron bo‘lgani haqida bayon etgan. Zero, «Temur sag‘anasi» pyesasining qahramoni Amir Temurga murojaat etib shunday deydi<sup>56</sup>:

Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim  
siniq, bo‘yim bukik.

Sening ziyoratingga keldim, Sultonim!

Ezilgan boshim, kesilgan vijdonim,

kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun,

bu sag‘anangdan davo izlab keldim, Xoqonim!

Yuz yillardan beri jaf o‘rib, g‘am

chekib kelgan turkning qonli ko‘z

yoshlarini etaklaringga to‘karga keldim.

Qorong‘ular ichra qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun

Tuproq‘ingdan surma olgani keldim.

Turkning nomusi, e‘tibori, iymoni,

Vijdoni zolimlarning ayog‘lari ostida qoldi!

Turkning yurti, ulog‘i, o‘chog‘i, Turoni yot qo‘llarga tushdi.

Turkning belgusi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘lkasiga ketdi.

Sening qiliching bilan dunyo egasi bo‘lgan

Turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi.

Mazkur misralarda Amir Temur xo‘rlangan va talangan avlodlari uchun ruhiy kuch-qudrat sifatida ta‘riflangan. Pyesa qahramoni unga mustaqillik va ozodlikning ramzi sifatida murojaat qilib, madad so‘ragan. U Temur ruhiga yana shunday so‘zlarni aytadi:

Ey, arslonlar arsloni,

Mening yozuqlarimdan o‘t,

meni qo‘limni tut,

Belimni bog‘la, muqaddas

fotihangni ber...

---

<sup>56</sup> Mazkur ma‘lumotlar birinchi marta professorlar B.Qosimov va N.Karimovlar tomonidai e‘lon qilingan.

Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga  
Ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug'ligini  
qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman.

Binobarin, pyesa qahramoni faqat nolish bilan chegaralanmay, Turkiston «sharafi va ulug'ligini» tiklash uchun kurashishga qasam ichadi. Bu jadidlarning ozodlik g'oyasini aks ettiruvchi omillardan biridir. Bu xususda Behbudiyning 1906 yil 11 oktabrda «Xurshid» gazetasida chop etilgan maqolasi ham diqqatga sazovordir. U bunda ruslar, yahudiylar va boshqa xalqlarga o'xshab barcha musulmonlar ham bitta siyosiy partiyani tuzishlarini ta'kidladi. U Rossiyada faoliyat ko'rsatayotgan partiyalarni monarxistlar, kadetlar, sotsial-demokratlar va sotsial-revolutsionerlardan iborat to'rt guruhga bo'ladi. Unda monarxistlar partiyasining musulmon ahlining iqtisodiy-madaniy jihatdan rivojlanishiga qarshi turishini qoralagan. Shuningdek, sotsialistik partiyalar xususiy mulkni tugatib, ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirishga harakat qilayotganliklarini tanqid qilgan. Behbudiy sotsialistlarning xususiy mulk, shaxs va oila haqidagi qarashlari o'ta ziyoli va musulmonlarning manfaatlariga zidligini ochib tashlaydi.

U kadetlarning konstitutsiyali davlatni tashkil qilish, «harbiy kengash» o'rniga dumani ta'sis etish haqidagi dasturini maqtab, musulmonlarga ham tenglik, erkinlik va taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini yaratishini uqtirib o'tadi. U mana shu dastur asosida yagona musulmon partiyasini tuzib, birgalikda va hamkorlikda ozodlik uchun kurashga chaqiradi.

Jadidlarning siyosiy kurashlarini tasavvur etishda 1913 yilda «Turkiston ovozi» va «Golos Turkestana» gazetalarida ko'tarilgan quyidagi uch masala ham diqqatni jalb etadi:

1. Sibir temir yo'lidan to Afg'oniston va Erongacha bo'lgan joyda yashayotgan butun yerli xalqlar bilan ruslar orasida huquq va soliqlar sohasida tenglikni vujudga keltirish.

2. Ko'chmanchi hayot kechiruvchi musulmonlarga qishloq va shaharlardan joylar bo'lib berilganiga qadar ko'chib kelayotgan ruslarga yer bermaslik.

3. Zamonaviy ma'rifatni tarqatish.

Ushbu masalalarning yo'nalishi chor hukumatining ulug'millatchilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi, albatta.

Boylarning vakillari orasida jadidlarning mustaqillik va ozodlik g'oyalariga hamdardlari ham oz emas edi. Masalan, andijonlik millioner Mirkomil Mirmo'minboyev 1915 yilda «Siyosiy jihatdan ishonchsiz va davlatga xiyonat qilgan shaxs» sifatida tergovga tortilgan<sup>57</sup>.

Ammo, u pora berib qutulib qolgan. 1916 yilgi qo'zg'olon vaqtida ham chor hukumatining siyosatiga qarshi zimdan ish yuritgan Mirkomilboy Mirmo'minboyev imperatorning tub aholini mardikorlikka olish haqidagi farmonini qoralab, unga qarshi kurashishga da'vat etgan. Bu haqda uning Qo'qon va Marg'ilonning nufuzli kishilariga yo'llagan maxfiy xatlari dalolat beradi. U Qo'qondagi ishonchli kishisiga yozgan xatida shunday degan: «Sizga ma'lum bo'lsinki, Qo'qon aholisiga va boylarga odamlarni mardikorlikka bermasliklarini tayinlang. Qo'rqmanglar, Rossiya og'ir ahvolda, meni o'zim bordim va bildim. Qachonki, odamlar meni ustimdan shikoyat qilganlarida, meni javobgarlikka tortmadilar, chunki 150 ming so'm berib qutuldim.

Hozirgi sharoitda rus amaldorlariga ming so'm berilsa, bas, xotinini ham, bolalarini ham berishga tayyordirlar. Turkiyadagi ahvol yaxshi. Endilikda biz qulfurushlarning qonini ichamiz. Andijon taqdiri meni qo'limda. Bu xatni o'qi, tez javob ber va maxfiy ushla»<sup>58</sup>.

Shunday mazmundagi xat Marg'ildagi Sayid Mamad Eshon nomiga ham yozilgan<sup>59</sup>.

Mirkomil Mirmo'minboyev bunday xatlarni boshqa shaharlarga ham yuborganligi ma'lum. Shu ravishda, u o'z xalqini Rus davlatiga qarshi bosh ko'tarishga da'vat qilishga harakat qilgan edi.

Demak, Turkiston zaminida Rus davlatining hukmronligi mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosati jadidlarning ozodlikni tiklashga qaratilgan siyosiy g'oyasi va kurashini shakllantirdi.

---

<sup>57</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi. F. Turkiston general-gubernatorligining idorasi, 31-ro'yxat, 110-ish, 106-b.

<sup>58</sup> O'sha joyda. F. Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi idorasi. 2-ro'yxat, 148-ish, 66-b.

<sup>59</sup> O'sha joyda.

## Iqtisodiy zamii

Rossiyaning mustamlaka siyosati, ayniqsa, iqtisodga katta ta'sir ko'rsatdi. Rus hukumati va kapitalistlar birinchi navbatda paxtachilikni rivojlantirish va to'qimachilik sanoatini arzon xom ashyo bilan ta'minlashga qattiq kirishdilar.

Ma'lumki, mahalliy paxta navlarining sifati va tolasining uzunligi jihatidan hunarmandchilik sanoatiga moslashgan edi. Shu bois, u to'qimachilik sanoati ehtiyojini to'la qondira olmadi. Mustamlakachilar buni hisobga olib, o'lkada Amerika paxta navlarini iqlimlashtirishga qaratilgan choralarni izchillik bilan amalga oshirish harakatiga tushdilar. Chunonchi, Amerikadan urug'lik paxta chigitlari keltirilib, maxsus tajriba stansiya va plantatsiyalarda ekildi. Hatto, chigitlar dehqonlarga bepul ulashildi. Nihoyat, XIX asrning 80-yillariga kelib Amerika paxta navini iqlimlashtirishni o'zbek dehqonlari amalga oshirdilar va katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu paxtaning tolasini ancha uzun, hosildorligi va sifati baland bo'lib, to'qimachilik sanoatining talablariga to'la javob berardi.

1886 yilda yetishtirilgan paxtaning hajmi 3 mln., 1910 yilda 10,8 mln. va 1915 yilda 18,5 mln. pudni tashkil etdi. Bu paxtaning deyarli hammasi Rossiyaga olib ketilib, o'lka uning xom ashyo manbaiga aylantirildi. Bu esa xalqning, shu jumladan, mahalliy yuqori tabaqa vakillari, ziyolilarning noroziligi va nafratini uyg'otishi turgan gap edi.

XX asr boshlarida Mirkomil Mirmo'minboyev, Xo'jayev, Fuzailov, Hakimboyev, aka-uka Vadyaivlar, Orif Xojinov, Rahimboyev, Obidov, Olimboyev, Muhamedov, Karimboyev va boshqa boylar bor edi.

Ammo rus kapitalistlari ularni mustaqil ravishda rivojlanishiga yo'l bermadi. Bularga Turkiston o'lkasi bilan aloqada ko'proq vositachilar sifatida munosabatda bo'ldilar. Natijada, «Maskov savdo-sanoat shirkati», «Aka-uka Shlosberg shirkati», «VI. Alekseyev shirkati», «Br. Kraft shirkati», «Neva manufaktura shirkati», «Triugolnik shirkati», «Danilov manufakturasini shirkati», «Morozov savdo uyi», «Proxorev manufakturasini» va boshqa qator firmalarning iskanjasida siqilib qoldi. Ko'rsatilgan firmalarning deyarli hammasi paxta va boshqa xom ashyo, mahsulotlarini



uzluksiz Rossiyaga olib ketaverdilar. Ular paxtani arzon narxda olishdangina emas, balki undan tayyorlangan turli gazlamalarni sotishdan ham katta daromad oldilar. Bundan tashqari, o'sha firmalarning paxta tozalash zavodlari ham bor edi. Masalan, 1912 yilgi ma'lumotga ko'ra, firmalar Farg'ona viloyatining o'zida 50 ta paxta tozalash zavodlariga ega edi.

Turkiston zamini Rossiyadan keltirilgan tayyor sanoat mollari bilan ham to'ldirilib, chor hukumati va firmalar undan ham mo'may daromadlarni qo'lga kiritardilar.

Umuman aytganda, rus hukumati va kapitalistlar yarim asrlik vaqt ichida mahalliy xalq boyligiga chang solib, imkoni boricha ko'proq o'zlashtirishga hech narsadan toymadilar. Shuning uchun ham: «Ellik yildan beri, - deb yozgan edi Fitrat, - ezildik, tahqir etildik. Qo'limiz bog'landi; tilimiz kesildi. Og'zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi. Sharafimiz yemiruldi. Nomusimiz g'asb qilindi, insoniyligimiz oyoqlar ostiga olindi. To'zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug'iga bo'yinsundik. Butun borlig'imizni qo'ldan berdik»<sup>60</sup>.

Xullas, Turkistonning Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, ayovsiz talanishi va qashshoqlanishi jadidlarning ham, nafratini uyg'otdi. Bu holat ularda ona yurtning iqtisodiy mustaqilligini tiklash va g'oyasini shakllantirdi.

## Ma'naviy zamin

Mustamlakachilik siyosati o'lkaning ma'naviy hayotiga ham zarba berdi. Chunonchi, milliy tilning rivojlanishiga yo'l qo'yilmay, rus tiliga davlat maqomi berildi. XX asr boshlarida bir nechta gazetalarni chiqarishga ruxsat etildi, lekin ular ko'p umr ko'rmay bekitib qo'yilardi. Xalq ommasi savodsizligi orqasida gazetalar ma'lum bir tor doiraning ehtiyojini qondirardi, xolos. Rus hukumati xalq maorifini rivojlantirishni xayoliga ham keltirmay, maktab va madrasalarni mablag' bilan ta'minlamadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Turkiston general-gubernatorligi budjetining faqat bir

---

<sup>60</sup> «Sharq yulduzi». 1992 yil, 10-son, 173-b.

foizigina maorifga ajratilgan. Uning ham 74 foizi rus maktablarini, 26 foizi rus-tuzem maktablarini ta'minlashga sarflandi.

Yaxshiyamki, tadbirkorlar va jadidlar bor ekan, ular birgalikda maktab va madrasalarni ta'minlab turdilar. Shuningdek, ota-onalarning ko'rsatgan moddiy yordami muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Rus hukumati maktab va madrasalarni o'rta asr qoloqligida saqlashga harakat qilib, ularni qattiq nazorat ostida ushlab turardi.

Buning sababi shundan iborat, ediki, rus hukumati tub aholining savodli bo'lib, bilimi oshgach, milliy his-tuyg'ulari o'sishidan juda cho'chigan. Iloji boricha o'lka xalqini asta-sekin ruslashtirishga qaratilgan siyosatni hayotga tadbiq etishga harakat qildi. 1970 yildayoq Rossiya xalq maorifi vazirligi «Maorifning maqsadi, pirovardida barcha mahalliy aholini ruslashtirishdan iborat bo'lishi» haqida qaror qabul qilgan edi.. Shunga o'xshash fikrni N.O.Ostroumov ham aytgan: «Rus hukumati mahalliy aholini rus xalqi bilan aralashtirishga harakat qilishi kerak. Shu yo'nalishda mahalliy aholining maorifini ma'lum darajada rivojlantirish lozim».

Rus davlatining yarim asrdan ortiq hukmronligi davrida hukumat tomonidan mahalliy aholi uchun birorta zamonaviy milliy maktab, o'rta va oliy o'quv yurti ochilmadi. Natijada, o'zbek va boshqa tub aholi<sup>61</sup> vakillari qorong'ulikda va qoloqlikda, umuman, ma'naviy qashshoqlikda hayot kechirdi. Bunda yuqoridagi N.O.Ostroumovning «xizmati» katta bo'ldi. Shu bois ham jadid Mirmuhsin Shermuhamedov shunday yozganadi: «Tabiiy Turkistonga maorif inspektori qilib belgilangach, qart missioner Ostroumovning ta'siri ila bizda... muntazam maktab, madrasa ochira olmas edi. Qart missioner bunga pichroq (iflos) bir qasd ila qarshi keladir edi. Zero, tajribali bir maktab va madrasada o'qib chiqqan shogirdlarda diniy, milliy his-tuyg'u bo'lar edi. Ular missionerning puchroq maslagiga xizmat etmasdilar. Endi revolutsiyadan so'ng missionerlarning uyasiga tayoq tiqilib to'zdirilgach, qart missioner Ostroumov Turkistondan yo'qoldi. Turkiston 27 yillik shum mal'undan qutulganidan keyingina sulu oldi».

Haqiqatan ham, Ostroumov ko'p yillar mobaynida ulug'millatchilik siyosatining ilhomchi va ijrochilaridan biri edi. Rus ma'muriyati va

<sup>61</sup> «Sharq yulduzi». 1992, 10-son.173-b.

ziyolilari orasida agar maktab va madrasalar faoliyatiga imkon yaratilsa «gʻafltda yotgan musulmonlarning uygʻonishi» va «nonimiz yarimta» boʻlishi mumkin, degan xavotirlanish yoʻq emas edi.

Koʻrilayotgan davrda maʼnaviy hayotning negizi boʻlmish din daxlsizligi saqlangan boʻlsa-da, lekin din peshvolarining jamiyatdagi mavqeiga qattiq zarba berilib, taʼqib ostiga olindi. Vaqf yerlarining qisqartirilishi va ularni rus maʼmuriyati nazoratiga olinishi ham dinning iqtisodiy zaminini ancha zaiflashtirdi. Din peshvolarining har bir «nojoʻya» harakati panislomizm va panturkizm sifatida qoralandi. Mustamlakachilar xalqning maʼnaviy hayotini tarixiy yodgorliklarni xarobaga aylantirish bilan ham qashshoqlashtirdi.

Bosqinchilar oʻzbeklarni jahon taraqqiyotidan chetda qoldirib, fan va madaniyatning oʻsishiga katta toʻsqinlik qildi. Bunday, millatning hozirgi kuninigina emas, balki kelajagini ham barbod etuvchi milliy zulm jadidlarning maʼnaviy kurashining asosini shakllantirdi.

Ular birinchi navbatda xalqning savodini chiqarish va jahon andozasi darajasida bilimni oshirishga kirishdilar. Ular yoshlarni oʻqitish uchun Germaniya, Fransiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarga yuborishni talab etdilar. Masalan, bunday takliflar M.Behbudiyning «Ehtiyoji millat» (1909) va Choʻlponning «Doʻxtir Muhammadyor» (1915) singari maqolalarida bayon etildi.

Jadidlar milliy matbuotni rivojlantirish bilan ham xalq «koʻzini ochish»ga harakat qildilar. Chunonchi, ular 1905 yil oxirida «Oʻrta Osiyoning umr gulzorligi» nomida gazeta chiqarishib, maktab islohotlariga va boshqa hayotiy masalalarga oid maqolalarni chop etishdi. Ammo gazeta ikki oydan keyin faoliyatini toʻxtatishga majbur boʻldi.

1905 yilda jadidlarning «Taraqqiy» nomli gazetasi chiqarildi. Unda maorifda islohotlarni oʻtkazishga daʼvat etuvchi fikr-mulohazalar, oʻlka siyosiy-maʼmuriy tizimini tanqid qilish va musulmonlarning birligini taʼminlashni oʻz ichiga olgan maqolalar chop etildi. Shuning uchun ham gazeta koʻp oʻtmay hukumat tomonidan yopib qoʻyildi. 1906 yil sentabrda «Xurshid» («Quyosh») gazetasi chiqq boshlab, unda ehtiyotlik bilan siyosiy-ijtimoiy boshqaruv tizimi tanqid qilinib, xalqning siyosiy ongini uygʻotuvchi maqolalar chop etildi. Biroq bu gazeta ham oʻsha yilning oxirgi oylarida maʼmuriyatning koʻrsatmasiga binoan toʻxtatildi. 1908 yilda

«Shuhrat» degan nomda jadid gazetasi chiqdi. Unda bosilgan M.Behbudiy maqolalaridan birida, tub aholi vakillaridan muhandislar, qonunshunoslar, doktorlar, iqtisodchilar, tayyorlash uchun yoshlarni xorijiy mamlakatlarga yuborish lozimligi ko'rsatildi. Shuningdek, u siyosiy hayotga doir maqolalarni ham e'lon qildi. Bu gazeta ham, odatdagidek, hukumat tomonidan yopildi.

Demak, rus ma'muriyati gazetalarni birin-ketin yopib, jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyatiga to'sqinlik qilib turgan. Ammo, jadidlar bo'sh kelmay 1913-1915 yillar orasida «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Jonli til», «Buxoroi sharif» va «Turon» gazetalari hamda «Al-isloh» va «Oyna» jurnallarini chiqardilar. Ularda islohotlar va boshqa dolzarb masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar o'z aksini topdi. Jadidlarning mashhur vakillaridan biri Cho'lpon o'tmish zamonlarda ma'rifat ham rivojlanganligini, biroq mustamlakachilik davrida inqirozga uchraganligini ta'kidlagan. «Rus hukumati vaqtida, - deb yozgandi u, - ichki Rossiya musulmonlarini cho'qintirmoq ishida Rustami Zol (Rustam Zol) bo'lg'on, bizning ma'lun Ostroumov to'ramizning ustozlari sanalgan mashhur Ilminskiy cho'qintirish siyosatining biri bo'lg'on mashhur Poledonayevga yozgan xatida: «Yerlik xalq orasidan bizning uchun foydalik va hech bo'lmaganda zararsiz kishilar, u rus tilini tutilib, uyalib, gapiraturg'on, o'rischa yozganda birmuncha xato bilan yozaturg'on, bizning gubernatorimizdan emas, hatto ustol boshlig'i (mirzo)mizdan ham qo'rqaturg'on kishilardir», degan edi.

«Bunga qarshi, — deb so'zini davom ettiradi Cho'lpon, — biz rus tili bilan emas, hatto Ovrupo madaniyatli millatlarning tili va bilimi bilan javob bersak, odam qatori yashamoqqa albatta haq qozonarmiz. Endi bu ezgu harakatga tariximizda ko'rolmog'animizga bir narsa qo'shilsa, ya'ni o'zbekning erkin yigitlari emas, tutqun qizlari ham Ilminskiy vasiyatiga qarshi isyon boshlasa, o'zi uchun eng totli bo'lg'on elidan, ota-onasidan kechib, minglab chaqirim yerga ketsalar, odam qatori haqini, turtki yemasdan, urilmasdan, so'kilmasdan o'z huquqini ortig'i bilan qozonaolamiz. Eski turmush o'lim to'shagida, yigitlarimizning chin bilimiga qarab bu intilishlari eski turmushni biroz avval yerga ko'mgusidir».

Garchand ushbu ajoyib va jo'shqin fikrlar 1922 yilda «Qizil bayroq» gazetasida yozilgan bo'lsa-da, lekin undagi g'oyalar va umuman, jadidlarning faoliyati rus hukumati vaqtida namoyon bo'lgan.

Yuqorida qayd qilingan Mirkomil Mirmo'minboyev Andijonda shifoxona va madrasa ochish uchun ko'p harakat qildi, lekin rus ma'muriyati uning mavqei yanada oshib ketishidan va xalqning «uyg'onishi»dan qo'rqib rejasini amalga oshishiga yo'l bermadi. Bu xususda quyidagi arxiv hujjati dalolat beradi.

## **Farg'ona viloyat boshqarmasiga**

«Mirkomil Mirmo'minboyev Andijon shahrida qurmoqchi bo'lgan madrasa masalasi bo'yicha shuni ma'lum qilamanki, Farg'ona viloyat boshqarmasidan mavjud madrasalarni kengaytirish va yangilarini qurishga iloji boricha ruxsat etmaslikni va faqatgina eski madrasalarni ta'mirlashga ruxsat berilishini so'rayman.

Oxirgi paytlarda ba'zi bir shaharlarda (Andijon, Qo'qon va O'ratepa) musulmonlarning ba'zi bir machit va madrasalariga o'quvchilarning misli ko'rilmagan darajadagi katta oqimi kela boshladi. Bu davlat manfaatlariga zid holdir. Masalan, shunday madrasalarning birida mullavachchalar soni 160 kishidan birdaniga 600 kishiga ko'paygan. Andijon shahrida shundoq ham musulmon maktablari keragidan ortiqrog'dir».

Turkiston o'lkasi xalq bilim yurtlarining inspektori imzo chekkan mazkur hujjat rus hukumati xohish-irodasining ifodasidir, albatta.

Demak, rus hukumatining maorif va madaniy sohadagi siyosati o'zbek va boshqa tub aholini savodsizlikda va qoloqlikda saqlashga, umumjahon taraqqiyotidan mahrum etishga qaratilgan edi. Shuning uchun ham xalq ommasi ma'naviy jihatdan qashshoqlashdi. Mana shunday reaksiyon siyosatga qarshi o'laroq jadidlarning ma'rifiy va ma'naviy kurashi yuzaga keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi sharoit jadidlarning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini belgiladi. Bu tarixiy ahamiyatga molik g'oyalar milliy boylar, ruhoniy va umuman, mahalliy yuqori tabaqaning ilg'or vakillarini ham

qamrab oldi. Chunki Rossiya hukmronligi o'lkani xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirdi, mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosatini avjiga mindirdi.

Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his-tuyg'ulari ham jadidlar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. Jadidlar sharoit taqozosiga ko'ra, birinchi navbatda xalqning savodini chiqarish, bilimni oshirish, milliy his-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun kurashdilar. Boshqacharoq aytganda, ular faoliyatining dastlabki bosqichida ma'rifatparvarlik salmoqli o'rinni egalladi. Ammo, bu ularda siyosiy g'oyalar va maqsadlar yo'q edi, degan gap emas, albatta. Aksincha, yuqorida ko'rsatilganidek, siyosiy qarashlar mavjud edi-yu, lekin uni darhol amalga oshirish uchun hali sharoit yetilmagan edi. 1917 yilda Rossiyada Romanovlar sulolasi ag'darilib, siyosiy kurashga imkon tug'ilishi bilanoq jadidlar, boylar va ruhoniy vakillari birgalikda Turkiston mustaqilligi uchun siyosiy kurash boshladilar.



# DIN VA HAYOT



Turkistonda islom dini VIII asrda uzil-kesil hayotga joriy etildi. U qanchalik vaqtlarning o'tishi bilan shunchalik chuqur ildiz otib ma'naviy hayotni boyitishda va samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin egalladi. Ammo, bunday davrlar ham bo'lganki dinga bir-biriga zid ikki xildagi munosabat ko'zga tashlangan.

## Vatanni sevmoq iymondandir

Ma'lumki, dinda odamlarda mehnatsevarlik, adolatlik, poklik, jasoratlik va vatanparvarlik singari oliy fazilatlarni shakllantirishga katta ahamiyat berilgan. Unda Vatan mustaqilligi va ozodligini saqlashga qaratilgan g'oyalar o'z ifodasini topib "Vatanni sevmoq iymondandir" - degan hikmat alohida o'rin egallaydi. Ruhoniylarning ilg'or vakillari mana shu hikmatga qat'iy ravishda rioya qilganlar. Ularning onglari vatanga sodiqlik, ozodlik va taraqqiyot uchun kurash g'oyasi bilan sug'orilgan edi. Ular shaxsiy manfaat va shuhratga berilmay umum millat manfaatini o'ylab yashadilar. Bunga tarixda misollar ko'p. Masalan Chingizxon boshliq mo'g'ullar o'lkaga vahshiylarcha hujum qilganlarida Buxoroda ruhoniylar xalqni jangga otlantirdi. Shu bois ular Chingizxon tomonidan o'ldirilgan.

Xorazmlik mashxur shayh Najmiddin Kubroning jasorati va Vatanga sodiqligi tillarda doston bo'ldi. Bu haqda buyuk davlat arbobi

va olim Ulug‘bek shunday yozadi: “Murshid a‘zam shayx Najmiddin Kubro Xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda qotl yalovi (bayrog‘i)ga yopishdi. Dini xaq iqlimining shoxi, Ul piyr sarpanjasidan o‘n zabardast yigit yalovni chiqara olmadilar. Sayidlar shayhi sarpanjasidan kofir yalovini ko‘rib hayratda qolgan oqillar bu holni sharhladilar: yalov uchini shayx tutib, tarix aytadiki, vafotim sanasi “shohi shuhado” (“shahidlar shohi”)dir. Jami musulmonlar a‘losiga Ollohi taolo rahmati yog‘ilsin. Yana dedilarki, hazrati mavlono Jaloliddin Rumiy, uning siri muqaddas qilinsin, Hazrati shayxi buzrukvor Najmiddin Kubro Alloh uning siri muqaddas tutsin yalovini tutganiga ishorat qilganlar. Nazm: Biz shunday ulug‘lardanmizki, gavhar tutamiz: oriq echki tutgan pastkash emasmiz. Imon qadahidan bir qo‘limiz bilan may ichsak, ikkinchi qo‘limiz bilan kofir yalovidan tutamiz».

Bu ajoyib satrlarda shayx Najmiddin Kubroning kurashiga yuqori baho berilib u Vatan ozodligi uchun jonini fido aylagan buyuk vatanparvar va jangchi kishi sifatida tasvirlangan.

Aslida g‘alvir to‘quvchi bo‘lgan, so‘ngra shayhlik qilgan Mahmud Tarobiyning vatanparvarligi ham tahsinlarga sazovordir. Ulug‘bekning so‘zicha uning minglab muxlislari bo‘lib katga obro‘ qozongan. U 1238 yil Buxoro atrofidagi Tarobiy nomli qishlokda mo‘g‘ullar hukmronligiga qarshi xalq qo‘zg‘olonini uyushtirdi. So‘ngra shaharga bostirib kirib hokimiyatni egallaydi. “Shundan keyin, - dedi Ulug‘bek, - xaloyiq uning manziliga shu darajada ko‘p yopirilib kela boshladiki, biror huzuriga kirgan kishi darvozadan chiqishi mushkul bo‘lib qoli. Izdihom haddidan oshaverganidan keyin odamlar ul tabarruk zotni ko‘rmay qaytib ketmadilar. Shayx o‘z muxlislariga tasalli bermak uchun har zamonda tomga chiqib, og‘ziga suv solib ularga qarata purkardi. Kimga undan biror qatra kelib tegsa, xursand va xushnud bo‘lib qaytib ketardi. Dorug‘a va amaldorlar fursat topib, uni bir yoqliq qilib, o‘rtadan yo‘qotmoqqa qanchalik urinmasinlar, odamlarning ko‘pligi va izdihom bilan atrof tevarakdan odamlarning oqib kelib to‘planishi, shu mahadda uni o‘rab olganliklaridan hech bir niyatlariga muassar bo‘la olmadilar”.



Demak, Shayx Mahmud Tarobiy ozodlik ramzi sifatida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Shu bois mahalliy va mo'g'ullarning amaldorlari unga qarshi oshkora ravishda kurashishdan cho'chib, maxfiy ravishda o'ldirish rejasini tuzdilar. U buni payqab Buxoro atrofidagi bir qishloqqa borib o'rnamshadi. Bu yerda u to'plangan xaloyiqqa deydi: "Ey, xaq toliblari, qachongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Ro'yi zaminni tangridan qo'rqmaydiganlar (mo'g'ullar)dan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi yetsa, qilichmi, o'q-yoymi, kaltakmi qo'lga olsin. Qo'lidan kelgancha tangridan qo'rqmaydigan birortasini ham qo'ymaslik lozim. Shundan keyin xalq qurollanib va mukammal bo'lib shayxni shaharga olib kirdilar".

Amaldorlar turli tomonlarga qochib jon saqladilar. Juma kuni maschidda shayx Mahmud Tarobiy sha'niga xutba o'qildi. Mansabdorlarning mol-mulki musodara qilinib ulardan ba'zi odamlar o'ldirildi.

Shahar atrofida ko'p sonli mo'g'ul qo'shini va qo'zg'olonchilar o'rtasida shiddatli jang bo'lib har ikki tomondan 20 ming kishi halok bo'ldi. Bu jangda Shayx Mahmud Tarobiy va uning ukalari qahramonlarcha o'ldirildi. Shu tariqa ozodlik kurashi tor-mor qilingan edi.

Ruhoniylar 1365 yilda Samarqandda ko'tarilgan sarbadorlar qo'zg'olonida ham qatnashdilar. Chunonchi Mavlonzoda boshchiligidagi xalq Ilyos qo'l ostidagi mo'g'ullarning hujumiga qaqshatgich zarba berib g'alabaga erishdilar. Qo'zg'olon rahbarlari boshqa bir mo'g'ul amiri Husayn tomonidan xoinlarcha o'ldirildi. Ammo Amir Temur tufayli faqat Mavlonzoda o'limdan saqlanib qoldi.

Ruhoniylarning millatparvar vakillari vatan mustaqilligini tiklash maqsadida Amir Temurni qo'llab-quvvatlaganlar. "Mamlakatning ulamo va mashoyxlari, - deb yozadi Amir Temur, - (mo'g'ullar) toifasini yo'q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Ulus amirlari va qo'shin boshliqlarining ba'zilar ham bu ishga qo'shilib bizga birlashdilar. Bu to'g'rida yozilgan ahdnoma va fatvolarning nusxasi bu edi: "To'g'ri yo'llik xalifalar, Olloh taolo ularning jamisidan mamnun bo'lsin o'tgan yo'llariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrda butun ahli Islom, sipohu raiyat (xalq) yohud ulamoyu mashoyix bo'lsin, Amir Temurga izzatu ikrom ko'rsatib, uni Amir Temur Qutbi saltanati Oliy deb atasinlar va uni Ollohnig (yerdagi) qudrati - saltanat taxtiga loyiq ko'rsinlar. Musulmon-

larning yeri, nomusi, mol-mulki hamda joniga zulmi-sitam qo‘lini cho‘zgan (mo‘g‘ullar) toifasini daf qilishda va umuman yo‘qotishda Temurga (yordamlashish uchun) o‘z mol va jonlarini (ayamay) tirishib harakat qilsinlar.

Biz o‘z ahdu-bay‘atimizga sodiq qolurmiz. Agar bergan axd-paymonimizdan qaytsak, Olohning qudrati-yu quvvati va yordamidan chiqib, shayton qudrati va yordami yo‘liga kirgan bo‘laylik”.

Darhaqiqat, ruhoniylar o‘zlarini bergan va‘dalarida turib Amir Temurni har qanday sharoitda xalqning haloskori sifatida qo‘llab-quvvatladilar.

Ammo, ahvol temuriylar davlatining inqiroziga uchragan so‘nggi yillarda o‘zgarib bordi. Bu vaqtlarda ayrim sultonlar o‘zlarining o‘zligi orqasida ruhoniylarning kuchidan foydalanishga harakat qildilar. Bunday holat Samarqandda sodir bo‘ldi. Bundan xabar topgan Alisher Navoiy norozilik bildirgan. Bu xususida uning panohida ijod qilayotgan mashhur tarixchi Xondamir shunday yozgan: “905 (1499-1500) yilda Movarounnahr tomonidan, Xoja Nosiriddin Ubaydullo o‘g‘li Xoja Yahyo g‘oyatda shavkat va azamat bilan yashaydi va (taxtda o‘tirgan) Sultonali Mirzo bu janobning fikrisiz, hech bir ishga kirishmaydi, balki har kuni u kishining mulozamatiga boradi, degan gaplar aniq ravishda va ketma-ket yetib turardi. Bu gapdan maqsad shuki, mazkur yilning oxirlarida, bir kuni oliy hazrat Amir (Navoiy) Sayid Yusuf dog‘loqchiga ilhom tili bilan xitob qilib, Xoja Yahyoning tutgan yo‘li darveshlarning fe‘l-atvori uchun munosib emas. Shu narsa muqarrarki, kimki, o‘z ota-bobosi hulqidan chetta og‘ishsa, unga katta zarar yetadi”. Bu yerda Navoiyning ruhoniylarning nufuzli vakillarini hokimiyat ishlariga aralashib siyosat bilan shug‘ullanishlari yaxshilikka olib kelmasligi haqidagi fikri katta ahamiyat kasb etadi.

Ruhoniylarning sog‘lom fikrli va ilg‘or vakillari har qanday sharoitda vatan posbonlari sifatida ish yuritganlar. Chunonchi XVI asrni boshlarida ular Shayboniyxon tajovuziga qarshi kurashganlar. Shuning uchun Shayboniyxon bunday ruhoniylarni o‘ldirib, mol-mulkini musodara qilgan. Uni hukmronligi o‘rnatilgandan keyin

ham ruhoniylar kurashini to'xtatmaganlar. Bu hakda bir tarixiy kitobda shunday deyilgan: "Samarqandda Shayboniyxon hokimiyatini ag'darish maqsadida ruhoniylarning taniqli vakili Xoja Abdulkarim boshchiligida davlat to'ntarilishini uyushtirish rejalashtirildi. U Boburga poytaxtni egallashi, shahar darvozasini ochib berilishi va aholining hammasi ko'chmanchilarga qarshi kurashishi haqida xat yuboradi. Bobur uncha ko'p bo'lmagan askarlar bilan Zarafshon tog'lari orqali Samarqandga kelganda shahar darvozasi ochib berilib tantana bilan qarshi olindi. Shahar aholisi Shayboniyxon tarafdorlarini ko'pini o'ldirib uy-joylarini vayron qildilar". Binobarin ruhoniylar Boburga Samarqandni egallashida katta yordam bergan.

Ruhoniylarning millatparvarligi chorizmning tajovuzi va hukmronligi davrida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Masalan, taniqli va olim Muhammad Solih dodhoh Toshkentdiy 1865 yilda general Chernyayev boshchiligidagi soldatlarga qarshi olib borilgan janglarda qo'lida miltig'i bilan qatnashdi. Shahar aholisini dushmanga qarshi kurashga otlantirdi. Jamoa ahli orasida xalqparvar, jasoratli va mard kishi sifatida shuhrat qozongan.

Mudarris Muhammad Solih dodxox bosqinchilarga qarshi kurashning rahbarlaridan biri edi. U bir guruh tarafdorlari bilan birgalikda eng xavfli dushman sifatida Chernyayev tomonidan Omskka surgun qilindi. Bu yerda u maxfiy ravishda o'ldirildi. Toshkentdagi janglarda qatnashgan Eshon Xojixon tomog'iga o'q tegishi orqasida o'lgan. Shayx Abduhalim O'rda suvining to'g'onini ustiga chiqib qo'lidagi tayoqni yerga urib va dushman askarlari tomonga o'q talib "soldatlarni o'ldirganlar", deb qichqirib, Qo'qon darvozasi tomoniga yugurgan. Dushmanning unga miltiq o'q talishiga qaramay tikka turib olgan va qattiq jarohatlangan. Shu holda u kishi ko'zlaridan yosh oqizib va kulimsirab hamda tadbir, salovat o'qib, g'oziyalar va mujohidlarga: meni qo'yib dushmanlarni o'ldiringlar degan.

Ruhoniylar 1892, 1898, 1916 yil milliy-ozodlik kurashlarida ham qatnashganliklari ma'lum. Ular sovet davlatiga qarshi kurashlarda ham faol qatnashdilar. Hatto, ular jadidlar bilan birgalikda Turkiston Muxtoriyatini tuzdilar.

## Diniy fanatizm va oqibatlari

*Dinda haddan tashqari g'ulu ketmanglar. Chunki sizlardan ilgari o'tgan qavmlar dinda haddan tashqari g'ulu ketganliklari uchun halok bo'lganlar.*  
(Hadisdan)

Mazkur satrlarda jamiyatda o'zaro ziddiyat va kelishmovchilikka berilish janjal va hatto qonli to'qnashuvlarni yuzaga keltirib odamlarni xalokatga uchrashi anglatilgan.

Hozirda hech kimga sir emaski bunday fojiali voqealar dunyo miqyosida sodir bo'lmoqda. Bu dinning siyosatlashtirish va fanatizimning mahsulidir, albatta. Bunday holat o'tmish zamonlarda bizni vatanimizda ham ro'y berib beqiyos katta talofatlar yuzaga kelgan edi.

XVI-XIX asrlarda, ya'ni xonliklar vaqtida taxt egalari aslida ko'chmanchi qabilalarning sardori bo'lganligi uchun Temur va Temuriylar davridagi taraqqiyotning qadriga yetmay tamomila barbod qildilar. Markazlashgan va qudratli davlat tugatilib o'lka Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat uch qismga parchalandi. Xonlar qobiliyatsiz va ojiz bo'lganliklari uchun davlatni yuqori darajada boshqara olmadilar. Buni ustiga ustak taxt uchun olib borilgan kurashlar xalqning hayotini yanada yomonlashtirdi. Ko'p odamlarning qoni behuda to'kildi, ayrim shahar va qishloqlar vayronaga aylandi. Xonlarning ko'pchiligi o'zlarinig maishati va huzurini ko'rishga berilib xalqni o'z holiga tashlab qo'ydi. Natijada ular xalq orasida mustahkam tayanchga ega bo'la olmadilar. Shu bois ularni taxtni egallash va uni qo'lida ushlab turish uchun din peshvolariga tayanishdan boshqa iloji qolmadi. Bu vaqtlarda butun o'lkada nufuzli shayxlar qo'l ostida o'rta hisobda 30-40 ming darveshlar bo'lgan. Ular "bu dunyo foni, narigi dunyo boqiy" degan shiorni baland ko'tarib shahar va qishloqlarni kezib sadaqa hamda xayriya hisobiga yashaganlar. Shuni aytish lozimki darveshlar o'zlarining sardori shayxlarning chizgan chizig'idan chiqmay topshiriqlarni qanday bo'lsa shunday ado etganlar. Binobarin shayxlar darveshlarni xohlagan kuyga solishi mumkin edi. Ular

shahzoda yoki xonni darveshlar vositasida quvvatlash yoki obro'sizlantirish imkoniga ega edilar. Buni yaxshi anglagan taxt da'vogarlari shayxlarga murid tushib yoki itoat etib kelajagini ta'minlashga qattiq kirishganlar.

Shuni aytish lozimki, darveshlar ikki guruhga bo'linib birinchisi siyosatga, ya'ni taxt uchun kurashlarga aralashmay din ta'limotlarini xolis targ'ibot qilish bilan shug'ullangan sog'lom fikrli kimsalar edi. Ularga ruhoniylarning ilg'or va vatanparvar shayxlari boshchilik qilganlar. Ikkinchi toifadagi darveshlar esa shaxsiy manfaatga berilgan va boylik orttirish maqsadida hokimiyatni o'z ta'siri doirasida ushlab turishga bel bog'lagan ba'zi nufuzli shayxlarning qo'l ostidagi kishilar edi.

XVI asrni ikkinchi yarmida vaqtinchalik birmuncha kuchli davlat tuzgan Buxoro xoni Abdullaxon yoshligidan Jo'yboriy ho'jalarining sardori Shayx Xoja Muhammad Ismoilga Murid tushgan. Shayx Abdullaxonni taxtni egallashga tayyorlab bordi. U Abdullaxon tomonidan taxt uchun olib borilgan kurashlarda faol qatnashib uni g'alabasini ta'minlashda muhim o'rin egalladi. O'sha davrning taniqli tarixchisi Hofiz Tanish o'zining "Abdullanoma" asarida yozgan: "ul Hazrat xoja Muhammad Ismoil (Buxoro shahriga) kelishlari bilangina qal'a olindi, bo'lmasa bu viloyat bo'ysundirish girdobidan tushib yotgan edi. Bu g'alaba ul qutli sifat zotning barokatlari orqasida bo'ldi".

Shuningdek, xoja Muhammad Islom Abdullaxonning ashaddiy dushmani Buxoro hokimini o'ldirishga fotiha bergan. Uning ko'rsatmasiga binoan Chorjo'y viloyatining hokimi Abdullaxonga ixtiyoriy ravishda bo'ysungan. Abdullaxon o'zining piri xoja Muhammad Ismoil ko'rsatmalarini sidqidillik bilan bajardi. "Abdullaxon, - deydi Hofiz Tanish, - dinni qo'llab-quvvatladi, yaqin va sodiq kishilarni joy-joyiga qo'yishda, mamlakat va o'lkalarni zabt qilish va yo'llarni qo'riqlashda, xudojo'y odamlarni hurmatlashda, ra'yiga rioya qilishda va xaloyiqni hurmatlashda Xoja Muhammad Ismoil amru farmoniga quloq solar va uni bajarish uchun kuchi boricha tirishar hamda so'z bilan ta'rif qilib bo'lmaydigan darajada harakat qilar edi".

Demak hokimiyat jilovi Shayx xoja Muhammad Ismoilning

qo'lida bo'lgan. Uning hokimiyatga ta'siri shu darajada kuchli ediki, nimani xohlasa shuni qilaverdi. Hatto, unga Abdullaxon qarshilik ko'rsatishga jur'at qilolmagan. Masalan, u dehqonlarning "Xoja Ismoil boshqalarning kichkina yerini, uy-joylarini buzib, o'zining yeriga yo'l ochmoqda va suv o'tkazmoqda" - deb shikoyat qilganlarida Abdullaxon qo'lida qamchinini ko'tarib: "Xoja mening ikki qoshim orasidan ariq o'tkazsa ham mayli, hech narsa deyishga haqqim yo'q - deb javob bergan".

Ko'rilayotgan davrda hokimiyatni taqdiri shayxlar va darveshlarning qo'lidaligini Hofiz Tanish shunday tasvirlaydi:

Har ikki jahonning davlati - darveshlarning xizmatidir,  
Dinu dunyoning hammasi - darveshlarning suhbatidir.  
Kamolga nuqson yetmaydigan davlat azaliy bo'ladi.  
Azaldan abadgacha darveshlarning davlatidir.  
Gadoga toj berish va Shohdan taxt olish,  
Bularning hammasi - darveshlarning qudratli qo'lidadir.  
Agar sening ishing yurishmasa sarosimaga tushma,  
Chunki uning kushodi darveshlarning himmati eshigidadir.

Yuqorida ko'rsatilgan voqealar Jo'yboriy xo'jalarining sardori Xoja Muhammad Ismoil va uning boshchiligidagi darveshlar jamoasi katta siyosiy kuchga aylanganidan dalolat beradi. Shuning uchun Abdullaxon taxtni egallagandan keyin ham piri Xoja Muhammad Ismoil qadr qimmatini yanada ko'tarib boyliklarga boylik qo'shdi.

Ayrim ma'lumotlarning ko'rsatishicha Shayx Muhammad Ismoilning Buxoro, Miyonqol, Nasaf (Qarshi), Qorako'l va Marvda 2,5 ming gektar yeri, 10 ming qo'yi, 700 oti, 500 tuyasi, 300 quli, yuzlab ov qushlari, 104 savdo do'konlari, korxonalar va ustaxonalari bo'lgan. Shayxning savdo karvonlari xorijiy mamlakatlarga qatnab turgan.

Uning boyliklari shu darajada ko'payganki uni boshqaradigan maxsus devoni (idorasi) bo'lgan. Uning avlodlari ham juda boyib ketadilar. Uning o'g'li Xoja Sa'ddin Abu Bakr (Xoja Kalon)ning Buxoro, Miyonqol, Nurota tog'lari, Samarqand, Toshkent, Sayram, Turkiston, Andijon, Axsikent, Nasaf, Hisor, Termiz, Balx, Xiro, Badaxshon va boshqa joylarda 12 ming gektar yerlarga ega edi. Uning

qo'l ostida 1000 nafar qullar, minglab qo'y, ot, tuya va uy hayvonlari bor edi. Uning avlodlaridan biri Sayid Tadjiddinning 500 quli va shunga yarasha juda ko'p yeri va mol-mulki bo'lgan. Xoja Muhammad Ismoilning vafotidan (1563) keyin Xoja Saqddin Abu Bakr (Xoja Kalon) Abdullaxonga pirlilik qilib otasining siyosatini davom ettirdi.

Xonlar tomonidan ruhoniylarni hokimiyatga sherik qilinishi ularni jamoa ahligi ta'sirini yanada kuchaytirdi. Darveshlar jamoasining faoliyati jo'sh urib ko'p oddiy kishilarni orqalaridan ergashtirishga muvaffaq bo'ldilar. O'zaro qonli urushlardan, mamlakatning chuqur inqirozga uchrashidan, notinchlik va zulmdan toliqqan xalqning faoliyati ancha zaiflashib ketdi. Jamiyatda xaddan tashqari ibodatga berilish va sig'inish qizg'in tus oldi. Kishilar ongini Avliyolarning tushlari va bashoratlari, ajoyib va g'aroyib diniy hikoyalar chulg'ab oldi. Bu dunyo vaqtinchalik, narigi dunyo abadiy, hayot lazzatlariga ko'ngil qo'ymaslik degan g'oyalar keng ko'lamda targ'ibot qilindi. Shu tariqa diniy fanatizm avjiga mindi.

Xonlar saroyida maxsus Shayhul Islom lavozimiga eng nufuzli ruhoniylar vakillari tayinlandi. Ayrim xonlar xususan Ubaydullaxon (1702-1711) ruhoniylarning changalidan qutilish uchun ularni yerlarini qisqartirishiga harakat qilib, ularning qarshiligiga duch keldi. Ammo, ko'p o'tmay xon o'ldirilib, Saroy talandi. Daniyolbiyxon (1758-1785) davlat ishlariga doir masalalarni ruhoniylarning maslahatisiz hal qilmay va bir qadam tashlamay yurgan.

Fanatizm shu darajada qizg'in tus oldiki, xatto ba'zi xonlar darveshlikni bo'yniga oldi. Masalan, Shoxmurod (1785-1800) o'zini Shayx Safar degan kishining Muridi hisoblab, hayot lazzatlaridan voz kechib, kundalik yashash xarajatini bir tanga (20 tiyin) dan oshirmadi. Ashula, musiqa va o'yin-kulgini ta'qiqladi. U madrasalarda talabalarni sonini 30 mingga ko'paytirib darveshona hayotni targ'ibot qildi. Bu sohada uni o'zi birinchi bo'lib namuna ko'rsatdi. Hatto xazina hisobidan darvishlarni moddiy jihatdan quvvatlab turadi.

Jo'yboriy xo'jalarning siyosatga aralashishi XIX asrda ham davom etdi. 1842 yilga tegishli ma'lumotga ko'ra o'sha sulolaning vakillaridan biri Xo'jand hokimligini boshqargan. Amir Abdulahad (1885-1910) ruhoniylarning yirik vakillari bilan to'qnashib Buxoro shahrini tark etishga majbur bo'lgan. Hatto u hokimiyatni vaqtinchalik Karmanaga ko'chirgan.

Fanatizm mamlakatni chuqur inqirozga muhtalo etib har jihatdan qoloqlik va parokandalik hukm surdi. Oллоhning “sendan harakat, mendan barokat” - deganiga ahamiyat berilmay. Sig‘inish va ibodat bilan shug‘ullanishning quruq o‘zi hamma narsani hal qiladi degan zararli qoya tarqaldi. Bu holat xonlarning ham ongin chulg‘ab olgan edi. Vaholanki jamiyat siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksak darajaga ko‘tarilgandagina mamlakatning kuch-qudrati oshib davlatni va dinni himoya qilishi imkoni tug‘iladi. Vaqti soati kelib chor hukumatining tajovuzi vaqtida fanatizmni dahshatli oqibatlarini namoyon bo‘ldi. Voqeaning jonli guvohi Ahmad Donishning so‘zicha: “Ulamolar jihod va g‘azot farzdir, deb shovqin-so‘ron qildilar. Ular bilmas edilarkim, bu g‘azot nima uchun farz hisoblanadi va uning vojibliigi sababi nimada? Qaysi bir qurol aslaha bilan urishish mumkin? Hatto, so‘ramas edilarkim, dushmaning kuch-qudrati qanday? Askarlar xalq hisobidan maosh olib yurardilar, shu bois ular birinchi navbatda urushda qatnashishlari shartdir. Bordi-yu, ular mag‘lubiyatga uchrab, qirilgan taqdirdagina jang qilish navbati fuqarolarga keladi. Nahotki tinchlik paytda askarlar o‘z qonlarini pulini oldindan olgan bo‘lsalar-u, urush vaqtida fuqarolar oldingi safda tursa. Bunday tartib hech bir mamlakat va millatda yo‘q. Aksincha ulamolarga urushdan oldin fuqaroga harbiy mashq, xususan o‘q, miltiq, to‘fang otishni hamda qilichbozlikni o‘rgatishlari lozim edi. Buni qo‘yaylik, askarlarning o‘zi harbiy mashqni yaxshi o‘zlashtirmagan va urush maydonini ko‘rmagan bezori va sayoh kishilardan tashkil topgandilarkim, bechora fuqaro nima qilsin”.

Haqiqatan ham xonlar va ruhoniy vakillari qo‘shinni zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta‘minlab, jangovorligini oshirishga ahamiyat bermadilar. Buning o‘ta fojeali oqibati 1866 yilda chor hukumatining askarlari bilan Sirdaryoning atrofida Oqjar degan joydagi jangda ham o‘z ifodasini topdi. Buxoroda dushmanga qarshi “g‘azot” e‘lon qilenganda qari-yu yosh aralash 100 ming kishidan iborat olomon to‘plandi. Ular qo‘llariga nima tushsa, shu bilan qurollandilar. Ularni orasida askarlar ham bor edi.

O‘sha Oqjarda qo‘shin va xalq olomonning joylashgan yerning atrofida Muzaffarxon chodir qurib o‘rnashdi. “U, deb, - yozadi Ahmad Donish, - chodir ichida o‘tirib shaxmat o‘ynardi. Uning



huzurida bir guruh kishilar musiqa chalar va ashula aytardilar. Shuningdek besoqol bolalar ham bor edi. Amir esa, shaxmat o‘ynab turib barmoqlarini musiqa ohangiga solardi. Shu orada mahramlaridan biriga dedi: “Tez borib to‘pxona boshlig‘i Salimbek va askarlar qo‘mondoni Sherali Inoqqa aytinglarki, rus xazinasi talon taroj qilinmasin, askarlarni ko‘p o‘ldirmay ko‘proq asirlikka olsinlar bular qo‘shinimizda xizmat qilishga va tartib o‘rnatilishiga jalb qilinadi”.

Demak Muzaffarxon g‘alabaga qattiq ishongan holda surbetlarcha manmanlik, g‘o‘dayish, farosatsizlik, chiranish va ma’suliyatsizlikda tengi yo‘q xon bo‘lgan. Bunga yana bir misol: 1865 yilda Chernyayev askarlari Toshkentni qamalda ushlab turganda u yerdan elchilar Buxoroga xondan yordam so‘rab keladilar. Saroyda bu masala muhokama qilinayotganida Muzaffarxon shunday degan: men oddiy rus lashkarboshisi bilan jang qilishni or deb bilaman. Agar urushishni xohlasam, Moskva yoki Sankt-Peterburgga borib jang qilaman - deb chirangan. Shundan keyin toshkentliklar hech qanday madad ololmay qaytganlar.

Yuz minglik xalqning o‘sha Oq-jarda ko‘kragini o‘qqa tutishi vatanparvarlik va qahramonlikning namunasi, albatta. Biroq ular tamomila qurollanmagan va harbiy mahorati yo‘q bo‘lib favqulodda to‘plangan olomon edi, xolos. Ularga tayoqning uchiga kichkina temir nayza ulangan qurol berilganida, xolos. Bu kulgili narsa bilan dushmanning to‘pi, miltig‘i, qilichi va to‘pponchasiga qarshi jang qilishlari lozim edi. O‘sha Oq-jarda jang ketayotganida Muzaffarxon o‘zini qanday tutganligi haqida Avaz Muhammad Attor Qo‘qondiy yozadi: “Dushman askari kelib islom lashkariga hujumga o‘tdilar. Ikki tomon bir-birlari bilan uchrashib ko‘rgan va eshitgan kishining aqli hayratda qoladigan urushni boshlab yubordilar. Mang‘itlar (xonlar sulolasi) esa ko‘p yildan buyon xalq nonini tuya qilib yeb na o‘zlari na ota-bobolari urushni ko‘rgan edilar. Hammalari oldi-orqalariga qaramasdan qochish yo‘lini qidirdilar. Nima bo‘lsang ham xez bo‘lma, degandek Buxoro podshosi (Muzaffarxon) bir farsox masofada turib durbin orqali urushni tamosha qilardi.

Dushman hushsiz mang‘itlarni to‘pu-to‘fonlardan otardilar. Lashkari islom parishon va parokanda bo‘lib cho‘lu-biyobonga qochib ketdilar. Xezalak podshoh Muzaffarxon durbinda bu ahvolni

ko'rdi va kiyinib ulgurmasdan ming hasrat ila otga minib namoz asr vaqtida Jizzax tomon yo'l oldi. Uning lashkariga putur yetdi va parishon bo'lib jang maydonidan qochib qoldilar. Hech kim bunday besaramjonlik va nomardlikni, to'nkabandan kishini, amiri xezni hozirgacha ko'rmagan edi". Muzaffarxon shu darajada qo'rqqanki otda ichki kiyimida qochayotganida ishtoni bulg'alangan. Mana xohlasam Moskva va Peterburgga borib jang qilaman deb chirangan va katta gapirgan xonning ahvoli. Jang maydonida "g'azot" jarchisi sifatida targ'ibot yurgizayotgan Yahyo xo'ja esa sallasini otib qochgan. Jangda ko'p minglab odamlar o'ldirildi yoki jarohatlandi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 5000 kishi o'ldirilib jang maydoni murdalarga to'lib toshgan. Tirik qolganlar yo'lda cho'lu-biyobon va tog'larda ochlikdan va suvsizlikdan o'lganlar. Ularni orasida vahshiy hayvonlarga yem bo'lganlar ham bor edi.

Diniy fanatizm Xiva va Qo'qon xonliklarida ham keng quloch yoygan. Bu joylarda ham vatan mudofaasini mustahkamlashga va taraqqiyotni ta'minlashga ahamiyat berilmadi. Faqat Ollohga sig'inish va ibodat qilishning quriq o'zi haloyiqning ongi va qalbini chulg'ab olganidi.

Bu fanatizmning oqibati edi, albatta.

Chor hukumatining tajovuzi vaqtida ruhoniylarning orasida vatan xoinlari ham chiqqan. Masalan Shayxulislom Nosir Mulla Is'hoq, Qozi Mirza Talashpan, Qozi Kalon Yusufxo'ja Abdullaxo'jayev, Qozi Qalandar Xo'ja Junaydullayev shular jumlasidandir. Ular va boshqa xoinlardan tuzilgan delegatsiya chor hukumatining sodiq kishilari sifatida Peterburgga jo'natildi. Bu yerda ular 1867 yilda shaxsan imperator Aleksandr II tomonidan qabul qilindi. Xoinlar Turkistonni chor hukumati tasballigiga olinganliklaridan baxtiyorliklarini, mangu sodiqliklarini izhor qiluvchi qalbaki maktubni imperatorga topshirdilar.

Xulosa:

**Birinchidan**, ruhoniylarning millatparvar va vatanparvar vakillari islom dinining asoslarini to'g'ri anglab va holisona targ'ibot qilib uni ko'z qorachig'idak saqladilar. Din niqobida haddan oshib shaxsiy manfaatga va mol-mulkka hirs qo'yishni gunoh deb hisobladilar. Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurashib jasorat va mardlik

namunalarini namoyish qildilar. Sogʻlom va tetik jamiyatni shakllantirishga ulkan hissa qoʻshdilar.

Shu bois xalq ommasi ularga sigʻinib qadr-qimmatini oʻrniga qoʻygan. Ruhoniylarning vatanparvar va ilgʻor vakillari va ularning qoʻl ostidagi darveshlarning vatan oldidagi xizmatlari tarix sahifalariga zar harflar bilan bitildi.

**Ikkinchidan, XVI-XIX asrlarda** hokimiyat tepasida turgan xonlarning deyarli barchasining siyosiy ongi, faoliyati va dunyoqarashi past boʻlib oʻzlarini qozonida oʻzlari qovurilib yotganligi orqasida yakkalanib qolgan edilar. Bundan ruhoniylarning bir guruh vakillari foydalanib xonlarni oʻz taʼsiri doirasiga tortib oldilar.

Ular oʻzlarining shaxsiy manfaatlarini taʼminlash uchun darveshlardan ustalik bilan foydalandilar. Ruhoniylarning siyosiy hayotidagi mavqei juda oshib diniy fanatizm xonlarni va koʻp kishilarning ongini chulgʻab oldi. Natijada diniy gʻoya ustun kelib milliy gʻoyani susayishiga olib keldi. Bu yerda shuni aytish lozimki, diniy gʻoya hech qachon milliy gʻoyani oʻrmini bosa olmaydi. Chunki milliy gʻoya u yoki bu xalqning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid barcha masalalarni oʻzida mujassamlashtiradi. Diniy gʻoya esa, maʼnaviy hayotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, xalqni tarbiyalovchi muhim omillaridandir. Fanatizmning kuchayishi va milliy gʻoyani chekintirilishi oʻlkada turgʻunlik, qoloqlik va parokandalikni yuzaga keltiradi. Siyosiy va iqtisodiy hayot, fan va madaniyat chuqur inqirozga uchradi.

Qoʻshinni zamonaviy qurol-aslaha bilan taʼminlab, harbiy mahoratini takomillashtirish xonlarni va ruhoniylarning xayollariga ham kelmadi. Ular mamlakatni taraqqiyot yoʻlidan olib borishlikning ahamiyatini anglamadilar. Siyosatga aralashgan ayrim shayxlar va ularning qoʻl ostidagi darveshlar boylik va farovon hayotga koʻngil qoʻymaslik xaqida baralla targʻibot yurgizdilar. Biroq amalda ularning yirik vakillari boylik orttirishga hech narsadan toymadilar. Ruhoniylarning orasida oʻz davrining milliarderlari bor edi.



# **SEN HAYOTDAN OLMASANG TA'LIM SENI O'RGATOLMAS MINGTA MUALLIM**

---

Bu yuz yillar ilgari aytilgan dono naql o'z ahamiyatini hamon yo'qotgani yo'q deb o'ylayman. Chunki o'zining qadri-qimmatini va hurmatini bilgan har bir kishi uchun hayot muallim va ta'lim o'chog'idir. Zero kimki boshidan kechirayotgan kunlarini o'tmish davrlardagi hayotga solishtirib va xulosa chiqarib yashasa bugungi baxtimizning qadriga yetadi. Bu borada oldingi asrlardagi turg'unlik va qoloqlikni, so'ngra bosqinchiliklarning qirg'in-baroti, talon-taroji, qatog'oni va zulmini hozirgi ozodlik va erkinlika, tinchlik va taraqqiyotga taqqoslasa Olohga ming karra shukurlar aytishiiga shubha yo'q.

Xo'sh o'tmishdagi hayotni qanday tasavvur qilish mumkin?

U xonliklar va mustamlaka davridan iborat ikki bosqichni o'z ichiga oladi.

## **Xonliklar davri**

Bu salkam 400 yilni qamragan vaqtlarda shunday inqiroz va qoloqlik yuzaga keldiki pirovardida chor hukumatining hukmronligini o'rnatilishiga olib keldi.

Mustamlakachilik siyosatini mintaqada o'rtatilishining sabablarining ildizlari xonliklar davriga borib taqaladi. Bu mustaqillikni barbod etgan fojiga XVI asrni boshlaridayoq asos solingan edi. Zero bu vaqtda Oltin O'rdalik Shayboniyxon boshliq ko'chmanchilar Temuriylar davlatini ag'darib hokimiyatni qo'lga kiritdilar. Shundan keyin o'lka Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat uch qismga parchalanib chiqishmovchilik va tarqoqlik avjiga minib bordi.

Amir Temur asos solgan olamshumul ahamiyatga molik taraqqiyot barbod qilindi. Hatto mashhur Ulug'bek observatoriyasining faoliyati to'xtab yer qa'riga ko'milib ketdi. O'lkaning halqaro maydondagi sobiq salohiyati va shon-shuhrati o'chib jahon taraqqiyotidan orqada qoldi.

Xonlar qo'shinning zamonaviy qurollar bilan ta'minlash va harbiy mahoratini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rmadilar. Bu davlat va mamlakatning mudofaasini zaiflashtirishga olib keldi. Buni ustiga ustak xonlarning taxt uchun olib borgan o'zaro kurashlari ahvolni yanada yomonlashtirdi.

Bundan tashqari Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining o'rtasidagi qonli urushlar uzoq davom qilib ayrim shahar va qishloqlar vayron etildi. Ko'p odamlar o'ldirilib va jarohatlantirilib boyliklar talandi. Sharoit shu darajada yomonlashganki 1735 yilda Samarqand shaharida faqat ikki mahalladagina odamlar qolgan. XVIII asrni 60 yillarida Xiva shahrida 40 oila jon saqlab qolgan, xolos. Tabiiyki bu shaharlarni o'ziga kelguncha bir necha o'n yillar o'tgan.

Xonlar ojiz va noshud bo'lganliklari sababidan ayrim din peshvolarining ta'siriga tortilib diniy fanatizmni rivojlantirib yubordilar. Bu xonliklarni turg'unlikka va qoloqlikka chorlagan omillardan biri hisoblanadi. Hokimiyat bilan xalq o'rtasidagi munosabat juda zaiflashib, amalda jamoa ahli o'z holiga tashlab qo'yildi. Bu holat ayniqsa tabiiy ofatlar vaqtida ko'zga tashlandi. Bu haqida XVIII asrni oxirlarida Xoja Samandar Termiziy shunday yozadi: "Samarqand viloyatidagi qahatchilik odamlarning tinkasini quritdi. Ochlik haddan oshgandan keyin xalq diydasi qotib, nihoyat qiynalib qoldi. Xalqning biror bir tabaqasida na non, na un, na bug'doy, na arpa bor edi... ochlik olovi jig'ibiyron sinalarini cho'g'dek yondirgani bois ba'zi joylarda bir jonzotni bir nonga almashtirishga rozi bo'lardilar, ammo hech kim bir jonzotni bir nonga

almashtirmas edi. Uydagi buyumlarni bir tiyanga sotishga ham rozi edilar, biroq, hech kim bu buyumlarni xarid qilmasdi”.

Mamlakatda qurg‘oqchilik va hashoratlar to‘dasining hujumlari ko‘pdan-ko‘p ziyon keltirgan. Ma‘muriyat vakillari esa tomoshabin bo‘lib turganlar. “Davr hokimlarining, - deydi, Xoja Samandar Termiziy, - odilsizligi bois hamma ekinlarni yeb nest-nobut qilib ketuvchi zararkunanda - hashoratlarning ko‘pligidan dehqonlar o‘z yerini tashlab, boshlari oqqan tarafga keta boshladilar. Ayniqsa, qurg‘oqchilik yiliga xos ofat va falokatlarning yanada kuchayganligi, buning ustiga son-sanoqsiz lashkarning tez-tez u yoqdan bu yoqqa o‘tib turishi, ularni ozuqa bilan ta‘minlash, podshoh farmoni bilan hisobsiz soliqlarni undirib olish borasidagi rahmsizlik xalq tinkasini quritishga, ularning es-hushlari og‘ib, parishon xotir bo‘lib qolishlariga olib keldi”.

Ko‘rinib turibdiki, mehnatkash omma nafaqat tabiiy ofatlardan balki xonlarning zulmi va shavqatsizligidan og‘ri sharoitda yashaganlar. Katta hajmdagi soliq va majburiyatlar aholini qashshoqlashtirgan. Xonlarning ko‘pchiligi shaxsiy manfaat va huzurini ko‘rishga berilib yashadilar.

XVI-XIX asrlardagi xonliklarning sulolasi davrini faqat urushlar, to‘s-to‘polonlar, ocharchiliklar va talon-tarojlardan iborat bo‘lgan deyilsa to‘g‘ri bo‘lmaydi, albatta. Ayrim xonlar sun‘iy sug‘orishlarni va umuman iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan ba‘zi choralarni ko‘rdilar. Biroq bunday ijobiy harakatlar uzoq davom etmay orada uzilish va o‘pirilishlar bo‘lib ular qonli urushlar va tabiiy ofatlar bilan almashinib turildi. Shuning uchun ularning bergan samarasi to‘la qonli bo‘lmadi.

Shuningdek yangi madrasalar va bozorlar qurildi. Biroq ularda dunyoviy fanlar o‘qitilmay, o‘qitish va bilim olish uslublari takomillashtirilmadi. Vaholanki, Ulug‘bek davrida Samarqandda 50 matematik ilmiy ish bilan shug‘ullangan edilar. Bozor va karvon saroylar ilgari vaqtlarga o‘xshab qaynab turmadi. Chunki mamlakatning xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari ancha susaygan.

O‘zbek xalqi juda og‘ir sharoitning asiriga aylanmay asrlar osha dehqonchilik, hunarmandchilik va savdodan qo‘lga kiritilgan yutuqlarini ko‘z qorachig‘idek saqlab avloddan avlodga o‘tkazib keldi.

Xulosa shuki xonliklar davridagi turg‘unlik va qoloqlik, notinchlik va tarqoqlik chor hukumatiga juda qo‘l kelib uni g‘alabaga erishishini ta‘minladi.

## Mustamlaka davri

Chor hukumati o'lkani qonga belab va ko'p joylarini vayronaga aylantirib hukmronligini o'rnatdi. U mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. O'lka xom ashyo va tayyor maxsulotlar bozoriga aylantirildi. Xalq ommasi g'oyatda og'ir ahvolda hayot kechirib va qashshoqlashib qirg'in-barotlarni, nazorat va ta'qiblarni boshidan kechirdi. Ayniqsa qishloq aholisining ahvoli juda yomonlashdi. "Dehqonning uyi va xo'jaligi, - deb yozgan jonli guvohlardan biri, - shu darajada achinarliki, unga o'xshaganini biror joyda ko'rmaganman. Uydagi bor narsa yerda yoki devor taglarida onda-sonda turgan 2-3 ta temir va 2-3 sopol idishlardan iborat, xolos. Uning burchagida xunuk yirtiq va yag'iri chiqqan bir nechta yostiq va ko'rpachalar pala-partish to'planib yotibdi. Dehqonlar qoramtir ko'kragini qishu-yoz ochiq qoldiradigan yag'ir yaxtak va ustidan to'n kiyadilar. Xotinlar va bolalar ham yirtiq kiyimlarda yurishadi. Ular og'ir mehnatdan keyin kuch to'plash uchun ozgina qovurilib suv bilan pishirilgan atala yoki jo'xori, bug'doy yoki arpani qatiqqa aralastirilgan bo'tqani-go'jani yeyishadi. Ularda hamma vaqt shu ovqat va doimo mashaqqatli mehnat".

Sovet davrida ham mehnatkash omma misli ko'rilmagan azob-uqubat va talofatlarni ko'rdi. Chunonchi 1917-1922-yillarda butun mamlakat bo'ylab fuqarolar urushi keng quloch yoyib 10 mln. kishi o'ldirildi. Ommaviy kasalliklar va qahatchilik orqasida millionlab kishilarning xo'jaligi xonavayron bo'ldi. Agar 1915 yilda Turkiston o'lkasida 7 mln. 149 ming kishi yashagan bo'lsa, 1922 yilga kelib ularning soni 4 mln. 835 ming kishiga kamaydi. Birgina Farg'ona vodiysida bir milliondan ortiq kishi halok bo'ldi. Shahar va qishloqlarning talay qismi vayron qilindi. Bulardan tashqari xalqning yeri va umuman boyliklari davlat foydasiga musodara qilindi. 1918 yilda o'lkadagi 140 zavod va 400ga yaqin korxonalar davlat mulkiga aylantirildi. 2 mln. 657 ming pud paxta tolasi, 4.130.900 pud urug'lik chigit, 476,8 pud go'sht tortib olindi. 1920 yilda Buxoro xonligi bolsheviklar tomonidan ag'darilib ikki vagonga to'ldirilgan tilla Moskvaga jo'natildi. Xon xazinasidagi boshqa boylik turlari ham talandi.

1928 yilda hukumatning dinni ta'qiqlashga qaratilgan qaroriga binoan minglab din vakillari otib tashlandi. Yoki uzoq muddatga surgun qilindi. Diniy kitoblar, shu jumladan Qur'oni Karim yondirildi. Masjidlar turar joy yoki omborlarga aylantirildi. Qishloq xo'jaligidagi kolxozlashtirish yuz minglab dehqonlarni yer-suv, chorva va mol-mulkidan mahrum qildi. O'n minglab odamlar "quloq" qilinib uzoq joylarga jo'natildi. Kolxozlashtirish 1933 yilgi ocharchilikni yuzaga keltirib yuz minglab odamlarni yostig'ini quritdi. Ochliqdan ko'chalarda o'lganlarni aravaga solib to'g'ri mozorga olib borib kiyimlari bilan ko'mganlarini guvohiman.

Eski shaharda elektr tokining yo'qligidan bir-ikki litr kerosin olish uchun kechqurundan ertalabgacha navbatda ezilib turganmiz. Kambag'allik shu darajada ediki, aholining ko'pchiligi ilma-teshik va yamoqlar bilan to'lib ketgan kiyimlarda yurishardi. Erkaklar ko'chalarda va bozorlarda oyoq-yalang yurganlar. Shaxsan men va o'rtoqlarim sentabr va oktabr oylarida boshlang'ich maktabga oyoq-yalang qatnaganmiz.

1941-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushi, u siz ham og'ir sharoitni yomonlashtirdi. Bir yarim million kishi frontga olinib minglab oilalar boqimandasiz qodirildi. Bunday oilalar bir burda nonga zor bo'ldilar. Hatto, odamlar kunjarani ham yeyishga majbur bo'ldilar. Ochlikning kirmagan xonadoni qolmay ko'p odamlar dunyodan ko'z yumdilar. Bu haqda "O'zbekiston ovozi" gazetasida (2004 yil, 17 fevral) bosilgan. Abdug'ani Yo'lchiyevichning xotirasi ham guvohlik beradi: bir burda non qadrini 30-yillar qahatchiligi va ikkinchi jahon urushi yillarini ko'rgan odamlarchalik hech kim yaxshi bilmasa kerak. O'sha davrda kolxozda ishlardik. Kunlik mehnatimizga bir kosa atala va 200-300 gramm zog'ora non berishardi. Buning uchun esa, erta tongdan yarim kechagacha ishlardik. Esimda bor, qo'shni qishloqdan kelgan och-nahor odamlar choyxonaning oldiga kelib, non, non deb jon berganini ko'rganmiz. Hozir o'sha voqealarni eslasam ko'zlarimga yosh chiqib ketaveradi.

"Otamning eslashicha - deydi Mir Islom Usmonov - buvim brigadadagi ilg'or kolxozchilardan bo'lgan ekan. Shuning uchun atala suzib bo'lingach qozonni yalash mukofoti u kishiga berilarkan.



Buvim ishlagani uchun berilgan bir kosa atalani uyga bolalariga olib kelib, o'zi esa ertasiga yana ham ko'proq ishlashga intilarkan.

50-yillar oxiri, 60-yillar boshida ham non masalasi juda og'ir bo'lib qolgandi. Eski shahardagi do'konga tong otmasdan borib, nonga navbatda turardik olsak-ku yaxshi, bo'lmasam uyga qanday yuz bilan boramiz, deb o'ylab, iztirob chekkanimiz hamon esimda."

Yoshi 40-50 atrofidagi odamlardan "rabochoiy batolyon" tuzilib Rossiyaning Sibir, Volga va Ural bo'ylari, Markaziy joylari va Kavkazda zavodlarda, konlarda, o'rmonlarda va boshqa ishlarda qul kabi ishlatildi. Bu yerlarda o'n minglab O'zbeklar yarim och va yarim yalang'och holda ishlab gadoychilik qilishgacha borganlar. Frontda va "rabochoiy batolyon" dagilardan jami yarim milliondan ortiq o'zbeklar halok bo'ldilar. Bulardan tashqari minglab odamlar bedarak yo'qoldi yoki asirlikka olindi. Toshkent ko'chalarida otanalarning "Voy-dod farzandlarimizdan ayrildik", ayollar esa "erlarimizdan judo bo'ldik" - deb esi-hushini yo'qotgan kimsalarni ko'rganman. Bunday yuraklarni o'rtovchi dodu-faryodlar va qayg'u-alamlar osmonu falakni qoplagan edi.

Demak 130 yillik mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosati o'zbek xalqi boshiga dahshatli fojialarni yog'dirib moddiy va ma'naviy hayot qashshoqlashgan edi.

Ammo shularga qaramay ongi va qalbi qul tabiatlik va boqimandalik ruhi bilan qattiq sug'orilgan kimsalarning sovet davrida non - 20-30 tiyin, go'sht - 1,80 tiyin, sariyog' - 3,50 tiyin, gugurt bir tiyin edi degan so'zlari xamon quloqqa chalinmoqda.

Axir, bu toifadagi kimsalar o'ylamaydilarki, xalq sovet davrida qirg'in-barotlarni, qatag'on va urushlarni, ocharchilik va qashshoqlikni boshidan kechirgandan keyin o'sha "arzonchilik"ni ko'rdilar. Bunga erishmak uchun salkam 50 yil bamisoli do'zaxda yashaganday kutildi. Ko'pchilikni oladigan maoshi juda oz bo'lib "arzonchilik"dan bemalol foydalanish imkoniga ega emas edi. Hech kimga sir emaski, partiya butun umr bo'yi oziq-ovqat masalasini hal qilolmaganligi orqasida ularni magazinlarda topish qiyin bo'lgan vaqtlari ko'p bo'lgan. Bunday tez-tez qaytarilib turadigan yo'qchilikni sodir bo'lishi aniq edi. Chunki mo'l-ko'lchilik va faravon hayotni ta'minlashga qodir xususiy mulkchilik va erkin

bozor, shaxsiy tashabbus va manfaatdorlik taqiqlangan edi. O'sha "arzonchilik" vaqtinchalik "xo'ja ko'rsin" uchun qilingan siyosatning mahsuli edi, xolos. Zero, uning doimiyliigi va samaradorligini ta'minlovchi zamini yo'q edi. Partiya mamlakatning milliy daromadini asosan harbiy qudratini oshirish, "sotsialistik lager"ga a'zo mamlakatlarni ta'minlash va boshqa shularga o'xshash tadbirlarga sarflangan.

Nihoyat shuni esda tutish lozimki, bir necha milliard dollar foydakeltiradigan paxta, ipak, oltin, kumush, gaz, uran, mis va boshqa nodir boyliklar Markazga uzluksiz olib ketilardi. Agar hukumat mana shu katta boyliklar keltirayotgan daromadni ma'lum qismini O'zbeklarga berib oziq-ovqatlarni, kiyim-boshlarni tekin hamda soliqlarni bekor qilganda ham yutqazmasdi. Negaki boyliklarimizdan olinayotgan daromad nihoyatda ko'p bo'lgan.

Shunga qaramay mustamlakachilar xalq manfaatini ko'zlashni xayollariga ham keltirmadilar. Qayta qurish yillarida o'sha "arzonchilikning" misi chiqib magazinlarda oziq-ovqat mahsulotlari kamdan kam uchraydigan xodisa bo'lib qoldi. Buni ustiga ustak narxlar ham oshib bordi. Natijada xalqning iqtisodiy jihatdan ham noroziligi va nafrati oshkora avjiga chiqib imperiyani ag'darilishiga zamin hozirlandi.

Kelinglar azizlar!

O'tmishdagi qora kunlarni, shavqatsiz zulm va qahatchiliklarni unutmay zolimlardan qutilganimizga Ollohga ming qatra shukrlarni izhor etaylik. Bu xususda "Sen hayotdan olmasang ta'limni seni o'rgata olmas mingta muallim" degan hikmatni unutmashlik shu kunning talabidir. Yuz yillarda bir marotaba nasib qilgan bugungi omad va baxtni, gullab yashnayotgan vatanimizni qadriga yetib ozodlik va erkinlik gashtini surishni og'ishmay davom ettiraveraylik!



# O‘ZBEK OLTINI VA UNING TALON-TOROJ QILINISHI

Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar borasida O‘zbekistonga teng keladigan mamlakat kamdan-kam uchraydi. U nodir va xilma-xil boyliklari, tog‘lari, daryolari, sirlil cho‘lu biyobonlari, unumdor yerlari bilan ham mashhur. Ayni paytda O‘zbekiston qadimdan oltin makoni sifatida nom chiqargan. Bu tengi yo‘q metallning insoniyat hayotida tutgan o‘rni g‘oyat muhimligi hech kimga sir emas. Oltin — «davlatning qon tomiri», degan ibora bejiz paydo bo‘lmagan. O‘zbekistonda qadim tarixiy davrlardayoq oltindan ko‘p miqdorda turli buyumlar tayyorlangan. Miloddan avvalgi V asrda o‘tgan grek olimi Gerodot yozishicha, Turkistonda «oltin va mis hisobsiz juda ko‘p bo‘lgan». Bunday ma‘lumotni miloddan avvalgi I asrda yashagan grek tarixchisi Strabon ham tasdiqlab, turkistonliklar «ajoyib chavandoz va mohir jangchilar bo‘lib, o‘q-yoy, qilich, sovut va bronzadan ishlangan boltalar bilan qurollanganlar. Ular janglarda oltindan ishlangan kamar va bosh kiyimlarda qatnashadilar. Otlarining jilovi, uzangisi va egar-jabduqlari oltin va kumushdan yasalgan. Mamlakatda oltin va mis g‘oyat ko‘p», degan.

Bu yerda qo‘shinning soni bir necha o‘n ming kishidan tashkil topganligi hisobga olinsa, u vaqtda oltin katta hajmda ishlatilganligi ma‘lum bo‘ladi. Shunisi diqqatga sazovorki, oltin tog‘ konlari bilan bir qatorda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Chirchiq

daryolaridan ham olingan. Bu daryolardagi qum tarkibida oltin zarrachalari bisyor bo‘lib, ko‘p asrlar mobaynida undan foydalanib kelingan. Oltinni suv tarkibidan olishda quyidagi uslub qo‘llanilgan: daryo suviga qo‘yning terisi tashlab qo‘yilgan, oltin zarralari mana shu teri yunqlarining orasiga kirib qolgan; daryoda suv kamaygan paytlarda uning chetidagi loy yoki qum qirg‘oqqa olinib, oltin zarralari ajratilgan; oltin zarralari, ayniqsa, Zarafshon daryosida ko‘p bo‘lgan, shu bois unga oltin, ya’ni zarni anglatuvchi nom berilgan.

Arxeologlar miloddan avval oltindan yasalgan jangchi siymosini topdilar. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda Amudaryo atrofida sof oltindan tayyorlangan ot qo‘shilgan aravacha va uning ustidagi ikki jangchining tasviri tushirilgan yodgorlikni qo‘lga kiritdilar. Bu dalillar ham mamlakatda oltin ko‘p bo‘lganligi va zargarlik kasbi yuqori darajaga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

Miloddiy I—IV asrlarda oltindan keng ko‘lamda foydalanish davom etdi. Samarqanddan, xususan, Kesh (Shahrisabz) va Maymur degan joydan oltin xorijiy mamlakatlarga ham chiqarilgan. V—VII asrlarda oltin o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Ammo mashaqqatli mehnat evaziga ishlab chiqarilgan oltinlar va ulardan tayyorlangan qimmatli buyumlar xorijiy bosqinchilar tomonidan talon-toroj qilib turilgan. Ma’lumki, miloddan avval Turkistonda Ahomaniylar, so‘ngra makedoniyalik Aleksandr va uning vorislari hukmronlik qilganlar. Ular o‘lkaning boyliklarini o‘z yurtlariga tashib ketishgan. Shubhasiz, ularning orasida oltin va undan yasalgan buyumlar ham bo‘lgan. VII asrning ikkinchi yarmi — VIII asr boshlarida arab xalifaligi mamlakatimizga bostirib kirib, beqiyos katta boyliklarni o‘lja sifatida qo‘lga kiritgan. Xususan, Buxoro shahrining biqinidagi Poykend shahrini bosib olgan Qutayba xazinadagi va aholi tasarrufidagi oltin buyumlarni eritib, quyma holiga keltirib, olib ketgan.

Samarqandni egallagan Qutayba u yerdan ham barcha oltin va kumush buyumlarni eritib, quyma holda xalifa saroyiga jo‘natgan. Bu vaqtlarda Samarqandda oltin buyumlarni ishlatish rivojlangan, boylar oltin kamar taqib yurganlar. «Arablarni, deydi mualliflardan biri, - Samarqandning g‘oyat boyligi hayratga soldi. Bu yerda oltin va kumushdan yasalgan (odam shaklidagi) but haykallar bor edi.

Arab lashkar boshilaridan biri Sa' id Abdulaziz oltin, javohir va boshqa qimmatli narsalarni soliq tarzida olishni joriy etdi. Turkiston shaharlarida, ayniqsa, Samarqandda oltin va kumushdan turli hayvonlarning haykallarini ishlash rivojlangandi. Buxoro shahrida oltindan ikki tog' echkisining va kumushdan quyoning haykalini ishlaganlar. 743 yilda Xuroson hokimi xalifa saroyiga yuborish uchun oltin va kumushdan yasalgan ko'zalarni, kiyik, sherning kallasini va boshqa narsalarni soliq o'rnida to'plab oldi».

X-XIII asrlarda oltindan tilla tangalar va turli buyumlar tayyorlash davom etdi. Ayniqsa, xorazmshohlar davrida oltindan keng ko'lamda foydalanildi. Bu yerda do'mbiralalar ham sof oltindan yasalgan.

XIII asr boshlarida Chingizxon boshliq mo'g'ullar xorazmshohlar davlatining oltin va boshqa qimmatli mol-mulkini vahshiylarcha taladilar. «Buxoroning barcha davlatmand kishilari, — deb yozadi Ulug'bek, — mo'g'ul sipohi dastidan ombordagi moli, ko'pdan-ko'p tillalarini berib, Chingizxondan o'z boshlarini sotib oldilar».

Mo'g'ullar mintaqaning boshqa joylarida ham oltin, javohir va boshqa qimmatli narsalarni qo'lga kiritdilar. Ulug'bekning ko'rsatishicha, mo'g'ullar Termiz shahrida odamlarning qonini bamisoli daryo oqizgan: «Qavmning ayolu qarisi faryod chekdi. Bir ayol dedi: «Jonim gardini chiqarmang, men sizga bir gavhar berayinki, falaqdagi yulduz kabi tovlanadi». Uning yonini titkiladilar. U dedi: «Kaftimda suv ichayotib yutib yubordim. Sadafdek uning siynasini, ya'ni qornini yordilar. Uning ichidan bebaho durni topdilar. O'ldirilgan (odam)larning barchasini gavhar umidida yorib ko'rdilar». Demak, ko'p odamlar qo'y kabi so'yib tashlangan.

Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatning oltin xazinasi tiklanib, undan turli ajoyib buyumlarni ishlash rivojlandi. Ispan elchisi Klavixo Bibixonim mehmonxonasida oltindan yasalgan va odam bo'yiga teng keladigan daraxtni ko'rgan. Bu daraxtning tilladan yasalgan shohlariga mevalar o'rniga qimmatli va yaltiroq toshlar qadalgan ekan. Bir butun daraxtning mevasi bilan birgalikda sof oltindan yasalishi zargarlik san'ati yuksak darajaga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Oltindan piyola, likobcha va boshqa ro'zg'or buyumlarini tayyorlashda keng foydalanilgan. Oltin hashamatli binolarni bezashda ham qo'llanilgan. XVI—XIX asrlarda, ya'ni

xonliklar davrida o'zaro qonli urushlar va inqirozning hukm surishi oqibatida oltindan foydalanish ancha susayib ketdi. Bu vaqtlarda xonlar, xususan, Buxoro hukmdorlari oltinni muomalaga kiritib taraqqiyotni ta'minlash o'rniga, u bilan xazinani to'ldirishga mukkadan tushib ketdilar. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, oltin va kumush Zang tog'idan olingan. Bu joy oltinining kichkinasi no'xatdek va kattasi qo'yning boshidek bo'lgan. U Amudaryodan ham olingan. Bu daryodan olinadigan oltinning dovrug'i Rossiyagacha borib yetgan edi. Bu vaqtda Rossiyada oltin konlari hali yaxshi ishga solinmaganligi uchun unga qattiq muhtojlik sezilgan. Shu bois Pyotr I Xiva xonligini bosib olib, oltinni qo'lga kiritish va Amudaryoni Kaspiy dengiziga burish maqsadida to'rt mingdan ortiq harbiy qismni jo'natgan. Bu bosqinchi kuchlar Xiva xonligida qirib tashlandi.

Moskva arxivlarida ishlab yurganimda Rossiya senatining maxfiy ekspeditsiya fondidan bir hujjat e'tiborimni tortdi. Unga ko'ra, o'zbek savdogarlari Rossiyada oltin savdosi bilan shug'ullanganlar. 1738 yilda Sibirning savdo markazlaridan biri Kyaxtada Murod ismli o'zbek savdogari bilan ma'muriyat vakili komissar S.Svinyin o'rtasida rasmiy sur'atda shartnoma tuzilgan. Shartnomaga ko'ra, o'sha savdogar uch yil mobaynida 12 pud oltin keltirib davlat xazinasiga sotishni zimmasiga olgan. Shartnomada oltinning sifati oliy darajada bo'lishi va uning maxfiy tutilishi haqida so'z yuritilgan. Bordiyu, savdogar vafot etsa yoki boshqa sabab bilan va'dasini bajarolmasa, u vaqtda shartnoma bo'yicha ish yuritish huquqi o'g'li Abdusalomga berilgan. Biroq savdogar Murod oz miqdorda oltin bilan Kyaxtaga kelib, va'dasining ustidan chiqolmagan. Bunga oltinning yetishmay qolganligi tufayli xon u bilan savdo qilishni man etganligi sabab bo'lgan. Ammo XVIII asrning oxirlarida o'zbek savdogarlari Orenburgga 40 puddan ortiq oltin va ko'p miqdorda kumush olib kelganliklari haqida ma'lumotlar bor. Aftidan, ular maxfiy ravishda keltirilgan.

Xiva xonligida oltinning ko'pligi haqidagi ovozlari hamisha chor hukumatining diqqat markazida turgan. Shuning uchun ham, 1798 yilda Orenburg ma'muriyati muftiy Muhammadjon Gusainovni oltin haqida ma'lumot to'plash uchun ayg'oqchi sifatida Xiva xonligiga jo'natgan. Bu yerda u Toji Shayx Jalil nomidagi joyga yashirincha borib, eski oltin konining o'rnini ko'rib, bir bo'lak

oltin jinsini olgan. So'ngra Xivaga qaytib, karvondagilar bilan yo'lga chiqqan. U karvonning qaroqchilar tomonidan talanishi sababli oltin jinsidan ayrilgan. Chor hukumati o'lkani bosib olgandan keyin oltin konlarini ochishga shoshilmadi. Chunki bu vaqtlarga kelib, Sibir, Oltoy va boshqa joylarda ishga tushirilgan konlar oltinga bo'lgan ehtiyojni qondirganga o'xshaydi.

Sovet davrida oltinga o'chlik yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. 1920 yilda Frunze boshliq qizil armiya Buxoroga bostirib kirib, xon xazinasini egalladi. Bu ishda bevosita qatnashgan Murodxo'ja aka 60 yillarda menga shunday degan edi: «Men bir guruh qizil askarlar bilan xazinada oltindan yasalgan ot, qo'y va boshqa hayvonlarning kichik haykallarini ko'rdim. Bunday qilishdan maqsad oltin talanishining oldini olish ekan. Agar oltinlar tartibsiz holda sandiqlarda saqlansa, u vaqtda kimdir ularning bir qismini olsa, bilinmay qolishi mumkin ekan. Hayvon shaklidagi oltinlarni esa sanash, ko'zdan kechirib turish va butligini aniqlash qulay ekan».

Murodxo'ja aka oltinlarni vagonga ortishda shaxsan qatnashgan. Uning so'ziga ko'ra, ikkita vagon oltinga to'ldirilib, Moskvaga jo'natilgan. Ochig'ini aytsam, o'sha vaqtlarda Murodxo'ja akaning so'zlariga unchalik ishonmagan edim. Chunki sovet davlatini eng halol va insofli deb yurgan qul sifat kommunistlar edikda!

Buni qarangi, oradan bir necha o'n yillar o'tgandan keyin, 1991 yil 25 sentabrda Rossiya oltini haqida «Izvestiya» gazetasida berilgan maqolada Buxoro oltini to'g'risida qisqacha ma'lumot e'lon qilindi. «Frunze tomonidan, — deyilgan gazetada, — Buxoro amirining xazinasidan olib kelingan ikki vagon oltin qayerda? 1920—1921 yillarda Ozarbayjon, Armaniston va Gruziyadan bosib olingan oltinlar qayerda? Bugun bunday savollarga javob yo'q». Shunday qilib, Murodxo'ja akaning so'zlari to'la tasdiqlandi.

Xo'sh, Buxoro amirligida shunchalik ko'p oltin qayerdan olingan?

Hozircha bunga javob berish qiyin bo'lib, masala maxsus o'rganishni talab etadi. Ehtimol xonlar yashirin ravishda oltin konlaridan foydalangandirlar. Ko'proq daryolardan olingan oltin zarralarini qo'lga kiritgan bo'lishlari ham mumkin. Mening fikrimcha, Muhammad Shayboniyxon Temuriylar davlatini ag'darib, xazinani qo'lga kiritganda ega bo'lgan oltinlar uning

vafotidan keyin Buxoro xonligida 100 yil hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasining xazinasida saqlangan. Bu boylik keyingi sulolalar ixtiyoriga o'taverib, Sayid Olimxongacha yetib kelgan.

Sovet davlati boy va savdogarlarga qarshi kurash jarayonida ko'p oltin va undan tayyorlangan buyumlarni zo'ravonlik bilan tortib oldi. 1932—1933 yillarda qahatchilik va ocharchilik hukm surayotganida Toshkentda yopiq oziq-ovqat magazini ochilib, un, guruch, yog' va boshqa mahsulotlar faqat tilla asboblari va zargarlik buyumlariga almashtirildi. Bu vaqtlarda bir burda nonga zorlik va ochlikdan o'lish ommaviy tus olgan edi. Mening onam ko'z yoshlari bilan ikkita qalin tilla bilaguzugini o'sha magazinga olib borib topshirib, kichkina xaltalarda un va guruch olib kelganliklari hamon esimda. Shu tarzda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tilla buyumlar ochlikdan o'lib qolmaslik uchun arzimagan narsalarga almashtirildi.

Sovet hukumati O'zbekistonda oltin konlarini ochib, katta daromadni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, Navoiy viloyatida oltin qazib olish rivojlantirildi. Ammo sovet hukumati maxfiy ravishda ish yuritib, oltinning isini chiqarmay olib ketaverdi. Nihoyat, yuqorida tilga olingan maqolada ayrim ma'lumotlar yuzaga chiqdi. Unda shunday yozilgan: «Sovet oltinining ba'zi maxfiy tomonlarini ochish bir qator siyosiy masalalarning ko'tarilishiga olib keladi. Bugun hech kim bilmaydiki, SSSRda oltinning talay qismi Yoqutiston, Kolima yoki Krasnoyarsk o'lkasidan emas, balki O'rta Osiyodan, xususan, O'zbekistondan olingan. Bu yerda Zarafshonga yaqin joydagi cho'ldan olinadigan oltin sovet oltinining uchdan ikki qismini (60 foizini) tashkil etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Zarafshondagi oltin konidan uran ham olinadi. Bu dalillar ba'zi ekspertlarning bizning sotsialistik iqtisodiyotimizga qaysi respublikalar ko'p hissa qo'shganligi haqidagi fikrlarini o'zgartirishga olib kelishi mumkin».

Shu tariqa haqiqat yuzaga chiqib, O'zbekiston oltini SSSR oltinining 60 foizini qoplaganligi aniqlandi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, SSSRda 1986 yilda 400, 1987 yilda 380, 1988 yilda 360, 1989 yilda 340, 1990 yilda 320 tonna oltin ishlab chiqarilgan. Agar o'zbek oltini, yuqorida ko'rsatilganidek, SSSRda bir yilda ishlab chiqarilgan oltinning 60 foizini qoplaganligi hisobga olinsa, har yili O'zbekistondan markazga o'rta hisobda 160—170 tonna oltin



olib ketilganligi ma'lum bo'ladi. Ba'zi yillarda uning miqdori 200 tonnagacha yetgan. Umumlashtirganda, 5 yilda 850—900 tonna o'zbek oltini olib ketilgan bo'lib chiqadi.

Xullas, O'zbekistonda Ahomaniylar, makedoniyalik Aleksandr, xalifalik, mo'g'ullar, chor hukumati va sovet davlati umumiy hisobda 800 yil hukmronlik qildilar. Ular mana shu ko'p asrlar mobaynida oltinu javohirlarimiz va boshqa boyliklarimizni ayovsiz taladilar. Natijada tonnalab oltinlardan mahrum bo'lindi, taraqqiyot va farovon hayot qattiq zarbaga uchradi. Xalq ommasi shilindi va qashshoqlashdi. Ayniqsa, sovet davlati boyliklarimizni shu darajada taladiki, ta'riflashga so'z o'zlik qiladi. 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston mustaqilligi tiklangandan keyingina o'zbek xalqi oltin va boshqa boyliklarning haqiqiy egasi bo'lib qoldi. Bu yerda shuni alohida uqdirib o'tish lozimki, boyliklarni qizil imperiya changalidan tortib olish mardonavor kurash orqasida amalga oshirildi. Bunda yurtboshimiz Islom Karimov hal qiluvchi o'rinni egallab, o'z xalqi va vataniga sadoqat namunalari namoyish etdi. U 1992 yilda shunday degan edi: «Mana, oltin yombilarimiz borgan sari ko'payib bormoqda (ko'ztegmasin). Ammo bebaho oltin zahiramizni faqatgina oltin tish qilib yaltiratib yurish emas yoki Buxoro xonidek xazinaga solib qo'lib, uning yaltillashiga mahliyo bo'lib o'tirmasligimiz lozim. Uning jozibador yarqirashini AQSH, Angliya va bo'lak boy davlatlar bankirlariga ko'z-ko'z qila bilishimiz va shuning kafolatiga ulardan katta-katta kreditlar olishimiz kerak. Shunday qilib respublika iqtisodiyotini tezlikda tiklashimiz zarur».

Bu so'zlar aytilganidan buyon o'tgan vaqt ichida nafaqat sof oltin, balki unga tenglashadigan turli-tuman bebaho boyliklar tom ma'noda o'z mulkimiz bo'lib qoldi. Masalan, oq oltin (paxta), qora oltin (neft), zangori oltin (gaz), mayin oltin (ipak) va boshqalar shular jumlasidandir. Endilikda O'zbekistonda jahon andozasi darajasidagi milliy oltin ishlab chiqarish sanoati tashkil etildi. Mamlakatimiz bu borada dunyoda oldingi saflarni egallab, oliy navli oltinimizning dovrug'i olam uzra taralmoqda va mustaqilligimiz, milliy taraqqiyotimizning muhim ramzlaridan biri sifatida tovlanib turibdi.



# O‘ZBEKISTON BIRINCHI VA IKKINCHI JAHON URUHLARI DAVRIDA



## **Birinchi jahon urushi**

XX asr ibtidosida nufuzli davlatlar o‘rtasida dunyoni qayta taqsimlab, egalik qilish maqsadida boshlangan o‘zaro kurash oxir oqibatda 1914—1917 yillarda keng quloch yoygan birinchi jahon urushiga olib kelganidi. Unda 1,5 milliard aholini qamrab olgan 38 davlat qatnashdi. Ular bir-biriga dushman ikki guruhni tashkil qilganlar. Bular: bir tomonda Angliya, Fransiya va Rossiya, ikkinchi tomonda esa Germaniya, Avstriya va Vengriya boshchiligida tuzilgan harbiy ittifoqlardir.

Dastavval Yevropada alanga olgan urush so‘ng Uzoq va Yaqin Sharq, Afrika, Atlantika, Tinch va Hind okeanlari bo‘ylab tarqaldi. Urush harakatlarida 1914 yili 480 diviziya qatnashgan bo‘lsa, 1917 yilda u 889 taga yetdi. Jang maydonlarida 10 mln. kishi halok bo‘ldi, 20 mln. kishi jarohatlandi. Epidemiyalar va ochlikdan 10 mln. kishi vafot etdi. Shu tariqa birinchi jahon urushida 20 mln. kishi dunyodan ko‘z yumdi. Chor Rossiyasi urushda ketma-ket mag‘lubiyatga uchrab, o‘n minglab askarlari o‘ldirildi va yarador qilindi. Urushning aks sadosi Turkiston o‘lkasigacha yetib kelib, busiz ham og‘ir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni

keskinlashtirib yubordi. Chor Rossiyasi urush bahonasida mustamlakachilik siyosati va milliy zulmni kuchaytirib yubordi. Xususan, o'lkadan frontga yordam tariqasida Rossiyaga 41 mln. pud paxta, 3 mln. pud paxta yog'i, 200 mln. pud sovun, 70 ming bosh ot, 1279 bosh tuya, 300 ming pud go'sht, 474 ming pud baliq, 270 arava, 1344 o'tov, ko'p miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari, quruq mevalar olib ketildi. 1915 yilning o'zida faqat Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan bir million bosh qo'y jo'natildi. Natijada o'lkada oziq-ovqat, kiyim-kechak, gazlama va qurilish jihozlari narxi juda oshib ketdi. Masalan, gazlamalar narxi 300—400, kiyim-kechaklarniki 200—300 foiz ko'tarildi. Farg'ona vodiysida ilgari 15 so'm turadigan otning narxi 100—200, 5 so'mlik qo'yniki 30—35 so'mga oshdi. Turli soliq va yig'inlar miqdori ham oshib, mehnatkash ommaning ahvoli g'oyatda og'irlashdi. Bir pud paxta tolasiga 2 so'm 50 tiyin qo'shimcha soliq joriy qilindi. 1915 yil yanvaridan boshlab aholidan, harbiy xizmatni o'tamaganliklari evaziga, daromaddan qo'shimcha 21 foiz soliq olish buyurildi. Chor Rossiyasi frontda asir olingan 150 ming kishini Turkistonga o'rnatirishi ham iqtisodiy hayot og'irlashishiga olib keldi. Natijada oziq-ovqat yetishmovchiligi orqasida o'zbeklar tortayotgan azobga azob qo'shildi. Boltiq bo'yi, Polsha va boshqa joylardan ko'chirilgan 70 ming kishi ham Turkistonga joylashtirildi. Ko'chirib keltirilganlar nemislar, avstriyaliklar, vengrlar, polyaklar, chexlar, latishlar, slovaklar va boshqa millatlardan tashkil topgan edi. Har tomonlama shilingan tub aholi qulog'igacha qarzga botib, xonavayron bo'ldi. 1916 yilgi ma'lumotga ko'ra, dehqonlar bo'ynidagi qarz o'z zamonasi uchun juda katta mablag' — 156,7 mln. so'm hisoblangan. O'lkadagi qashshoqlikni va uning oqibatlarini shoir Zavqiy shunday tasvirlaydi:

***Qahatchshik bo'ldi, bu Farg'onamizda***

***Topilmas parcha non vayronamizda.***

***O'lim xavfi o'rab qishloqlarni***

***Na qishloqu jiboz ovloqlarni.***

***Qirildi qancha odamlar vabodan***

***Nishona qolmadi mehru vafodan.***

Mana shunday chidab bo'lmaydigan sharoitda, 1916 yil 25 iyunda imperator Nikolay II ning imzosi bilan «Imperiyadagi rus bo'lmagan erkaklarni harakatdagi qo'shin rayonidagi mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llarini qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan har qanday ishlarga jalb qilish haqidagi» farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra Turkiston general-gubernatorligidagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar Rossiyaga jo'natilishi kerak edi. Bu farmon tub aholi orasida «mardikorlikka» olish iborasi bilan keng tarqaldi. Aslida u «rabochiy batalyon» ma'nosini bildirardi. Safarbar etiladigan odamlarning soni esa quyidagicha belgilandi:

Farg'ona viloyatidan — 51.233 kishi;  
Samarqand viloyatidan — 32.407 kishi;  
Yettisuv viloyatidan — 43.000 kishi;  
Kaspiy viloyatidan — 13.830 kishi;  
Hammasi — 200.470 kishi.

Minglab ishga yaroqli kishilarning olib ketilishi ko'p oilalarning boquvchisiz qolishiga olib kelardi. Bir umr chetga chiqmagan odamlarning uzoq va sovuq joylarga yuborilishi mahalliy xalq uchun fojia edi. Hatto, hukumat mardikorlik niqobi ostida kishilarni to'g'ri jang maydoniga olib ketadi, degan so'zlar xalqni yanada qattiqroq tashvishlantirdi. Bulardan tashqari, safarbar etish hosilni, xususan paxtani terib olish vaqtiga to'g'ri keldi. U dehqonlarni daromaddan mahrum qilib, tamomila xonavayron qilardi. Ular bank va sudxo'rlardan olgan qarzlarini mana shu paxta hisobiga uzishni zimmaga olgan edilar.

O'n minglab kishilarni to'plash va jo'natish to'g'risidagi bu farmon mutlaqo tayyorgarlik ko'rilmagan sharoitda to'satdan chiqarildi. Xalqni uzoq joylarga yuborish uchun moddiy imkoniyat butkul yo'q edi. Buni keyinchalik Rossiya harbiy vaziri o'rinbosari A.P.Frolov ham tan olgandi: «Tub aholi va ma'muriyat begona joylarga mardikor yuborishga tayyor emas edilar, ammo shunga qaramay bu ishga shoshilinch ravishda kirishilishi katta tartibsizlikni yuzaga keltirib, qon to'kilishiga va qurol ishlatilishiga olib keldi».

Imperator farmoni mustamlakachilik siyosati va milliy zulm

girdobida ezilib yotgan xalqning bosh ko'tarishiga katta turtki bo'ldi. 1916 yil 4 iyulda Samarqand viloyatiga qarashli Xo'jand shahrida xalq olomoni bilan askarlar o'rtasida to'qnashuv bo'lib, ulardan bir nechasi o'ldirildi. Shundan keyin viloyatning deyarli barcha tumanlarida xalq qo'zg'olonlari ko'tarilib, «mardikorlikka bermaymiz», «ochmiz» va «urushga bormaymiz» degan shiorlarni izhor etdilar.

Qo'zg'olon, ayniqsa, Jizzax shahri va uyezdida qizg'in tus olgan edi. Abdurahmon Abdujabborov, Nazirxo'ja, Mulla Mahamat Rayim, Sharifboyvachcha Xudoyberdiyev, Bobobek Abdujabborov va boshqalar qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Qo'zg'olon shiddatli o'tib, to'qnashuvlarda chor ma'muriyatining vakillari va soldatlari o'ldirildi. Jizzax uyezdining 22 tumanida xalq ozodlik uchun kurashdi. Bu kurash Sirdaryo viloyatida ham keng quloq yoygan edi.

1916 yil 11 iyulda Toshkent shahrida birinchi bo'lib o'zbek ayollari chorizm siyosatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarishdi. Ularga erkaklar ham qo'shilib, 2—3 ming kishidan iborat olomon temirtersak, tosh va boshqa oddiy narsalar bilan qurollangan holda Eski shahar politsiya boshqarmasiga hujum qildi. Yordamga yetib kelgan soldatlar bilan to'qnashuvda bir ayol o'ldi, bir nechtasi jarohatlandi. Erkaklarning orasida ham o'lgan va jarohatlanganlar bo'ldi. Qo'zg'olon viloyatning boshqa joylarida ham ko'tarildi. G'alayon Andijon, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon shaharlari va atrof joylarida keng tarqalib, Marg'ilon shahrining o'zida qo'zg'olonchilar soni 20—25 mingga yetgan. Bunday shiddatli harakatlar vodiyning deyarli barcha tumanlarida sodir bo'lib, ularda ayollar ham qatnashdilar. Xullas, ozodlik uchun kurashlarda o'n minglab kishilar faol ishtirok etdilar.

Shuni aytish lozimki, bu kurashlarda tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar va boshqa tub aholi qatnashib, birdamlik namunalarini namoyish etdilar. O'sha kezlari hozirgi Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston hududlarida ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari bu haqda guvohlik beradi.

G'oyat keng qamrovli 1916 yil qo'zg'olonlarini bostirish uchun chor hukumati 14 batalyon, 33 kazak harbiy bo'limi, 42 artilleriya va 69 pulemyot jalb qilgani ma'lum. Ofitser va soldatlardan 97 kishi o'ldirilib, 86 kishi yaralandi, 76 kishi esa daraksiz yo'qoldi.

Chor hukumati qo'zg'olonlarni vahshiylarcha bostirib, ko'pdan-ko'p kishilarning yostig'ini quritdi, jarohatladi va xo'rladi. Shahar va qishloqlar vayronaga aylantirildi. Ayniqsa, Jizzax shahri ostin-ustun qilinish, xarob etildi. Bu fojia xalq og'zaki ijodida ham o'z aksini topgan:

*Taxta ko'prik bitdimi?  
Nikolay podshoh o'tdimi?  
Jizzax shahrini vayron  
Qilib murodiga yetdimi?  
Osh kadi, palov kadi  
Tomga chikib dod ayladi.  
Namozgohni soldat bosib  
Jizzaxni vayron ayladi.*

Qo'zg'olonning faol qatnashchilari mol-mulki musodara qilindi. Masalan, Jizzaxda 2000 gektar unumli yer davlat foydasiga tortib olindi.

1916 yilgi qo'zg'olon qatnashchilaridan 3000 dan ortiq kishi tergovga tortilib, ularga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lindi. Hibsga olinganlar orasida ayollar ham bor edi. Mahbuslarning ayanchli ahvoli haqida rus ayoli Korshunova bunday yozgan: «Toshkent qamoqxonasi hovlisida ochlikdan o'lgan farg'onaliklarning murdalari ko'p aravalarga solib qo'yilganini ko'rdim. So'ngra mahbuslar joylashtirilgan qamoqxonaga yerto'lasiga tushdik. Bu yerda odamlar zich va qalashib yotardilarki, oyoq bosishga joy topish juda qiyin bo'ldi. Bizni erkaklar va ayollarning kir bosgan oriq va za'faron yuzlari, ayollarning yoyilib ketgan sochlari, qo'rquv va shu bilan birga nafrat bilan boquvchi ko'zlari hayajonga soldi. Yoshi ulg'aygan bir ayol mening oyog'imni ushlab olib, yoshli va g'amga to'lgan qora ko'zlari bilan boqib, nimalarnidir gapirdi. Biroq men til bilmaganligim uchun uning xo'ngrab yig'lagan holda aytgan so'zlarini tushunmadim. Men eski choponidan bir parcha paxtani yulib olib chaynayotgan bir novcha kishini ko'rdim. Ba'zi odamlar qo'llarini kemirayotganliklarini ko'rdim. Mahbuslar orasida ko'pchiligining nafas olishi sezilmas, aftidan, ular jon berish arafasida edilar. Mahbuslar orasida es-hushini yo'qotganlari ham bor edi».

Mazkur satrlarni ko'z yoshlarisiz o'qib bo'lmaydi, albatta.

Qarang, mustamlakachilar naqadar yovuz bo'lganlar. Hatto, erkak va ayollarni bir xonaga qamashgacha borganlar. Bunday fojia hech qayerda sodir bo'lgan emas. Qo'zg'olon qatnashchilaridan 347 kishi osib o'ldirishga, bir necha yuz kishi uzoq muddatli qamoq va surgunga hukm qilindi. Shu tariqa qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi. Chor ma'muriyati imperatorning mardikorlikka olish haqidagi farmonini bajarishga kirishdi. Ommaviy ravishda jazolash va o'ldirishlar, ochlik, nazorat va ta'qiblardan tinkasi qurigan, toliqqan xalq farmonning bajarilishiga qarshi turishga endi holi qolmagandi. Shunga qaramay, mardikorlikka olish juda qiyinchilik bilan kechdi. Belgilangan 200470 o'rniga 120 mingdan ortiq kishi safarbar etildi. Ulardan 101600 kishi Rossiyaning Yevropa qismiga, 4000 kishi Sibirga, 7405 kishi Kavkazga joylashtirildi. 10 mingdan ortiq kishi Turkiston o'lkasida ishlatildi. Mardikorlarning aniq o'rnashgan joylari quyidagicha bo'lgan: Moskva, Peterburg, Ryazan, Tula, Oryol, Smolensk, Penza, Bryansk, Dvinsk, Nijniy Novgorod, Qozon, Samara, Perm, Yekaterinburg, Orenburg, Kiyev, Xarkov, Yekaterinoslav, Odessa, Zaporozhye, Kerch, Tbilisi, Botumi va boshqalar. Usti yupun mardikorlar harbiy va oddiy sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo'l qurilishlarida, o'rmonlarda va ayrim nufuzli kishilarning xo'jaliklarida ishlatildi. Ochlik, xo'rlik va mashaqqatli mehnatdan ko'p azob-uqubatlarni boshlaridan kechirdilar. Yo'qchilik va kasallikdan ko'p odamlar hayotdan ko'z yumdi.

Ularning hayoti og'zaki ijodda ham saqlanib qolgan:

*Poyezdingni jildirgan  
O'txonasi bilan do'ngalagi,  
Dvinskaga ketishdi.  
Mard yigitning bir bo'lagi,  
Dvinskaga ketmas edi  
Mard yigitning bir bo'lagi  
Dvinskaga ketkizvorgan,  
Nikolay zolim zambaragi.  
Dvinskaga yo'l bo'lsin,  
Qarag'ayzoring kul bo'lsin.*

*Yigitlarni qiynagan,  
Nikolaying yo‘q bo‘lsin.  
So‘k oshingni ichmayman,  
Etigimni yechmayman,  
Qorda qarag‘ay kesganman,  
Hech haqimdan kechmayman.*

Kuch va holdan toygan mardikorlar 1917 yilda, chor hukumati ag‘darilgandan keyin, vataniga qaytishgan. Shunday qilib, birinchi jahon urushi vaqtida o‘zbek xalqi yanada vahshiyona talandi va ezildi. Boyliklari va mardikorlikka olingan odamlarning talay qismidan ayrildi.

## **Ikkinchi jahon urushi**

Chor hukumati ag‘darilgan bo‘lsada, uning mustamlakachilik siyosati va milliy zulmi sho‘ro davlati tomonidan izchil davom ettirildi. Chorizm davridagi haq-huquqsizlik, adolatsizlik, qirg‘inbarot va milliy boyliklarning talanishi yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Tarixda ko‘rilmagan bunday fojialarning barchasi saltanatparastlik va kommunistik g‘oyaning mahsuli edi, xolos. XX asr 30 yillarida Germaniyada hokimiyatni egallagan fashistlarning g‘oyasi ham ulug‘millatchilik va saltanatparastlik asosida qurilgan edi. Ularning irqiy nazariyasi insoniyat boshiga ne-ne qirg‘in barotlarni keltirmadi.

Fashistlar 1939 yilda ikkinchi jahon urushini boshlab yubordi. 1941 yil 22 iyunda esa sho‘ro davlatiga hujum qildi. Urush bir xalq va bir mamlakatning boshiga tushgan ofat bo‘lmay, umumjahon hayoti va kelajagini barbod etuvchi dahshatli hodisa edi. Shu munosabat bilan O‘zbekistonning bu urushdagi ishtiroki qanday bo‘lgan, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

**Birinchi**dan, O‘zbekiston frontning moddiy ehtiyojini ta‘minlashda oldingi saflarda turib, nimaiki zarur bo‘lsa, barchasini ayamay sarfladi. Чунончи, urush yillarida aholi tomonidan mudofaa fondiga 649,9 mln. so‘m naqd pul, 4 mlrd. 226 mln. so‘m zayom puli, 52,9 kg oltin va kumush topshirdi. Armiyaga 7518800 ta gimnasterka, 2636700 ta telogreyka, 2221200 ta etik va qo‘njl



botinka yuborildi. Yengil sanoat vazirligi korxonalari tomonidan frontga 246918700 so'mlik mahsulot jo'natilgan<sup>62</sup>.

Qiyinchilik va xom ashyo yetishmasligiga qaramasdan, Toshkent to'qimachilik kombinati front uchun 410 million metr gazlama ishlab chiqardi. Shuningdek, ko'p miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari jo'natildi. Chunonchi, 1282000 tonna g'alla, 482000 tonna kartoshka va sabzavot, 1000 tonna poliz ekinlari, quruq va ho'l mevalar shular jumlasidandir. Faqat 1941 yilning ikkinchi yarmida 59 ming bosh ot frontga olib ketildi. Respublikaning har bir viloyati, shahari va tumani hamda ayrim shaxslar frontga yordam qo'lini cho'zdilar. Masalan, 1942 yilning boshlarida Buxoro viloyatidan 4059 juft issiq kiyim, 9380 juft jun paypoq va qo'lqop, 5660 qalpoq, 2750 shim, 3000 po'stin, 18,5 ming litr vino, quruq mevalar olindi. 1943 yilning boshlarida Leningradga Andijon viloyatidan 7884 kg un va bug'doy, 5496 kg yorma bug'doy, 1160 kg guruch, 418 bosh qo'y, 8510 kg quruq meva, Qoraqalpog'istondan 224916 so'm naqd pul, 21614 kg bug'doy, 5819 kg go'sht, 3700 kg guruch va boshqa narsalar jo'natildi. Qoraqalpog'istondagi Mo'ynoq baliq kombinatidan 20 million banka go'sht va baliq konservasi olingan edi. Frontga yordam berish ishiga Surxondaryo va Toshkent viloyatlari ham ulkan hissa qo'shdilar. 1942 yilning kuzida Surxondaryodan 5998 bosh qoramol, 180 sentner asal, 280 sentner yog', 310 sentner quruq meva, 3000 litr vino olindi. Toshkent 52 vagonda oziq-ovqat mahsulotlarini yubordi. 1943 yili Surxondaryo viloyati front ehtiyojlari uchun 14 mln. so'm naqd pul, 330 tonna go'sht va yog', 530 tonna bug'doy, 180 tonna quruq meva, 33168 dona teri topshirdi.

Shu kabi buyum va oziq-ovqat mahsulotlarini Samarqand, Namangan, Xorazm va boshqa viloyatlar ham frontga jo'natib turganlar. Shuningdek, frontga huqumat vakillari tomonidan vagonlarda katta miqdorda sovg'alar olib ketilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, 1942 yili respublikaning bir guruh vakillari Leningradga 600 vagon un va go'sht, 100 vagon guruch, 60 vagon quruq meva olib borganlar. Urushning to'rt yili davomida O'zbekiston davlatga 4806000 tonna paxta, 54067 tonna pilla,

<sup>62</sup> Ma'lumotlar ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan ishlardan olindi.

1066000 tonna g'alla, 195000 tonna sholi, 108000 tonna kartoshka, 374000 tonna sabzavot va ho'l meva, 35289 tonna quruq meva, 57444 tonna uzum, 1593000 tonna go'sht, 5286000 dona teri va boshqa narsalarni topshirgani ma'lum. Ular ham front ehtiyojlariga sarflangan, albatta. Bundan tashqari, urush yillarida O'zbekiston aholisi mudofaa fondiga jami 649 900 000 so'm naqd pul o'tkazib bergan.

O'zbek xalqi harbiy xizmatchilarning oilalariga ham katta yordam bergan. Chunonchi, 1943 yili ularga 13858500 so'm pul, 1308400 kg oziq-ovqat, 20750 komplekt kiyimbosh, 40000 kub m. yoqilg'i, 73500 pud g'alla, 10000 bosh qo'y, 2000 bosh qoramol topshirilgan, 350 ta uy qurib berilgan.

**Ikkinchidan**, o'zbek xalqi Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa joylardan ko'chirib keltirilgan o'n minglab kishilarga boshpana berib, mehribonlik va g'amxo'rlik namunalarini ko'rsatdi. Bir million erkak-xotin va bolalar qabul qilinib, turar joy, kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta'minlandi. 200 ming yetim bolaga alohida ahamiyat berilib, ularning talay qismini o'zbek oilalari o'z qaramog'iga oldi, farzandlaridek ko'rib boqdi va tarbiyaladi. O'zbek xalqi frontga ketgan turli millat vakillarining oilalaridan ham moddiy yordamini ayamadi. Bolalar uylariga minglab bolalar joylashtirildi. Davlat tomonidan berilgan yordam yetarli bo'lmagani uchun o'zbek xalqi ularni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turdi. O'zbekiston 113 ta hospitalni ham otaliqqa oldi.

1943 yilning o'zida harbiy xizmatchilarning oilalariga 24 million so'm naqd pul, 300 ming kiyim-kechak, 50 ming bosh qoramol, 40 ming sentner g'alla, 20 ming sentnerdan oshiq sabzavot va boshqa narsalar berildi.

**Uchinchidan**, o'zbeklarning talay qismi «Ishchi batalyon» («Rabochiy batalyon») safatida Rossiyaga safarbar qilindi. Ularning orasida 16 yoshdan oshgan va hunar bilim yurtini tamomlagan yoshlar ham bor edi. 1943 yilga tegishli ma'lumotda ko'rsatilishicha, «Rabochiy batalyon»dagilarning soni 155 ming kishidan iborat bo'lgan. Ularning yoshi asosan 40—50 va undan ortiqroq edi. Ko'pchiligi qishloq aholisi hisoblanib, rus tilini bilmasligi va sovuq havoga moslashmaganligi orqasida ko'p qiyinchilik va azob-uqubatlarni boshdan kechirganlar. Yashash sharoiti og'irligiga va

eskirgan kiyimlarida ishlashlari orqasida nihoyatda azob chekkanlar. Men Sibirda gospitalda davolanayotganimda, o'zbeklar gospital atrofida tilanchilik qilganligining guvohi bo'lganman. Ularning soch-soqollari o'sgan, kiyimlari yamalgan va kir bosgan edi. Ularning aytishicha, ochlik va kasalliklardan o'layotganlar oz bo'lmagan. «Rabochiy batalyon»dagi kishilar Ural, Qarag'anda, Kuybishev, Saratov, Gorkiy, Omsk, Novosibirsk, Moskva, Tula, Yaroslavl, Krasnoyarsk, Xabarovsk, Kemerovo, Chelyabinsk, Sverdlovsk, Perm, Irkutsk, Arxangelsk, Boshqirdiston, Tatariston, Udmurdiya va boshqa joylardagi sanoat korxonalari va konlarda yarim och holda ishlaganlar. Ona yurtidan uzoq joylarda kafansiz ko'milganlar bo'lgan.

**To'rtinchidan,** fashistlarning tor-mor qilinishida O'zbekistonda urush yillarida ishlab chiqarilgan qurol-aslahaga katta ahamiyat kasb etdi. Sanoatning asosiy qismi harbiy qurol ishlab chiqarishga yo'naltirilib, ular frontga uzluksiz yuborib turildi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 2100 samolyot, 17342 samolyot motori, 17100 minomyot, 27000 tankka qarshi otadigan zambarak qismlari, 60000 harbiy kimyoviy anjomlar, 22 million mina, 560000 snaryad, 2 million 318 ming aviatsiya bombalari, 1 million dona granata, 100000 metrda ziyod sim, dala radiostansiyalari, tank va samolyotlar uchun 3 milliondan ortiq radiolampa, 5 ta bronepoyezd, 18 harbiy-sanitar va hammom o'rnida foydalaniladigan, kir ham yuviladigan poyezd, 2200 ko'chma oshxona olib ketilgan. Shuningdek, o'zbek xalqining shaxsiy pullari hisobidan tayyorlanib frontga yuborilgan qurol-aslahalar ham kam bo'lmagan. Masalan, tank koloniyasi va aviaeskadrilya qurish uchun aholidan 320000000 so'm, jumladan, Samarqanddan 41402000 so'm, Namangandan 37750000 so'm, Andijondan 39525000 so'm, Buxorodan 3714000 so'm, Toshkentdan 35702000 so'm, Farg'onadan 33170000 so'm, Surxondaryodan 27582000 so'm, Xorazmdan 1812100 so'm to'plangan.

**Beshinchidan,** O'zbekiston 1943 yilda fashistlardan ozod qilingan joylarga yordam berishni boshlab yubordi. Masalan, shu yil oktabrda O'zbekistondan Belorussiya, Ukraina va RSFSRning dushmanidan tozalangan yerlariga 800 nafar vrach safarbar qilindi. 1944 yilning birinchi yarmida esa Ukrainaga 300 tonna g'alla, 8300 bosh qoramol,

6700 bosh qo‘y jo‘natildi. 1943—1944 yillarda ozod etilgan yerlarga Qoraqalpog‘istondan 45800000 bosh qoramol va qo‘y yuborildi.

Toshkent temir yo‘lchilari vagonlarda turli jihozlarni yubordilar. Stalingradni tiklash uchun 350 nafar quruvchi bordi. Xorazmliklar Xarkovga turli qishloq xo‘jalik texnikasini jo‘natdilar. Ozod qilingan joylarga 1943 yil avgust oyida respublikadan 1152 traktor, 25 kombayn, 1138 plug, 38 seyalka va boshqa narsalar olib ketildi. Sentabr oyining oxirlarida oziq-ovqat mahsulotlari va jihozlar to‘ldirilgan 374 vagon jo‘natildi. 12 oktabrda Ukrainaga 450 vagonda sovg‘alar, 300 tonna g‘alla, 8300 bosh qoramol, 10 ming juft oyoq kiyim, 200 ming metr gazlama, kasalxona, maktab va radiouzellar uchun jihozlar yuborildi.

Voronej va Kursk shaharlariga 275 bosh qoramol, 72 tonna g‘alla, 24 tonna quruq meva olib ketildi. Bulardan tashqari, respublika bo‘yicha 300 tonna g‘alla, 180 tonna quruq meva, 10 ming juft oyoq kiyim, 200 ming metr gazlama, 2600 ming so‘m naqd pul, yuk mashinasi, telefon stansiyasi jo‘natildi. Ukraina uchun 350 traktor, 200 avtomashina, 50 kombayn, 1500 plug berildi. Stavropol o‘lkasiga 1142 traktor, 400 seyalkani 1142 nafar kishi bilan jo‘natildi. Ularning orasida agronomlar va kombayn haydovchilari ham bor edi. Ozod qilingan joylarga Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari 50 ming bosh qo‘y va 190 ming bosh qoramol yuborgan. Shuningdek, fashistlardan tozalangan respublika va viloyatlarga 1944 yili 100000 ta kitob sovg‘a qilingan edi.

1943-1944 yillarda O‘zbekistondan Leningrad, Kiyev va Dunayga 13000 dan ortiq temir yo‘l mutaxassislari, hunar bilim yurtlaridan 15000 yosh safarbar qilindi.

Ozod qilingan joylarda o‘zbek xalqi jo‘natgan yordamga oid boshqa ma‘lumotlar ham bor. Ammo keltirib o‘tilgan raqamlar umumiy tushuncha hosil qilish uchun yetarli bo‘lsa kerak. O‘zbekiston sanoat sohasida ham katta ishlarni amalga oshirib, Rossiya, Ukraina va boshqa joylardan ko‘chirib keltirilgan o‘nlab korxonalarni ishchi-xizmatchilari bilan joylashtirib, turar joy, oziq-ovqat bilan ta‘minladi.

**Oltinchidan,** O‘zbekistonda harbiy sohada ham beqiyos katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikada 15 ta diviziya va brigada tuzilib, ularda o‘zbeklar salmoqli o‘rinni egalladi. O‘sha harbiy

qismlardan tashqari, o'n minglab navqiron yigitlar harakatdagi armiya saflariga yuborildi. Toshkentdagi harbiy bilim yurtlari front uchun bir necha ming komandir va siyosiy xodimlarni tayyorladi. Urushning dastlabki oylarida Toshkent shahrining o'zidan 100 ming yigit va qisman ayollar frontga jalb qilindi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondan bir milliondan ortiq kishi frontga olingan.

O'zbeklar Ukraina, Belorussiya, Moskva, Stalingrad, Kavkaz, Qrim, Kursk, Dnepr, markaziy va janubi-sharqiy Yevropadagi janglarda qatnashib, Berlingacha bordilar. Shuningdek, Yaponiya bilan urushda ishtirok qildilar, partizanlar saflarida mardonavor kurashdilar. Shunday qilib, o'zbek xalqi ikkinchi jahon urushida fashistlarni tor-mor etishga molini ham, jonini ham tikdi. Topgan bitta nonini to'rtga bo'lib, bir bo'lagini o'ziga, qolgan uchtasini bevosita frontga, so'ng respublikaga ko'chirib keltirilganlarga, frontga ketganlarning oilalariga, harbiy gospitallarga, fashistlardan ozod qilingan joylarga berdi. Ayni paytda bir milliondan oshiq farzandlari fashistlarga qarshi janglarda mardonavor kurashdi. Ulardan bir necha yuz ming kishi halok bo'ldi va jarohatlandi. O'zbeklardan tuzilgan «rabochiy batalyon»lar Rossiyaning turli joylarida front uchun fidokorona mehnat qildi.

Bevosita janglarda 27000000 kishining yostig'i qurigan, boshqa sabablar bilan 30000000 kishi nobud bo'lgan ikkinchi jahon urushi o'zbek xalqiga ham beqiyos katta talafot keltirdi. Minglab ayollar beva, bolalari yetim qoldi. Qancha-qancha ota-onalar farzandlari dog'ida va qayg'u-alamda kuyib bu dunyodan ko'z yumdilar. Urush yillarida qilingan chegarasi yo'q xarajatlar xalqni g'oyat qashshoqlashtirdi. Odamlarning deyarli hammasi eski va yamalgan kiyimlarda yurib, ozib-to'zib, rangi za'faron bo'lib ketgandi, ko'chalarda oyoq yalang yurganlar ko'p edi. Qanchadan-qancha odamlar ochlik va kasallikdan o'ldi.

Urush o'zbek xalqini bor-yo'g'idan ayirdi, qo'rpa-yostig'i, boshqa ro'zg'or anjomlari quridi, uy-joyi xarobaga aylandi.

U vaqtlarda deyarli hamma uylarning tomi har yili somon suvoq qilinardi. Erkaklar urushga ketgach, tomlar suvoqsiz qolib, qor erigan va yomg'ir yoqqanda uyga chakka o'tib ketardi. Qishloqlarda ocharchilik va kasallik avjiga minib, ko'p odamlarning yostig'ini

quritdi. Ayollarning umri mehnatda chirib, ko'pi rohat nimaligini bilmay dunyodan o'tdi. Bolalar orasida ham o'lim ko'p uchrardi. Urush vaqtida orttirilgan qiyinchilik va azob-uqubatlar sho'ro davlatining e'tiborsizligi orqasida tamomila bartaraf qilinmadi. Ayniqsa, urush nogironlarining qadr-qimmati o'rniga qo'yilmay, ular o'z holiga tashlab qo'yildi. Ko'chalarda kesilgan qo'l yoki oyog'ini hamda jarohatlangan boshqa joyini ochib tilamchilik qilayotgan nogironlarni ko'rganman. Urushda halok bo'lganlarning oilalariga ham yetarli darajada yordam berilmadi.

Xullas, urush yillarida mashaqqatli mehnat va azob-uqubattan boshqa narsani qo'rmagan odamlarning ko'pchiligi qayg'u-alam bilan dunyodan ko'z yumib ketdi. Urush qatnashchilarining talay qismi ham yorug' kunlarni ko'rmadi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, ota-bobolarimiz butun insoniyat boshiga tushgan ofatni misli ko'rilmagan azob-uqubatlar va talafotlar hisobiga bartaraf qilishga ulkan hissa qo'shib, tarixda o'chmas iz qoldirishdi.

Nihoyat, Mustaqillik sharofati ila o'sha mudhish urush yillarining azobini tortgan va tirik qolgan kishilar baxtli hayot gashtini surish sharafiga muyassar bo'ldilar. Men ham shular jumlasidanman. Shaxsan yurtboshimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan urush qatnashchilari va mehnat faxriylarining qadr-qimmati o'rniga qo'yilib, izzat va hurmat qo'rsatilmoqda. Jang maydonlarida halok bo'lganlarning ro'yxatini o'z ichiga olgan ko'p jildlik Xotira kitobi nashr qilindi. Xotira maydonida ajoyib majmua qurilib, halok bo'lgan har bir insonning nomi zar harflar bilan bitildi. Respublikaning boshqa shaharlarida ham Xotira yodgorliklari barpo etildi.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari keltirgan dahshatli oqibatlar, umuman urush fojiasi haqidagi mulohazalarimiz hozirgi avlodlar uchun foydadan holi bo'lmaydi, deb o'ylayman. Zero, ular bilan tanishgan har bir shaxs bugun ozod yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, buyuk o'zgarish va yutuqlarning qadriga yetib, Allohga shukr qilishi darkor.



# MILLIY NUQSONLAR VA ULARNING OQIBATLARI

O'zbek xalqining tarixan shakllangan oliy fazilatlarini, moddiy va ma'naviy boyliklari haqida qancha ko'p yozilsa, shuncha kam. Haqiqatan ham, o'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixi davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ulkan yutuqlarga erishib, umuminsoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Miloddan avvalgi asrlardayoq Turkiston zaminida qudratli davlatlar va madaniyat o'choqlari yuzaga keldi. Ammo mustaqillik va taraqqiyot zanjir halqalari singari bir-biriga ulanmay, orada uzilish va o'pirilishlar sodir bo'lib turdi. Zero, uch ming yillik tariximizni umumlashtirganda, yildan ortiq 800 yildan ortig'i chet el zulmi ostida kechgani ma'lum bo'ladi. Bu nima degani? O'zbeklar shunchalik jasoratsiz va ona yurtiga vafosiz xalq bo'lganmi? Aslo! Aksincha, o'zbeklar, o'ta jangovar va vatanparvar kishilar hisoblangan. Buni Ahomaniylar, makedoniyalik Aleksandr, xalifalik, mo'g'ullar, chor hukumati va sovet davlatiga qarshi olib borilgan qahramonona kurashlar yaqqol isbotlaydi. Shunday ekan, nima sababdan o'tmish zamonlarda ota-bobolarimiz yuz yillab bosqinchilarning qo'l ostida yashaganlar? Bunday fojialarning ro'y berishida kundalik hayotda hukm surgan milliy nuqsonlar ham sabab bo'lgan.

## Siyosiy sohadagi nuqsonlar

Turkiston zaminida ham, boshqa mamlakatlar va xalqlar tarixida bo'lgani kabi, hokimiyat uchun kurashlar va qobiliyatsiz shaxslar taxtni boshqargan hollar bo'lgan. Bunday sharoitlarda jamoa ahli bilan hokimiyat o'rtasidagi aloqa uzoqlashib, ichki siyosat inqirozga uchragani ham yaxshi ma'lum. Fuqarolar esa hukmdorlarning o'zaro qonli janglariga qarshi bosh ko'tarmay, bir chetda turavergan. O'z holiga tashlab qo'yilgan taxt da'vogarlari hech qanday qarshiliksiz kurashni davom ettirishlari oqibatida davlatning kuch-qudrati zaiflashib boravergan. Mana shunday vaqtda xalqning betaraf turishi milliy nuqson namunalaridan biri edi. Ayrim misollarni keltiraman. Xorazmshoxlar davrida hayot ancha yaxshilanib, fan va madaniyat o'sdi. Turkistonning jahon miqyosidagi mavqei ko'tarildi. Ammo mo'g'ullarning tajovuzi boshlanib, mamlakatning taqdiri qil ustida turganda taxt uchun kurash avjiga mindi. Dovdirab qolgan Muhammad Xorazmshoh qochgandan keyin taxt uchun kurash yanada kuchaydi. Hatto, har jihatdan yetilgan sarkarda va vatanparvar bo'lgan Jaloliddinni taxtga yo'latmay, o'ldirish rejasi tuzildi. Jaloliddin jamoa orasida tayanch topolmay, Xorazmni tark etishga majbur bo'ldi. Agar xalq yoppasiga ko'tarilib, uni quvvatlaganda, bosqinchilar tor-mor etilishi turgan gap edi. Biroq bunday qilinmasligi mamlakatning shu darajada yakson qilinishiga olib keldiki, uni ta'riflashga qalam ojizlik qiladi. Milliy nuqsonlar jamoa ahlining vatan xoinlariga munosabatida ham ko'rinadi. Chingizxon boshliq mo'g'ullarning g'alabasini ta'minlashda xorazmlik Mahmud Yalavoch boshliq bir guruh savdogarlar «katta xizmat qildilar». Ularning xoinligi xalqning ko'z o'ngida sodir bo'lib, misli ko'rilmagan talafotlarga va vayronagarchiliklarga olib keldi. Mustaqillik va ozodlik barbod etilib, o'n minglab kishilarning yostig'i quridi. Vatanfurush Mahmud Yalavoch va o'g'li Mas'udbek Turkistonda mo'g'ullarning noibi sifatida umumlashtirganda sakson yil hokimlik qilishdi. Mana shu vaqt ichida xalq uni jazolash u yoqda tursin, hatto, «mushugini pisht» demay, itoatda bo'ldi.

Amir Temur bilan bog'liq voqeani olaylik. U o'lim to'shagida



yotganida nabirasi Pirmuhammadni valiahd deb e'lon qildi. Ammo o'limidan keyin uning vasiyatini dastavval farzandlarining o'zlari buzdilar va o'zaro urushlarni boshlab yubordilar. Shu tariqa kechagina olam uzra shuhrat qozongan, mustaqillik va taraqqiyotni ta'minlagan sohibqironning vasiyati inkor etildi. Amir Temur sa'y-harakati bilan ozodlik va farovon hayotga erishgan xalq o'zining xaloskori va sardorining vasiyatini buzganlarga qarshi bosh ko'tarmay, tomoshabin bo'lib turaverdi.

Buyuk davlat arbobi va mashhur olim Ulug'bekning qismati ham fojiali kechdi. U o'zining farzandi tomonidan o'ldirildi, jamoa ahli bu gal ham hech narsa bo'lmagandek yashayverdi. Axir xalqparvarlik, vatanparvarlik va taraqqiyparvarlikda tengi yo'q. Amir Temurning siyosati va vasiyatini saqlash, Ulug'bekning dushmanlariga qarshi kurashish har bir fuqaroning muqaddas burchi ediku.

XVI asr boshlarida mamlakatga Muhammad Shayboniyxon bostirib kirganida, mustaqillik va taraqqiyotning ramzi bo'lmish Temuriylar hokimiyati xalq tomonidan yetarli darajada himoya qilinmadi. Natijada ne mashaqqatlar va katta talofatlar evaziga erishilgan taraqqiyot barbod bo'lib, ko'chmanchilar hukmronligi o'rnatildi. Shunisi achinarliki, jamoa ahli bosqinchilar va ularning tarafiga o'tgan kimsalar bilan ham murosqa qildi. Uning fojiali oqibatini ham ko'rdi. Zero, mamlakat dastavval ikkiga, so'ngra uch qismga parchalanib, taxt uchun kurashlar davom etaverdi. Hokimiyat tepasiga birin-ketin qobiliyatsiz xonlar kelib, maishat va huzur-halovat bilan shug'ullandilar. Shunda ham jamoa ahli og'ir sharoitga qarshi bosh ko'tarmadi. Natijada mamlakat inqiroz va qoloqlik girdobiga qolib, davlatning kuch-qudrati va salohiyati juda pasayib ketdi. Xalq bilan hukumat o'rtasidagi masofa ancha uzoqlashib, birdamlik va hamdardlik juda zaiflashdi.

Chor hukumati bunday qulay vaziyatdan foydalanib, o'lkani bosib oldi. Savdogarlar, din peshvolari va amaldorlarning ayrim vakillari ona yurtiga xoinlik qilib, dushmandan xizmatlarini ayamadilar, buning evaziga mukofotlar va imtiyozlarga ega bo'ldilar. Ammo xalq, ularning «jazosini xudo bersin», degan ruhda ish yuritib, tegishli choralarni ko'rmadi. Vaholanki, vatanfurushlar minglab odamlarning umriga zomin bo'lib, mustaqillik va ozodlikka

qattiq zarba bergan edilar. Ular chor hukumatining panohida gerdayib, hech narsadan tortinmay va jabr koʻrmay hayot kechirdilar. Toshkent shahrida xoin Abdurahmonbek general Chernyayev tarfiga qochib oʻtib, hozir Oʻrdadan oqadigan Anhor suvini boshidan, yaʼni Chirchiqdan toʻxtatishni maslahat berdi, shunda toshkentliklarni suvsizlikdan yengish mumkinligini dushmanga maʼlum qildi. General Chernyayev darhol Anhor suvini toʻxtatib, shaharni suvsiz qoldirdi. Bu tadbir Toshkentning bosib olinishini juda osonlashtirdi. General Chernyayev Abdurahmonbekning hurmatini oʻrniga qoʻyib, urush vaqtida shaharda buzilgan joylarni tuzatish vazifasini topshirdi. Bu ish uchun unga mablagʻ berildi. Shundan keyin Abdurahmonbek shaharda bemalol yuraverdi, lekin hech kim uni jazolashni oʻylamadi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida fuqarolarimizning maʼlum qismi «bosmachi»larni, Xiva xonligi va Buxoro amirligini tor-mor etishda qatnashib, vatan himoyachilarini oʻldirishda va boyliklarni talashda jonbozlik qildi. Bizlar esa, shu jumladan ushbu satrlar muallifi ham ularning qilmishlarini bila turib, ularni fuqarolar urushi qahramonlari va vatanparvarlar, deb maqtab yurganmiz. Shuningdek, qatagʻon yillarida qamalgan va otilgan shoirlar, yozuvchilar, olimlar va boshqa atoqli kishilarni «xalq dushmanlari», «Amerika va Germaniya aygʻoqchilari» deb qoralaganimizni kim bilmaydi, deysiz. Jamoa ahli qatagʻonlarga qarshi norozilik bildirishga jurʼat etolmadi. Bir guruh xoinlarning kuchi qayoqqa ham borardi? Ularga urgʻu berish shartmi, degan savol tugʻiliish mumkin.

Sirtidan qaraganda shunday tuyulsin ham, deylik. Aslida esa, bir guruh xoinlarning qilmishlari dahshatli oqibatlarini yuzaga keltirgan. Maʼlumki, chayon, qoraqurt yoki ilon oʻzidan bir necha ming marotaba katta va qudratli odamni chaqsa, oʻldiradi. Oddiy va ojiz ari kishining nozik tomiriga nishini sanchsa, halok qiladi. Shunga oʻxshash, xoinlar shunday zaharli kuchga egalarki, qudratli davlatlarning tagiga suv quyganlar. Bunga tarixda misollar oz emas. 1999 yilda Oʻzbekistondagi fevralʼ voqeasining oʻzini olaylik. Bu vaqtda bir guruh vatan xoinlari koʻp kishilarning halok boʻlishiga va jarohatlanishiga sababchi boʻldilar. Demak, ayrim tarixiy davrlarda

jamoah ahlining siyosiy faoliyatining susayishi va vatan xoinlari bilan murosa qilishi «milliy nuqsonlarning» siyosiy negizini gavdalantirdi.

## **Turmush chorrahalarida**

Milliy nuqsonlar turli urf-odatlar va marosimlarni o'tkazishda ham namoyon bo'lgan. Bu yerda, ular tarixan shakllangan milliy an'analarning tarkibiy qismi hisoblanib, inkor etish yoki qoralash mumkin emas, degan yondashuv ham bo'lishi ehtimol. Ammo ularning orasida «oshini oshab, yoshini yashab» bo'lganlari bor. Bundan tashqari, to'y va marosimlarni o'tkazishda dabdaba, manmanlik va isrofgarchiliklarga yo'l qo'yish ommaviy tus oldi. Bunday holatlarning tashabbuskori va ilhomchisi badavlat kishilar bo'lgan. Ularning xatti-harakatlarini aks sadosi oddiy kishilarni ham qamrab oldi. Zero, kundalik qozonini zo'rg'a qaynatib kelayotgan ota-onalar to'y va ma'rakalarni yuqori darajada o'tkazish orzusi bilan yashadilar. Ular bunga erishmoq uchun yebichish va kiyinishni tejash hisobiga mablag' to'plashga qattiq harakat qilganlar. Ayniqsa, qizlarni uzatishda ko'p qiyinchilik va azob-uqubatlar yuzaga kelgan. «Chaqaloqni beshikka, sepini sandiqqa sol» degan naql bejiz aytilmagan. Ota-onalar qiz tug'ilishi bilanoq sepini tayyorlash dardi bilan yashaganlar. Nikohdan keyingi challar, quda chaqiriq» beshik to'yi va yo'qlab turishlarning og'irligi asosan, qizning ota-onasi zimmasida edi. O'z navbatida, kuyov tomonga ham og'irlik tushgan«Uylanganga 40 yil yaqinlashma» naqli shundan kelib chiqqan. Chunki ko'p hollarda oddiy kishilar to'y va ma'rakalarni qarz hisobiga o'tkazganlar. Ayniqsa, muhtaram onalar qizlarining sepini tayyorlashga alohida e'tibor berib, mablag' to'plash niyatida o'zlarini «suvga ham, o'tga ham urgan»lar. Ikkinchi jahon urushi vaqtida, odamlar bir burda nonga zor bo'lib, butun mamlakat bo'yicha qahatchilik va ocharchilik hukm surgan o'ta og'ir sharoitga qaramay, mening onam rahmatli singlimga palak sotib olgandilar. Shunda otam, shuning o'rniga oziq-ovqatni olsang yaxshi bo'lardi, deganda onam, qizni palaksiz uzatish nomus, ochdan o'lishga roziman, lekin palakdan voz kechmayman, deb javob bergan edilar. To'g'ri, qizlarning sepini tayyorlash ota-

onaning burchi. Biroq marosimlarni «ko'rpaga qarab oyoq uzatmay» o'tkazish va qarzga botishning ommaviy tus olishi jamiyat taraqqiyotiga qattiq ziyon keltirdi. Ko'p yillar mobaynida «nina bilan quduq qazilgandek» topilgan mablag'lar farzandlarning salomatligi, savodi va bilimini ta'minlashga emas, ko'proq to'y va ma'rakalarga sarflandi. Shu tariqa azob-uqubatlar bilan qo'lga kiritilgan daromadlar ikki uch kunda sovurilgan. Qarzdorlar esa, mol-mulki va bir parcha yeridan mahrum bo'lganlar. To'y va boshqa marosimlarni o'tkazish musobaqaga aylanib, har bir oila bir-biridan o'zishga harakat qilgan. Jamoa ahlining to'y va turli marosimlar bilan o'ralashib, daromadning talay qismini ularga sarflashi savodsizlik va qoloqlik hukm surishiga olib keldi. Dabdabali marosimlarni o'tkazishga mablag'ni ayamagan manman degan katta boylarning ko'pchiligi, fan va madaniyatni rivojlantirishga kelganda, o'zlarini chetga tortdilar. O'sha boylarning orasida savodsiz kishilar ham bor edi.

Jamiyatni orqaga surayotgan dabdabali marosimlar o'ta zarar keltirayotganligi haqida birinchi bo'lib jadidlar tanqidiy maqolalar bilan chiqdilar. Masalan, Behbudiy «Bizni kemiruvchi illatlar» maqolasida bunday yozgan: «Bizni kemiruvchi illatlar deyilganda zaxmumarazni gumon qilishingiz mumkin? Yoyinki sil kasali yoki moxovlikni tushunarsiz? Yo'q, undan ham yomonroq xonavayron va qashshoqlashtiruvchi bir dard borki, u ham bo'lsa to'y va ma'rakalardir. Ular butun Turkiston shaharlari va qishloqlarini qamrab, bizlarni inqirozga, tahlikaga va jahannamga yo'naltirmoqda.

Qur'oni Karimda, - deb so'zini davom ettiradi Behbudiy, - o'z qo'llaringiz ila o'zingizni tahlikaga otmanglar, deyilgan. Biz bo'lsak xudoning amriga bo'yin egmay, to'y va boshqa marosimlarga bor-yo'g'imizni sarflamoqdamiz. O'n yigirma chaqirim uzoqlikdagi joyda to'y bo'lsa, har kim dehqonchiligi va boshqa ishlarini tashlab u yerga boradi. Dehqon uchun oltindan qimmat vaqt bekorga ketadi. Urug' bir kun kech sepilgani uchun ko'karmay yoki yetilmay qoladi. Bir kun kechikib yig'ilgan hosil barbod bo'ladi».

Ko'rinib turibdiki, Behbudiy katta ko'lamda o'tkazilgan marosimlarning g'oyat zararliligini to'g'ri bayon etgan. Uning ko'rsatishicha, u yoki bu odam to'yini «o'z qatoridagi kishilarning to'yidan ziyodroq» qilish uchun kurashgan. Buning orqasida

qulog'igacha qarzga botib, bor yo'g'idan ayrilgan kishilar ko'p bo'lgan. Bordiyu qarzdor vafot etsa, farzandlari uni to'lashga majbur bo'lganlar. Aks holda sud hukmi bilan mol-mulki tortib olingan.

Yana Behbudiya murojaat qilamiz: bechora kosibning maqsadi to'y o'tkazishdan iboratdir. U rohat yuzini ko'rmaydi. Bir kecha kunduzda 18-20 soat ishlaydirgan kosiblar bor. Ular tinimsiz mehnat qiladilarku, lekin yeyish va kiyinishdan o'zlarini sirib, topgan tugganlarini bir zumda, ya'ni to'y kunlarida sovuradilar. Katta to'y qilib uylanganlarning holiga yig'laysan, kishi. Uch kunlik to'yning tashvishi va azobi ayrim oilalarda o'n yil, hatto umr bo'yi davom etadi.

Qarz hisobiga uylanish shu darajada ko'payganki, «qarz uzilar, xotin yonga qolar», degan naql kelib chiqqan. Behbudiyning qarzdorlar qismati haqidagi so'zlari ham diqqatga sazovordir. Tabiiyki, qarz pullarini bermoq lozim. Bog'ni hamda uy jihozlarini sotishga to'g'ri keladi. Bechora kelin va kuyovning ko'rpa va yostiqlari ham sotiladi. Oila darbadar bo'ladi. «Bu nima? To'g'risi, bir nav devonalik emasmi? Subhanolloh, qarz olib xalqqa osh bermoq aqlsizlik emasmi? Illati bedavosidir. Har kishi bir uylansa va so'ngra oilasidan bir o'lik ko'msa, Allohi akbar, u xona ahli kosib (hunarmand) bo'lsa, u dunyoga o'ziga kelmasdan ketadi. ... Bir do'konchi, bir gulkor, bir kosib to'yi va ta'ziyalari o'limdan qattig'dirki, buning uchun bechora har kun o'lur, har kun o'lgani bilan qutulmas. O'zidan keyin bu yo'qsullik va bu musibat meros qo'yar. Xo'b, yaxshi, o'z molini to'y va ta'ziyaga isrof etsun, barbod etsun, ko'zi chiqsun. Hay banqa aqchasini, birov pulini nachun barbod etar<sup>63</sup>. Bu devonalikni u tarafi emasmi? Bu hol ila 20-30 yil o'tsa, yer va hovlilar ajnabiylarga o'tib, aksar xalqimiz gadoylik darajasiga yetadi. Ellik sana muqaddam yer sotilsa bir musulmon olardi, endi boshqalar olur. Mana, endi biz bu hol bilan yana yigirma-o'ttiz yil o'tkarsak, xalqimizni yarmidan ziyodasi vatansiz, yersiz darbadar bo'laturg'oni ma'lum va oshkordir».

Behbudiyning ma'lumotiga ko'ra, kambag'allar to'yga 200 so'mdan 1000 so'mgacha xarajat qilganlar. Bu o'z davriga nisbatan salmoqli mablag' hisoblangan. Sarmoyadorlar esa besh va o'n ming so'mlab sarflaganlar. Bu mablag'larni Turkiston bo'yicha yig'ilsa, ko'p maktablar va boshqa o'quv maskanlarini bimalol ochish

<sup>63</sup> Bu yerda bankdan qarzga olingan pul haqida so'z ketayotir.

mumkin edi. Jadidlar to‘y va marosimlarga mana shu nuqtai nazardan yondashib, daromadlarni Misr, Turkiya va Yevropa mamlakatlariga yoshlarni yuborib, o‘qitishga sarflashga chaqirganlar. Yosh avlodning savodini chiqarib va bilimni oshirib, texnika bo‘yicha mutaxassisliklarni, bank va boshqa idoralarning xizmatchilarini, tijoratchilarni tayyorlash zarurligini ko‘rsatdilar. Bu haqda Behbudiy shunday deydi: «Boshqa millatlarning boylari kambag‘allar uchun maktab va universitetlar ochib, talabalarga maosh beradilar. Ular bu ishlari bilan faxrlanib yuradilar. Bizda o‘z o‘g‘illarini o‘qitmaydigan boylar bor. Butun Turkiston bo‘yicha o‘nta boy bir yilda ming so‘mdan bersa, 25 ta bola uchun Toshkentda «diniy va zamonaviy» pansionat ochish mumkin. O‘n yilda ularda 200 muhandis, shifokor, huquqshunos, muallim va texnikni tayyorlash mumkin. «Millatimiz boylardan shuni ko‘z tutar, xaloyiqni barbod etuvchi to‘yni emas. Oh, bu so‘zlarni tushunaturg‘on boylar bizda yetushganmi?».

Jadidlar to‘y va marosimlarni yo‘q qilish tarafdorlari bo‘lmaganlar. Ular to‘y va ma‘rakalarni musobaqaga aylantirmay va mablag‘larni behudaga sochmay o‘tkazishga da‘vat etganlar. Har bir kishi marosimlarni baholi qudrat o‘tkazib, qarzdorlik kishaniga ilinmasligini targ‘ibot qilganlar. Ishlab topilgan mablag‘ni birinchi navbatda jamiyat taraqqiyotiga sarflash lozimligini uqdirib o‘tganlar.

## **Madaniy hayotda**

Chet el bosqinchilari hukmronligi davrida arab, fors va so‘ngra rus tiliga zo‘ravonlik bilan davlat maqomi berildi. Natijada, o‘zbek tili ularning soyasida qolib, keng ko‘lamda rivojlana olmadi. Ziyolilar o‘sha xorijiy tillarni egallab, ular vositasida qo‘p asarlar yozdilar. Chet tillarni bilish foydali va sharafli ish, lekin ona tilida ijod qilinmasligi milliy fan va madaniyatning rivojlanishi yo‘lida to‘siq bo‘ldi. Ayni paytda xalq ommasining xorijiy tillarni bilmasligi ilm-fan yutuqlaridan bebahra qolishiga olib keldi.

Mashhur olimu fozillarning ona yurtidan bosh olib, xorijiy mamlakatlarga chiqib ketishlari ham fan va madaniyatning o‘shishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn

Sino va boshqa o'nlab taniqli olimlar xorijiy mamlakatlarda yashadilar va o'sha yerlarda vafot etdilar. Taassufki, ularning qabrlari ona yurtida emas, balki o'zga mamlakatlardadir.

Atoqli ziyoli vakillarining o'z vatanidan bosh olib chiqib ketishlariga ijodiy ish uchun yetarli sharoitning yo'qligi hamda ularning qadr-qimmati o'rniga qo'yilmaganligi sabab bo'lgan, albatta. Ular, ehtimol, «qornimga emas, qadrimga yig'layman», deyishgan bo'lsa kerak. Hatto, u yoki bu hukmdorning mashhur olimlarni quvg'in qilganligi va qatl etganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, Imom Buxoriy vatanini sog'inib qaytganida Buxoro hokimi arzimas bahona topib, uni shahardan chiqarib yuborish haqida farmon beradi. Dili ozor chekkan Imom Buxoriy Samarqand yo'lida dardga chalinib, hayotdan ko'z yumadi. Ulug'bekning taqdiri ham fojiali kechgan. U xorijga bosh olib ketayotganida o'g'li tomonidan o'ldirildi, ilmiy merosi esa oyoq osti qilindi. Ish shu darajaga borib yetdiki, Ulug'bek rasadxonasining qayerdaligi yuz yillar mobaynida noma'lum qolib keldi. Bu ilmiy koshona jamoa ahli ko'z o'ngida «g'oyib» bo'lgan edi.

Ayniqsa, XVI-XIX asrlarda, ya'ni xonliklar davrida fan va madaniyat chuqur inqirozni boshidan kechirdi. Dunyoviy fanlar e'tibordan chetda qolib, olimu fozillarning qadr-qimmati o'rniga qo'yilmadi. Jahon tan olgan olimlarning xotirasini abadiylashtirish borasida hech qanday tadbir ko'rilmadi. Shunisi achinarliki, xonliklar davrida birorta maktab qurilmay, bolalar, asosan, masjid va boshqa duch kelgan joylarda o'qitildi. Hech kimga sir emaski, Amir Temur va uning vorislari tomonidan olamshumul ahamiyatga molik hashamatli va osmono'par binolar, ajoyib bog'lar va bozorlar, obod va keng ko'chalar bunyod etilgan edi. Ularning barchasi xonliklar davrida xarobaga aylanib bordi. Akademik Yahyo G'ulomov bilan bu masala xususida suhbatlashganimda, tarixiy obidalarning g'ishtlari hukumat vakillari va oddiy kishilar tomonidan ham talangani haqida kuyinib gapirgan edi. Qizil imperiya davrida tarixiy obidalarga vahshiylarcha munosabatda bo'linib, ularni buzish va talash avjiga mindi. Diniy va ilmiy asarlar yondirildi. Ularning orasida Qur'oni Karim ham bor edi. Masjidlar buzildi yoki turar joylarga, ombor va otxonalarga aylantirildi.

Yuqorida sharhlangan fojialarning barchasi mamlakat ahlining ko'z o'ngida sodir bo'lgan. Ammo, u «och qornim, tinch qulog'im»

qabilida ish tutib, adolatsizlikka qarshi bosh ko'tarmadi. Jahon tan olgan olimlarni asramadi ham, yodlamadi ham. Jamoa ahlining umummillat manfaatlariga zarba beruvchi omillarga beparvolik bilan qaraganligi milliy nuqsonlarning biri sifatida gavdalandi.

**Birinchi**dan, milliy nuqsonlar deyilganda biz, ikki xil ma'noni nazarda tutdik. Biri — umummillat manfaatlariga zarba beruvchi hodisalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi, jamoa ahlining ularga qarshi kurashmay, tomoshabin bo'lib turganligini anglatadi. Masalaga bu tarzda yondashilishiga qarshi chiquvchi kishilar bo'lishi mumkin. Chunki biz tariximizni o'rganishda jamoa ahli faoliyatini tanqidiy ta'riflashga odatlanmaganmiz. Vaholanki, u hamma vaqt o'zining kuch-qudratini namoyish etmay, siyosatdan va madaniy hayotdan chetda turgan vaqtlar ham ko'zga tashlangan. Xalq ommasining kuch-qudrati va kurashini mohirlik bilan boshqaradigan rahbarlar ko'p bo'lmagan. Natijada, xalq ommasi tom ma'nodagi sardorga ega bo'lmay, o'z holiga tashlab qo'yilgan. Bunday holat, ayniqsa, xonliklar davrida yaqqol ko'rindi. Bu vaqtlarda hokimiyat bilan xalq o'rtasidagi aloqalar zaiflashdi. Har jihatdan toliqqan, ezilgan va ko'ngli sovigan xalq xonlarni o'z holiga tashlab qo'yib, ro'y berayotgan achinarli holatlarga beparvolik bilan qaradi. O'z navbatida, xonlarning ko'pchiligi shaxsiy manfaati va huzur-halovati bilan o'ralashib va xalqdan uzoqlashib, bu bilan davlatning negizini yemirib bordi. Bundan foydalangan chor hukumati o'lkani bosib oldi. Chorizm va sovet davrida milliy davlatning tugatilishi oqibatida xalq bilan mustamlakachi hukumat o'rtasida aloqa uzoqlashdi. Bosqinchilar xalqning siyosiy ongi va faoliyatiga zarba berib, qul kabi ishlatdi. Qattiq nazorat va ta'qib o'rnatilib, qirg'in-barotlar, qamashlar va surgun qilishlar avjiga mindi. Mana shunday fojialar jarayonida o'lkaning bosib olinishidan boshlab, imperiya ag'darilgunga qadar o'tgan vaqt ichida vatanga xoinlik qilib, dushmanga qo'shilgan kimsalar oz emas edi. Afsuslar bo'lsinki, jamoa ahli ko'p asrlar mobaynida vatan xoinlariga nisbatan murosasizlik yo'lidan borib, qasos olmadi. Bu yerda shoir Alisher Navoiyning «kechirilgan dushman do'st bo'lmas», degan dono so'zini keltirish joizdir. Shu bois o'sha zamonlarda, xoinlarning «jazosini xudoning o'zi beradi», deb murosasizlik qilish nodonlik edi.



Shunday qilib, milliy nuqsonlar, birinchidan ayrim davrlarda jamoa ahlining siyosatga aralashmay qolishi va vatan xoinlariga nisbatan murossozlik yoʻlini tutishida oʻz ifodasini topdi.

**Ikkinchidan**, asrlar mobaynida oʻtkazib kelinayotgan toʻy va boshqa xilma-xil marosimlarda ham milliy nuqsonlar yaqqol namoyon boʻldi. Ular yoshlarning sogʻligʻi, bilimi va faoliyatiga salbiy taʼsir qilib, jamiyat taraqqiyotiga putur yetkazdi. Afsuski, ular bizning zamonamizda xam davom etmoqda. Isrofgarchilik va manmanlik avjiga mindi. Hatto, oʻtmish zamonlarda boʻlmagan va katta xarajatlarni talab qiladigan yangicha urf-odatlar yuzaga keldi. Bir misolni keltiraman. Nikoh kuni kelin kiyadigan «imperator Yekaterina koʻylagi» uchun 100-150 dollar ijara puli toʻlanmoqda. Bunga oʻxshash kishining terisigacha shilib oladigan xarajatlar oz emas. Axir bular dahshatku! Milliy nikoh koʻylagi haqida koʻp gapirilmoqda, lekin amalga oshirilmayotir. Toʻy va marosimlarga hech kim qarshi emas. Gap bu tadbirlarni oʻtkazib, isrofgarchilik, dabdabavozlik va manmanlikka yoʻl qoʻymaslikda. Toʻy va marosimlarni qarz hisobiga oʻtkazishga yoʻl bermay, ularni imkon boricha ixchamlashtirish zarur.

Aytish lozimki, marosimlarda vaqtni mutlaqo oʻrinsiz sarflash ommaviy tus oldi. Nahorgi osh tong otar-otmas, soat toʻrt yarim - beshlarda suziladi. Unda qatnashish uchun kechasi soat uch-toʻrtlarda uyqudan turishga toʻgʻri keladi. Hatto, aqiqa marosimlarini tongi soat oltida oʻtkazish odat tusiga aylandi. Nahorgi oshni juda erta suzishdan maqsad, namozxonlarning masjididan kelishiga toʻgʻrilashdan iborat emish. Bilamizki, oʻrta hisobda yigirma va yigirma besh kishidan iborat namoz oʻqiydiganlarning koʻpchiligi mehnat faxriylari, keksalar boʻlib, ular kunduzi bermalol uxlab, hordiq chiqarish imkoniga egadirlar. Shunday boʻlgach, nima uchun ishga boradigan yuzlab kishilar ozchilikning koʻnglini olishi va sarson boʻlishi kerak?

Marhumni tong soat toʻrt yarimda masjidga janozaga olib borish ham odat tusiga kirmoqda. Hech kimga sir emaski, nahorgi osh va janozaga juda erta borish kundalik rejimni buzib, inson salomatligiga ziyon qiladi. Menimcha, nahorgi oshni ertalab soat yetti-sakkizlarda suzish maqsadga muvofiqdir.



# MUQADDAS VATAN

*Tassavvur qilingki, ota yurtimiz Turkiston katta bir uy, buyuk bir ro'zg'or, buyuk oila. Bu oila farzandlari qanchalik yaqin va ahil bo'lsa, ro'zg'or ham shunchalik obod va to'kin bo'ladi. Bundan chiqadigan xulosa: Markaziy Osiyo mintaqasida ham iqtisodiy, ham ma'naviy, ham siyosiy jihatdan yagona muhit tashkil qilish — shu kunning dolzarb masalasidir.*

*Islom Karimov*

Aslida Turkiston yaxlit, bir tanu bir jon mamlakat sifatida yaratilgan. Binobarin, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar va qozoqlarning nasl nasabi, o'tmishi, kelajagi ham bir va umumiydir. Shunday bo'lgach, Turkiston bu yerda kindik qoni to'kilgan xalqlar uchun umumiy uy bo'lishi tabiiy. Umumiy Vatan g'oyasi esa miloddan avvalgi asrlardayoq yuzaga kelib, ajdodlarimizga kuch qudrat bag'ishlab, yagona iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tizim asosida shakllangan edi.

## **Yagona iqtisodiy makon**

Turkiston zaminida inson hayoti va yagona tizim uchun nimaiki zarur bo'lsa, bari bor. Binobarin, uning «jannatmakon o'lka»,

deyilishi bejiz emas. Zero, uning yer osti boyliklari va tabiiy sharoiti shu darajada nodir, mukammalki, bunaqasi dunyoning ko'p mamlakatlarida uchramaydi. «Uning taraflari,— deb yozgan edi o'rtasr olimi Hofiz Tanish Buxoriy,— nozu ne'mat xususida mamlakatlarning eng obodidir. U ochiqlik jihatidan eng kattadir. Undagi xoh shahar bo'lsin, xoh qishloq bo'lsin, xoh tekislik bo'lsin, xoh o'tloq bo'lsin, obodonchilikda unga teng mamlakat yo'q. Havosi havolarning eng sog'lomi, suvi suvlarning eng shirini va eng yengili; suvi barcha tog' va atroflarda barobar shirindir. Uning tuprog'i — tuproqlarning eng xushbo'yi. Katta shaharlari: Buxoro, Samarqand, Xo'jand bo'lib, xalq dindor, ilmi, taqvodor, juvonmard va shijoatlidir.

Movarounnahrning ko'rki — to'rt tomonida joylashgan to'rt shahardir.

Ularning har biri ko'rkli jannatdan ham yaxshiroqdir.

Birinchisi — ilmu fazl manbai bo'lgan Buxoro.

Uning tuprog'i Rum va Chin mamlakatlariga faxrdir.

Ikkinchisi — saltanat o'rni hazrat Samarqand,

Shon-sharafda boshqa shaharlarga uzukdek, tojda esa ko'zdekdir.

Ulardan so'ng avliyo va sahobalar makoni Termiz,

Jahondagi oqar suvlar g'ayr qiladigan daryo labidadir.

To'rtinchisi ishrat joyi, poklik mavzei,

Sufiyalar makoni Xo'jand».

Mazkur shaharlar yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan. Toshkent va Farg'ona vohalari ham hisobga olinsa, Turkiston haqiqatan ham Alloh taoloning mehri yoqqan ajoyib o'lka. Bu qadimiy va hamisha navqiron Vatan o'zining nodir ma'danlari, nozu ne'matlari bilan ham mashhur. Chunonchi, bu yerda oltin, kumush, temir, mis va boshqa tog' jinslari bor. V asrda dunyoning talay qismida odamlar hali yovvoyi holda yashayotgan vaqtda qadimgi ajdodlarimiz oltin va misdan turli buyumlar ishlaganlar. Keyinchalik temirchilik, Marv, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda ma'danchilik rivojlangan. Hatto, temir va undan tayyorlangan mahsulotlar xorijiy mamlakatlarga, shu jumladan, Rumba olib ketilgan. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida oltin, kumush, mis, neft, qimmatli toshlar ko'p ishlatilgan.

To'qimachilik o'lkaning ko'p shaharlarida va qishloqlarida taraqqiy

etgan edi. Bu holat uning xom ashyosi bo'lmish paxta va ipak ko'p miqdorda yetishtirilganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, hunarmandchilikning rivoji ichki va tashqi savdoni yuqori darajaga ko'tardi. Turkiston zamini Eron, Hindiston, Xitoy, Arabiston, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo olib bordi. Chetga asosan tayyor mahsulotlarning olib ketilishi ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yuqorida sharhlangan yutuqlar yagona umumiy tizim tufayligina qo'lga kiritilgan edi. Xullas, qadimgi va o'rta asrlarda yer usti va yer osti boyliklarining mo'l-ko'lligi umumiy uyimiz—Turkistonning tarkibiy qismi bo'lmish yagona iqtisodiy tizimning shakllanishini taqozo etgan edi.

## **Yagona siyosiy va ma'naviy tizim**

Turkistonning iqtisodiy salohiyatiga monand ravishda qudratli davlatlar tashkil topgan. Aql-idrokli va bilimdon hukmdorlar mintaqani bir davlatga birlashtirilgandagina yuksak taraqqiyotga erishish mumkinligini yaxshi anglaganlar. Chunonchi, miloddan avvalgi asrlarda yuzaga kelgan Katta Xorazm davlati mintaqada yakka-hokimlikni o'rnatibgina qolmay, Qora dengizgacha yerlarni egalladi. Keyingi davrlarda tashkil topgan Qanqa davlati ham mintaqa yaxlitligini saqlashga muayassar bo'lgan. Bunday holat kushoniylar (I—IV asrlar), eftaliylar (V—VI asrlar) va turk hoqonligi hukm surgan davrlarda ham davom etdi.

Eftaliylar Markaziy Osiyoni, Sharqiy Eronni va Hindistonni birlashtirib, yagona siyosiy tizimni vujudga keltirdilar. Bu vaqtda Turkistonda rangli oyna ishlab chiqarish kashf etilgan. Hatto, Xitoyda turkistonliklar yordami bilan bu oynani tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Yagona iqtisodiy va siyosiy tizim samaradorligining yuqori bosqichga ko'tarilishi turk xoqonligining (VI—VII asrlar) kuch-qudratini oshirib yubordi. Tinch okeanidan Qora dengizgacha ulkan hududni o'z ta'sir doirasiga olgan xoqonlik yirik davlatlar bo'lmish Eron, Xitoy, Rumga xavf tug'dirdi. Xitoy har yili yuz ming to'p ipak gazlamasini turk hoqonligiga soliq sifatida yuborib turgan vaqtlar bo'lgan. Buyuk ipak yo'li ham xoqonlik nazorati ostidabo'lgan.

Yagona iqtisodiy va siyosiy tizim Somoniylar (X asr), Qoraxoniylar va xorazmshohlar (XI—XII asr boshlari) hukm

surgan davrlarda ham yaqqol ko‘rindi. Mazkur uch yuz yildan ortiq davrda mintaqa siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan yuqori darajaga ko‘tarildi. Dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlanib, jahon davrasida mintaqaning mavqei ko‘tarildi. Jumladan, Xorazmda Ma‘mun akademiyasining ochilishi, ko‘plab madrasalar, masjidlar va boshqa hashamatli imoratlarning qurilishi alohida ahamiyatga molikdir. Ammo «har to‘kiska bir ayb» deganlaridek, qudratli imperiyalar, xususan xorazmshohlar davlati o‘zaro kelishmovchiliklar, qonli urushlar orqasida mo‘g‘ullar tomonidan tor-mor etildi. Mo‘g‘ul bosqinchlarining yuz ellik yillik hukmronlik davrida siyosiy va ijtimoiy hayot juda og‘irlashdi.

Nihoyat, 1370 yilda Amir Temur xalq ommasiga tayangan holda mamlakat mustaqilligini tikladi. U parokandalikni bartaraf qilishni, yagona siyosiy-iqtisodiy va ma‘naviy tizimni bunyod etishni asosiy maqsad, deb bildi. Chunki XIII asrning 50—60 yillarida Turkistonda mo‘g‘ul sultonlarining taxt uchun kurashlari avj olib, xalqning ahvoli yomonlashdi. Hatto, ayrim sultonlar islom dinini ta‘qib qilishgacha bordilar. Shuningdek, Sohibqiron Turkistonda va qaram mamlakatlarda savdogarlarni va karvonboshilarni tayyorlab, Hindiston, Xitoy, Turkiya va Yevropa mamlakatlari bilan savdoni rag‘batlantirdi. Sohibqironning yagona iqtisodiy tizim xususidagi siyosati ko‘p o‘tmay o‘z samarasini berib, yaqindagina xarob o‘lkada mo‘l-ko‘lchilik, arzonchilik ko‘zga tashlandi.

Iqtisodiyot bilan yonma-yon yagona ma‘naviy tizim ham shakllanib, rivojlanib boraverdi. Bu, avvalo, adabiyot, tarix, maorif va san‘at sohalarida o‘z ifodasini topdi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Farg‘ona vodiysidagi maktab, madrasalarda turli xalqlarning vakillari ta‘lim-tarbiya oldilar. Barcha xalqlar uchun yagona alifbo va darslik ishlatildi. Shu tariqa «umumiy uy» va «umumiy vatan» tushunchalari kishilarning qon-qoniga singib ketgan edi.

Umumiy xulosa shuki, o‘tmishda yagona siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy tizim jamiyat taraqqiyotining yo‘naltiruvchi kuchi sifatida mintaqadagi turli xalqlarni katta oilaga birlashtirishga, do‘stlik, hamkorlikni ta‘minlashga olib kelib, «Turkiston — umumiy uyimiz» g‘oyasini kishilar ongiga singdirdi. Bu g‘oya, o‘z navbatida, mustaqillik va ozodlik uchun olib borilgan qahramonona

kurashlarning tayanchi edi. Buni yaxshi anglagan chor hukumati milliy davlatni yo‘q qildi. U o‘lkani Rossiyaning xom ashyo manbai, tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirdi. Bu siyosat sovet davrida avjiga chiqib, mintaqa besh qismga — respublikalarga parchalandi. Xususiy mulkchilik, din, erkin ishbilarmonlik va savdo-sotiqning taqiqlanishi tom ma’nodagi yagona milliy tizimning mohiyati, yo‘nalishini o‘zgartirib yubordi. Zero, u mustamlakachilik va milliy zulm xususiyatlarini o‘ziga mujassamlashtirgan edi. Mustamlakachilar «Turkiston — umumiy uyimiz» g‘oyasini ildizi bilan qo‘porishdan, milliy nizolarni kuchaytirishdan toymadilar. Ammo yetmish yildan ortiq hukm surgan siyosat pirovardida ko‘z o‘ngimizda halokatga uchradi.

Shu kunlarda Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan tarixan shakllangan «Turkiston — umumiy uyimiz» g‘oyasiga jon kirgizildi. Bu borada O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida yagona iqtisodiy muhit haqida tuzilgan bitim dastlabki qadam bo‘lgan edi. Hozir yagona tizimni mintaqaning barcha mamlakatlarida amalga oshirish shu kunning talabiga aylandi. Uni barcha kishilar qo‘llab-quvvatlamog‘da. Shunday bo‘lgandan keyin mintaqa olimlari va mutaxassislari birgalikda yagona iktisodiy va ma’naviy tizimning mohiyati va yo‘nalishini belgilovchi masalalar bo‘yicha ishni boshlab yuborishlari lozim. Menimcha, butun masalalarni va o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy kengash tuzish maqsadga muvofiq bo‘lardi. O‘lkadagi yer osti va yer usti boyliklari shu darajada yetarliki, respublikalar ehtiyojini bemalol qondira oladi.

Shuningdek, «Buyuk Turkiston» nomidagi mintaqa doirasida maxsus gazeta va jurnal nashr etilishi maqsadga muvofiqdir. Adabiy, tarixiy va boshqa sohalar bo‘yicha asarlar yaratishga kirishish foydadan holi bo‘lmaydi. Umuman, «Turkiston — umumiy uyimiz» g‘oyasi nuqtai nazaridan fan va madaniyatning barcha tarmoqlari bo‘yicha ishlarni boshlash vaqti keldi. Ishonchim komilki, tarix sinovidan o‘tgan «Turkiston — umumiy uyimiz» g‘oyasi vaqti bilan kuch-quvvatga to‘lib, tantana qilaveradi.



# SOVET DAVRIDA QULDORLIK DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Shu kunlarda O'zbekiston zaminida hayot kechirayotgan avlod baxtlilarning baxtlisidir. Chunki, ular mustamlakachilik siyosati va milliy zulm iskanjasidan xalos bo'lib, hayot gashtini surmoqdalar. Bunday baxt-saodat shu darajada qimmatliki, unga tenglashadiganini topib bo'lmaydi. Hatto jahondagi barcha boyliklar tarozining bir pallasiga solinsa, ikkinchi palladagi ozodlikning ahamiyati va salohiyati bosib ketar ekan. Bu xususda bir hikoyani keltirishni o'rinli, deb hisoblayman. O'tmish zamonlarda bir donishmand kishi madrasa talabalariga savol beribdi: "Aytinglar-chi, bu dunyodagi eng ulug' va azizlik nimada o'z ifodasini topadi?" Talabalar bahslashganlaridan keyin, ota-ona, farzandlar, salomatlik eng oliy maqomga sazovordir, deb javob berishibdi. Ayrim kishilar bunga qarshi o'laroq, ulug'larning ulug'i insondir, agar bu tabarruk zot yaratilmaganida butun olam bamisoli do'zaxga o'xshab qolardi, deyishibdi. Zero, inson tufayli yeru osmon yashnadi, o'simlik va hayvonot dunyosi o'z egasini topdi. Donishmand so'z olib debdi: "Farzandlarim! Sizlarning insonning buyuk xizmatlari haqidagi fikrlaringizga to'la qo'shilaman. Ammo, qachonki inson zoti ozod holda ona yurtiga egalik qilib hayot kechirsa, qadr-qimmati va ulug'ligi saqlanadi. Bordi-yu, bosqinchilar panjasida qul kabi hayot kechirsalar, "gapiruvchi ish hayvonlariga" aylanadilar. Chunki, qullar haq-huquq, o'z-o'zini anglash, g'ururlanish, faxrlanish va boshqa insonga xos

fazilatlaridan mahrum etilgan bo'ldi. Ular ma'naviy va moddiy jihatdan qashshoqlashtiriladi. Ko'rinib turibdiki, - deb so'zini davom ettiribdi donishmand, - faqat mustaqillik va ozodlik tom ma'nodagi insonni shakllantirib, uni oliy zot sifatida ko'klarga ko'taradi, yashnatadi va ulug'laydi. Demak, ozodlik va erkinlik eng ulug' va aziz ne'matdir".

Donishmandning bu dono so'zlari tarix sinovidan o'tgan haqiqatdir. Chunonchi, o'zbek xalqi o'tmish zamonlarda ozodlikni hayotning ramzi sifatida qadrlab Ahmoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, Arab xalifaligi va Chingizxon singari bosqinchilarning tajovuzi va hukmronliklariga qarshi qahramonona jang qildi. Uning qoni janglarda bamisoli daryo kabi oqdi, shahar va qishloqlar dushmanlar tomonidan vayron etildi. Biroq ozodlik g'oyalari so'nmay, vaqti kelganida o'z kuch-qudratini qayta namoyish etaverdi. Masalan, bu holat chor hukumati va sovet davlatiga qarshi kurashlarda yaqqol ko'zga tashlandi.

Nihoyat, 1991 yil 31 avgustda Respublika Mustaqil, deb e'lon qilindi. Bu tarixiy voqea buyuk davlat arbobi Prezident Islom Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligida sodir bo'ldi. Bu tabarruk zotning ismi hozirgi mustaqil o'zbek davlatining asoschisi sifatida tarix sahifalariga bitildi. Mustaqillik yillari Respublikada buyuk o'zgarishlar sodir bo'layotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Hozirda O'zbekiston jahon xaritasiga bitilib, uni bilmagan va siylamagan mamlakat qolmadi. Bunday ozodlikning naqadar qimmatli va ulug'ligini hamda olamshumul ahamiyatga molikligini anglash uchun uni 130 yillik mustamlakachilik tuzumiga solishtirish va farqini bilish siyosiy va ilmiy ahamiyatga egadir.

Xo'sh, sovet davrida qanday tuzum hukm surgan edi?

Bu savolga quldorlik tuzumi bo'lgan edi, deb javob berishga barcha asoslar bor. Uning iqtisodiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tomonlari quyidagilardan iborat.

**Birinchi**dan, siyosiy jihatdan olganda O'zbekistonda milliy davlat, milliy qo'shin va milliy boshqaruv tizimi tashkil etilmadi. Ularning o'miga mustamlakachilik siyosati va milliy zulmni ta'minlovchi totalitar tuzum o'matilib, O'zbekiston amalda Rossiyaning tarkibiy qismiga aylantirildi. To'g'ri, Respublika maqomi berilib, parlament, konstitutsiya, bayroq, madhiya va gerb joriy etildi. Ammo, ularning hammasi "xo'ja ko'rsinga" qilingan bo'lib, nayrangbozlikdan boshqa narsa emas edi. Chunki Respublika va uning xalqiga siyosiy va insoniy huquqlar berilmay, qattiq



nazorat va ta'qib hukm surdi. Garchand, rahbarlik lavozimlariga o'zbeklar ham qo'yilgan bo'lsa-da, lekin ular markazning o'ta itoatkor xizmatkorlari edi, xolos. Ularning zimmasiga kommunistik g'oyalarning samaradorligini ta'minlash, turli-tuman boylik va daromadlarni ikki qo'llab markaz xazinasiga topshirish yuklatilgan. Shuni unutmashlik kerakki, birinchi navbatda O'zbekiston rahbarlari "zanjirband hukmdorlar" bo'lgan edilar. Bu holat qulchilikning eng muhim belgilaridan biridir.

Qulchilik siyosiy qatag'onlarda o'z ifodasini topdi. Avvalambor, xalqning bu adolatsiz qatag'onlarga qarshi ommaviy ravishda bosh ko'tarmay katta-kichik majlislarda uni quvvatlashi va partiyaga minnatdorchilikni izhor etishining o'zi ham qul tabiatlikni ko'rsatadi. Bunday yig'inlar maktablarda ham o'tkazilib o'qituvchilar va pionerlarning: "Xalq dushmanlariga o'lim!", "Yashasin jona-jon partiyamiz", degan so'zlari hamon esimda turibdi. Mana shunday yig'inlarning birida maktabimiz direktori: "Partiya dushmanlarini qirib tashlaymiz, bizning talabimiz shu", deb rosa baqirib-chaqirgan edi. Chamasi, ikki hafta o'tganidan keyin direktorning o'zi "xalq dushmani" ekan, siri ochilib, qamalib qolibdi, degan so'zlar tarqaldi.

Qulchilikning eng dahshatlisi va fojealisi, qatag'on vositasida millionlab kishilarning iqlim sharoitlari nihoyatda og'ir joylarda majburiy suratda ishlatilishida ham ko'zga tashlanadi. Mahbuslarning mazkur joylardagi lagerlarda qul kabi ishlatilishi mehnati o'zining yuksak darajasiga ko'tarildi.

Masalan, jami 15 xalq va 40 kichik millat vakillari turar joylaridan ko'chirilib sharoiti og'ir yerlarga majburan jo'natildi. 1935 yilda hali to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra Leningrad atrofidan 30 ming finlar, keyingi yilda Ukrainadan 49 ming polyaklar va 15.000 nemislar, 1937 yilda Dalniy Vostokdan 173 ming koreyslar, ikkinchi jahon urushidan keyin 139,6 ming polyaklar, 23,6 ming yahudiylar, 85,7 ming ukrainlar, 85,7 ming litviyaliklar, latish va estonliklar, 800 ming nemislar vahshiylarcha ko'chirildi. 1943-1944 yillarda 93 ming qalmoqlar, 69 ming korachevlar, 37 ming bolg'arlar, 500 ming chechen va ingushlar, 191 ming qrim tatarlari, 42 ming grek, bulg'ar, arman, turk mesxati, eronliklar, Boltiq G'arbiy bo'yi va G'arbiy Ukrainadan 120 ming odamlar surgun qilindi. Yuz minglab o'zbek, tojik va boshqa tub aholi vakillari yeri va

mol-mulkidan mahrum qilinib, quloq qilindi. Jami 4 million atrofida odamlar surgun qilindi. Lekin xalq bu dahshatli siyosatga, qarshi bosh ko'tarmay katta-kichik majlislarda uni quvvatlashi va partiyaga minnatdorchilikni izhor etishning o'zi ham qul tabiatlikni ko'rsatadi.

Shuni hisobga olish kerakki, quldorlik tuzumi ommaviy ravishda qatag'on va surgunlarni uyushtirish imkonini tug'dirdi. Boshqa tuzum sharoitida ularni tashkil etish amri mahol edi. Kommunistik partiyaning ulug'millatchilik siyosatining amalga oshirilishi ham quldorlik tuzumini bunyod etilishini taqozo etgan edi. O'zbek tilining kamsitilishi va unga davlat maqomi berilmasligi, rus tilini ikkinchi ona tili deb baholanishi qulchilikni yanada mustahkamladi.

Xullas, yuqorida sharhlangan omillar quldorlik tuzumining siyosiy asosini tashkil etgan edi.

**Ikkinchidan**, ma'lumki, sovet davrida ming yillar mobaynida hukm surib kelayotgan iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirish vazifasi qo'yildi. Bunga binoan xususiy mulkchilik, erkin bozor va savdo-sotiq, erkin ishbiarmonlik va ishlab chiqarish taqiqlandi. Xalqning qo'lidagi yersuv, boylik, savdo shoxobchalari, sanoat korxonalari, qo'yingchi, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz borliq sovet davlatining mulkiga aylantirildi.

Shu ravishda, sovet hukumati bir necha ming yillar mobaynida inson kashf etgan va rivojlantirgan xususiy mulkchilik va erkin bozorni qo'porib tashladi. Vaholanki, xususiy mulkchilik insonni yovvoyilikdan holi etib, oila, davlat va taraqqiyotga asos solgan muhim omil hisoblangan. U tufayli hayvondan farq etuvchi inson degan ulug' zot shakllangan.

Xususiy mulksiz jamiyatning yaratilishi darhol misli ko'rilmagan fojialarni yuzaga keltirdi. Chunonchi, butun mamlakat bo'ylab ocharchilik, qahatchilik va ommaviy kasalliklar yuzaga kelib, millionlab kishilarning yostig'i quridi. Bundan tashqari, xususiy mulkka qarshi kurashlar jarayonida minglab kishilar o'ldirildi, hibsga olindi va surgun qilindi.

Xususiy mulksizlik ko'p odamlarning ko'zini och va tashmachi qilib qo'ydi. Masalan, non zavodida ishlovchi nonni, un zavodida ishlovchi unni, tikuvchilik korxonasidagilar kiyim-kechakni, go'sht kombinatidagilar go'shtni, qo'yingchi, har bir korxonada va tashkilotda ishlovchilar oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni bекitib olib chiqishga majbur bo'lganlar. Bunday kishilar rasmiy suratda "tashmachi" deb nomlanganlar davlat mulkini talashi ommaviy

tus olib ketganligi uchun militsiya xodimlari reytda o'tkazib turganlar. Ular ishchi-xizmatchilarni korxonadan chiqayotganda tintuv o'tkazib, mollarni olib qolar edilar. Bunday mollar hajmi million so'mlarni tashkil etib, tegishli ma'lumotlar matbuotda e'lon etilib turilgan. Kolxoz va sovxozlarda ham tashmachilik keng quloch yoyganligini bilamiz. Tashmachilik va yulg'ichlik haqida gapirishdan maqsad shuki, ular ham qul tabiatlikning tarkibiy qismi bo'lmish boqimandalik kayfiyatidagi kishilar tomonidan qilinadigan ish edi. Tashmachilik, yulg'ichlik, va umuman, davlat mulkini talon-toroj qilmaslikning hech iloji yo'q edi. Negaki, bor-yo'g'idan ayrilgan xalqning davlat tomonidan belgilangan oziq-ovqatdagi maoshdan tashqari daromad manbai yo'q edi. Chunki yuqorida ko'rsatilganidek, tabiat olamdagi barcha borliq va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yagona egasi davlat hisoblanib, daromadlar uning xazinasiga daryo kabi oqib borar edi.

**“Hamamizga ma'lumki, - deydi Prezidentimiz Islom Karimov, - biz so'nggi 70 yil mobaynida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik. Mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab keldik. Qaysi masalani olmaylik, davlat manfaatini birinchi o'rinda, fuqaro, shaxs manfaatini esa deyarli hisobga olinmasligi eski konstitutsiyalarning har qaysi moddasida yaqqol ko'zga tashlanar edi”.**

Darhaqiqat, mamlakatda yagona davlat mulk egaligi hukm surib, hatto odamlarning hayoti va taqdiri ham davlatning qo'lida bo'lgan.

Shunday qilib ko'rdikki, xususiy mulkchilik va unga bog'liq turli sohalarning taqiqlanishi, shaxsiy tashabbus va manfaatdorlikning bo'g'ilishi, majburiy mehnat, ishga yarasha haq to'lamaslik, boqimandalik va “qorin to'ysa bas” degan tuyg'ular qulchilikning iqtisodiy zaminini yaratdi.

**Uchinchidan,** qulchilik ma'naviy hayotda ham o'z ifodasini topdi. Chunonchi, milliy his-tuyg'ular, o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, g'ururlanish, faxrlanish va boshqa oliy insoniy fazilatlar hibsga olindi, o'z ona yurtiga sodiq kishilar “millatchi, xalq dushmani” va “imperializm ayg'oqchilari” singari qalbaki aybnomalar bilan otildi va uzoq muddatli qamoqqa hukm qilindi. Hatto, ularning oila a'zolari ham qamaldi yoki qattiq ta'qib ostiga olindi. Ularning orasida uzoq joylarga surgun qilinganlari ham bor edi. Shu ravishda, milliy g'oya va ma'naviyatga zarba berilib, ulug' millatchilik suvlari bilan sug'orilgan kommunistik g'oyalar kishilar

ongiga zo'rvonlik bilan singdirilib borildi. Uni amalga oshirishda tarix, falsafa, KPSS tarixi, ilmiy kommunizm, ateizm, adabiyot, iqtisod va huquqshunoslik sohaları jalb qilindi. Matbuot va ommaviy axborot vositalari va san'at tarmoqlari ham kommunistik g'oyalarni zo'r berib targ'ibot qilganlar. Natijada ma'naviyatda milliylik yo'qolib, u kommunistik g'oyalarning asiriga aylandi. Ayniqsa, islom dinining taqiqlanishi, masjid va madrasalarning yopilishi va tarixiy yodgorliklarning vayron qilinishi, tarix fanining soxtalashtirilishi ma'naviy hayotni yanada qattiq qashshoqlashtirdi. Ayni paytda, o'zbek xalqining o'tmish zamonlarda fan va madaniyat sohalarida qo'lga kiritgan yutuqlari inkor etildi.

Umuman aytganda, o'zbek xalqining milliy g'oya va ma'naviyatiga zarba berilib, o'rniga kommunistik g'oyaning kiritilishi qulchilikning muhim alomatlarini hisoblanadi. Chunki, bu g'oya ulug'millatchilik va qulchilikni o'zida aks ettirgan edi.

**To'rtinchidan,** sovet davrida shakllangan qulchilikning o'ziga xos xususiyatlari mavjud edi. Chunonchi, biz boshimizdan kechirgan bu qulchilik bilan qadimgi Yunon, Rim va boshqa davlatlardagi qulchilik o'rtasida asosiy negizi bo'yicha farq yo'q. Chunki, bu har ikkala davrda qullar xususiy mulk, ishlab chiqarish qurollari, siyosiy va insoniy huquqlardan mahrum etilib, "temir qafas"da ushlab turilgan. O'tmish zamonlarda qullar asosan urushlarda asir olingan yoki bo'ysundirilgan kishilardan tashkil topgan. Shunga o'xshash bolsheviklar ham Turkistonni urushib olib, xalqini qullik balosiga muhtalo etdi. Sovet davrida qulchilikning ma'nosi ancha kengayib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qadimgi zamonlarda natural xo'jalik hukmronlik qilganligi uchun qullar oziq-ovqat, kiyim-bosh va turar joy bilan ta'minlangan. Sovet davrida esa pul munosabatlarining keng ko'lamda rivojlanganligi uchun qullarning ish haqi maosh tariqasida to'landi. Xususiy mulki va boyligi bo'lmagan xalq faqat maoshga tikilib qoldi! U maoshsiz qolmaslik uchun davlat ko'rsatgan chizig'idan chiqmaslikka va unga sajda qilishga harakat qilgan. Davlat shu tariqa maosh vositasidaxalqni o'zigai psiz bog'lab, xohlagan ko'yigao'ynata berdi. Qadimgi vaqtlarda bo'lganidek, sovet hukumati qullarni turar joylar bilan ta'minlab turdi. Ammo hammani birdaniga turar joy bilan ta'minlashning iloji bo'lmaganligidan, xususiy uy qurishga ruxsat berildi. Lekin kelajakda bunday uylarning asta-sekin tamomila

yo‘q qilinishi turgan gap edi. Ularning o‘rnini davlat tomonidan qurilgan uylar bilan almashtirish jarayoni ketmoqda edi. Sovet davrida qullarni sotish va sotib olishga ehtiyoj qolmadi. Chunki mamlakat ichida ham, xorijda ham qul bozorlari bo‘lmagan. Davlat qullarning yagona egasi bo‘lganligi uchun unga xaridor yo‘q edi.

Qadimgi quldorlik davlatlarda aholi ozod va qullardan tashkil topib, yirik xususiy qul egalari faoliyat ko‘rsatgan. Ular bilan bir qatorda esa davlat kishilarni qullik holatida ushlab turgan. Shunga o‘xshash sovet davlati ham qullarga egalik qildi. Shuning uchun ham qullarning davlatga tegishiligidini anglatuvchi “biz partiyaning soldatlarimiz”, “bizlar davlat odamlarimiz”, “Sovet Ittifoqining farzandlarimiz” kabi iboralar yuzaga kelgan.

XX asrda fan va texnika shu darajada yuksaldiki, usiz u yoki bu davlatning yashashi mumkin emas edi. Kommunistik partiya buni yaxshi anglagan holda maorif, oliy va o‘rta ta‘lim tarmoqlarini, fan va madaniyatni rivojlantirib, savodsizlikni tugatdi. Mutaxassis va olimlarni yetishtirdi.

Bu yerda savol tug‘iladi. Nahotki, sovet davrida yetishtirilgan o‘qituvchilar, vrachlar, agronomlar, muhandis-texnik xodimlar, olimlar va boshqa soha egalari qul bo‘lgan bo‘lsalar?

Bunga, “Ha, rosmana qullar bo‘lishgan, lekin savodli va bilimli qullar edilar, xolos”, deb javob berish mumkin. Chunki, ular yuqorida ko‘rsatilganidek, siyosiy va insoniy huquq, xususiy mulkchilik, milliy ma‘naviyat va dindan mahrum etilib. “Partiyaning soldatlari” hisoblangan. Shuningdek, ular mustaqillik va ozodlikni barbod etgan kommunistik g‘oyalar bilan zaharlangan. Shu munosabat bilan:

— Domla, ayting-chi, sovet davrida siz ham o‘zingizni malakali qul, deb his etganmisiz? - degan savol tug‘iladi.

— Ha, men va boshqa olimlar yuqori malakali qullar bo‘lganmiz, - deb javob beraman. Chunki, bizlar oldingi safda turib qalbaki kommunistik g‘oya va “sotsializm”ni eng adolatli va afzal tuzum sifatida ko‘klarga ko‘targanmiz. Vaholanki, mustamlakachilik, zulm, bebaho boyliklarimizning talanishi ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan edi. Ammo birortamiz otilib chiqib partiyaning siyosatiga qarshi chiqmadik. Aksincha, partiyaning olqishladik. Bunga o‘ta ehtiyotkorlik va jasoratsizlikni tug‘dirgan qul tabiatligimiz sabab bo‘lgan. Agar bizlar tom ma‘nodagi ozod

kishilar bo'lganimizda bosqinchilar zulmiga qarshi kurashishimizga shubha yo'q edi. Chunki, ongi va qalbi ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan kishilarning millatparvarligi jo'sh urib mardonavor kurashadi. Buni yaxshi anglagan sovet davlati xalqni qullik kishanlari bilan bog'lab qo'ydi. Bu o'z samarasini berib, 20-yillardan to qizil imperiya yiqilgunga qadar bo'lgan davrda zulmga qarshi qo'zg'olon ko'tarilmadi. Aksincha, kommunistik partiya va davlat siyosatiga ko'r-ko'rona ergashish va ulug'lash avjiga minib boraverdi. Bunday holat qishloq aholisi orasida ham sodir bo'lib, qul mehnati misli ko'rilmagan darajada azob-uqubat va talafotlarni keltirdi. Davlat tomorqayer berib, dehqonlarni o'zigai psiz bog'lab qo'ydi. Bordi-yu ular ishlashdan bosh tortsalar, tomorqa tortib olinib, o'zlari haydalgan. Paxta yakka hokimligining hukm surishi dehqonlarni qulchilik botqog'iga qulog'igacha botirib yubordi. Sovet davrida ongli ravishda ximiya o'g'itlari bilan yer, suv, havo va oziq-ovqat mahsulotlarining zaharlantirilganligini, ommaviy kasallik va o'lim kuchayganligini unutilib bo'lmaydi. O'zbek ayollarining umri mehnat frontida chirib ayollarga xos nozik fazilatlarini yo'qotib "dag'allashdilar". Bu xususda sovet davrida bir dehqon yigit bilan suhbatimni keltirish masalani yanada oydinlashtiradi.

Farg'onaning Vodil degan joyidagi choyxonada o'tirganimizda shogirdim Ismoiljonning tanishi o'rta yoshlardagi dehqon bir kosa osh bilan yonimizga kelib o'tirdi. Salom-alikdan so'ng dedi: "Bir yilda bir marotaba shu yerga yoki Shohimardonga xotinim va bolalarim bilan kelib bir oz dam olgandek bo'lamiz. Men Rossiyada armiyada xizmat qilib yurgan vaqtimda rus ayollarining ko'rinishining toza va yoqimlilik hamda qo'llari yumshoqligini ko'rib havasim kelgan. Shunda qishlog'imizdagi ayollarning nihoyatda og'ir mehnati, qo'llari va oyoqlari yorilib hamda dag'allashib ketganligi ko'z o'ngimda gavdalanib juda xafa bo'lganman. Huv anavi mening xotinimga ko'z tashlang, domla, qovjirab yotgan-kopchenniy baliqqa o'xshab qolgan. Unga rahmim keladi, negaki, bir kecha-kunduzda 20 soat mehnat qilib, dam olish va hammomni, pardozi va yaxshi kiyinishni unutilib yuborgan. Hatto, xotinim paxtazorda ishlayotganda dard tutib qolibdi. Uni tug'uruqxonaga olib ketayotganda mashinada ko'zi yorib, bir o'limdan qolgan edi". Shunda Ismoiljon u yoq-bu

yoqqa alanglab: “Uka, sekinroq gapir, birovlar eshitsa, siyosiy tus berib g‘alvaga qolamiz”, deb qo‘ydi.

Bu oddiy dehqonning so‘zlari faqat uning xotiniining emas, balki qishloqlardagi hamma ayollarning achinarli holatini ifoda etgan edi.

Respublikada yakka davlat mulk egaligi yuzaga kelib, xalq bamisoli ildizi qirqib tashlangan daraxtga o‘xshatib qo‘yildi. Mehnatkash omma maosh vositasida davlatga chambarchas bog‘lab qo‘yilishi va boshqa daromad manbai qolmaganligi ularni davlatga sig‘inish va itoat etishga majbur qildi.

O‘zbekistondan paxta, ipak va noz-ne‘matlar, oltin, gaz, volfram va boshqa noyob boyliklar tinimsiz olib chiqib ketildi. Salohiyatli sanoat tarmoqlari Ittifoq vazirligiga bo‘ysundirilib, daromadlar markaz cho‘ntagiga tushdi. Respublikaga tayyor sanoat mahsulotlari ko‘plab keltirilib, xalq yanada qattiqroq shilindi. O‘zbekiston Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylanishi ham qulchilik tuzumining asosini yaratdi;

Milliy g‘oya va ma‘naviyat hibsga olinib, o‘rniga kommunistik g‘oya zo‘ravonlik bilan kiritildi. Bu g‘oya xalqning ongi va dunyoqarashini qorong‘ilashtirib chegaralab qo‘ydi. U qulchilik tuzumining yo‘naltiruvchi kuchi hisoblandi;

Yuqorida sharhlangan fikrlar shu haqda guvohlik beradiki, sovet davrida “sotsializm” emas, balki “quldorlik” tuzumi tashkil topgan. Mamlakatda yagona davlat mulk egaligi hukm surib, fuqarolar uning jonli mulkiga aylantirildi. Shunga monand ravishda qullar ham o‘z-o‘zidan davlatniki bo‘lib qoldi. Shu bois, sovet davrida quldorlik davlati shakllangan deyilsa, aslo xato bo‘lmaydi.

Shuni aytish lozimki, tarixda bunga o‘xshash juda katta quldorlik davlati bo‘lgan emas. Chunki uning qo‘l ostidagi barcha xalqlar qulga aylantirildi. Shuning uchun ham qulchilik misli ko‘rilmagan darajada o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Ammo, qulchilik vaqtlarning o‘tishi bilan qizil imperiyani ichidan chiritib boraverdi. Chunki, qulchilik allaqachonlar oshini oshab, yoshini yashab, tarix yodgorligiga aylangan edi.

Endilikda qadimgi davrlar o‘tib, butun jahon bo‘ylab ozodlik g‘oyalari hukm surib, fan va madaniyat taraqqiyoti gurkiramoda edi. Mana shunday yangi zamon sharoitida qulchilikning paydo bo‘lishi g‘ayritabiiy hol edi.

Xo‘sh, shunday ekan, nima uchun sovet davrida qulchilik yuzaga keldi?

Buning asosiy sababi, butun mamlakatda sotsializm tuzumini qurish uchun shart-sharoit mutlaqo yetishmagan edi. Axir, kommunistlarning dohiysi K.Marks sotsializmni faqat butun dunyoda yalpisiga taraqqiyotga erishgandan keyingina bunyod etish mumkin, degan edi-ku. Bunga erishish uchun yana yuz yillar kerak bo'ladi-ku. Rossiya Ovro'pa mamlakatlari orasida har jihatdan eng qoloq mamlakat sifatida dong chiqargandi. Uning qo'l ostidagi mustamlakalar undan ham qoloq mamlakatlar bo'lgandi. Masalan, Turkiston o'lkasi shular jumlasidandir. Biroq, V.I.Lenin boshliq "bolsheviklar" sharoit yetishmaganligi bilan hisoblashmay, bir mamlakat doirasida ham sotsializm quramiz, deb jar soldilar. Ular sharoit yetilmaganligi bois sotsializmni qirg'inbarot va qul mehnati bilan bunyod etishga qattiq kirishdilar. Shu tarzda kommunistik partiya bir mamlakatda sotsializmni quramiz, deb chiranib birinchi xatoga va uni zo'rvonlik bilan amalga oshirib ikkinchi xatoga yo'l qo'ydi. Bu xatolar partiya o'ylaganidek, sotsializmni emas, balki quldorlik davlatini yuzaga keltirdi. Bu bilan tarix g'ildiragi oldinga emas, balki bir necha yuz yillarga – orqaga yurgizildi. Shuning uchun ham, bu davlat yangi zamon taraqqiyotiga mos tushmay, g'ayritabiiy voqea deb baholandi. Uni tish-tirnog'igacha yadro va boshqa dahshatli qurollar bilan qurollanishiga qaramay, urushsiz ag'darilishiga xuddi shu qulchilikning o'zi sabab bo'ldi.

Bordi-yu, mening fikrlarimni tan olmaydigan olimlar topilsa, sovet davrida qanday tuzum bo'lganligini o'zlari aytishsin. Oldindan shuni ma'lum qilish kerakki, 70 yildan ortiq davrda xususiy mulkchilik, erkin bozor va savdo-sotiq, dinning taqiqlanishi, feodalizm yoki kapitalizm tuzumi haqida gapirishga yo'l berilmadi. "Sotsializm"ning qurilmaganligi "otning qashqasidek" hammaga ma'lumdir.

Shunday ekan, sovet davridagi quldorlik tuzumini inkor etib bo'lmaydi. **"Qullik va mute'lik iskanjasidan, - deydi yurtboshimiz Islom Karimov, - ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lishdan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda".**

Markaziy Osiyoda bu sharafli vazifa birinchi bo'lib O'zbekistonda amalga oshirildi.





# HAQIQAT SARI TASHLANGAN DASTLABKI QADAM



Jadidlar harakatini yuzaga keltirgan sabablarni, bu harakatning mohiyati va yo‘nalishlarini o‘rganish bugun tarixchilarimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi shubhasizdir. Shu ma‘noda sovet davrida jadidchilik tarixini o‘rganish uslublari, yondashuvlarini belgilab bergan bir ilmiy kengash haqida batafsil fikr yuritish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Ilmiy kengash 1966 yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti qoshida o‘tkazilgan edi. Sovet davlati jadidlar vakillarini ashaddiy dushman sifatida otib tashlagan yoki umrlarini qamoqlarda, surgunlarda chiritganligi, ularning yaqin qarindosh-urug‘larini hibsga olganligi yoki ta‘qib qilganligi inobatga olinsa, ushbu kengashni tashkil etishning o‘zi bo‘lmaganligi ayonlashadi.

Jadidlar sovet davri ilmiy ishlari va ommaviy axborot vositalarida “xalq dushmanlari”, “imperializm va Turkiya ayg‘oqchilari” sifatida qoralanib, ularning ozodlik g‘oyalariga hamohang bo‘lmish 1873-1876 va 1898 yillardagi qo‘zg‘olonlar ham qora bo‘yoqqa bo‘yab ko‘rsatilganidan bugungi yosh avlodning xabari yo‘q, albatta.

XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmida to‘rt jildlik “O‘zbekiston SSR tarixi”ning uchinchi jildini nashrga tayyorlash munosabati bilan jadidchilik, 1873-1876 va 1898 yillardagi xalq qo‘zg‘olonlari masalalarini ham qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘ildi. Bu o‘ta qaltis va nozik tadbirga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining o‘sha vaqtdagi vitse-prezidenti I. Mo‘minov va taniqli olim YA. G‘ulomovlar boshchilik qildilar. Ularning tashabbuslari bilan ilmiy

kengash o'tkaziladigan bo'lib, uni tashkil etish mening zimmamga yuklatildi. Chunki jadidlar harakati va qo'zg'olonlar tarixini o'rganish men rag'barlik qilayotgan bo'limga taalluqli edi. Ayni paytda Tarix institutida ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari edi.

Ilmiy kengash kun tartibiga kiritilgan "Turkiston o'lkasida jadidlar harakati" nomli mavzu bo'yicha umumlashtirilgan ma'ruzani tayyorlash K.YE.Jitov, H.Tursunov, O.Eshonov va boshqalarga topshirildi. Ularga jadidlar harakatining zamini, mohiyati va yo'nalishini chuqur va atroflicha tahlil qilish vazifasi yuklatildi. 1873-1876, 1896 yillardagi xalq qo'zg'olonlarini o'z ichiga olgan ikkinchi mavzu bo'yicha H.Inoyatov va H.Tursunov ma'ruzachi qilib tayinlandi.

Ilmiy kengashni uyushtirish jarayoni ancha murakkab va og'ir kechdi. Xususan, H.Tursunov va H.Inoyatovlarni ko'ndirish qiyin bo'ldi. Ular menga shunday deyishdi: "Bilasizki, biz ikkimiz O'zbekiston kommunistik partiyasi markaziy komiteti plenumining maxsus qarori asosida 1873-1876 va 1898 yillardagi xalq qo'zg'olonlarini rosa qoralab yozganmiz. Buning uchun odamlardan ko'p ta'nalar eshitdik. Ilmiy kengashda xatolarimizni bo'ynimizga olib, qo'zg'olonlarni "oqlab" chiqdik ham deylik. Biroq keyin kompartiya markaziy komitetiga chaqirib, noto'g'ri ish qilibsizlar, deb yana qoralashga da'vat etishsa, nima degan odam bo'larniz. Bunday bo'lmasligiga kim kafolat beradi?"

Ularning gaplarida jon bor edi, albatta men ularni boshlab I.Mo'minov huzuriga kirib, vaziyatni tushuntirdim. Xotirjam bo'linglar, dedi u, hech qanday tazyiq va xavf-xatar bo'lmaydi, bu xususda "yuqoridagilar" bilan kelishganmiz. Ular chiqib ketgach, u menga shunday dedi: "yuqoridagilar" xalq qo'zg'olonlari haqida olimlar nima deyishsa, shuni e'tiborga olinglar, jadidlar masalasiga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshinglar, deyishdi. Shuning uchun ma'ruzachilar ishonchli ma'lumot asosida puxta tayyorgarlik ko'rsinlar va yangi fikrlar bilan chiqsinlar. Odatdagidek, odamlarni ilmiy kengashga majburiy sur'atda jalb qilmanglar, negaki g'alamis kishilar "suvni loyqalatib" yuborishlari mumkin.

Bunga javoban, 200-250 nafar kishiga mo'ljallangan taklifnoma tayyorlamoqchimiz, imkoni boricha kengashni yuqori saviyada o'tkazamiz, deganimda, I.Mo'minov, yaxshi kengashda 100-150 atrofida odam qatnashsa va tinchlik bilan o'tkazilsa, ayni muddao bo'lardi, deb uqtirdi.

Ilmiy kengash yaqinlashgan sari ishonchsizlik va xavfsizlik qo'zg'otuvchi har xil mish-mishlar qizib bordi. Bular pirovardida o'z ta'qirini ko'rsatdi. Chunonchi, 1966 yil 22 sentabrda –

YA.G'ulomov raisligida kengash ochilgan kunida bor-yo'g'i 25 nafar kishi keldi. Buning ustiga K.YE.Jitov va H.Tursunovlar ma'ruzani tayyorlamaganliklarni bildirdilar. Bunday noxush va achinarli holat I.Mo'minov, YA.G'ulomov va boshqalarni qattiq ranjitdi. Ular meni chaqirib, nima uchun bunday holat yuz berganligini so'rashdi.

Kengash xususida, dedim men, olimlar bilan gaplashmaganimda xavotirlanish alomatlarini sezgan edimu, lekin ko'pchilik qatnashadi deb o'ylagan edim. Taklifnomalar o'z vaqtida tarqatildi. Ma'ruzachilar esa tayyormiz, deyishgandi YA.G'ulomov ko'ngilmiz hodisalar oldinroq xayoliga kelganligini, lekin ish shu darajaga bormas, deb o'zini yupatganini aytdi.

Bugun tegishli tashkilotlar zimdan ish yuritib, ilmiy kengashni tor doirada o'tkazish choralarini ko'rganliklari sir emas. Kengashning birinchi kuni H.Tursunov va H.Inoyatovning chiqishlari tinglandi va muhokama qilindi<sup>64</sup>. Ular 1873-1876 va 1898 yillardagi qo'zg'olonlarni qoralashga barham berilishi va bu qo'zg'olonlarni ozodlik harakati sifatida ta'riflashga barcha asoslar borligini uqitirib o'tdilar. Ammo ular masalani oxirigacha hal etishga jur'at etmay, qo'zg'olonlar umumrossiya revolyutsion harakatining tarkibiy qismi sifatida chorizmga qarshi kurash bo'lganligini ko'rsatdilar. Shunindek, qo'zg'olonlarga qo'shilgan mahalliy yuqori tabaqalarning ilg'or vakillari faoliyati qattiq qoralandi. Umuman, ma'ruzachilar va muzokaraga chiqqanlar qo'zg'olonlarning, asosan, Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qaratilganligini ochib bera olmadilar.

Kengashning ikkinchi kuniga qoldirilgan jadidlar masalasi, asosiy ma'ruza tayyorlanmaganligi sababli, barbod bo'lishi xavfi tug'ilgan edi. Biroq O.Eshonovga topshirilgan masala tayyor bo'lganligi tufayli kengash o'z ishini boshladi. Afsuski, unda 23 kishi qatnashdi, xolos. Ulardan 7-8 nafari ma'ruzachi va muzokarachilar ekanligi hisobga olinsa, tinglovchilarning soni juda kam edi. Vaholanki, biz kamida 100-150 nafar kishini jalb qilish choralarini ko'rgan edik. Biroq, bunga zimdan yo'l berilmadi. Ilmiy kengash YA.G'ulomov raisligida, deyarli bo'm-bo'sh zalda O.Eshonovning Buxoro va Xiva jadidlariga bag'ishlangan ma'ruzasi bilan boshlangandi. U, avvalambor, ilmiy ishlarda Turkiston general-gubernatorligi, buxoro amirligi va Xiva xonligidagi jadidlarning faoliyatini yalpisiga reaksion harakat sifatida ta'riflashni noto'g'ri deb hisobladi. Olim, ular ikki xil sharoitda

<sup>64</sup> H.Tursunov ma'ruzani tayyorlamagani uchun masalani qisqa va umumiy tarzda og'zaki sharhlab berdi.

shakllangan va rivojlangan, degan fikr bildirdi. Zero, Turkiston general-gubernatoriligida zavod, fabrikalar, banklar, firmalar va umuman kapitalistik aloqalarga xos shunga o'xshash o'zgarishlar sodir bo'layotgan edi. Amirlik va xonlikda esa o'rta asr qoloqligi, xon despotiyasi hukm surib, turg'unlik ko'zga tashlanmoqda edi. Jadidlarning mana shunday yuzaga kelgan, islohotlar vositasida feodal tuzum va xon hokimiyatiga qarshi kurashi O.Eshonov tomonidan progressiv harakat sifatida baholandi. Ma'ruzachi Buxoro va Xiva jadidlari faoliyatini Turkiston jadidlari bilan bir chiziqqa qo'ymay, alohida o'rganishni taklif qildi. U masalani xuddi shu tarzda yoritib, Buxoro va Xiva jadidlari harakatining mohiyati va yo'nalishi madaniy, ma'rifatparvarlik va revolyutsion-demokratik kurashdan iboratligini ko'rsatdi. Muzokarada qatnashgan K.YE.Jitov va H.Tursunov so'zlaridan haqiqatan ham ular jadidchilik harakatini chuqur atroflicha o'rganish va yangi fikrlar bilan boyitishni nazarda tutmaganliklari ma'lum bo'ldi. Ular garchi jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyatini tan olgan bo'lsalar-da, ularni tabaqalarga bo'lish va faoliyatini uch yo'nalishda ta'riflashni taklif qildilar. Bu olimlar ko'proq umumiy so'zlar bilan chegaralanib, ishtirokchilarda yaxshi taassurot qoldirmadilar. Ularning ko'rsatishicha, jadidlar orasida feodal-klerikal, burjua-demokratik va revolyutsion-demokratik g'oyalar bilan sug'orilgan uch guruh faoliyat ko'rsatgan. Bularning har biri bir-biridan farq qiluvchi maqsadlar bo'yicha mustaqil ravishda ish yuritishgan. Muzokaraga chiqqanlar ham jadidlar faoliyatida uch yo'nalish bo'lganligini quvvatladilar va shu fikrlar ruhida quyidagi mazmunda tavsianoma qabul qilindi:

1. Haqiqatan ham, jadidlarning tarkibi bir xil bo'lmagan. Turkiston general-gubernatorligidagi jadidlar bilan Buxoro va Xiva jadidlari bir-birlaridan farqini hisobga olish lozim. Buxoro va Xiva jadidlari, ya'ni yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar Oktabr revolyutsiyasi ta'sirida Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi feodal tuzum va xon hokimiyatiga qarshi kurashib, revolyutsion demokratik yo'lga o'tdi. Turkiston va xonliklardagi jadidlarning orasida turli oqimlar shakllanib, so'l qanot ajralib chiqdi.

Jadidlarning ba'zi ilg'or vakillari rus madaniyatiga moyillik bildirib, kitoblar va darsliklarni chop ettirdilar. Ularni ommalashtirdilar va yangi usuldagi maktablar ochdilar. Hatto musulmon o'qituvchilar seminariyasini tashkil etishni o'yladilar. Jadidlar orasidan Fitrat, Ajziy, Siddiqiy, Tavallo, Abdulla Qodiriy va boshqa yozuvchilar yotishib chiqdi. Ular nasr, dramaturgiya va teatrning yangi janrlarini yaratdilar. Jadidlarning ilg'or vakillaridan S.Ayniy, Hamza, Fayzulla

Xo‘jayev, A. Muhiddinov, Qori Yo‘ldoshev singari kishilar Oktabr revolutsiyasini qizg‘in tabrikladilar va o‘zlarining butun umrini sovet hokimiyati uchun xizmat qilishga bag‘ishladilar.

2. Jadidlar vakillarining ma‘lum qismi milliy burjuaziya va savdo-sanoat doiralarining manfaatlarini nazarda tutib, dunyoviy fanlarning tarafdorlari sifatida ish yuritdilar. Ammo jadidlar orasida shunday kishilar ham bo‘lganki, ular madaniy va ma‘rifiy o‘zgarishlarning tarafdorlari bo‘lsalar-da, lekin o‘zlarining sinfiy manfaatlarini o‘ylab va mehnatkash ommaning bosh ko‘tarishidan cho‘chib, chorizmni quvvatlab turdilar. Ular, ayniqsa, 1905-1907 yillardagi revolyutsion harakatlardan keyin gazeta va jurnallarda imperatorga o‘z sodiqliklarini izhor etib, revolyutsion sotsial-demokratlarning faoliyatini qoraladilar.

3. Jadidlarning o‘ng qanotini Abdulaha Rohatboyev va boshqa kishilar tashkil etib, ular din va shariat asoslarini qattiq ushlab, feodal va musulmon Turkiyasi oldida tiz cho‘kdilar. Ular Turkiya boshchiligida Turkistonni Rossiyadan ajratib olish va burjuapomeshchik davlatini tuzishni maqsad qilib qo‘ydilar. Ular panislomchilar va pankturkchilar g‘oyasi bilan sug‘orilgan bo‘lib, ilg‘or rus madaniyatiga qarshi nafrat uyg‘otdilar. Shuningdek, chet el ayg‘oqchilari bilan birgalikda Turkiston xalflari orasida milliy nizolarni uyg‘otib, xalqni ruslardan ajratishga va bu bilan revolyutsion kurashdan chetlatishga harakat qildilar. Jadidlarning o‘sha vakillari xalq ommasining noroziligidan o‘zlarining tor manfaatlari uchun foydalanmoqchi bo‘ldilar”.

Ko‘rinib turibdiki, tavsiyanomaning birinchi qismida sovet davlati tomoniga o‘tgan jadidlarning faoliyati revolyutsion-demokratik, ya‘ni progressiv harakat, deb baholandi. Shu ravishda sovet davlatiga bo‘lgan munosabatdan kelib chiqqan holda jadidlarning bir guruhi “oqlandi”. Garchand masalaga bunday bir tomonlama yondashish noto‘g‘ri bo‘lsa-da, lekin bir bahona topib jadidlarni “oqlashga” urinish ijobiy voqea hisoblanardi.

Tavsiyanomaning ikkinchi qismida jadidlarning kurashi burjuademokratik harakat deb ta‘riflandi. Uning uchinchi qismida esa jadidlarning Turkiston zaminining mustaqilligini tiklashga qaratilgan harakati eng reaksion yo‘nalish sifatida qattiq qoralandi. Ilmiy kengashda jadidlarni yoppasiga emas, balki bir guruh vakillarini “oqlash”ning o‘zi ham ashaddiy kommunist olimlarda umuman jadidlarga xayrixohlik bildirish, degan tushuncha hosil qildi. Ular tashvishlanib, noroziliklarini bildirdilar.

Shuning uchun I. Mo‘minov menga: “Siz kengash stenogrammasini

Moskvaga olib borib, u yerdagi olimlarning roziligini olsangiz yaxshi bo'lardi. Bo'lmasa, tinchimaydigan o'xshaymiz", dedi.

Men stenogrammani Moskvada SSSR Fanlar akademiyasi ijtimoiy fanlar bo'limining mudiri, akademik YE.M.Jukovga topshirdim. Bir necha kundan keyin u shunday dedi: "Umuman olganda, ilmiy kengash o'tkazishning keragi yo'q edi. Chunki jadidlar masalasi allaqachon hal etilgan. Ammo kengashda jadidlarning bir guruhi "oqlanibdi". "Biz bunga rozimiz". Moskvaning "fotihasi" olingandan keyingina vaziyat o'zgarib, tavsiyanoma kuchga kirdi.

Ilmiy kengashda jadidchilikning siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy zaminlari noto'g'ri tahlil qilingan edi. Unda ma'ruzachi va muzokaraga chiqqanlar mintaqadagi jadidlar bir-biriga zid ikki xil sharoitda shakllanganligini ta'kidladilar. Tarixiy haqiqat esa o'zgacha edi...

Turkiston general-gubernatorligida ham, xonliklarda ham mohiyati bir mustamlakachilik siyosati hukm surib, butun mintaqa Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilgandi. To'g'ri, Turkiston general-gubernatorligida kapitalistik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda edi. Biroq ulardan asosan Rossiya va o'lkaga joylashib olgan ruslar foydalanib, tub aholi qashshoqlashdi, adolatsizlik va zulm ostida yashadi. Har ikki tarafda feodal tuzum saqlanib, o'rta asr qoloqligi hamon davom etaverdi. Aholi orasida ko'zga tashlangan ayrim ijobiy o'zgarishlar bamisoli dengizdan tomchi edi, xolos. Xullas, mintaqada jadidlar ikki xil sharoitda yuzga kelganligi haqidagi fikrga qo'shilmayman. Buni quyidagicha tushuntirishga harakat qilaman.

**Birinchi**dan, podsho Rossiyasi o'lkani qonga belab, vayronaga aylantirib egallagandan keyin milliy davlatni yo'q qildi. U rus generallari va ofitserlarini oliy va o'rta, tub aholi qakillarini quyi ma'muriy lavozimlarga tayinladi. Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlaridan iborat Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu yerda siyosiy-ma'muriy tizim mustamlakachilik va milliy zulm asosida tuzilib, siyosiy va insoniy huquqlarni hayotga tadbiq etishni xayolga ham keltirmadi. Rus tili davlat tili sifatida yuritildi, milliy til esa bir burchakka siqib qo'yildi.

**Ikkinchi**dan, chor hukumati tub aholining birdamligi va kuch-qudratini sindirish uchun mintaqani Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligidan iborat uch qismga bo'lib boshqardi. Garchand, amirlik va xonlikdagi mahalliy siyosiy-ma'muriy tizim saqlangan bo'lsa-da, lekin u amalda chorizmning

manfaatlarini ta'minlashga qaratildi. Boshqacha aytganda, u shaklan milliy, mazmunan mustamlakachilik boshqaruvining ko'rinishidan biri edi. Chunki xonlar rus hukumati tomonidan "qo'ng'irchoqqa" aylantirilgan qaram hukmdorlar edi, xolos. To'g'ri, xonliklarda qo'shin saqlangan, lekin uning vazifasi faqat ichki tartib va tinchlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, harbiy mahorat va texnika nihoyatda past darajada edi. Rus davlati Buxoroda "rus siyosiy vakolatxonasini" ochib, xonlikni qattiq nazorat ostida ushlab turdi. Xiva xonligi esa Sirdaryo viloyatiga qarashli "Amudaryo bo'limi" orqali boshqarildi. Turkiston general-gubernatori lavozimidagi shaxslar huquqi chegaralanmagan holda butun mintaqada boshchilik qilganlari uchun "yarim podsho" deb yuritilganlar. Ular mustamlakachilik siyosati va milliy zulmni izchillik bilan amalga oshirdilar. Mustaqillikni barbod etgan bunday g'ayritabiiy tizim jadidlarning siyosiy kurashiga zamin hozirladi. Vaqt o'tishi bilan ozodlik g'oyalari yuzaga qalqib chiqaverdi. Bu haqda Fitratning "Temur sag'anasi" pyesasi qahramoni nomidan izhor etilgan quyidagi so'zlar dalolat beradi: "Hoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istaraga keldi. Bog'lari buzulgan, gullari so'lgan, bulbullari uchirilgan Turonning qorovuli senga arz etarga keldi. Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukuk, sening ziyoratingga keldim, sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o'rtagan jonim uchun bu sag'anangdan davo izlab keldim, hoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko'rib, g'am chekib kelgan turkning qonli ko'z yoshlarini etaklaringga to'karg'a keldim. Qorong'ular ichra qolgan o'zbek ko'zlari uchun tuprog'ingdan surma olgani keldim. Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, turoni yot qo'llarga tushdi. Turkning belgusi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat o'lkasiga ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo'lgan turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi".

Mazkur satrlarda mustamlaka davrining dahshatli va fojiali manzarasi haqqoniy tasvirlanib, Turkiston zamini misli ko'rilmagan darajada xarobaga aylantirilganligi ifodalangan; buyuk Amir Temur mustaqillik ramzi, mazlum xalqni ozodlikka va taraqqiyotga chorlovchi qudratli kuch sifatida tasvirlangan. Fitrat "Temur sag'anasi" asari orqali jadidlar harakatining siyosiy qiyofasini yoritib berdi, deyilsa, aslo xato bo'lmaydi.

**Uchinchidan**, chorizm Turkiston zaminini Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirishni asosiy vazifa qilib qo‘ygan edi. Bunga erishmoq uchun u birinchi navbatda paxtachilikni rivojlantirishga e‘tibor berib, Amerika paxta navlarini iqlimlashtirdi. Natijada, o‘lkada paxtachilik yil sayin rivojlanib keng qo‘loch yoydi. Biroq paxtachilikni rivojlantirishdan tub aholining hayoti yaxshilanmadi. Aksincha, qashshoqlashdi, chunki paxtaning deyarli hammasi arzon narxda Rossiyaga uzluksiz yuborib turildi. Faqat paxta emas, balki boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ham tashib ketildi. Mustamlakachilar o‘lkaning tabiiy boyliklarini ham taladilar. Rossiyadan mintaqaga turli sanoat mollari keltirilishi tub aholining ahvolini yanada yomonlashtirdi. O‘lkaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, xalqning qashshoqlanishi jadidlarning e‘tiborini jalb qilishi turgan gap edi. Zero, ular o‘z xalqi boshiga tushgan kulfatlarning, azob-uqubatlarning, boyliklari talanayotganligining jonli guvohi edilar. Shuning uchun ham Fitrat: “Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi. Og‘zimiz qonlandi. Yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharfimiz yemiruldi, nomusimiz g‘asb qilindi. Insoniyligimiz oyoqlar ostiga olindi. To‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘ysundik. Butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik”, deb yozgan edi. Shunday qilib, mustamlakachilik siyosati jadidlarning iqtisodiy mustaqillikka qaratilgan g‘oyasini shakllantirdi.

**To‘rtinchidan**, rus davlatining mustamlakachilik siyosati ma‘naviyatni qashshoqlashtirishga olib keldi. Chunonchi, milliy til va madaniyatni rivojlantirishga yo‘l berilmadi. Maktablarni, madrasalarni ta‘minlashga mablag‘ ajratilmadi. Chunki mahalliy aholining bilimli bo‘lishi chor hukumatining ulug‘ millatchilik siyosatiga zid edi. U o‘lkada fan va madaniyatining keng quloch yoyishgiga imkoni boricha to‘sqinlik qilib, xalfni qorong‘ilikda va tushkunlikda ushlab turish choralarini ko‘rdi. Ma‘muriyat va ziyolilar orasida, agar maktab va madrasalarning faoliyatiga imkon yaratilsa, “g‘aflatda yotgan musulmonlarning uyg‘onishi” va “nonimiz yarimta bo‘lishi” mumkin, degan fikrlar yo‘q emas edi. Chor hukumati o‘lkada matbuotning keng qo‘lamda va samarali quloch yoyishiga to‘sqinlik qildi. Bu sohada ko‘zga tashlangan ayrim o‘zgarishlar umuman yetarli emas edi. Ma‘naviy hayotning negizi bo‘lmish islom dinining jamiyatdagi mavqeiga ancha zarba berilib,



ruhoniylar vakillari qattiq nazorat ostiga olindi. Vaqf yerlarining qisqartilishi va ularning rus ma'muriyati nazorati ostiga olinishi ham dinning istiqodiy asoslarini qattiq shikaslantirdi. Mustamlakachilar tarixiy yodgorliklarni xarobaga aylantirish yo'li bilan xalqning ma'naviy hayotini qashshoqlashtirdi. Bosqinchilar mahalliy aholini o'rta asr qoloqligida, savodsizlik va qorong'ilik girdobida hayot kechirishga majbur qildilar. Millatning bu kunini emas, kelajagini ham barbod etuvchi milliy zulm jadidlarning ma'naviy kurashiga zamin hozirladi. Ular XX asr boshlarida yoshlarni bilim olish uchun Germaniya, Fransiya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlardagi shaharlarga o'qishga yuborishni talab qildilar. Masalan, bunday o'ta foydali takliflar M.Behbudiyning "Ehtiyoji millat" (1909), Hamzaning "Muallif afandilarga ulug'rijomiz" (1914) va Cho'lponning "Do'xtir Muhammadiyor" (1915) maqolalarida bayon etildi.

Umuman aytganda, jadidlar harakati mustamlakachilikka va milliy zulmga asoslangan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning mahsuli sifatida yuzaga keldi. Uning asl mohiyati va yo'nalishi pirovardida Turkiston mustaqilligini tiklashga qaratilgan edi. Bu oliy maqsadga erishish uchun birinchi navbatda mazlum va xo'rlangan xalqning savodini chiqarish va bilimini oshirish, milliy his-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish lozim edi. Shuning uchun ham jadidlar faoliyatida dastavval ma'rifatparvarlik salmoqli o'rinni egalladi. Ammo bu ularda siyosiy g'oyalar va maqsadlar yo'q edi, degani emas. Aksincha, ular jadidlar qalbini chulg'agan, lekin uni darhol amalga oshirish uchun sharoit yetilmagan edi. 1917 yilda qulay vaziyat yuzaga kelishi bilan jadidlar qalbidan siyosiy g'oyalar vulqon kabi otilib chiqib, "Turkiston muxtoriyati" tashkil topdi. Biroq bu oliy maqsad bolsheviklar tomonidan vahshiylarcha barbod etildi.

Shunday qilib, 1966 yildagi ilmiy kengashda milliy-ozodlik kurashi va jadidlar harakatini ma'lum darajada "oqlash"ga urinish ko'zga tashlandi, deyilsa xato bo'lmaydi. Shukrlar bo'lsinki, xalqning ozodligi uchun jonini tikkan jadidlarning ezgu niyatlari shu kunlarda ro'yobga chiqib, ularning avlodlari mustaqillikning gashtini surmoqdalar.



# TARIX -

## O‘TMISH VA KELAJAK KO‘ZGUSI

Sovet davrida olamshumul ahamiyatga molik ko‘p asrli tariximiz kamsitildi va soxtalashtirildi. Milliy his-tuyg‘ular va o‘zlikni anglash, siyosiy faoliyatlar va vatanparvarlik singari oliy fazilatlar hibsga olindi.

Shu ravishda, o‘zbek xalqi o‘tmish tarixidan, dinidan va milliy turmush tarzidan ajratilib, og‘ziga qulf va oyoq-qo‘llariga kishan solindi. Shuni unutmashlik kerakki, sovet davrida mamlakatda insoniyat sha‘niga isnod keltiradigan “sotsializm tuzumi”, ya‘ni quldorlik davlati hukm surdi. Xuddi mana shunday qalbaki va dahshatli tuzumga mos va xos tushadigan tarixiy asarlar va maqolalar nashr etildi.

Kommunistik partiya o‘zining mustamlakachilik siyosatining samaradorligini ta‘minlash uchun tarix fanini g‘oyaviy qurolga aylantirib kafedralar, fakultetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarini tashkil etdi. Ko‘plab fan nomzodlari va doktorlari yetishtirilib, partiya siyosatini va “sotsializm”ni ulug‘lash ularning zimmasiga yuklatildi. Tarixiy manbalarni xolis o‘rganish asosida emas, balki oldindan belgilab qo‘yilgan marksizm-leninizm metodologiyasi va partiyaning qarorlari nuqtai nazaridan yoritish shart qilib qo‘yildi. “Fanning partiyaviyligi” — degan shiorga rioya qilish har bir olimning muqaddas burchi hisoblandi.

Aytib o‘tish lozimki, tarixni ma‘lum bir siyosiy maqsad bilan o‘rganish va soxtalashtirish chorizm davrida boshlangan edi.

Masalan, 1895 yilda Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagining birinchi majlisida shunday degan edi: “Mazkur to‘garakning tashkil

etilishiga bag'ishlangan majlisni ochish menga nasib etganligidan benihoya xursandman. Bu to'garakning oldida muhim vazifalar turibdi. Tarix fani shu paytgacha O'rta Osiyoning qadimgi aholisiga doir ma'lumotlarga ega emas. Shu bois bizning to'garagimizning asosiy vazifasi O'rta Osiyoning qadimgi tarixi bo'yicha ma'lumotlarni to'plashdan iboratdir.

Bilamizki, O'rta Osiyo, oliy naslning beshigi hisoblangan. O'z davri uchun yuksak madaniyatni yaratgan ariylar vaqtlarning o'tishi bilan qulay sharoit izlab O'rta Osiyodan ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Shundan, keyin Sharqning olis joylaridan yovvoyi galalar O'rta Osiyoga o'rtnashib ariy madaniyatini supurib tashladilar. Bizning ajdodlarimiz – ariylar - Ovro'paga joylashdilar. Shuning uchun bir vaqtlar ariy madaniyati rivojlangan. O'rta Osiyoga tegishli ma'lumotlarni to'plash bizning vazifamizdir. Hozirda biz ariy madaniyatini qaytadan tiklashga da'vat etildik”.

Ko'rinib turibdiki, general-gubernator Turkiston zaminining eng qadimiy aholisi turkiy aholi emas, balki “oliy nasl” – ariylar hisoblangan, degan. U “yovvoyi galalar” iborasida turkiy aholini, birinchi navbatda, o'zbeklarni nazarda tutgan edi. Shu ravishda, A.B.Vrevskiy o'zbeklarni kelgindi sifatida ta'riflab, Turkiston zamini aslida ovro'paliklarning, xususan, Rossiyaning qadimiy vatani, degan tuturuqsiz va kulgili fikrni bayon etgan. Shuhbasiz, u bunday deyish bilan podsho Rossiyasining Turkistonda hukmronlik qilishiga tarixiy asosi va haqqi borligini isbotlashga harakat qilgan.

Shuningdek, uning Rossiya go'yo taraqqiyotni ta'minlash maqsadida Turkistonni, egallaganligini anglatmoqchi bo'lganligi ayon bo'lib turibdi.

Samarqand viloyatining harbiy gubernatori, N.S.Likoshinning “Rivoyatlarga ko'ra, Bibixonimning kelib chiqishi va diniy e'tiqodi bo'yicha ruslarga borib taqaladi”, deyishi, ham chor Rossiyasini behuda ulug'lashdan boshqa hech narsa emas.

Chor ma'muriyatining o'zbek xalqi madaniyati tarixini yo'q qilishga harakat qilganligini quyidagi misol ham isbotlaydi. 1913 yilda Turkiston general-gubernatori S.Samsonov Samarqand yodgorliklarini tomosha qilayotganida ziyolilardan biri mahalliy tarixiy obidalarini ta'mirlash uchun mablag' ajratishni so'ragan. Bunga Samsonov: “Rus davlati manfaati ularni saqlab qolishni emas, aksincha, qo'porib tashlashni talab etadi”, deb javob bergan. Shu

daqiqada uning adyutanti esa: “Obidalarni yo‘q qilish uchun zambaraklar o‘qidan foydalanish lozim”, deb qo‘shib qo‘ygan. Mana o‘zlarini Turkistonda “taraqqiyot tarqatuvchi”, deb olamga jar solgan bosqinchilarning asl basharasi.

Turkiston tarixini mustamlakachilik va ulug‘millatchilik nuqtai nazaridan tahlil qilish, sobiq sovet davrida ham davom etdi. Ammo, bu yo‘lga birdaniga o‘tilgani yo‘q. Asrimizning 20-40-yillari oxirlarida kommunistik partiya o‘zining ashaddiy dushmani bo‘lmish chorizmning kishilar ongidagi ta‘sirini tamomila qo‘porib tashlash uchun uning bosqinchilik urushlarini, mustamlakachilik siyosati va milliy zulmi tarixini o‘rganish va ommalashtirishga keng yo‘l ochib berdi. Hatto, milliy-ozodlik kurashlarning tarixi bo‘yicha ancha ishlar qilindi. Ammo asrimizning 50-yillaridan boshlab, fanni siyosatlashtirish va ulug‘millatchilik siyosatining avjiga minishi orqasida, tarixni ochiqdan-ochiq soxtalashtirishga o‘tildi. Bu ishning ilk bor tashabbuschisi Moskvada chop etiladigan “Tarix masalalari” (“Voprosy istorii”) jurnali hisoblanadi. 1953 yilda bu jurnalda I.S.Braginskiy, S.Rajabov, V.V.Romodnlarning “O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinishining progressiv oqibatlariga doir masalalar” maqolasi chop etildi. “Rus bo‘lmagan xalqlarning, - deyiladi unda, - Rossiyaga qo‘shib olinishi haqidagi masala katta siyosiy va ilmiy ahamiyatga egadir.

30-yillarda sovet tarixshunosligida Pokrovskiy maktabining qarashlari ta‘sirida ko‘rsatilgan masala noto‘g‘ri yoritilgan. O‘rta Osiyoga bag‘ishlangan ayrim ishlarda chorizmning bosqinchilik siyosatini bir tomonlama ta‘riflash bilan bir qatorda O‘rta Osiyoning qo‘shib olinishini progressiv oqibatlari haqida hech narsa deyilmadi. Ayni paytda, xon hokimiyatini tiklashga, tarix g‘ildiragini orqaga aylantirishga, vahshiy feodal tartiblarini qayta o‘rnatishga qaratilgan Sulton Kenesarin (1837-1846) va 1898 yil Andijon qo‘zg‘olonlari ijobiy baholanmoqda. Vaholanki, bu qo‘zg‘olonlar xalqqa qarshi ko‘tarilgan reaksion kurash edi. Ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha yo‘l qo‘yilayotgan qo‘pol xato fikrlar chorizmning Turkistondagi siyosatini qoralash vositasida O‘rta Osiyo jamoasidagi sinfiy qarama-qarshilikni siypalovchi, xonlar, boylar va mannoplarni ideallashtiruvchi, SSSR xalqlari orasida milliy nizolarni qo‘zg‘atuvchi-burjuaziya millatchilarining fikrlariga hamohangdir”.

Ushbu so‘zlarning mualliflari fikricha, chorizmning o‘n minglab

kishilarni qirishi, shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirishi va boyliklarni talashi haqida baralla gapirish yoki yozish millatchilik hisoblanar emish. Ular buning o'rniga "qo'shib" olinishning ijobiy o'zgarishlarini, ya'ni sanoatni, temir yo'llarni, ishchilar sinfini va boshqa omillarni maqtashni tavsiya etadilar. Axir, bu o'zgarishlar mustamlakachilik xususiyatlariga ega bo'lib, chorizm, kapitalistlar savdo ahllarining manfaatlarini ta'minladi, xolos. O'sha temir yo'llar orqali behisob boyliklar Rossiyaga olib ketilganligini kim bilmaydi? Shuningdek, mahalliy aholidan tom ma'nodagi ishchilar sinfi shakllanmaganligi sir emas-ku!

Maqola mualliflari og'zini ko'pirtirib gapirayotgan o'lkani "qo'shib" olishning progressiv oqibatlarini tub aholi ustidan zulmni yanada kuchaytirib, ular qul kabi ishlatildi va suyagigacha shilindi. Shu bois, mazlum xalqning chorizmga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari bejiz bo'lmagan, albatta. Nima uchun o'sha mualliflar chor hukumatining milliy davlat, qo'shin va madaniyatni yo'q qilganligi haqida churq etmaydilar.

Nima uchun mualliflar qo'zg'olonlarni xon hokimiyati, ya'ni mustaqil davlatni tiklashga qaratilganligi uchun reaksion harakat, deb baholaydilar. Axir tarixda har bir millatning, mustaqil davlatga ega bo'lishi katta tarixiy voqea hisoblanadi-ku. Bularni ular yaxshi biladilar, lekin nachora, partiyaning ulug'millatchilik siyosati chizig'idan chiqib, haqiqatni yozishning iloji yo'q edi.

Yuqorida sharhlangan maqola shunchaki odatda yoziladigan ish emas edi. Mazmunan u kommunistik partiya Markaziy Komitetining ko'rsatmasiga binoan yozilgan bo'lsa kerakki, keyingi 1953-1990 yillar davomida tarixchilar uchun umumiy dastur bo'lib qoldi. Unda bildirilgan fikrlar asosida o'lkaning bosib olinishi — "qo'shib olinishi" iborasi bilan alamashtirilib ham yoziladigan bo'ldi. Chorizmning mustamlakachilik siyosati va milliy zulmini keng ko'lamda maxsus o'rganish orqaga surib qo'yildi. Birinchi navbatda, o'lkani Rossiyaga "qo'shib olinishining progressiv oqibatlarini" yaratish muhim vazifa etib belgilandi.

Shu orada S.Rajabovning "Rol russkogo naroda v istoricheskix sudbax narodov Sredney Azii" (Toshkent-1955) kitobi nashr etildi<sup>65</sup>. Ochig'ini aytganda, tarixni soxtalashtirishda S.Rajabovga teng keladiganini topish qiyin bo'lsa kerak. Uning yozishicha, Rossiya

<sup>65</sup> Aslida S.Rajabov mutaxassisligi bo'yicha yurist bo'lib tarixga tamomila aloqasi yo'q kimsa edi. Aslida u yollangan "olim" bo'lgan edi.

tatar-mo'g'ullarga qarshi kurashib, go'yo mamlakat aholisini Chingiz xonlari va Amir Temur qirg'inlaridan saqlagan emish. Ayni paytda, Rossiya mintaqani Angliya-Amerika imperialistlarining tajovuzi va tub aholini qirib tashlanishining oldini olgan emish.

S.Rajabov o'lkani chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishini ham niqoblashga urinib shunday yozadi: "O'rta Osiyo aholisining ko'pchiligi xon mansabdorlarining adolatsizligi va zulmidan sabr kosasi to'lganligi va nihoyatda og'ir hayotida o'zgarishlar yasalishi uchun o'lkaning Rossiyaga qo'shilishidan manfaatdor edilar. Faqat bir guruh xonlar, beklar va reaksiyon musulmon ruhoniylari podsho Rossiyasiga qarshi kuchlarni va qo'zg'olonlarni uyushtirishga behuda urindilar. Ammo ularning podsho Rossiyasiga qarshi umumxalq qo'zg'olonlarini uyushtirish uchun olib borgan ishlari amalga oshmadi!"

Demak, o'zbek va boshqa tub aholi podsho Rossiyasini o'zining haloskori va yaxshi hayotni ta'minlovchi davlat sifatida kutib, unga xayrixohlik bilan qaragan bo'lib chiqadi. Aslida, manbalarning ko'rsatishicha, o'zbek va boshqa mahalliy tub aholi yuqori tabaqaning ilg'or vakillari bilan birgalikda vatan mustaqilligi uchun qahramonona kurashgan edi.

S.Rajabov yana bir katta xatoga yo'l qo'yib yozadi: "O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi uni turkiy hukmdorlarning halokatli siyosatidan abad ul-abad qutqardi. Burjuaziya millatchilari, panturkistlar, panislomistlar va reaksiyon feodal ruhoniylarning siyosati turkiy hukmdorlarning hokimiyatini o'rnatishga, o'zbek va O'rta Osiyoning boshqa xalqlarining shakllanayotgan milliy mustaqilligini tiklashga qarshi qaratilgan". Bu jumalalarda ham muallif mustaqillik uchun kurashni qoralab, podsho Rossiyasining hukmronligini ideallashtirish uchun hech narsadan toymaydi. Shuningdek, u jadiclarni, 1898 yil Andijon qo'zg'olonini va boshqa ozodlik uchun kurashgan barcha kuchlarni xalq va vatan dushmanlari sifatida tuproqqa qorib tashlagan.

Umuman, S.Rajabov agar podsho Rossiyasi O'rta Osiyoni egallamaganda, u vaqtda o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz va turkmanlar qirilib va yo'q bo'lib ketar edi, degan qalbaki g'oyani targ'ibot qiladi.

1957 yilda nashr etilgan "O'zbekiston SSR tarixi"ga bag'ishlangan asarda ham tarixiy voqealar yuqorida sharhlangan xatolar asosida yozilgan. Unda V.V.Nepomnin shundan deydi: "Birinchi navbatda feodal oqsoyklar va musulmon ruhoniylari chorizmning o'lkani zabt etishiga qarshi faol kurashdilar. Chunki, ular O'rta Osiyoning zabt etilishi natijasida o'z imtiyozlaridan,

yer-mulklaridan va olib turgan katta daromadlaridan mahrum bo'lishdan qo'rqdilar. Feodal-klerikal boshliqlar xalq ommasining qoloqligidan va islom dinining ta'siri kuchliligidan foydalanib, diniy mutaassiblikni avj oldirishga intildilar va reaksion "g'azovot" e'lon qilib, mehnatkashlar ommasini chor qo'shinlariga qarshilik ko'rsatishga undadilar. Biroq, bu tadbirlar O'rta Osiyodagi qoloq va chirik feodal despotizmni muqarrar mag'lubiyatga uchrashdan saqlab qola olmadi".

Ajabo, nahotki, mahalliy yuqori tabaqa vakillari bosqinchilarga qarshi kurashda faqat shaxsiy manfaatlarini o'ylagan bo'lsalar. Aslida bunday bo'lmay, qo'zg'olonlarni ulardagi vatanga sodiqlik va mustaqillikni egallash his-tuyg'ulari ozodlik kurashiga aylantirgan edi. Ular bu yo'lda jonlarini, mollarini fido ayladilar. Shaxsiy manfaatini ko'zlagan nufuzli kishilar esa osonlik bilan dushmanga sotilib, vatanga xoinlik qildilar. Sovet tarixshunosligida bunday toifadagilarning faoliyatiga go'yo vatan tinchligi va taraqqiyotini ko'zlagan kishilar sifatida ijobiy baho berildi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, chunki bosqinchilar sotqinlarni hamma vaqt taqdirlagan va maqtagan.

O'sha asarda milliy-ozodlik harakati ham qoralandi. Masalan, 1898 yilgi qo'zg'olon haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "Andijon qo'zg'olonining xarakteri va shiorlari uning tamomila xalqqa qarshi reaksion xarakterda bo'lganligini ko'rsatadiki, "O'zbekiston xalqlari tarixi" ikkinchi tomining birinchi nashrida (1947 y.) bu qo'zg'olonga milliy ozodlik va xalq harakati bo'lgan edi, deb berilgan baho butunlay noto'g'ri va yanglishdir".

1967 yilda kaminaning mas'ul muharrirligida chiqarilgan "O'zbekiston tarixi"ning ikkinchi jildida (XIX asrning ikkinchi yarmi –XX asr boshlari) urushib olinishi bilan bir qatorda "qo'shib olinishi" iborasi ham ishlatilib, uning progressiv oqibatlari keng ko'lamda yoritildi. Biroq, 1898 yil Andijon qo'zg'oloni milliy-ozodlik kurashi sifatida ta'riflandi hamda Buxoro va Xiva jadidlari so'l qanotining faoliyati ijobiy baholandi.

Asrimizning 80-yillari o'rtalarida matbuotda professor M.Vahobovning Andijon qo'zg'oloni, Amir Temur hamda Boburni qoralovchi maqolasi e'lon qilindi.

Shu munosabat bilan 1989 yilda Tarix institutida ilmiy anjuman chaqirilib, kaminaning ma'ruzasi asosida 1898 yilgi qo'zg'olon "ikkinchi marotaba oqlandi".

1990 yilda O'rta Osiyo respublikalarining olimlari qatnashuvida ilmiy anjuman chaqirildi. Unda mening ma'ruzam muhokama qilinib, Turkistonni Rossiyaga "qo'shib olinishi" iborasini ishlatmaslik haqida qaror qabul qilindi.

Ammo, sobiq sovet davrida Andijon qo'zg'oloni, jadidlar faoliyati va podsho Rossiyasi tajovuzining tarixini xolis o'rganishga qaratilgan ayrim urinishlar, "xamir uchidan patir" deyilganidek, xavotirlik bilan qo'yilgan dastlabki qadam edi, xolos.

Umumiy xulosa shuki, tarix fani ma'naviy hayotning tarkibiy qismi va yo'naltiruvchi eng muhim omillaridan biridir. "Modomiki, - deydi Prezidentimiz, - o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur. Agar olimlarimizning ilmiy-tadqiqot ishlari zahirida ana shu fikr, ana shu maqsad bo'lmasa, ularning sariq chaqalik ahamiyati yo'q".

Demak, avvalambor, ilgari yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni yaxshi anglab va tushunib, tom ma'nodagi ilmiy asarlar yozish lozim. Bunda Prezidentimizning bir guruh ziyoli vakillar, shu jumladan, tarixchilar bilan uchrashuvda bildirgan fikr-mulohazalari va Tarix instituti haqida e'lon qilingan maxsus farmoni muhim o'rin egallaydi. Endilikda qadimiy milliy tarix fani soxtalashtirish va bosqinchilarga xizmat qilishdan tamomila xalos bo'lib tozalandi va poklandi. Unga bamisoli jon va yangi ruh kirgizilib, u o'tmish va kelajakning yorqin ko'zgusi sifatida gavdalanib turibdi.

Tarixning bunday kuch-qudrati va ahamiyati haqida 700 yil muqaddam atoqli alloma Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy shunday degan edi:

***Kimki tutmas qalbida tarixini,  
U odam ham emas, olim ham emas.  
Biroq uqsa o'tmishini,  
Ko'p boyitar turmushini.***

Ovro'palik donishmandlardan biri Avgustin esa: "G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun uning tarixini targ'ibot etish zarur", degan edi.

Shu ma'noda, tarixchi olimlarning oldida Vatan ravnaqiga qaratilgan muhim va mas'uliyatli vazifalarni ado etish ko'ndalang turibdi. Ularni sidqidillik va bilimdonlik bilan amalga oshirish har bir tarixchining muqaddas burchidir.





# SIYOSIY PARTIYALAR VA DEMOKRATIYA TARIXIGA DOIR

Hozirgi zamonda demokratiya jahondagi ko'p mamlakatlar tomonidan yurgizilayotgan siyosatning asosini tashkil etmoqda. U O'zbekistonda ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ammo demokratiya va siyosiy partiyalar qachon va qayerda yuzaga kelganligini ko'pchilik bilmaydi. Ularning tarixini bilish va tegishli xulosalar chiqarish foydadan holi bo'lmaydi.

Demokratiya va siyosiy partiyalar miloddan avvalgi asrlarda birinchi marotaba Gretsiyada yuzaga kelgan edi. Demokratiya grekcha so'z bo'lib, xalq hokimiyati ma'nosini anglatadi. Shu bois Gretsiya demokratiyaning vatani va Yevropa madaniyatining o'chog'i sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning tarixi O'rta dengizning sharqiy tomoni, Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyoning g'arbiy qismi, Qora dengiz sohillari, qisman Italiya va Sidiliya bilan bog'liqdir.

Miloddan avvalgi ikki minginchi yilning oxirlarida Gretsiyada shahar va davlatlar tashkil topdi. Ular mil.av. VIII—VI asrlarda rivojlanib, o'zaro kurash olib bordilar. Masalan, Milet, Korinf, Efes, Kolofon, Lesbos, Xios, Samos, Megarex, Sikmon, Sparta, Afina va boshqa shaharlar shular jumlasidandir. Bu joylarda hokimiyat ayrim shaxslar tomonidan zo'ravonlik bilan bosib olinib, huquqlari chegaralanmagan holda ish yuritdilar. Davlatni bunday g'ayri qonuniy boshqargan hukmdorlar tiranlar deb yuritilgan.

Qadimgi grek olimi Aristotelning (mil. av. 384—322) yozishicha, tiranlar kambag'allarni ham, boylarni ham o'z tomoniga og'dirish uchun fuqarolar ko'z o'ngida o'zlarini kamtarin va oddiy kishi sifatida ko'rsatishga, yolg'on-yashiq va makkorlik bilan ish yuritishga harakat qilganlar. Biroq bunday siyosat tinimsiz davom etishi mumkin emas edi. Zero, unga qarshi kurash jarayonida demokratik boshqaruv tizimi va siyosiy partiyalar yuzaga keldi. O'z navbatida, aristokratlar va oligarxlar partiyasi tuzilib, ular demokratiyaning ashaddiy dushmani sifatida namoyon bo'ldilar.

Aristokratlar tarkibiga asrlar mobaynida hokimiyatni o'zboshimchalik bilan boshqargan katta yer egalari, yirik savdogarlar va boshqa zodagonlar kirgan. Hokimiyatni bir guruh kishilar, ya'ni ozchilik boshqarishi tarafdorlari oligarxlar deb atalgan. Umuman aytganda, aristokratlar bilan oligarxlarning siyosiy qarashlari asosan bir xil bo'lgan. Ammo vaqti soati kelib, ularning orasidan demokratlarning yirik vakillari yetishib chiqqan. Jamiyatning bunday ilg'or kishilari demokratiya uchun kurashlarga boshchilik qilganlar. Natijada, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash avjiga minib bordi. Aristokratlar va oligarxlar eski tuzum uchun kurashgan bo'lsalar, demokratlar yangilikni hayotga tatbiq etishni muqaddas burch hisoblaganlar. Shu tariqa Gretsiyada demokratlar va aristokratlar partiyasi yuzaga kelib, bir-biriga qarama-qarshi ikki xil siyosiy tuzum hukm surdi. Demokratiyaga Afina, aristokratlar va oligarxlarga Sparta boshchilik qildi.

## Afina

Agar Afinani ko'rmagan bo'lsang — quruq to'nkasan, Agar ko'rgan bo'lsan-gu, zavq olmagan bo'lsang — eshaksan, Agar o'z xohishing bilan ketgan bo'lsang — tuyasan. Bu satrlarda uning sha'niga aytilgan maqtov so'zlari bejiz emas. Zero, u yerda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot rivojlanib, o'z davri uchun demokratik tuzum o'rnatildi. Afina uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Mil. av. VIII asrda Afinada podshoh hokimiyati ag'darilib, demokratik boshqaruv borasida dastlabki kadamlar tashlandi. Hokimiyatga xalq tomonidan saylangan Orxontlar kengashi boshchilik qiladigan bo'ldi. Uning 9 kishidan iborat a'zolari dastavval umrbod, so'ngra

o'n yil va, nihoyat, bir yil muddatga saylanadigan bo'ldi. Har bir orxontning vazifasi belgilanib, xalq majlisida hisoboti eshitilib, faoliyatiga baho berilgan. Birinchi raqamli orxont davlat rahbari lavozimini egallagan.

Miloddan avvalgi 594 yilda Orxontlar kengashi Salonga yozma konstitutsiyani tayyorlash vakolatini berdi. Natijada demokratiyaning qonuniy asoslari ishlab chiqildi. Bunga ko'ra xalq majlisi oliy siyosiy tashkilot hisoblanib, davlat rahbarlarini saylagan. Siyosiy va insoniy huquqlar boylarga ham, kambag'allarga ham berildi. Ular xalq majlislarida teng huquqli fuqarolar sifatida qatnashganlar. Majlislarda amaldorlarning hisoboti eshitilib, faoliyati muhokama qilingan. Xalq sudining Salon konstitutsiyasi bo'yicha tuzilishi ham demokratiyaning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, to'rt yuz kishini o'z ichiga olgan kengash ta'sis etildi. Unga uch dahaning har biridan vakillar saylangan. Bu kengash ko'proq parlamentni eslatib, hokimiyatni boshqarishni nazorat qilib turgan. Bu borada u katta huquqlarga ega bo'lgan. Salon aristokratlarning zulmi orqasida qarzidor bo'lib qolgan dehqonlarning qarzdan ozod etdi hamda greklarni qarz evaziga qul sifatida sotishni taqiqladi.

Umuman aytganda, Salon jamiyat ahlining barcha tabaqalari bilan murosa qilib, ularning manfaatlarini ta'minlash uchun kurashdi. «Men, - degandi u, - kuchni adolat bilan qovushtirib, hech kimni xafa qilmadim va hech kimni ustun qo'ymadim. Oddiy xalqqa qancha huquq kerak bo'lsa, shuncha berdim. Uni qonuniy huquqlaridan mahrum etmadim. Lekin huquqlarni me'yoridan ortiq bermadim. Men katta boylikka va obro'ga ega bo'lgan kishilarni ham xafa qilmadim. Men mustahkam qalqon bo'lib boylarni ham, kambag'allarni ham muhofaza qilib, ularning biri ikkinchisidan ustun bo'lishiga yo'l qo'ymadim».

Ko'rinib turibdiki, Salon jamiyatda muvozanatni saqlab, adolatli siyosatni yuritgan. Ammo bunday siyosat osoyishtalik bilan kechmadi. Aristokratlar va oligarxlar demokratiya vakolatidan foydalanib, o'z siyosiy partiyalarini tuzib, Salon konstitutsiyasiga qarshi kurashdilar. Salon esa demokratiyani qattiq himoya qildi. U Gretsiyada demokratiyaning asoschisi sifatida shuhrat qozondi. Salondan keyin hokimiyat uchun kurash bir necha yillar davom etib, mil. av. 560 yilda uni Pisistrat zo'ravonlik bilan bosib oldi. U bir qo'lida demokratiyani, ikkinchisida yakka hokimlikni ushlab

ish yuritdi. Shuningdek, davlat boshqaruvini markazlashtirib, umumdavlat daromad solig'ini va shaxsiy gvardiyani joriy etdi. Klisfen demokratlarning Pisistrat yakka hokimligiga qarshi kurashi orqasida hokimiyatni qo'lga kiritdi. U Salon konstitutsiyasiga to'la rioya qilib, demokratiyani rivojlantirdi. Klisfen davlat to'ntarishining va tiran hokimiyati o'rnatilishining oldini olish uchun «Sopollar sudi» - Ostrokizmi joriy etdi. Unga binoan har bir kishi davlat to'ntarishi qilishga moyil hisoblagan kimsaning ismini sopol parchasiga yozgan. Bu sopol hisoblanganda, unga kimning ismi ko'p yozilgan bo'lsa, o'sha xavfli shaxs sifatida mamlakatdan o'n yilga surgun qilingan. Klisfen o'n kishidan iborat Strateglar kollegiyasini tuzib, uning a'zolariga flot va xalq ko'ngillilari askarlariga boshchilik qilishni topshirdi. Klisfen demokratiyaning asoschilaridan biri hisoblanadi.

Miloddan avvalgi 443-429 yillarda hokimiyatni boshqargan Perikl vaqtida demokratiya gullab yashnadi. Xalq majlisining mavqei va salohiyati oshirilib, har o'n kunda bir marotaba chaqirildi. Unda turli siyosiy va iqtisodiy masalalar muhokama qilinishi, qarorlar qabul qilindi. Yigirma yoshga yetgan har bir kishiga, boy va kambag'alligidan qat'i nazar, majlisda qatnashish va o'z fikrini oshkora bayon etish huquqi berildi. Unda amaldorlarning hisoboti tinglab turildi.

Periklning tashabbusi bilan besh yuz kishilik kengash tuzilib, uning a'zolari ma'muriy, moliyaviy, flot va boshqa sohalarga tegishli masalalarni ko'rib, ularni xalq majlisiga tavsiya etgan. Kengash davlatning oliy tashkiloti edi. Bundan tashqari, Perikl o'n kishidan iborat strateglar kollegiyasining faoliyatini davom ettirdi. Ular harbiy ishlarga boshchilik qildilar.

Perikl Afinada yirik qurilish ishlariga va obodonchilikka alohida ahamiyat berdi. Natijada shaharda hashamatli binolar qurilib, madaniyatning barcha sohaları keng ko'lamda rivojlandi. Olim va umuman ziyolilarga katta g'amxo'rlik ko'rsatildi. Ayniqsa, teatr san'ati ommaviy tus olib, ma'naviy hayotda salmoqli o'rinni egalladi. Perikl fuqarolarga, teatrgakirishlari uchun, davlat hisobidan chipta pulini ajratib turdi. Natijada minglab oddiy kishilar teatrga bepul kirishga muvaffaq bo'lishdi. U fuqarolarning savodli va bilimli, odobli va jasoratli, vatanparvar va jangovar bo'lishlariga e'tibor berdi. Sportni rivojlantirishga ham katta ahamiyat berildi.

Xullas, Perikl zamonida demokratiya o'zining oltin davrini boshidan kechirgan edi. Afina demokratiyasi tinchlik va osoyishtalik

bilan kechmay, aristokratlar va oligarxlar tarafdori Sparta bilan qattiq janglar olib borildi.

## Sparta

Sparta shahri Bolqon yarim orolidagi Peloponnes vodiysining Lakonika nomli joyida o'rinishgan edi. U vaqt o'tishi bilan uzoq va yaqin joylardagi shaharlarni o'z atrofiga birlashtirdi. Tub aholisi spartaliklar deyilgan. Ammo Sparta davlati qo'l ostida ittifoqchilar aholisi — perieklar va bosib olingan yerlar xalqi — ilotlar istiqomat qilganlar. Uch toifadan iborat bu xalqlarning haq-huquqlari bir xil bo'lmagan. Chunonchi, umum manfaat nuqtai nazaridan tuzilgan ittifoq ishtirokchilari aholisi pirovardida spartaliklarning tuzog'iga ilinib, qaram bo'lib qolganlar. Urushib olingan joylar aholisi — ilotlar spartaliklarning qullariga aylantirildi. Perieklar ozod xalq hisoblansada, siyosiy huquqlarga ega bo'lmay, spartaliklar jamoasiga yaqinlashtirilmagan. Spartaliklar hukmron va imtiyozli xalq sifatida hayot kechirib, qo'l ostidagi aholini qattiq zulm va ta'qib ostida ushlab turganlar. Spartada ham xalq majlisi tuzilgan, lekin amalda uning mavqei juda past bo'lgan. Davlatni asosan yigirma sakkiz kishidan iborat kengash va ayni vaqtda ikki podshoh boshqargan. Mamlakatda quldorlikka asoslangan aristokratik tuzum hukm surgan. Gretsiyaning ko'p joylarida qullar ko'proq xususiy kishilarning mulki hisoblangan bo'lsada, Spartada ularga davlat egalik qilgan.

Sparta davlati butun Gretsiyada yakka hokimlikni o'rnatish va aristokratik tartiblarni saqlash maqsadida harbiy kuchlar jangovarligini oshirishga qattiq harakat qildi. Bu borada muhim choralar izchillik bilan amalga oshirildi. Avvalambor, kishilarni jismoniy jihatdan chiniqtirish va vatanparvarlikni oshirishga alohida ahamiyat berildi. Hatto, yangi tug'ilgan chaqaloq ko'rikdan o'tkazilib, nimjon bo'lsa o'ldirilgan, sog'lom bo'lsa, ota-onasiga boqishga ruxsat berilgan. Bundan qo'shinga tetik va sog'lom yigitlarni tayyorlash nazarda tutilgan. Sog'lom onadan sog'lom farzandlar tug'ilishini yaxshi anglagan qizlar qaddi-qomatini roslash va chiniqtirish maqsadida qo'p vaqtlarini sportga bag'ishlaganlar. Ular disk otish, yugurish, mushtlashish, qurashish va sportning boshqa turlari bilan shug'ullanganlar.

O'g'il bolalar yetti yoshdan davlat tarbiyasiga olinib, yil bo'yi

oyoq-yalang yurishga, g'adir-budir joylarda uxlashga va dag'al kiyimlarni kiyishga o'rgatilgan. Ular sport va harbiy mashqlar bilan uzluksiz shug'ullanganlar. Ommaviy ravishda ovqatlanish, dam olish va mashq o'tkazilib, Sparta jamoasini mustahkamlash choralari ko'rilgan. Ayni paytda yoshlarning savodini chiqarish, qisqa, lo'nda va mantiqli so'zlashga o'rgatilgan. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan yuksak darajada tarbiyalash ota-onaning ham, davlatning ham muqaddas burchi hisoblangan. Farzandlarini yashi tarbiyalamagan ota-onalarga jarima solingan. Yoshlar yigirmaga kirganda, harbiy qismlarga olinib, oltmish yoshgacha, ya'ni qarib, kuch-quvvatdan qolguncha xizmat qilganlar.

Xullas, Sparta jamoasi harbiylashtirilib, uning aholisi ittifoqchilar va bo'ysundirilgan xalqlarga nisbatan o'zini «katta og'a» deb hisoblagan.

## **Demokratiyaga qarshi kurash**

Afinada demokratiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida unga qarshi muxolifat kuchlar, ya'ni aristokratlar va oligarxlar partiyasi shakllangani haqida yuqorida aytiladi. Bu xildagi partiya Afinaning o'zidagina emas, balki Gretsiyaning boshqa joylarida ham yuzaga keldi. Sparta aristokratlar va oligarxlar partiyasining ilhomchisi va tayanchi edi. Shu tariqa Gretsiyada bir-biriga qarama-qarshi ikki xildagi siyosiy tuzum hukm surdi. Natijada Gretsiya Afina va Sparta boshliq ikki qismga ajralib, ularning o'zaro kurashlari bir necha yillarga cho'zildi. Bu borada Afina ham, Sparta ham yolg'iz bo'lmay, ittifoqchilari bilan birgalikda harakat qildilar. Tenos, Delos, Paros, Niksos, Radis, Milet, Efes, Lesbos va boshqa joylar Afinaning ittifoqchilari edi. Sparta boshchiligidagi ittifoq Korinf, Olimpiya, Pilos, Kifera, Fiva, Delfi, Delin va shularga o'shah joylarni o'z ichiga olgan.

Afina shahrida aristokratlar va oligarxlar partiyasining rahbarlari birinchi bo'lib bosh ko'tardilar. Ular demokratlarga qarshi tuhmat va nayrangbozliklarni uyushtirdilar. Demokratik partiyaning sardori Perikl dushmanlarga qarshi ayovsiz kurashdi.

Har ikki tomon o'rtasida siyosiy va iqtisodiy sabablarga borib taqaluvchi urushlar yigirma yetti yil (mil. av. 431—404 y) davom etdi.

Shu orada bir necha marotaba uyushtirilgan harbiy yurishlar orqasida goh Afina, goh Sparta g'olib kelib, har ikki tomon katta talafot va vayronagarchiliklarni boshidan kechirdi. Ayniqsa, Afinada ommaviy kasalliklar, ochlik va yo'qchilikning avj olishi aholi tinkasini quritdi. Ko'p odamlar o'ldi va xo'jaliklari yer bilan yakson qilindi. Erondagi Ahomaniylar davlati Afinaning kuchayishi va rivojlanishidan cho'chib, Sparta ga harbiy yordam berdi. Busiz ham qudratli harbiy qismga ega Sparta yanada kuchaydi. Shuningdek, Afinaning o'zidagi va boshqa joylardagi aristokratlar hamda oligarxlar partiyalari demokratiyaga qarshi kurashib, Sparta ga katta yordam berdilar. Pirovardida Sparta Afinaga qaqshatqich zarba berib, g'alabaga erishdi. Mil. av. 404 yilda har ikki tomon o'rtasida tinchlik sulhi tuzilib, Afina Spartaning Gretsiyadagi yakka hokimligini tan oldi. Garchand keyingi yillarda Afina va boshqa yerlarda demokratiyani tiklash uchun kurashlar davom etgan bo'lsada, ularning ba'zi g'alabalari uzoqqa cho'zilmadi. Chunki Afina demokratiyasi ko'p yillar mobaynida olib borilgan urushlarda qattiq mag'lubiyatga uchragan edi. Natijada mil. av. IV asrning birinchi yarmida Gretsiyada, asosan, aristokratik tuzum hukm surdi. Bu vaqtlarda Gretsiyaga yuksalib borayotgan Makedoniya xavf tug'dirdi. Pirovardida Gretsiyada Makedoniya hukmronligi o'rnatildi. Butun mamlakatda aristokratlar va oligarxlar tartibi quyon surdi. Shu tariqa Afina demokratiyasi tor-mor etildi.

Xo'sh, Afina demokratiyasini qanday baholash mumkin?

Bu demokratiya xalq hokimiyatini, siyosiy va insoniy huquqlarni shakllantirishda, davlat boshqaruvini takomillashtirish va samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin egalladi. Jamiyat konstitutsiya asosida boshqariladigan bo'lib, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotni rivojlantirishga zamin hozirlandi. Demokratiya kishilarning siyosiy ongi va faoliyatini, dunyoqarashi va odob axloqini yuqori pog'onaga ko'tarib, fan va madaniyatning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U quldorlik tuzumi bag'rida paydo bo'lganligi uchun chuqur ildiz otolmay, mag'lubiyatga uchradi. Avvalambor, Afina demokratiyasi Gretsiya ozod xalqining manfaati uchun xizmat qildi. Mamlakat aholisining ko'pchiligi hisoblangan qullarga siyosiy va insoniy huquqlar berilmadi. Shuningdek, ozod xalqning ayollari ham demokratiyadan chetda qoldirildi. Oqibatda demokratiya tor doirada o'ralashib, keng qanot yozolmadi. Demokratik huquq va kafolatlardan foydalangan aristokratlar va oligarxlar o'z

partiyalarini bemalol tashkil qildilar. Bu bilan demokratlar o'z qo'yinlariga bamisoli ilonni solib qo'ydilar. Chunki aristokrat va oligarxlar Afina shahrining o'zida ham, boshqa joylarda ham Sparta rahnamoligida demokratiyani yakson qilish uchun hech narsadan toymadilar. Hatto ular aholining ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirishga erishdilar. Urush vaqtida Afinadan yigirma ming qul dushman Sparta tomoniga o'tib ketdi. Bunda aristokratlar va oligarxlarning ta'siri bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Demokratiyani zaiflashtirgan tomoni yana shunda bo'ldiki, Afina demokratik davlati o'z ittifoqchilariga «katta og'a» sifatida munosabatda bo'ldi. Bu ularda norozilikni uyg'otib, ittifoqning kuch quvvatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Demokratlar o'z majlislarida bahslashishda, shovqin-suron ko'tarishda, chiroyli so'zlashda tengi yo'q usta bo'lganlar. Biroq amaliy kurashga kelganda sustkashlikka yo'l qo'yanlar. Bu holat ham demokratiyaga putur yetkazdi.

## Tarixiy qiyos

Demokratiya yuzaga kelgan qadimgi davrdan buyon ikki yarim ming yildan ziyod vaqt o'tdi. Mana shu ko'p asrlar mobaynida Afina demokratiyasi biron-bir mamlakatda qayta tiklanmadi. Biroq o'sha joyda sepilgan demokratiya urug'i XX asrda barq urib ko'kardi. U zamon taraqqiyotiga monand ravishda har jihatdan yuksak darajaga ko'tarilib, misli ko'rilmagan samarani bermoqda.

Qizil imperiya ag'darilgandan keyin, sobiq ittifoqdosh respublikalarning ko'pida demokratiya yuzaga keldi. U, bamisoli yomg'irdan keyingi qo'zi qorindek, to'satdan va favqulodda paydo bo'ldi. Vaholanki, demokratiyani ta'minlashga qodir shart-sharoit hali yetilmagan edi. Shunga qaramay, muxolif kuchlar demokratiya bayrog'i ostida hokimiyat uchun kurashga kirishib, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqardi. Ayniqsa, kommunistlarning demokratik huquqlardan foydalanib, o'z partiyalarini tuzganligi demokratiyaga xavf tug'dirdi. Qadimgi Afina demokratiyasining ashaddiy dushmani aristokratlar va oligarxlar partiyasi hisoblangan bo'lsa, hozirgi zamon demokratiyasining kushandasi kommunistlar bo'lib qoldi. Ular, demokratiyaning o'zligidan



foydalanib, o'z partiyalarini mustahkamlashga va parlamentlarda ko'p o'rinni egallashga erishdilar. Bunday holatni ayniqsa, Rossiyada ko'rish mumkin. Bu yerda kommunistlar demokratiyani ag'darib, qizil imperiyani tiklash uchun qattiq kurashdilar. Shu bois ularning faoliyatiga imkon berilganligi katta siyosiy xato bo'ldi. «Rossiyaning o'zida, — deydi yurtboshimiz Islom Karimov, — menimcha, o'zini kompartiya deb ataydigan uchta yoki to'rtta partiya bor. Shuni aytmoqchimanki, ularning paydo bo'lishi, qaytadan oyoqqa turishi — men bu so'zni ongli ravishda ishlatyapman — avvalo, Rossiyaning o'zida va boshqa respublikalarda amalga oshirilayotgan islohotlardagi xatolar tufaylidir».

Bunday g'oyat qo'pol xatoga faqat O'zbekistonda yo'l qo'yilmadi. Bu respublikada tinchlik va barqarorlikni, islohotlarning samaradorligi va uzluksiz davom etishini ta'minladi, mitingbozlik, shovqin suronlar, tuhmat va nayrangbozliklar bartaraf etildi. Shuni doimo yodda tutish kerakki, O'zbekistonda hech qachon demokratiya inkor etilgani yo'q. Aksincha, demokratik davlatni bunyod etish asosiy vazifa hisoblandi. Bunga erishmoq uchun, birinchi navbatda, uning poydevorini qurish va boqichma-bosqich maqsadga erishishga kirishildi. «O'zbekiston, — deydi yurtboshimiz Islom Karimov, — mustaqilligini e'lon qilib, o'zining ma'naviy qadriyatlarini va aqliy salohiyatini tiklash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida tub o'zgarishlar, ijtimoiy himoyani ko'zda tutgan huquqiy demokratik davlat poydevorini qurish davriga qadam qo'ydi». 1993 yilda aytilgan ushbu so'zlardan buyon o'tgan davr ichida jamiyatni demokratlashtirishda ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Ammo uni amalga oshirish jarayonida Amerika va Yevropa mamlakatlarida O'zbekistonda demokratiya yo'qligi haqidagi da'volar quloqqa chalinib turdi. Hatto, O'zbekistonga munosabatni demokratiyaning bor yoki yo'qligiga qarab belgilash to'g'risidagi takliflar o'rtaga tashlandi. Ayrim qo'shni respublikalarda demokratiya mavjudligi ro'kach qilinib, O'zbekiston bu sohada go'yo orqada qolayotganlikda ayblandi. Shu bois men 1995 yilda Amerika Prezidenti Bill Klintonga maxsus xat yozib, demokratiya haqidagi quyidagi fikr-mulohazalarimni ma'lum qildim:

«Muhtaram Prezident janobi oliylari!

Mazkur xatni O'zbekistonning bir fuqarosi va tarixchi olimning shaxsiy fikri sifatida inobatga olishingizni so'rayman. Biz tomonlarda

Amerika Prezidenti har bir kishining fikr-mulohazalariga va takliflariga hurmat bilan qarab, tegishli javob beradi, degan ishonch hukm suradi. Shu bois xat yozishga jazm qildim. Shubhasiz, sizda bu xatning muallifi kim bo'ldiykin, degan savol tug'ildi.

Men Toshkent shahrida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Tarix institutida salkam 50 yildan buyon O'rta Osiyo tarixi bo'yicha ilmiy ish bilan shug'ullanib kelmoqdaman. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori va professor unvonlari sohibiman. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi qatnashchisiman.

Men bu yil 75 bahorni ko'rdim, lekin uning 69 yili sovet quldorlik tuzumida va temir panjara bilan o'ralgan mamlakatda bekorga o'tib ketdi. Chunki mustaqillikdan, siyosiy va insoniy huquqlardan, xususiy mulkdan va dindan mahrum etilgan hayot bir tiyinga qimmatdir. To'g'ri, sovet davrida olimlar, injenerlar, agronomlar, vrachlar va boshqa o'rta hamda oliy ma'lumotli kishilar ko'plab yetishtirildi. Biroq fojia shundan iboratki, ular savodli va bilimli qullar edilar, xolos. Nihoyat, 1991 yil 31 avgustda birinchilar qatori O'zbekistonning mustaqilligi e'lon qilinib, mustamlakachilik va milliy zulm zanjirlari parchalandi. Men xuddi shu kuni onadan ozod kishi sifatida yangidan tug'ildim. Bu tarixiy voqeaga ham, mening ozodlikka chiqqan kunimga ham salkam to'rt yil bo'ldi.

Endilikda o'z xalqim qatori men ham bir yuz o'ttiz yillik milliy zulmdan va ayovsiz talon-torojlardan holi bo'lib, o'z Prezidentimizga, Parlamentimizga, Konstitutsiyamizga, Davlat bayrog'imizga, Madhiyamizga va Gerbimizga ega bo'ldik. O'zbekiston jahon davrasida mustaqil va ozod respublika sifatida yarqirab turibdi. O'zbekiston va boshqa respublikalarning qizil imperiyaning panjasidan ozod etilishida Amerikaning tutgan o'rni beqiyos katta bo'ldi. Shuningdek, uning fashizmning tor-mor etilishidagi xizmatlari tarixda o'chmas iz qoldirgan edi.

Amerika XX asrning butun ikkinchi yarmi mobaynida bir necha o'nlab trillion dollarni sarflab va muhim choralarni ko'rib, qizil imperiyaning yovuz siyosatiga qarshi tog'dek to'siq bo'lib turdi. U o'zining demokratiyasi, taraqqiyoti va farovon hayoti bilan «sovet turmush tarzi»ning kishilar boshiga bitgan bir baloligini jahon ko'z o'ngida namoyish etib turdi. Qizil imperiyaning parchalanishida Amerikaning «Ozodlik radiosi»ning tutgan o'rni katta ahamiyat kasb etdi. To'liqini butun olamga taralgan bu radio kommunistik g'oyalar

va totalitar tuzumning g'ayri tabiiyligi va halokatga uchrashi muqarrarligini mazlum xalqlar ongiga singdirib bordi. Ayniqsa, perestroyka, ya'ni qayta qurish davrida «Ozodlik radiosi»ning faoliyati va ta'sir doirasi yuqori cho'qqiga ko'tarildi. U qizil imperiyaga qarshi qaratilgan qudratli ma'naviy qurol sifatida bebaho xizmat qildi.

Xullas, Amerikaning demokratiyasi va taraqqiyoti, harbiy texnikasi va ommaviy axborot vositalari qizil imperiyaning parchalanishida muhim o'rin egalladi. Bu haqiqatni eslatib o'tishdan maqsad shuki, Amerika qizil imperiyaning ag'darilishida shuncha katta ishlarni qilgan ekan, hozirda mustaqil respublikalarga munosabati qanday kechayotir, degan savol tug'iladi.

Mening nazarimda, Amerika rahbariyati imperiyaning ag'darilishining o'zi bilan qanoat hosil qilib, O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga yetarli darajada e'tibor bermayotir. Vaholanki, qizil imperiya hali tamomila yo'q qilinib tashlangani yo'q. Uning ildizlaridan o'sib chiqayotgan qora kuchlar zo'r berib totalitar tuzumni tiklashga harakat qilmoqdalar. Bu holat, ayniqsa, «demokratiyaga» keng yo'l berilgan respublikalarda ko'zga tashlanmoqda. Shunga qaramay, Amerika va G'arbiy Yevropada, mustaqil respublikalarda, shu jumladan O'zbekistonda demokratiyani rivojlantirishni asosiy masala sifatida targ'ibot qilish va amalga oshirish talab etilmoqda. Shu munosabat bilan demokratiyaning fojiali oqibatlariga bir nazar tashlaylik. Masalan, Rossiyada demokratiyaning jilovini qo'yib yuborgan Prezident Boris Yel'sin oxirgi parlament saylovidan keyin bamisoli «yomg'irdan qutulib qorga tutildi». Kommunistlar, Jirinovskiylar va boshqa qizil imperiyani tiklash tarafdorlari demokratik tartiblardan va saylovlardan foydalanib, o'zlarining baquvvat partiyalarini tuzdilar. Ular hukumat ostonasida va parlamentda mustahkam joylashib, hokimiyatni egallash uchun shaylanib turibdilar. Hozir Rossiyaning o'zida kommunistlarning soni bir million kishi hisoblanib, KPSSni tiklash asosiy maqsad qilib qo'yildi. Ularda ishonch shu darajada kuchliki, hatto «XXI asr kommunistlar tantanasi asri» bo'ladi, deb jar solmoqdalar. Xavf-xatarli holat Tojikistonda, Qozog'istonda va Qirg'izistonda ham yuz berib, kompartiyalar tuzildi. Ulardan deputatlar ham saylandi. Umushashtirganda, bu uchala respublikadagi kompartiya a'zolarining soni o'rta hisobda 30 ming kishiga boradi. Agar Ukraina, Belorussiya va boshqa joylardagi

kompartiyalarning salmog'i hisobga olinsa, hali ham qizil imperiyaning joni uzil-kesil chiqmaganligini ko'ramiz. Aksincha, qizil imperiya zimdan jonlanib va qaddini rostlab bormoqda.

Endi nima uchun demokratiyani rivojlantirish fojiali kechmoqda, degan savol yuzaga keladi.

**Birinchidan**, masalani yaxshiroq anglatish uchun bir rivoyatni keltiraman. Bunga ko'ra, qadimgi zamonlarda ko'rkamlikda va mevasining shirinligida tengi yo'q antiqa daraxt bo'lgan ekan. Bu daraxt tuprog'i, suvi va havosi toza joyda shifobaxsh meva berar ekan. Bordiyu shu daraxtning ko'chati ko'rsatilgan yaxshi xususiyatlarga ega bo'lmagan, ya'ni mos tushmaydigan sharoitdagi yerga ekilsa, u vaqtda mevasidan zahar tomchilab turar ekan. Pirovardida bu zahar daraxtning o'zini ham quritgan. Shunga o'xshash, respublikalarda demokratiyani rivojlantirishga mos tushadigan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit yetilgani yo'q, mana shunday noqulay vaziyatda bemalol qo'llanilayotgan demokratiyaning mevasidan zahar, ya'ni qora kuchlar yuzaga kelmoqda. Pirovardida, bu kuchlar hokimiyatni qo'lga olgan taqdirda o'zini tug'dirgan demokratiyani quritishi aniq. Bu yerda bol'sheviklarning 1917 yilgi burjua demokratik revolyutsiyasidan foydalanib, hokimiyatni bosib olganliklarini, so'ngra o'zlarining yuzaga chiqishlariga imkon tug'dirgan demokratiyani qo'porib tashlaganligini eslatib o'tish kifoya. Umuman aytganda, hali maktab yoshiga yetmagan respublikalardan demokratiyani rivojlantirishni talab qilishning vaqti kelgani yo'q. Chunki hozir O'zbekistonda va boshqa Markaziy Osiyo respublikalarida mustaqillik va demokratiyaning poydevorini shakllantirish jarayoni borayotir. Bu birinchi bosqichning to'rtinchi yili ketayotir, xolos. Ota-ona va tarbiyachi bog'cha bolasini yiqilishdan, falokatlardan, kasalliklardan va yomon odamlardan qanday saqlasa, ardoqlasa, endigina qadam tashlayotgan demokratiyani ham shunchalik asrash shartdir. Aks holda fojia ro'y berishi aniq. Buni qonli urushlar bo'lgan va davom etayotgan respublikalar misolida ko'rib turibmiz.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekistonda demokratiyani sun'iy ravishda jadallik bilan rivojlantirishning ayanchli oqibatlari hisobga olindi.

**Ikkinchidan**, hozirgi sharoitda demokratiyaning rivojlantirishga xalqning o'zi ham tayyor emas. Sovet davrida siyosiy faoliyati bo'g'ib tashlanib, boqimandalik kayfiyati hamda «qorin to'ysa bas», degan

fikr bilan yashagan va bunga tamomila moslashib ketgan xalqning ko'pchiligi darhol demokratiya asoslarini tushinishi va qadr-qimmatiga yetishi ancha qiyin. Shuning uchun ham hukm surayotgan yetishmovchilik, qimmatchiliklar va qonli to'qnashuvlar ko'pchilikning dardiga aylanib qoldi. Hatto, sovet davrini qo'msayotgan kishilar oz emas. Agar Markaziy Osiyo respublikalari aholisining 60—75 foizi qishloqlarda va ovullarda yashayotganligi hisobga olinsa, demokratiyani rivojlantirishga yana bir necha yillar kerakligi ma'lum bo'ladi.

Axir Amerika va Yevropa mamlakatlarida demokratiyani shakllantirishga va rivojlantirishga bir necha o'n yillar va bundan ham ko'p vaqtlar ketganligi sir emasku. Shunday bo'lgandan keyin, nima uchun endigina qullikdan qutulib, oyoqqa turayotgan respublikalardan ishni demokratiyani rivojlantirishdan boshlashni talab qilinmoqda?

Muhtaram Prezident janobi oliylari!

Umumiy xulosa shundan iboratki, nihoyatda og'ir va qaltis sharoit hamda qizil imperiyani tiklash harakatlari hukm surayotgan bir paytda Amerikaning u yoki bu respublikalarga munosabatini ulardan demokratiyani rivojlantirishni talab qiladigan holda belgilashini to'g'ri deb bo'lmaydi. Chunki sharoit taqozasiga qaramay demokratiyaning sun'iy ravishda rivojlantirilishi orqasidan mustaqillikni himoya etuvchi milliy partiyalar bilan bir qatorda, kommunistlarni va boshqa imperiyani tiklash tarafdorlarining partiyalari yuzaga kelganligining guvohi bo'lib turibmiz. Bir-biriga zid ikki lager to'qnashgan taqdirda olg'irlikda, zo'rvonlikda, shafqatsizlikda, keskinlikda va uyushqoqlikda o'ta tajribali kommunistlar kuch-quvvatga to'lmagan milliy demokratik partiyalarni osonlik bilan tor-mor etishi turgan gap. Bu yerda kommunistlarning Rossiya qo'shinidagi salmoqli ta'siri hisobga olinsa, masala yanada oydinlashadi. Shuning uchun milliy partiyalar qora kuchlarni ro'yobga chiqaruvchi demokratiyani rivojlantirishdan voz kechib, qanday bo'lmasin mustaqillikni saqlashni asosiy vazifa, deb hisoblashlari kerak. Boshqacha aytganda, barcha erksevar kuchlar xalq tomonidan saylangan Respublikarabariyati atrofigajiplashgan holda ish yuritishlari shartdir. Bunday qilishning o'ta samaradorligini O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkin. Bu respublikada tinchlik va barqarorlik hamda barcha milliy partiyalarning birdamligi gavdalanib turibdi. Amerika mana shunday tinch totuvlikni va mustaqillikni ta'minlovchi oqilona siyosatni qo'llab-quvvatlashi, harbiy, iqtisodiy va madaniy yordamini ko'rsatishi lozim, deb o'ylayman.

Ma'lumki, insoniyat tarixining har bir davrida jahon miqyosidagi masalalarni hal etish ko'proq u yoki bu qudratli va taraqqiy etgan davlatning zimmasida bo'lgan. Mening nazarimda, xudoyi taoloning marhamati bilan XX asrda bunday sharaflı vazifa asosan Amerika zimmasiga yuklatilgan. O'ylaymanki, bundan keyin ham Amerika rahbariyati tashabbusi va xalqaro mavqeini susaytirmay, umum insoniy manfaatlarni himoya qilishda oldingi safda turadi. Ma'lumki, O'zbekiston qadimdan Markaziy Osiyoning yuragi va tayanchi, xudoyi taoloning mehri yoqqan o'lkadir. Zero, ona yurtimda oltin, kumush, mis, uran, gaz, neft', ko'mir, marmar, paxta, shirinlikda tengi yo'q nozu ne'matlar, qo'yingchi, inson hayoti uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasi bor. Bu serquyosh o'lkada o'tmish zamonlarda qator yirik imperiyalar tashkil topgan. Ona yurtimning buyuk o'tmishi bilan faxrlanaman va buyuk kelajagiga ishonaman. Qani endi amerikaliklar jannatmakon va jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan O'zbekistonga tez-tez tashrif buyursalar, albatta, uni dildan sevib qolishlariga ishonchim komil.

Qadimiy va hamisha navqiron, saxiy va mehmondo'st o'zbek xalqi Amerikani tinchlikni va demokratiyaning namunasi sifatida yaxshi biladi. Biroq «ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi», deganlaridek, o'zbeklarga afsonaviy Amerikani ko'rishga qulay imkoniyatlar yaratilsa, shubhasiz, do'stlik aloqalari mustahkamlanib borar edi. Hamda Amerikaga qilingan safarlar kishilar ongining kommunizm g'oyalari va sovetparastlikdan tozalanishiga ijobiy ta'sir etardi.

Xullas, Amerika va O'zbekiston aloqalarining barq urib rivojlanishi shu kunning talabidir. Bu ishda Siz Prezident janobi oliylariga va yurtboshimiz Islom Karimovga salomatlik hamda muvaffaqiyatlar tilayman.

Samimiy salom va hurmat bilan Hamid Ziyoyev. 1995 yil, iyun».

Mazkur xat matni 1995 yil iyul oyining ikkinchi yarmida «Ozodlik radiosi» orqali eshittirildi. Ayni paytda Toshkentdagi Amerika elchixonasida ingliz tiliga tarjima qilinib, «Oq uy»ga jo'natildi. Ma'lum vaqtdan keyin Amerika elchixonasidan javob oldim. Unda shunday deyilgan:

«Hurmatli Ziyoyev janoblari!

Prezident nomiga yozgan xatingiz uchun samimiy minnatdorchilikni qabul qilishingizni Sizdan so'raymiz. Xat «Oq uy»ga yetib borganligiga to'la ishonning. Ammo Amerika Prezidenti juda ko'p xat va boshqa turli axborotlarni olib turishi orqasida har bir xatga

javob berish imkoniyatiga ega emas. Men Amerikaning O'zbekistondagi elchisi va Prezidentimizning sizning vataningizdagi shaxsiy vakili sifatida uning nomidan sizni to'la ishontiramanki, Prezident ham, men ham kelajakda O'zbek-Amerika aloqalarini rivojlantirish uchun harakat qilmoqdamiz.

Xurmat bilan Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi Stenli Eskudero».

Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, sovet davrida bir oddiy olimning u yoki bu xorijiy davlat boshlig'iga shaxsiy fikrini bayon etib xat yozishi mumkin edimi? Albatta, bunga yo'l berilmay, ayblanishi turgan gap edi. Allohga shukrlar bo'lsinki, Mustaqillik sharofati ila har bir kishi so'z erkinligiga muayassar bo'ldi. Bu respublikamizda jamiyatning demokratlashtirilayotganligining yorqin namunasidir.

Umumiy xulosa shundan iboratki, demokratiya va siyosiy partiyalarning ildizlari chuqur tarixiy davrlarga borib taqaladi. U dastavval Afinada paydo bo'lib, Gretsiyaning talay qismini qamrab oldi. Ular quldorlik tuzumida hukm surgan bo'lsada, asli mohiyati jihatidan unga zid edi. Shu bois uning doirasidan chiqib ketolmay, chuqur ildiz otolmadi va keng quloch yoya olmadi. Bu holat demokratiyaning zaiflanishiga olib keldi. Aristokratlar va oligarxlar partiyasi esa quldorlik tuzumining mahsuli va uning himoyachisi sifatida ish yuritib, mustahkam tayanchga ega edi. Unga Spartadek qudratli quldorlik davlatining boshchilik qilishi ham g'alabani ta'minladi. Pirovardida demokratiya tor-mor qilindi. Shunga qaramay, Afinada bundan ikki yarim ming yildan ortiqroq vaqt ilgari demokratiyaning kashf etilishi va uning asoslari ishlab chiqilishi insoniyat tarixidagi muhim voqea hisoblandi. Zero, u hozirgi zamon demokratiyasining tarixiy negizi sifatida o'z ahamiyati va qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q.

Shuni uqtirib o'tish lozimki, O'zbekistonda haqiqiy demokratiyani shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlovchi siyosat izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bunday ilmiy asosga ega siyosat umri boqiy demokratiyani yuzaga keltirishiga shubha yo'q.



# SOVET IMPERIYASI NIMA UCHUN AG'DARILDI?



Sovet Ittifoqining barbod bo'lishi haqida turli qarashlar mavjud. Aslida uning qulashiga olib kelgan asosiy omil tuzumdur.

*Islom Karimov*

Yurtboshimiz bu fikrni 2001 yil dekabr oyi boshlarida Rossiya televideniyesining «Belovejsk shartnomasi»ning<sup>66</sup> 10 yilligiga bag'ishlangan ko'rsatuvida bayon etganlaridan ko'pchilikning xabari bor. Ushbu ta'rif har jihatdan haqiqatni aks ettirishiga shubha bo'lmasada, masalani noto'g'ri tahlil va targ'ib qilayotgan kimsalar bor. Ularning ba'zilar sovet imperiyasining ag'darilishiga go'yoki M.Gorbachev va B.Yelsin sababchi bo'lganlar, deb ayyuhannos solmoqdalar. Boshqalari esa yana qandaydir sayoz, tarixiy haqiqatga o'ta zid «asoslarni» keltirishga urinmoqdalar. Chunonchi, Rossiya siyosatchilaridan biri Sergey Shaxray «Sovet Ittifoqi nima uchun halokatga uchradi» («Ot chego umer Sovetskiy Soyuz») maqolasida kishini taajjublantiradigan fikrlarni keltirgan. Uning aytishicha, sovet konstitutsiyasida ittifoqdosh respublikalarga SSSRdan ajralib chiqish huquqi berilganligi imperiyaning qulashiga olib kelgan birinchi omillardan biri emish. Vaholanki, o'sha quruq qog'ozdagi huquq «xo'ja ko'rsin»ga yozilgan bo'lib, hech qanday amaliy kuchga

<sup>66</sup> 1991 yil 8 dekabrda Rossiya, Belorussiya va Ukraina rahbarlari «Belovejsk shartnomasi»ni imzolab, SSSRning tugatilganligini rasmiylashtirganlar.



ega bo'lmagan. Bunday qalbaki huquq bolsheviklar tomonidan sovet davlatining dastlabki yilida rasmiy sur'atda e'lon qilindi. Bu siyosiy nayrangdan boshqa hech narsa emas edi, chunki unga ishonib mustaqillikni tiklashga qaratilgan harakatlarga qaqshatqich zarba berildi. Xususan, bolsheviklar Turkiston Muxtoriyati, istiklol uchun kurash («bosmachilik») harakati va boshqa qo'rinishdagi kurashlarni shafqatsizlarcha bostirdi. 20-30 yillarda o'tkazilgan ommaviy va siyosiy qatag'onlarning negizida ham milliy ozodlik g'oyalariga qarshi kurash o'z ifodasini topdi.

Sovet davrida boshdanoq RSFSR kommunistik partiyasi markaziy komiteti tashkil qilinmadi. Ammo Sergey Shaxrayning ko'rsatishicha, XX asrning 80-yillari oxiriga kelib Ivan Polozkov va Gennadiy Zyuganovlar tomonidan uning Rossiyada tuzilishi KPSSni, qolaversa, sovet davlatini halokatga uchratishda hal qiluvchi o'rinni egallagan emish. Vaholanki, bunday chora Sovet Ittifoqi o'lim to'shagida yotganidagina ko'rilgan edi. Imperiyani halokatga uchratgan asosiy omil esa, davlatimiz rahbari juda to'g'ri aytganlaridek, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdur. Shu munosabat bilan masalaning ayrim muhim jihatlariga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

**Birinchidan**, bolsheviklar 1917 yilda davlat to'ntarishini uyushtirib, hokimiyatni favqulodda va tasodifan egalladilar. Shunga monand ravishda sovet davlati bosqinchilik, adolatsizlik, shafqatsizlik va olg'irlik singari xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda shakllandi. Bunday tug'ma xususiyatlarga asoslangan ichki va tashqi siyosat yetmish yildan ortiq davom etib, dahshatli fojialarni yuzaga keltirdi.

Bu yerda nima uchun shunday siyosat yuritilgan edi, degan savol tug'iladi.

Ma'lumki, bolsheviklar mamlakatda tamomila yangi tuzum-sotsializmni qurishni asosiy maqsad qilib qo'ydilar. Biroq bu o'ta murakkab ishni amalga oshirish uchun siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ya'ni zamin tamomila yetishmagan edi. Shunga qaramay kommunistik partiya rahbarlari, «sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga», deyilganidek, asrlar mobaynida hukm surayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni ostin ustun qilish va qatag'onlarni uyushtirish hisobiga sotsializmni qurishga mukkadan tushib ketdilar. Shu tariqa, sotsializm qurish uchun shart-sharoit yo'qligi sababidan sovet davlatining totalitar siyosatni yurgizishdan boshqa iloji qolmadi. Bunday yo'lni tutish o'z-o'zidan siyosiy va insoniy huquqlarni

bo'g'ish va butun mamlakatni «temir qafas»ga o'rashni taqozo etdi.

Ayniqsa, milliy respublikalar mustamlakachilik va ulug' millatchilik siyosati iskanjasida qattiq tutib turildi. To'g'ri, ularda yuzaki qaraganda mustaqillikni anglatuvchi konstitutsiya, parlament, bayroq, gerb va madhiya singari belgilar ta'xis qilindi. Biroq ular mustamlakachilik siyosatini niqoblash uchun qilingan soxta ish bo'lib, amalda respublikalarning kundalik hayoti, taqdiri va umuman jilovi markazning shafqatsiz panjasida edi.

Sovet davrida o'n millionlab kishilar siyosiy qatag'onlarning qurboni bo'ldi. Rossiya matbuotida ko'rsatilishicha, ularning soni qirq million kishini tashkil qildi. Sotsializmni qurish uchun olib borilgan kurashlar jarayonida behisob qonlar to'kildi, dahshatli yillar boshdan kechirildi; nazorat va ta'qiblar avjiga mindi. Lekin sotsializm emas, quldorlik tuzumi tashkil topdi. Ma'lumki, quldorlik ko'p asrlar burun «oshini oshab, yoshini yashab», tarix yodgorligiga aylangan. Uning bevaqt paydo bo'lishi o'sha zamon ruhi, talabi va taraqqiyotiga zid edi. Shu bois quldorlik tuzumi jamiyatda ildiz ota olmay, davlatni ich-ichidan chiritib bordi. Bu halokatli dardga tish-tirnog'igacha qurollangan qo'shin ham malham bo'la olmadi. Shunday qilib quldorlikka asoslangan g'ayritabiiy siyosiy boshqaruv tizimi imperiyani halokatga uchratgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Ikkinchidan**, sovet davrida xususiy mulkchilik va erkin bozor taqiqlanib, yagona davlat mulk egaligi joriy qilindi. Tabiatdagi barcha jonli va jonsiz mavjudot, xususan, yer, suv, tog'u toshlar, cho'llar, hayvonot va o'simlik dunyosi davlatniki bo'lib qoldi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ham davlat qo'l ostiga olindi. Natijada, kishilarning shaxsiy tashabbusi va manfaatiga qattiq zarba berilib, majburiy mehnat va ishga yarasha haq to'lamaslik keng ko'lamda rivojlantirildi. Shu tariqa sovet davrida qul mehnati yuzaga kelib, fuqarolar siyosiy va insoniy huquqlardan mahrum etildi. Ayniqsa, qulchilik qishloqlarda o'zining cho'qqisiga ko'tarildi. Bu jarayonlarda odamlarning umri og'ir va mashaqqatli mehnatda chiridi. Bularning hammasi xususiy mulkchilik taqiqlanishining mahsuli edi. Tarix xususiy mulksiz hayotni tasavvur etib bo'lmasligi haqida guvohlik beradi. Chunki xususiy mulkchilik odamlarni yovvoyilikdan taraqqiyotga chorlagan, shahar va davlatlarni yuzaga keltirgan muhim omillardan biri hisoblangan. Uni moddiy va ma'naviy hayotning ustuni, deyilsa aslo xato bo'lmaydi.

Qanchalik qattiq harakat qilmasin, sovet davlati iqtisodning samaradorligini baribir ta'minlay olmadi. Partiya siyosiy byurosi

hamda hukumat xalq xo'jaligini rivojlantirish va farovon hayotni ta'minlashga qaratilgan behisob qarorlarni ketma-ket e'lon qilaverdi. Ammo arzigulik natijaga erishilmay, jahon iqtisodiyoti va turmush darajasidan juda orqada qolindi. Bunday bo'lishi tabiiy edi. Chunki taraqqiyot va mo'l-ko'chilikning ildizi — xususiy mulkchilik va erkin bozor qo'porib tashlangan edi. Sovet davrida milliy respublikalarni Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi ham juda fojiali kechdi. Misol uchun, O'zbekistonni olaylik. Yurtimizda paxta yakka hokimligining o'rnatilishi orqasida g'allachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilikka qattiq zarba berildi. Mineral o'g'itlarning me'yoridan ortiq ishlatilishi orqasida yer, suv va havo zaharlandi. Natijada xalq turli kasalliklarga duchor bo'ldi. «Paxta vasvasasi»ning azob-uqubatini tortmagan odamni topish amri mahol edi. Paxta, ipak, oltin, uran, gaz va boshqa tog' jinslari, ho'l va quruq mevalarning sarasi metropoliyaga uzluksiz olib ketildi. Bundan tashqari, markaz respublikaga tayyor sanoat mollarini kiritishdan ham katta daromad oldi. Demak, xususiy mulkchilik va erkin bozorning yo'qotilishi, qo'l mehnatining joriy qilinishi, respublikaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi iqtisodni tuzatib bo'lmaydigan dardga chalintirdi. Bu esa imperiyaning ag'darilishini ta'minlashda muhim o'rin egalladi.

**Uchinchidan**, sovet davrida u yoki bu xalqning o'ziga xos va mos turmush tarzi, milliy his-tuyg'ulari va an'analari oyoq osti qilindi. Milliy g'oyaning har qanday ko'rinishlariga zarba berilib, o'rniga zo'ravonlik bilan kommunistik g'oya kiritildi. Ulug' millatchilik ruhi bilan sug'orilgan bu g'oya kishilarning siyosiy ongi va faoliyatining o'sishiga, ona yurt bilan g'ururlanishi va faxrlanishiga qarshi tinimsiz kurashdi. O'tmishdagi davlat arboblarning, ozodlik uchun jonini tikkan qahramonlarning va olimu fozillarning qadr-qimmatini o'rniga qo'yish va ommalashtirish taqiqlandi. Olamshumul ahamiyatga molik boy tariximiz soxtalashtirildi va obidalar xarobaga aylantirildi. Umuman dinning, xususan musulmonchilikning taqiqlanishi, masjid va madrasalarning buzib tashlanishi, din peshvolarining otilishi va diniy asarlarning yoqilishi ma'naviy hayotni izdan chiqardi. Kommunistik g'oya yuqorida ko'rsatilgan tarzda yetmish yildan ortiq vaqt mobaynida jamoa ahlini milliy manfaatlariga yot dunyoqarash bilan zaharladi. U qanchalik fojiali bo'lmasin, bari-bir milliy g'oyani ko'tarib tashlay olmadi. Chunki u puxta zamini bo'lmagan, «usti yaltiroq, ichi qaltiroq» qalbaki

g'oya sifatida gavdalandi. Shuning uchun ham kommunistik g'oya sovet davlatini yemirgan omillardan hisoblanadi.

**To'rtinchidan,** garchand imperiya har jihatdan juda zaiflashib, halokat sari qadam tashlayotgan bo'lsada, hali katta harbiy qudratga ega edi. Biroq Rossiyada ham, respublikalarda ham totalitar tuzumga qarshi kurash kuchli to'lqinga aylanib bordi. 1990 yil 11 martda Litva, o'sha yilning 4 mayida Latviya, 1991 yil 9 aprelda Gruziya rasmiy sur'atda mustaqillikni tikladilar. 1990 yilning mart oyida respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Bularning bari sovet imperiyasi asoslariga berilgan juda katta zarba hisoblanardi. Shuning uchun 1991 yil avgustda kommunistik partiya va sovet hukumatining bir guruh yetakchilari davlat to'ntarishi yo'li bilan imperiyani saqlab qolish maqsadida fitna uyushtirdilar. GKCHP nomidaga bu fitna mag'lubiyatga uchragandan keyin imperiyaning halokati tezlashdi. Chunonchi, 1991 yil 21 avgustda M.Gorbachyov KPSSning Bosh kotibliги vazifasidan voz kechib, KPSSni tarqatishga da'vat qildi. Shu ravishda o'lim to'shagida yotgan qizil imperiyaning taqdiri uzil kesil hal etilib, respublikalar 1991 yilning turli oylarida rasman mustaqilliklarini tikladilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, bizda ayrim kishilar o'ylaganidek, mustaqillik osonlik bilan emas, kurash bilan qo'lga kiritildi. 1989—1991 yillar orasida imperiya jon talvasasida qilichini qayrab, qirg'in-barotlarni boshlashga tayyor turgan edi. Unga ozgina bahona topilsa bas, darhol qonli to'qnashuvlarni uyushtirishi aniq edi. Ayrim respublikalarda bunday qabih ishlar qilinganligi hamon yodimizda.

Xavf-xatarli vaziyatning yanada keskinlashishiga «chala demokratlar»ning xatti-harakatlari ham sabab bo'lgandi. «Chala ovqat oshqozonni, chala mulla boshni buzadi» deganlaridek, ular hali g'o'ra bir to'da yoshlarni va shabko'r kishilarni orqasidan ergashtirib, «suvni loyqalatish»ga harakat qildilar. Shuningdek, qul tabiat va boqimandalik suyagigacha singan, imperiyaga sig'inayottan kishilar oz emas edi. Bunday og'ir va murakkab sharoitda yuksak aql-idrok, jasorat, mardlik bilan ish yuritish taqozo etilardi. Xalqimizning baxtiga yurtboshimiz Islom Karimov mana shunday oliy fazilatlar sohibi edi. U «yetti o'lchab, bir kesilgan» siyosatni izchillik bilan amalga oshirib, qon to'kilishi va katta to's-to'ponlarning oldini oldi. Natijada, 1991 yil 31 avgustda mustaqillik bir tomchi qonsiz, bamisoli sher og'zidan tortib olindi. Prezidentimiz boshchiligida qo'lga kiritilgan ushbu buyuk g'alaba

Respublikalar	Kommunistik partiyalarning tugatilishi	Mustaqillikning tiklanishi
Litva	1991 yil 23avgust	1990 yil 11 mart
Latviya	1991 yil 10 sentabr	1990 yil 4 may
Gruziya	1991 yil 26 avgust	1991 yil 9 aprel
Estoniya	1991 yil 22 avgust	1991 yil 20 avgust
Ukraina	1991 yil 30 avgust	1991 yil 24avgust
Belorusiya	1991 yil 25avgust	1991 yil 25avgust
Moldaviya	1991 yil 24avgust	1991 yil 27avgust
Ozarbajon	1991 yil 14 sentabr	1991 yil 30 avgust
O'zbekiston	1991 yil 14 sentabr	1991 yil 31 avgust
Qirg'iziston	1991 yil 31 avgust	1991 yil 31 avgust
Tojikiston	1991 yil 2 oktabr	1991 yil 9 sentabr
Armaniston	1991 yil 7 sentabr	1991 yil 21 sentabr
Turkmaniston	1991 yil 26 avgust	1991 yil 27oktabr
Rossiya	1991 yil 6 noyabr	1991 yil 12 dekabr
Qozog'iston	1991 yil 7 sentabr	1991 yil 16dekabr

imperiyaning butunlay ag'darilishini tezlashtirdi. Birinchi navbatda uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi mavqei va salohiyatiga qaqshatqich zarba berilib, qo'shni respublikalarni ruhlantirish va ozodlik kurashiga otlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Demak, yetmish yildan ortiq vaqt mobaynida hukm surgan xususiy mulksiz va dinsiz jamiyat, yagona davlat mulki egaligi, siyosiy va insoniy huquqlarning taqiqlanishi, mamlakatning «temir qafas» bilan o'ralishi imperiyaning ag'darilishiga olib keldi. Shuningdek, mustamlakachilik va umummillatchilik siyosati, umuman quldorlik tuzumi imperiyaning halokatga uchrashida muhim o'rin tutdi. Bu tuzum bilan bir qatorda kommunistik g'oya, qalbaki sotsializm, qirg'inbarotlar, zo'ravonlik, bosqinchilik, adolatsizlik, ko'zbo'yamachilik va boshqa illatlar surib tashlandi. Kezi kelganda aytish lozimki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida O'zbekiston kommunistik g'oyalar va mudhish o'tmish zamonning boshqa belgilarini tamomila uloqtirib tashlagan yagona respublikadir. Endilikda gullab-yashnayotgan Vatanimizda olamshumul ahamiyatga molik buyuk o'zgarishlar va yutuqlar qo'lga kiritilmoqda.



# MUSTAQILLIK VA OZODLIKNING TARIXIY AHAMIYATI



O‘zbekiston mustaqillik va demokratiya yo‘lidan olg‘a borar ekan, o‘tgan yillar ichida qo‘lga kiritilgan buyuk o‘zgarish va yutuqlar haqida so‘z yuritish ularni anglash va qadriga yetish uchun har jihatdan muhim. Bizlar hozir shunday ajoyib va erkin zamonda yashamoqdamizki, ko‘p asrlik tariximizda bunaqasi hech qachon ko‘zga tashlanmagan edi.

## **Qullik zanjirlari parchalandi**

Masalani chuqurroq anglatish uchun bir hikoyani keltirishni lozim topdim. Uzoq o‘tmish zamonlarda bir quldor farzand ko‘rmaganligi sababidan qul bolani asrandi o‘g‘illikka olibdi. Kunlar va oylar o‘tib, bir gadoy yigit o‘sha quldorning xonadoniga kelib, debdi:

— Ey, asrandi o‘g‘il, sen o‘ta baxtlisan, negaki nasl-nasabing qul bo‘lishiga qaramay, hashamatli uyda yashayotirsan. Hamisha qorning to‘q va kiyimlaring shay. Men esa bir burda non dardida ertayu-kech ko‘chama-ko‘cha izg‘ib yuraman, boshpanam yo‘q.

— Ey gadoy, — deb javob beribdi asranda o'g'il, — «usti yaltiroq, ichi qaltiroq» degan naqlni eshitgandirsan, albatta. Shunga o'xshash ich-ichimdan quyib, taqdirimga la'natlar o'qib yuribman. Shuni bilginki, peshonasiga qul tamg'asi bosilgan odam hamma vaqt boshini egib, qaddini bukib va ezilib yuradi. Uning hech qanday haq-huquqi bo'lmay, faqat mashaqqatli mehnat bilan shug'ullanadi. «Og'ziga qulf» va oyog'iga kishan solinadi. Sen aytganingdek qornim to'q va egnim but, lekin peshonamdagi qullik tamg'asi hamon o'z o'rnida turibdi. Shu sababli yuragim cho'g' kabi lovillayotir. Shuning uchun sen menga hech havas qilma, aksincha, achingin. Aslini aytganda, sen tilamchi bo'lsangda, tom ma'noda baxtlilarning baxtlisisan. Chunki ozod va erkinlikda hayot kechirasan, seni xo'rlash va zo'ravonlik qilishga hech kimning haqqi yo'q. Qaniydi meni ozodlikka chiqarishsa, gadoylik qilishga ming karra rozi bo'lardim. Ey gadoy! Sen bamisoli osmonda parvoz qilayotgan qushsan, men esa, qo'polroq tuyilsada, «gapiruvchi hayvonman». Shu bois senga juda havasim kelib yuraman.

Yurakni o'rtovchi va o'ta alamli bu so'zlarni eshik orqasida eshitib turgan quldor larzaga tushib, darhol asranda o'g'ilni qullikdan ozod qilish haqida hujjatlarni rasmiylashtiribdi. Buni bilgan o'g'il shu darajada o'zida yo'q xursand bo'libdiki, xushidan ketibdi. O'ziga kelgandan keyin u yoqdan bu yoqqa yugurib va baqirib: «Onadan qayta tug'ildim, chinakam inson bo'ldim, sevinchim terimga sig'mayotir», deyaveribdi. U o'sha ozod etilgan kunidan boshlab yoshini hisoblaydigan bo'libdi. Qullik davrida bosib o'tgan mudhish yillarni, ya'ni umrini hisoblamaydigan bo'libdi.

Qissadan hissa shuki, o'zbek xalqi ham 1991 yil 31 avgustda qullikdan qutuldi va dunyoga yangidan tug'ilib, ozodlik va erkinlikka erishdi. Qullik yillaridagi ayanchli umrlarga qora chiziq tortildi. Kamina ham, hamma yurtdoshlarim qatori, yoshimni qaytadan hisoblamoqdaman. Bu ongimiz va qalbimizni chulg'ab olgan mustaqillik, ozodlik, erkinlik va demokratiyaning yoshidir, albatta.

## **Boqimandalik va tashmachilikning ildizi qirqildi**

Sovet tuzumi fojiali boqimandalik kayfiyati va tashmachilikni ommaviy tus olishiga olib keldi. Bu illatlar tabiatdagi borliqning tamomila davlatning qo'liga o'tkazilishi orqasida yuzaga kelgan edi. Amalda odamlar ham davlat mulki hisoblanib, «temir qafas qurshovi»da hayot kechirardilar. Ular arzimagan maosh vositasida davlatgaisiz qattiq bog'landi.Yer-suv vaboshqaboyliklaridan mahrum qilingan xalqning maoshdan boshqa tirikchilik manbai qolmadi. U bundan ham ayrilmaslik uchun davlatga sig'inishga, xushomadgo'ylik qilishga, maqtashga va uni olqishlashga majbur bo'ldi. Hatto, «bizlar partiyaning sodiq farzandlarimiz», «davlat odamlarimiz» degan iboralar jaranglab turdi. Jamiyatda fuqarolarni emas, balki davlat manfaatini ta'minlash asosiy vazifaga aylantirildi. Xalq shafqatsizlarcha ishlatildi. Ayniqsa, qishloq aholisi og'ir va mashaqqatli mehnat azobini tortib, ozodlik va farovon hayotni tushida ham ko'rmadi.

Fuqarolarning shaxsiy tashabbusi va manfaati bo'g'ilib, mehnatga yarasha haq berilmasdi. Ular qattiq nazorat va ta'qib ostida majburan ishlatildi, bo'ysunmovchilar turli jazolarga tortildi. Ularning tirikchilik dardida tashmachilik deb atalgan noxush ishlar bilan shug'ullanishdan boshqa iloji qolmadi. Chunonchi, non zavodida ishlovchilar nonni, un kombinatidagilar bug'doy yoki unni, go'sht va sut korxonasidagilar o'sha mahsulotlarni, to'qimachilik kombinatidagilar gazlamalarni, qo'yingchi, korxonalar xodimlari o'sha yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bekitiqcha olib ketishi ommaviy tus olgan edi. Bunday holatni vazirliklarda, oziq-ovqat va savdo sohalarida, ombor va boshqa joylarda ham ko'rish mumkin edi. Tashmachilik shu darajada avj olib, davlatga katta talafot keltirdiki, militsiya xodimlari korxonalarda pistirmada turib, tashmachilarni fosh etganlar. Ulardan million so'mlik mollar tortib olingan. Bu haqda gazetalarda axborot berib turilardi. Tashmachilar oz-ozdan olgan bo'lsalar, mas'uliyatli ayrim kimsalar davlat mulkini tonnalab va mablag'ini millionlab so'mlarda o'marganlar. Bunday talon-toroj bilan qo'lga tushganlar qonunning «davlat



mulkini talon-toroj» qilishga qarshi qaratilgan moddasi bo'yicha jazolanganlar. Ular ittifoq miqyosida minglab kishilarni tashkil qilgan.

Mustaqillik o'rnatilib, xususiy mulkchilik va erkin bozor tiklanishi bilan boqimandalik kayfiyati va tashmachilik illatlariga zarba berildi.

## **Dinsizlikka barham berildi**

Din uzoq tarixiy davrlardan shu kungacha barcha xalqlar ma'naviy hayotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyat hayotini usiz tasavvur qilish amri mahol. Shunga qaramay sovet davrida dinga qarshi kurashilib, minglab ruhoniylarning vakillari o'ldirildi, surgun qilindi. Masjidlar, cherkovlar buzildi, diniy marosimlar taqiqlandi. Ayniqsa, partiya a'zolari, mansabdorlar va ziyolilarning dinga e'tiqod qilishlariga yo'l berilmadi. Bo'ysunmovchilar ishdan haydaldilar va boshqa yo'llar bilan jazolandilar. Bir taniqli olim ukasiga janoza o'qitganligi uchun ishdan bo'shatilib, ta'qib ostiga olinganligi hamon esimda. Kompartiya a'zosi bo'lgan bir professor oshnam ota-onasiga bag'ishlab kichkinagina xudoyi qilganligi uchun uning shaxsiy ishi shahar partiya qo'mitasi byurosida muhokama qilinib, tanbeh berilgan edi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Xo'sh, dinsizlik qanday oqibatlarga olib keldi?

Bu holat odamlararo samimiy aloqalar va qadr-qimmatning susayishiga olib kelib, odob-axloqqa va turmush tarziga salbiy ta'sir etdi. Milliy an'ana va urf-odatlar o'rniga begona marosimlar kirib, turmush tarzimizning sofligi yo'qolib bordi. Oxiratdan va gunoh ish qilishdan qo'rqmaslik, iymon e'tiqodga zarba berilishi oqibatida jinoiy ishlar misli ko'rilmagan darajada ko'paydi. Oilalarda urish-janjal va qo'ydi chiqdi tobora ko'payib boraverdi. Dinsizlik jamiyat hayotini fayzdan mahrum qildi va xiralashtirdi.

Mustaqillik tufayli islom dini tiklanib, muruvvat, insof, himmat, mehribonlik, halollik va poklik singari oliy fazilatlar ravnaq topa bordi. Hashamatli masjidlar qurildi, borlari ta'mirlandi. Qur'oni Karim tarixda birinchi marotaba o'zbek tiliga mazmunan tarjima qilinib, undan keng o'quvchilar ommasi bahramand bo'lmoqda. Din tarixi va nazariyasi bo'yicha qo'pdan-ko'p kitoblarning nashr

etilishi ham diqqatga sazovordir. Islom universitetining tashkil qilinishi olamshumul ahamiyatga molik voqea hisoblanadi. Din peshvolarining maqbaralari ta'mirlandi, yangilari qurildi. Umuman islom dini ko'z o'ngimizda qaytadan yoshardi, tetiklashdi. U kuch-quvvatga to'lib, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

## **Kommunistik g'oya va «internatsionalizm» balosi qo'porildi**

Jahon tarixida turli g'oya va oqimlar hukm surgan. Ammo kommunistik g'oyadek dahshatli bo'lmagan. U, millati va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlarni qirish, mol-mulkini talash, nazorat va ta'qib qilishga asoslangan g'oyadir. Xususiyl mulksiz va dinsiz jamiyat qurilib, odamlar bamisoli ildizidan qirqilgan daraxtga o'xshatib qo'yilgan edi.

Kommunistik partiya o'zining mustamlakachilik va ulug' millatchilikka asoslangan maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun «internatsionalizm» iborasi ostida targ'ibot ishlarini olib bordi. Bunda ittifoqdagi har bir millat va elat o'ziga xos va mos milliy his-tuyg'ular hamda an'analar, ona yurtni sevish, ko'p asrlik madaniyati va umuman tarixidan voz kechib, «hamma uchun teng huquqli va umumiy» «sovet xalqini» tarkib toptirish asosiy vazifa etib belgilandi. Boshqacha aytganda, respublikalar aholisining «kattaog'a» atrofigajiplashishi shart qilib qo'yildi. Ayni paytda uning tilini hamma xalqlar uchun umumiy til sifatida o'rganishga majbur qilindi. Ma'lumki, «katta og'a» son jihatdan boshqa xalqlarga nisbatan bir necha barobar ko'p edi. Shu bois, nahang chavoqlarni yutib yuborganidek, vaqt o'tishi bilan «katta og'a» ularni o'ziga qo'shib yuborishi turgan gap edi. Vaqti soati kelib ittifoq ko'p millatli emas, balki «katta og'a» nomida bir millatli mamlakat bo'lib qolishi maqsad qilib qo'yilgandi. Bu jarayon ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan edi. Ilmiy asarlarda, anjumanlarda, majlislarda o'zbek nomiga urg'u berishga yo'l qo'yilmasdi. Uning o'miga sovet yoki respublika xalqi deyish odatga aylantirilgandi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida to'rt jildli «O'zbekiston SSR tarixi»ni tayyorlashga bag'ishlangan majlisda uni «O'zbek xalqining tarixi» deb nomlashni taklif qilganimda, rad qilindi.

Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarini o‘zbek xonliklari nomi bilan atash haqidagi taklifim ham qabul qilinmadi. Ayniqsa, respublika rahbariyati o‘zbek atamasini tilga olishdan o‘zini tiyib yurgan.

«Internatsionalizm» shahar, tumanlar, ko‘chalar, o‘quv maskanlari, jamoa xo‘jaliklari va boshqa joylarni nomlashda ham qo‘llanildi. Natijada respublikaga qarashli yerlarning taxminan 80 foiziga partiya va sovet rahbarlari, hatto xorijiy mamlakatlar vakillarining ismi-shariflari qo‘yildi. Xullas, respublika tushimizga ham kirmagan nomlar bilan to‘lib-toshgan edi. Bir misol keltiraman. Mahallamizda «Svejinskiy proyezd» deb ataladigan ko‘cha bor edi. U ko‘proq eski va nuragan imoratlardan iborat bo‘lib, nomi mazmuniga mutlaqo to‘g‘ri kelmasdi. Katta yoshli kishilar o‘sha nomni to‘g‘ri ayta olmay va ma‘nosini tushunmay o‘lib ketdilar.

Ayni paytda butun respublika bo‘ylab haykallar, portretlar, shiorlar va turli-tuman plakatlari keng tarqaldi. Ziyolilarning vakillari minglab kommunistik g‘oya va «internatsionalizm»ni tinimsiz targ‘ib qilishga mukaddan ketgan edilar. Ming afsuski, ularning orasida men ham bor edim. Allohga shukr, Mustaqillikning kuchi shunchalik qudratli va samarali bo‘ldiki, kommunistik g‘oya uloqtirilib, milliy g‘oya o‘z o‘rmini egalladi.

## **Milliy daromad egasiga qaytarildi**

Milliy daromad shunday bir tengi yo‘q omilki, xalqning kundalik hayoti va kelajagini ta‘minlashda asosiy o‘rinni egallaydi. U yoki bu xalqning kuch-qudrati va taraqqiyoti uning holatiga qarab belgilanadi.

Milliy daromad mustaqillik va ozodlikni ta‘minlovchi muhim omildir. Buni yaxshi anglagan sovet hukumati respublikalardagi milliy daromad va uning manbalarini davlat qo‘liga o‘tkazdi. Xususan, paxta va boshqa dehqonchilik mahsulotlari, noyob tabiiy boyliklar xom ashyo sifatida g‘oyat arzon bahoda markazga olib ketildi. So‘ngra ulardan tayyorlangan sanoat mollari o‘zimizga keltirilib, baland narxda sotilar edi. Bulardan tashqari, Rossiyadan xilma-xil avtomobillar, traktor va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi texnikasi, korxonalarni jihozlaydigan stanoklar, temir, mis va boshqa metallardan ishlangan mollar, uy ro‘zg‘or va boshqa xil buyumlar keltirilib, milliy daromadning qolgan qutgani ham

shilingan. Davlatning milliy daromaddan oladigan foydasi bir necha o'n milliard dollarlardan iborat bo'lgan. Biroq respublika budjetiga ajratilgan mablag' bamisoli «dengizdan tomchi» edi. Natijada, xalq ommasi qashshoqlashib azob uqubatlarni boshidan kechirdi.

Mustaqillik yillarida ahvol tubdan o'zgardi. Avvalambor, sanoat tarmoqlari milliy lashtirildi. Avtomobil, neft, gaz, oltin va boshqa yirik sanoat tarmoqlari qurildi. O'zimizda tayyorlangan turli mollar xorijiy mamlakatlarga chiqarilmoqda. Respublikani xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozori bo'lib qolishdan qutqarishga qaratilgan qurash muvaffaqiyat bilan olib borilmoqda. Milliy daromad borgan sari yuqori bosqichga ko'tarilmoqda.

Hayotimizning barcha sohalaridagi o'zgarish va yutuqlarni bir necha sahifada bayon qilishning imkoni yo'q, albatta. Shu bois ularning ayrimlarini yoritishga harakat qilindi. Lekin shunisi ayonki, Mustaqillik o'zbek xalqiga, eng avvalo, ozodlik, erkinlik va demokratiya berdi. Xalqimiz tarixda birinchi marotaba jahon davrasida munosib o'rinni egallab, uni tanimaydigan va bilmaydigan mamlakat qolmadi. Bunda kommunistik g'oyaning uloqtirib tashlanishi va milliy g'oyaning g'alabasi hal qiluvchi o'rinni egalladi. Bu borada islom dinining tiklanishi, boqimandalik va tashmachilikka zarba berilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Milliy daromadning qo'lga kiritilishi mustaqillik va taraqqiyotning asosini shakllantirdi. Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash lozimki, O'zbekiston hamdo'stlik mamlakatlari orasida kommunistik g'oya va unga aloqador boshqa ramz, yodgorliklarni tamomila qo'porib tashlagan yakkayu yagona davlatdir. Shuningdek, yurtboshimizning katta xizmatlaridan biri shuki, xalqimizning o'z nomi - o'zbek atamasini baralla aytishni boshlab berdi. Endilikda o'zbek yoki O'zbekiston atamalarini istifoda qilish shu darajada avj oldiki, sovet davrida bunaqasi xayolga ham kelmagan edi. Yurtboshimizning tashabbusi bilan o'zbek xalqining nomi jahonga tanildi.



# G'URURLANISH VA FAXRLANISH OLIY NE'MAT

Yurtboshimiz Islom Karimovning nutq va suhbatlarida g'ururlanish va faxrlanish xususidagi fikrlar takrorlanib turadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, g'urur va faxr kishilarni ruhlantirib, kuchiga kuch qo'shib, milliy his-tuyg'ular va iymonni mustahkamlaydi.

**Birinchidan**, g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ulari siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning aks sadosi sifatida shakllanadi. Masalan, ularning siyosiy jihatini olaylik. Ko'z o'ngimizda Mustaqillik sharofati bilan milliy davlat va qo'shin tuzilib, hokimiyat boshqaruvi demokratik asosda olib borilmoqda. Milliy parlament, konstitutsiya, bayroq, gerb va madhiya joriy qilindi. O'zbek tiliga Davlat maqomi berildi va milliy valuta muomalaga kiritildi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib, jahon davrasida munosib o'rinni egalladi. Zamonaviy o'zbek diplomatiyasi shakllantirilib, elchixonalar ochildi, tashqi dunyo bilan aloqalar samarali davom etmoqda.

Masalaning iqtisodiy tomoniga kelganda aytish lozimki, bu sohada ham g'oyatda katta o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz. Chunonchi, xususiy mulkchilik va erkin bozorga asoslangan tamomila yangi iqtisodiy tizim bunyod etildi. Respublikani xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozori bo'lib qolishdan kutqarish bo'yicha ulkan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Sanoat

tarmoqlari tubdan o'zgartirilib, jahon andozasi darajasida keng qo'lamda rivojlantirilayotir. Mamlakat tashqi savdosida tayyor mahsulot salmoqli o'rinni egallab bormoqda. Avtomobil, samolyot, televizor, gazlama, kiyim-kechak, poyabzal, asbob-uskunalar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa mahsulotlar shular jumlasidandir. Endilikda millatimiz nomini ulug'lovchi «o'zbek avtomobili», «o'zbek samolyoti», «o'zbek oltini», «o'zbek gazlamasi» kabi va yana qator boshqa mahsulotlar jahon bozoridan o'z o'rnini topmoqda. Tabiiy boyliklarni qayta ishlovchi sanoat, transport va aloqa vositalari izchillik bilan o'smoqda.

Fan va madaniyat sohalari ham jahon andozasi darajasida rivojlantirilib, ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning tashkil qilinishi tamomila yangilikdir.

Shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, hashamatli va ajoyib binolar, magistral yo'llarni qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Bu yerda shuni aytish lozimki, uch ming yillik tarix mobaynida Buxoro, Samarqand, Urganch va shunga o'xshash ayrim shaharlarga nisbatan obodonlashtirilgan edi. Hozir esa respublikaning barcha shahar va qishloqlari yoppasiga obodonlashtirilmoqda. Bu misli ko'rilmagan tarixiy voqeadir.

Shunday qilib, biz mustamlakachilik siyosati va milliy zulmdan qutulib, Mustaqillik va Ozodlikka erishganimizdan, milliy davlatimiz va armiyamizdan, iqtisodiy, madaniy muvaffaqiyatlarimizdan, Vatanimizning jahon davrasida tan olinishidan g'ururlanish va faxrlanishga haqlimiz.

**Ikkinchidan**, g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ulari ko'p asrlik o'tmish tarixni anglash va qadrlashda ham namoyon bo'lmoqda. Avvalambor, bu milliy davlatchilik tarixini o'rganish va anglashda ko'rinmoqda. Ma'lumki, jahonning ko'p joylarida odamlar hali yovvoyilikda yashayotganlarida o'zbek xalqi birinchilar qatori davlat tuzgan. Miloddan avvalgi asrlarda Xorazmda sodir bo'lgan bu tarixiy voqea o'zbeklarning tabiatan yuksak aql-idroki, mehnatsevarligi, jasorati va uddaburonligi orqasida amalga oshgan edi. Vaqt o'tishi bilan buyuk Xorazm davlatining kuch-qudrati oshib, chegarasi Qora dengiz bo'ylari va Gruziyagacha borib taqaldi. Uning salohiyati milodiy birinchi ming yillikda ham saqlanib, Volga bo'yidagi Xazar

podshohligi bilan birgalikda Xorazm - Xazar saltanati tuzildi. Uning tarkibiga Xorazmdan boshlab Kaspiy dengizi va Volga bo'ylari orqali Qrimgacha cho'zilgan bepoyon yerlar kirgan. Bu vaqtlarda Volga bo'ylariga minglab o'zbeklar o'rnashib, turli yumushlar bilan shug'ullandilar. Ularning orasida nufuzli mansabdorlar, harbiylar, din peshvolari, savdogarlar, hunarmandlar va madaniyat vakillari bor edi. Xorazmliklar va boshqa turkistonliklarning tashabbusi hamda ishtirokida Volga bo'ylarida islom dini yoyildi. Xorazm davlatining dovrug'i shu qadar baland ediki, bir vaqtlar Kaspiy dengizi Xorazm nomi bilan ham yuritilgandi. Dengiz bo'yidagi hozirgi Astraxan shahri atamasining kelib chiqishi Xazar podshohligida shuhrat qozongan xorazmlik lashkarboshi Xoja Tarxon (Ashtarxon) nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XI asrning 40-yillarida Vengriyada podshohlik qilgan Samuyil Abu nasl-nasabi jihatidan xorazmlik hisoblangan.

Turkistonda xalifalik hukmronligining o'rnatilishi buyuk Xorazm davlatini zarbaga uchratdi. Biroq XI-XIII asrlar boshlarida u xorazmshohlar nomida qayta qudratli saltanatga aylandi. U Xorazm vohasi bilan birgaliqda Farg'onadan Gruziya chegarasigacha, Orol shimolidagi cho'llardan Hind daryosigacha yoyilgan joylarda hukmronlik qildi. Shu tariqa xorazmshohlar davlati jahonga tanildi. Mashhur gruzin shoiri Shota Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» asaridagi gruzin podshohi va uning malikasi so'zlashuvi aks etgan mana bu parchaga e'tiborni tortmoqchimiz:

Podshoh aytdi: «xorazmshoh Xorazm mamlakatini boshqaradi,  
*Agar u bizga o'g'lini bersa, boshqa kim u bilan tenglashadi?»*

*Malika tasdiqlab: «xorazmlik biz uchun shon-shuhratdir.*

*O'g'lini kuyovlikka bersa, hech kim uningdek bo'la olmas munosib».*

Binobarin, gruzin podshohi xorazmshohlar davlatining qadri va hurmatini o'rniga qo'yib, qarindoshlik iplarini bog'lashga harakat qilgan.

Shunisi qiziqarliki, rus hukmdori Vladimir xorazmshohlar davlati ishtirokida islom dinini qabul qilishga qaror qilgan. O'rta asr muallifi

Tohir Marvaziyning yozishicha, Vladimir «yaqin kishilardan toʻrttasini tanlab, Xorazm hukmdori huzuriga elchi qilib yubordi... Elchilar Xorazmga kelib, oʻz podshohining maktubini topshirdilar. Xorazmshoh ularning islom diniga kirishga ahd qilganliklarini eshitib, bagʻoyat xursand boʻldi va ularga islom dini qonun-qoidalarini oʻrgatish uchun odamlar yubordi va ular islom diniga kirdilar». Biroq islom dini rus aholisi orasida ildiz ota olmadi. Chunki xristian dini tarafdorlari ustun kelib, rus davlati va xalqi orasida xristianlik keng tarqaldi.

Qadimgi buyuk Xorazm va keyingi xorazmshoxlar davlatlari faoliyat koʻrsatgan asrlar oraligʻida Qanka, kushoniylar, eftaliylar, turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar davlatlari hukm surdi. Soʻngra Amir Temur va Temuriylar davlati, keyin Buxoro, Xiva va Qoʻqon xonliklari yuzaga keldi.

Koʻrsatilgan davlatlarning barchasi miloddan avvalgi asrlardagi buyuk Xorazm davlatining mantiqiy davomi hisoblanib, zanjir halqalari kabi bir-birlariga ulanib ketgan edilar. Boshqacha aytganda, hukmron sulolalar asrlar osha almashinib turdi, lekin qadimgi davrlarda yuzaga kelgan hokimiyat boshqaruvi tizimi saqlandi. Sharoit taqozosiga koʻra, u goh rivojlanib va kuchayib, goh pasayib va zaiflashib davom eta berdi, iqtisodiy va madaniy hayotni taʼminlashda hal qiluvchi oʻrinni egalladi.

Oʻzbek xalqi davlat bilan yonma-yon, xususiy mulkchilikka asoslangan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqni ham dunyoda birinchilar qatori kashf etdi. Natijada, jamoa ahli qoloqlik va jaholatdan holi boʻlib, oila, odob-axloq va umuman insoniylik fazilatlariga ega boʻldi. Ularning ongi va dunyoqarashi oʻsib, madaniyat sohalari yuqori pogʻonaga koʻtarildi. Bunday ilgʻorlashish keyingi asrlarda ham davom etdi. Shunisi diqqatga sazovorki, islom dunyosidagi birinchi madrasa X asrda Buxoroda qurilgan. Birinchi fanlar akademiyasi esa XI asr boshlarida Xorazmda faoliyat koʻrsatgan edi. Bu vaqtlarda jahonda bunday ilm markazini tuzish hech kimning xayoliga ham kelmagan.

Qadimiy Turkiston zamini fan va madaniyat markazi sifatida dong taratgan. Oʻrta asr muallifi Mahmud ibn Valining yozishicha,



Turkiston olimu fozillar makoni hisoblanib, ularning soni shu darajada ko'p bo'lganki, unga boshqa biror mamlakat tenglasholmaydi. Fazlulloh ibn Ro'zbexon Isfaxoniyning ko'rsatishicha, Turkiston ilm-fan yuksaksalgan bir mamlakatlardan biri bo'lgan. «Jahon olimlari, — deydi u, — Turkistonni taraqqiyotning bosh markazi hisoblab, unga intiladilar». Hofiz Tanish Buxoriy ta'riflashicha, «Movarounnahr xalqi hamma vaqt donishmandlik bilan tanilib, shavkat va mardonalik bilan tavsiflangan... U Rum va Chin mamlakatlariga faxrdir».

Haqiqatan ham, Turkiston o'lkasi jahonning ilm-fan va san'at markazlaridan biri sifatida ma'lum va mashhurdir. «Mubolag'asiz aytish mumkinki, — deydi yurtboshimiz Islom Karimov, — fanimiz, aql-zakovat, salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda. Uzoq o'tmishidayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi». Mazkur satrlarda o'zbek fani va madaniyatining tarixiy ildizlari va uning olamshumul ahamiyatga molikligi g'oyat sermazmun va lo'nda ta'riflanganki, ortiqcha izohlashga o'rin yo'q.

Demak, o'zbeklar miloddan avvalgi asrlardayoq davlat va madaniyatni yuzaga keltirgan qadimiy xalqdir. Bu bilan ular insoniy fazilatlarini, o'zligini anglash, vatanparvarlik va taraqqiyotni shakllantirdilar va rivojlantirdilar. Qadimiy buyuk Xorazm saltanati salkam uch ming yil mobaynida hukm surgan davlatlarning asosi hisoblanadi. U keyingi asrlardagi saltanatlar bilan bir tan, bir jon bo'lib, umuminsoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shdi. Shu tariqa o'zbek davlatchiligi va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirib, g'ururlanish va faxrlanishning muhim omillaridan biri sifatida gavdalanmoqda.

Xulosa shuki, g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ulari chuqur

tarixiy davrlarda shakllanib, asrlar osha saqlanib kelmoqda. Ammo ular hamma vaqt birdek kechmay, soʻngan vaqtlari ham boʻlgan. Ayniqsa, bunday achinarli holat chorizm va sovet davrida sodir boʻldi. Mustamlakachi zolimlar xalqning siyosiy ongi, milliy his-tuygʻulari va ozodlik uchun kurashini boʻgʻish maqsadida gʻururlanish va faxrlanish tuygʻularini uygʻotuvchi omillarni yoʻq qilish choralarini koʻrdi. Xususan, oʻzbek xalqining tarixi soxtalashtirildi, buyuk tarixiy shaxslar qoralandi, moddiy-maʼnaviy yodgorliklar oyoq-osti qilindi. Milliy marosim va din «hibsga olindi». Ziyolilarning ilgʻor vakillari qirib tashlandi.

Bosqinchilarning vahshiyona siyosati xalq ongi va qalbiga singib ketgan gʻururlanish va faxrlanish tuygʻularini qoʻporib tashlay olmadi. Ular 1991 yil 31 avgustda Vatan Mustaqilligi tiklangandan keyin va shaxsan yurtboshimizning rahbarligi va ishtirokida amalga oshirilgan gʻoyat muhim choralar natijasida gʻururlanish va faxrlanishni toʻla taʼminlovchi barcha siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar yaratildi. Xususan, Oʻzbekistonning mustaqil va ozod mamlakat sifatida dunyo xaritasiga bitilishi, Respublika bayrogʻining jahonda magʻrur hilpirab turganligi va madhiyamiz yangrayotganligidan gʻururlanmay va faxrlanmay boʻladimi? Shuningdek, yurtboshimiz Islom Karimovning hozirgi zamonning buyuk davlat arbobi sifatidagi shuhrati olam uzra taralayotganligi va uning boshchiligida qoʻlga kiritilayotgan misli koʻrilmagan muvaffaqiyatlar bilan boshimiz osmonga yetmoqda. Bunday gʻurur va faxrlanish tuygʻulari koʻp asrlik tariximizga, maʼnaviy va moddiy merosga jon kiritilishida, olimu fozillarning qadrlanishi va ularning xotirasi abadiylashtirilishida ham oʻz ifodasini topmoqda.



# **QURILISH VA OBODONCHILIKNING OLTIN DAVRI**

---

Ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar va taraqqiyotni o‘tmish zamondagiga solishtirilsa yer bilan osmonchalik farqi borligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xo‘sh o‘tmishda qanday sharoitda yashaganmiz?

Mening yoshligimda Toshkentning “eski shahar”dagi turar joylarning binolari ko‘p asrlar mobaynida qanday qurilgan bo‘lsa shunday holatda edi. Sinch va guvala bilan pala-partish qurilgan imoratlar, boshi-berk va tor “jin ko‘cha”larni har qadamda uchratish mumkin edi. Yomg‘ir yoki qor yog‘ganida yo‘llar botqoqqa botib bermalol va loysiz yurishning hech iloji yo‘q edi. Shu bois mahallamizda o‘likni ko‘tarib qabristonga olib borish uchun 30 etik tayyorlab qo‘yilgan ekan. Odamlar ko‘chalar yoritilmaganligi va o‘nqir-cho‘nqir bo‘lganligi uchun tunda iloji boricha u yerlarga chiqmaslikka harakat qilganlar. Xonadonlarda dastavval nursiz yonadigan kichkina va isqirt “jin chiroq”, so‘ngra kerosin bilan ishlaydigan lampadan foydalanilgan. Ammo, kerosinni olish shu darajada azobli bo‘lganki kechqurundan to ertalabgacha uxlamay navbatda turardik. Kerosin juda tanqis va qimmat

bo'lganligi uchun lampadan tejamkorlik va ehtiyotkorlik bilan foydalanilgan.

Masalan bizning xonadonimizda bitta lampa oldin ovqat tayyorlash uchun oshxonaga, so'ngra u pishgandan keyin xonaga olib kelingan. Bu yerda ovqat yeyilgandan keyin lampa idish tovoqlarni yuvish uchun yana oshxonaga keltirilgan. Bu yerda ish bitishi bilan u molxonaga tozalash va sigirni ovqatlantirish uchun olib kelingan.

Shu tariqa lampa u yoqdan bu yoqqa olib yurilgandan so'ng kech soat 10 goho 11 larda xonaga keltirilgandagina bizlar dars tayyorlardik.

Kerosin yo'qligida katta-kichik hammamiz qorong'u tushushi bilan uxlashga yotardik. Bunday paytlarda ota-ona erta tongda turib uy ishlarini davom ettirardilar. Biz bolalar esa biroz darsni tayyorlardik. Shundan keyin bir burda non va ozgina quruq mevalar bilan choy ichib va eski kiyimdan tikilgan jild (popka)ni hamda siyohdonni ko'tarib maktabga ketardik. Yo'qchilikdan sentabr va oktabr oylarida maktabga oyoq-yalang borganim hamon esimda. Maktablardagi sharoit ham juda og'ir bo'lib ular boylardan tortib olingan va shunga o'xshash musodara qilingan binolarda ham o'rnashib noqulayliklar oshib-toshib yotgan. Ayniqsa, qish paytlarida sinfda o'tirish azob edi. Oliy ma'lumotli o'qituvchilar deyarlik yo'g'idi. Ocharchilik yillarida sinflarda bolalarning ochlikdan hushi ketib yerlarda ag'anab yotganligini ko'rganman. Ochlik o'qituvchilarni ham sog'ligini qo'porganidi.

O'tgan asrning 30-yillarining oxirida maktablarda o'qitishni pullik qilinishi nihoyatda salbiy oqibatlarni yuzaga keltirdi.

Uylarning tomlari ko'pi bilan har ikki yilda somon aralashtirilgan loy bilan suvalib turilgan. Yuzlab chelaklardagi loyni baland tomga tortishi ko'p kuch-quvvat va mehnatni talab qilgan. Qor tinishi bilan tomlardagi qor chakka o'tmasligi uchun darhol kuralib hovli va ko'chaga tashlangan. Bu yerlarda u to bahorgacha uyilib yotgan.

Xonalarda yerga buyra yozilib ustiga namat yoki sholcha solinardi. Yozda namatdan paydo bo'lgan burgalar to'dasi va molxonadagi chivinlar birgalashib odamlarni shunday chaqardilarki chidash amri mahol edi. Uyning xonalarida radio, sovutgich, telefon, shkaf, stol, stul, divan va kreslo degan narsalar yo'q edi. Suv ta'minoti ham yomon ahvolda edi.

Ariqdan uzoqda joylashgan mahallalarning aholisi hovuzdagi bemaza va yoqimsiz suvdan foydalanganlar. Kechqurunlari barcha xonadonlarda bir vaqtda o‘tin va tappi bilan ovqat pishirilishi orqasida butun mahallani tutun qoplardi. Bunday og‘ir sharoitda kasallarni Labzak arig‘ini bo‘yida o‘tirib jon saqlaganlarini guvohiman.

Bozor va guzarlardagi tartibsiz va ko‘rimsiz qurilgan do‘kon, oshxona, choyxona va qarovsiz yotgan ko‘chalar kishi ko‘nglini xiralashtirib xoldan toydirgan.

Ko‘p oilalar tor hovlida bir xona va ayvonda siqilib va qiynalib yashagan. Ikki-uch xonaga ega bo‘lish katta baxt hisoblangan. Oilaning kattaligidan odamlar oldi ochiq ayvonda uxlashga majbur bo‘lganlar. Tunda yog‘an qor yoki yomg‘ir solingan ko‘rpaning etagini qoplagan. Qishda to‘rt kishi o‘tiradigan tancha (sandal)dan foydalanilgan. Bunga tosh ko‘mirning cho‘g‘i solinib isidan zaharlangan odamlar oz emas edi. To‘g‘ri 50-yillarda, ayniqsa Toshkent zilzilasidan keyin tunuka va shifer bilan yopilgan tomlar, elektr, vodoprovod va qisman gaz ko‘payib bordi. Ammo “eski shahar” va qishloqlarda qurilish va obodonchilik juda achinarli holda qoleverdi.

Faqat mustaqillik yillaridagina ular gurullab rivojlandi. Hozirda “eski shahar”larda milliy tusdagi hashamatli uylar, jamoa binolari, keng va ravon ko‘chalar borgan sari ko‘payib bormoqda. Bir nechta shinam xonalar, mehmonxona, ayvon, kanalizatsiya, elektr, televizor, radio, telefon, sovitgich, basseyn va avtomashinalar bilan ta‘minlangan uylarning soni ko‘payib ketdi. Bularni orasida ikki qavatli binolar oz emas.

Mahalla va ko‘chalarda yangi magazin, restoran, kafe, oshxona, choyxona, apteka va maishiy xizmat binolari ishga tushirildi. Yangi guzar va bozorlarning qurilishi, eskilarini ta‘mirlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kishi havasini keltiradigan to‘yxonalarni qurish o‘tmishda odamlarning xayoliga ham kelmagandi. Hozirda ular to‘y va marosimlarni o‘tkazishda muhim o‘rin egallamoqda.

Qurilish va obodonchilik, ta‘lim tizimida ham jadallik bilan qadam tashlamoqda. Rasmiy ma‘lumotga ko‘ra respublikada 1140 taga yaqin akademik litsey va kasb-hunar kolleji, 4680 tadan ziyod umumta‘lim maktabi yangidan qurildi va ta‘mirlandi. Zamonaviy

mebel, o'quv laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi. Ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalari tashkil qilindi. Umummilliy dastur doirasida 611 ta sport inshooti qurilib ularga 83,3 mlrd. so'm mablag' sarflangan.

O'tmishda har jihatdan qoloq hisoblangan viloyatlarda ham ta'lim tizimi bo'yicha qurilish va obodonchilik jadallik bilan olib borilmoqda. Masalan ayrim viloyat va qishloqlarni olaylik. Qashqadaryo viloyatida 2007 yilda 15 ta kollej va 19 ta yangi maktab foydalanishga topshirildi. 3 ta kollej, 43 ta maktabda kapital rekonstruksiya, 86 ta maktabda kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Jizzax viloyatida 2006 yilda 6 ta akademik litsey va 124 ta kasb-hunar kolleji qurildi. 61 ta yangi maktab qad ko'tarib 385 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi, 530 ta maktab esa kapital ta'mirdan chiqarildi.

Sirdaryo viloyatida 2004-2007 yillarda 4 ta yangi maktab qurilib 56 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi. 47 ta maktab kapital ta'mirlandi, 2 ta akademik litsey, 35 ta kasb-hunar kolleji bunyod etildi.

Qishloqlarda ham ulkan yutuqlarga erishildi. Bu xususda bir misolni keltirish o'rindir. Norin tumanining Shohidmozor qishlog'ida o'tmishda dala shiyponi maktabga aylantirilgan. Muallimlar xashar yo'li bilan guvaladan qo'shimcha sinf xonalari qurishgan. Hozirda bu yerda 1,5 gektar yerni o'z ichiga olgan yangi maktab va ikki qavatli alohida sport zali bunyod etildi. Mana shunday ajoyib bino Boysundagi Darband qishlog'ida ham qurildi. 44 yil mobaynida tarbiya fanidan dars beraman, - deydi darbandlik Yusupota Tog'ayev, - lekin bunday maktablarda dars berish u yoqda tursin maktab binosi bu qadar chiroyli bo'lishini xayolimga keltirmaganman.

Ma'lumki mamlakat hayotida yo'l, bekat va ko'priklarning tutgan o'rni beqiyos kattadir. Shuning uchun ularni jahon andozasi darajasida bunyod etishga qaratilgan muhim choralar amalga oshirildi. Natijada birgina 2007 yilning birinchi yarmida 65524,4 million so'mlik yo'l ishlari bajarildi. Xalqaro va davlat ahamiyatiga molik 68,8 kilometr ta'mirlangan avtomobil yo'llari, 162,8 metrlik 4 ta ko'priklarni foydalanishga topshirildi. Ularni orasida Qamchiq devoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda Xozarasp tumanida Amudaryo uzra qurilgan uzunligi 681 metrni tashkil etadigan Miskin

- Toshkana yangi avtomobil va temir yo'li ko'prigi qurildi.

Yangi temir yo'llarni qurish ham rivojlanib jamlanganda umumiy hajmi 564 kilometrni tashkil etadi. Navoi - Uchquduq - Sulton Uvaystog' -Nukus hamda Toshg'uzor - Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'llarning ahamiyati shu darajada kattaki ularni "asr mo'jizasi" deyilsa aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ularda qator to'xtash joylari va bekatlar qurilib obodonchilikka katta e'tibor berildi.

Viloyat markazlari - Urgench, Nukus, Namangan, Qarshi, Termiz, Andijon, Buxoro, Jizzax, Marg'ilon, Xavas, Kitob, Qo'ng'iroq va Qo'qonda yangi temir yo'l vokzallari qurildi.

Sog'liqni saqlash sohasida yangi poliklinikalar, kasalxonalar, vrachlik punktlari sanatoriya, dam olish uylari va tibbiyot kollejlari bunyod etilib ko'p davolash maskanlari ta'mirlandi. Tog' va daryo bo'ylarida ko'p dala bog'lari qurildi.

Shaharlardagi markaziy maydonlar ham kishi tanimas darajada obodonlashtirildi. Masalan Toshkentdagi mustaqillik maydonidagi Senat binosi, mustaqillik va baxtiyor ona siymosini mujassam etgan majmua o'zlarining hashamati va jozibakorligi bilan ajralib turibdi. Bu borada "eski juva"dagi qurilgan muhtasham bino va ravn ko'chalar maqtovlarga sazovordir. Shahardagi Oliy Majlis, Temuriylar davlat muzeyi, Toshkent davlat konservatoriyasi, Toshkent shahar hokimligi, Tasviriy san'at galereyasi, Biznes markazi, Bank va boshqalarga tegishli muhtasham binolar, shaharning ko'rki sifatida gavdalanib turibdilar. Bunday qurilish va obodonchilik respublikaning barcha shaharlarida ham yuksak darajada amalga oshirildi. Qurilish va obodonchilik sanoat sohasi va tog' konlarini bunyod etishda ham o'z ifodasini topdi. O'tmishdagi texnika jihatidan juda qo'lg'och, obodonlashtirilmagan va ko'rimsiz inshootlardan asar qolmadi. Endilikda yuqori texnika jihozlari bilan ta'minlangan ajoyib inshootlar savlat to'kib turibdi.

Qurilish va obodonchilik madaniy meroslarni ham qamrab oldi. Chunonchi, avvalo xarobaga aylangan barcha madrasalar va masjidlar ta'mirlanib, minglab yangi masjidlar qurildi. Imom Buxoriy, imom Moturudiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Baxovuddin Naqshbandiy, Registon, Go'ri Amir, Bibixonim, Tilla Qori, Shohizinda, Ulug'bek rasadxonasi, Nodir devonegi, Xoja Ahror

Vali va boshqa o‘nlab maqbaralar yangidan qurildi yoki kapital ta‘mirlandi. Shuningdek imom Termiziy va Xakim Tilovot va Odina maqbaralarini ham ko‘rsatish mumkin. Xivadagi ichanqal‘a yodgorliklari, ko‘p madrasa va masjidlar ta‘mirlandi.

O‘zbekistonda qurilish va obodonchilikning samarasini ko‘rayotgan chet ellik mehmonlar o‘zlarida yo‘q hayratlanib qoyil qolmoqdalar. Quvaytning “Al-Alamiya” gazetasi bosh muharriri Saloh Fadr Sajid Sulton o‘z fikrini shunday izohlaydi: «tashrifim chog‘ida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlardagi ko‘plab me‘moriy obidalarni ziyorat qilish baxtiga muyassar bo‘lgan edim. Yurtingizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida ajdodlaringizning boy merosini o‘rganish, targ‘ib qilish, madaniy yodgorliklarni ta‘mirlash va asrab-avaylash, ta‘lim, fan va madaniyat kabi sohalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tahsinga loyiq».

Shunga o‘xshash Pokiston-O‘zbekiston madaniy aloqalar jamiyati prezidenti Akbar Axmad Uzgen o‘z taassurotini quyidagicha izhor etdi: «yurtingizda Prezident Islom Karimov boshchiligida tarixiy-me‘moriy obidalar, ziyoratgohlarning qayta chiroy ochib, milliy urf-odat va qadriyatlarning tiklanayotganligi jahon hamjamiyatining O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirmoqda... O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari - milliy va zamonaviy uslubni o‘zida mujassam etgan ko‘rkam inshootlar, ravon yo‘llar go‘zal va betakror bog‘-rog‘lar har qanday xorijlik sayyohni o‘ziga maftunkor etadi. Tinch, osoyishta va fayzli ko‘chalarigizda yurgan kishining ko‘zi quvnaydi.

Ushbu satrlarda O‘zbekistonda yuz berayotgan taraqqiyot yaxshi ta‘riflanganki izohga hojat yo‘q. Oldingi sahifalarda sharhlangan o‘tmishdagi nihoyatda mushkul va fojeali hayot faqat menga emas balki millionlab kishilarga tegishli haqiqatdir. Bunday kimsalarning talay qismi bu olamning huzur-halovatini ko‘rmay azob-uqubat va qayg‘u alamda dunyodan ko‘z yumdilar. Ammo menga o‘xshagan kimsalar esa mustaqillik va ozodlikni, taraqqiyot va farovon hayotni gashtini surish baxtiga muyassar bo‘ldilar. Buning uchun Ollohga ming karra shukrlar bo‘lsin.

Umumiy xulosa shuki O‘zbekistonda qurilish va obodonchilik misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib hayotning barcha sohalarini



qamrab oldi. Ularning o‘zlariga xos xususiyatlari shundan iboratki, avvalo faqat shaharlardagina emas balki qishloqlar, cho‘lubiyobonlar va boshqa xayolda yo‘q joylarda ham hayratlanadigan darajada keng quloch yoymoqda. Ularda tarixan shakllangan milliy qurilish va me‘morchilik namunalari va jahon tajribasidan samarali foydalanilmoqda. Hatto xususiy imoratlarda mramor va boshqa qimmatli qurilish ashyolari ishlatilmoqda. O‘tmishda bular tushga ham kirmagan edi. Qurilish va obodonchilikning yuqori pog‘onaga ko‘tarilishi farovon hayotning yorqin namunasidir. Bu faqat O‘zbekistondek siyosiy va iqtisodiy jihatdan baquvvat bo‘lib tinchlik va barqarorlik hukm surayotgan davlatdagina sodir bo‘lishi mumkin.

Kishini lol qoldiradigan keng, ravon, ko‘kalamzorlashtirilgan maydon va ko‘chalar, go‘zal binolar, tinchlik, osoyishtalik va umuman taraqqiyotning dovrug‘u jahon uzra taralmoqda. Qurilish va obodonchilikning rivojlanishi o‘n minglab ish o‘rinlarini yuzaga keltirib ishlab chiqarish kuchlarini o‘sishini ta‘minladi. Qurilish ashyolarini ishlab chiqaruvchi ko‘p korxonalarni bunyod etilishiga olib keldi.

Ma‘lumki sovet davrida O‘zbeklar qurilishdagilarning 15-20% ini tashkil qilib ko‘proq qora ishlar bilan shug‘ullanganlar. Hozirda o‘zbeklardan qurilishning barcha murakkab turlari bo‘yicha mohir ustalar yetishib chiqdi. Natijada bu sohada milliy va malakali ishchi-xizmatchi qatlami shakllandi. Bu jahon andozasi asosida o‘ta murakkab va nozik inshootlarni ham bunyod etish imkonini tug‘dirdi.

Shuni alohida ko‘rsatib o‘tish lozimki O‘zbekiston o‘zining ko‘p asrlik tarixi mobaynida qurilish va obodonchilik sohasi bo‘yicha hech qachon hozirgidek gullab-yashnamagan edi. Bu tarix sahifalariga zar harflar bilan bitilayotgan taraqqiyot yurtboshimiz Islom Karimovning tashabbusi va bevosita ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib ko‘rdikki O‘zbekistonda qurilish va obodonchilik o‘zining oltin davrini boshidan kechirmoqda deyishga barcha asoslar mavjud.



# FAROVON HAYOT GASHTI



Bu haqda soʻz yuritilganda koʻproq uning iqtisodiy tomoni, yaʼni arzonchilik, moʻl koʻlchilik va toʻqchilikni tushunish odat tusiga aylangan. Vaholanki uning tarkibi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni ham oladi. Unda ayniqsa, tinchlik va barqarorlik muhim oʻrin egallaydi. Farovon hayotga birinchi qadam mustaqillik va ozodlikning tiklanishi bilanoq qoʻyildi. Chunki bularsiz farovon hayotni yaratib boʻlmaydi. Shu tariqa uning ildizi ozodlikka borib taqaladi. Buni qanchalik toʻgʻriligini anglash uchun tarixga bir nazar tashlansa bas darhol ayon boʻladi. Zero, miloddan oldingi asrlarda Turkiston zaminida Ahmoniylar — 200 yil, Makedoniyali Aleksandr va merosxoʻrlari — 180 yil, keyingi davrlarda halifat — salkam 200 yil, moʻgʻullar — 160 yil, chor hukumati va sovet davlati — 130 yil, hammasi boʻlib 800 yildan ortiq hukmronlik qilganlar. Bu nihoyatda uzoq va fojiali vaqtlarda yuz minglab odamlar oʻldirildi, boylıklar ayovsiz talandi, shahar va qishloqlar vayron qilindi. Mana bunday dahshatli davrlarda farovon hayotni boʻlishi hech mumkin emas, edi albatta.

Biroq Oʻzbekistonda mustaqil davlatlar hukm surgan paytlarda ham hukmdorlarning aybi orqasida farovon hayotga oʻrin qolmagan. Buni 400 yilni oʻz ichiga olgan xonliklar davrini misolida koʻrish

mumkin. Bu vaqtlarda taxt uchun olib borilgan o‘zaro kurashlar va harbiy yurishlar beqiyos katta talofatlarni keltirilganlar. Mintaqa Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklaridan iborat uch qismga parchalanib dushmanchilik va tarafkashlik avjiga minganidi. Amir Temur va temuriylar davridagi taraqqiyot tamomila barbod qilinib mamlakat chuqur inqiroz va qaloqlikka uchradi. Chunonchi savodsizlik ommaviy tus olib hatto birorta maxsus maktab binosi qurilmay darslar, masjidlarda, ya’ni sharoiti yo‘q joylarda tartibsiz holda o‘tkazildi.

Qishloq – xo‘jaligi va hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo o‘z holiga tashlab qo‘yildi. Barmoq bilan sanaydigan tabiblarni hisoblamaganda davlat tomonidan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish hukmdorlarning xayollariga ham kelmagan. Shu bois katta yoshdagi kishilar va bolalar o‘rtasida o‘lish avjiga mingan edi.

Xonlar xalqni oddiy ichimlik suvi bilan ta’minlashga harakat qilmaganlar. Natijada Qo‘qon aholisining kekirdak qismida katta anordek, u rivojlanganida sabchadek bo‘qoq kasali yuza kelgan. Buxoroda esa odam etining ichida uzun chuvalchang paydo bo‘lib rishta kasali nomida keng tarqalgan. Bularan tashqari bezgak, sil qizamiq va boshqa kasalliklar keng tarqalgandi.

Xonliklar davrida turar joylar ham juda achinarli holatda bo‘lib hokimiyat qurilish va obodonchiliklar mutlaqo e’tibor bermagan. Tor va boshi berk “jin” ko‘chalar pala-partish va past-baland qurilgan imoratlar qalashib yotganlar. Ko‘chalar qishda loyga, yozda tuproq va changga belanib yotgan. Xonadonlarda usti ochib bir parcha temirga, ya’ni “jin chiroq”gan suyukliq solinib yondirilgan. Bu juda hirra yorug‘lik berilishi bilan bir qatorda isi va qo‘lansa hidi zararli edi.

Ko‘chalar shu darajada batqoq bo‘lganki mahallamizda tobutni mozorga olib boruvchilar uchun 30 etik tayyorlab qo‘yilgan ekan.

Muhtaram o‘quvchilar!

Sharhlangan chidab bo‘lmaydigan og‘ir sharoitda farovon hayot o‘rin bormidi degan savol tug‘iladi, yo‘q deb javob beriladi, albatta.

To‘g‘ri xonliklar davrida fan va madaniyat sohasida ba’zi yutuqlarga erishildi, lekin bular “dengiz suvidan” bir ikki tomchi edi, xolos.

Xonliklar davrida fan va madaniyat sohasida ba'zi yutuqlarga erishildi, lekin bular "dengiz suvidan" bir ikki tomchi edi, xolos. Ayrim kishilar u vaqtlarda taraqqiyot uchun imkon yo'g'idi deyish mumkin. Biroq u vaqtlarda tabiiy boyliklardan tashqari mablag'lar shu darajada yetarli ediki mamlakatni rivojlantirish imkoni katta edi. Ayrim misollarni keltiraman. 1875 yilda Qo'qon xoni Hudoyorxon o'z ixtiyori bilan xazinadagi – oltin va boshqa qimmatli buyumlarni 80 ta aravaga ortib va Toshkentga keltirib general-gubernator Kaufmanga topshirgan.

1920 yilda bolshevik Frunze, Buxoro xonligini vayronaga aylantirib xazinadagi oltinni ikkita vagonga to'ldirib Moskvaga jo'natgan. Bundan tashqari askarlar tomonidan ham oltinlar talanganida.

Demak gap imkoniyat bo'lmasligida emas, balki xonlarning aql-idroksizligi, noshudligi va o'jizligi orqasidagina mamlakat qoloqlik girdobiga tushib qolganida. Natijada faqat boyliklar emas, butun mamlakat chor hukumati bosib olindi. Mustamlaka va milliy zulm hayotni yanada yomonlashishiga olib keldi. Bu holat sovet davrida esa avjiga mindirildi.

Faqat 1991 yilga kelib vatan mustaqilligi va ozodligi tiklanishi tufayli farovon hayotni ta'minlaydigan sharoit to'la yaratildi.

Avvalo, milliy davlat va qo'shin tashkil etilib demokratik asosda boshqaruvni takomillashtirilishi katta ahamiyat kasb etdi. Bu bilan bir qatorda xususiy mulkchilik va erkin bozorga asoslangan yangi tuzumni o'rnatilishi hayotning barcha sohalarini rivojlanishiga olib keldi. Chunonchi qishloq-xo'jaligi, sanoat va transport sohalarini, ichki va tashqi savdo aloqalari, sog'liqni saqlash va mayishiy xizmat yuqori pog'ona ko'tarildi.

Shahar va qishloqlarda yoppasiga qurilish va obodonchilik misli ko'rilmagan darajada keng quloq yoydi. Go'zallikda tengi yo'q muhtasham binolarni ko'rgan har bir kishi zavqlanmasidan iloji yo'q. Masalan maktablarga, kollejlarga, litseylarga, kasalxonalarga, poliklinkalarga, aptekalarga, banklarga, mehmonxona va to'yxonalarga tegishli binolar shular jumlasidandir.

Hashamatli binolar teatrlarni, vokzallarni, aeroportlarni, restoranlarni, kafelarni, gastronomlarni, oshxonalarini,

bekatlarni, guzar va sport maydonlarini bezab turibdilar. Keng va rovon yo‘llarining qurilishi ham kishini hayratlantiradi.

Radio va televideniya, teatr, matbuotni millat va umuman vatan manfaati nuqtai nazardan rivojlantirilishi ma‘naviy hayotning boyishiga va ta‘sir doirasini kengayishiga olib keldi. Milliy an‘analarini va urf-odatlarining, islom dinining ravnaq topishining ahamiyati juda katta bo‘ldi.

Davlat ijtimoiy muhofaza sohada ham muhim choralarni ko‘rib keksalarga, nogironlarga va umuman muhtoj va ojiz odamlarga g‘amxo‘rlik va mehribonlikni ayamay ko‘rsatmoqda.

Bir vaqtlar mustaqillikka va milliy zulm iskanjasidagi O‘zbekiston ozodlikka chiqqandan so‘ng gullab yashnayotgan mamlakat sifatida dong‘i olam uzra taraldi.

Mustaqillik yillaridagi buyuk o‘zgarishlar odamlarning ongi va dunyo qarashini o‘shishiga, vatanga sodiqligini jo‘sh urishiga, har bir kishida g‘ururlanish va faxrlanish tuyg‘ularini qaynashiga olib keldi.

Hozirda o‘zbeklar sovet davridagi qullik kayfiyatida majburan yashayotgan odamlar emas, balki jahondagi ilg‘or halqlardan biri sifatida hisoblanmoqda. Bunday katta baxt va omadga ozodlik tufayligina erishildi, albatta.

Butun olamda ozodlikka arziydiganni va o‘rnini bosadiganini topilmaydi, u siz hayot fojiali kechadi. Bu xususda bir hikoyani keltirish ayni muddaodir.

O‘tmish zamonlarda boy kishi farzandi yo‘qligidan qo‘l ostidagi qul bolani o‘g‘ilikka olib hurmat va izzatini o‘rniga qo‘yibdi. Bu asrandi o‘g‘il ajoyib bino va sharoitda xilma-xil ovqatlarni iste‘mol qilib va yaxshi yasanib kunlarni o‘tkazgan. Ammo shularga qaramay hamisha ko‘ngli xiradik va xafagarchilikda yashab hech narsa ta‘timagan.

Kunlarning birida gadoychilik bilan shug‘ullanadigan yigit kelib shunday debdi:

— Ey asrandi o‘g‘il! Sening peshonang yaltiraganki mo‘l-ko‘lchilik va to‘qlikda yashash va rohatlanish nasib etdi. Bilaman ilgarilari qashshoqlik va mashaqqatli mehnat azobida yasharding. Hozirda kimsan boyning erka o‘g‘lisan, bamisoli jannat bag‘ridasan. Men esa bir burda non ilinjida sarson bo‘lib yarim och va yarim

yalang'och holda umrimni o'tkazmoqdaman. Senga chegarasi yo'q darajada havasim kelib yuraman.

— Ey gadoy yigit! Sirdan qaraganda sen aytganingdek rohatda yashab yotganga o'xshayman. Aslida meni baxtli emas balki baxti qaro odam desang haqiqatni izhor etarding. To'g'ri o'tmishimni xozirgiga solishtirsam yer bilan osmonchalik farqi bor. Hatto odamlar do'zaxdan jannatga tushding deyishadilar. Biroq shuni bilginki men va ota-bobolarim hammasiz qo'l hisoblanganmiz. Shuning uchun bizlarni kamsitish va xo'rlashga, majburan va tinimsiz ishlatishga harakat qiladilar. Bizlarda hech qanday haq-huquq va bermalol yashash yo'q.

Bordi-yu uylanib farzandlar ko'rsam bormi bular ham tug'ma qullar sifatida azob-uqubatlarda hayot kechiradilar. Kechasi-yu kunduzi bilan qulligimni o'ylab va vijdon azobida qiynalib hech narsa ko'zimga ko'rinmaydi.

Qaniydi senga o'xshab gadoychilik qilsamda ozodlik va erkinlikni gashtini sursam o'zimning eng baxtli inson deb g'ururlanib va faxrlanib yurardim. Shundagina o'zimning jannatda yashagandek his qilardim.

Ochig'ini aytsam senga havasim kelib yuraman. Chunki sen ozod va erkinlikda bamisoli osmonu falakda qushlarga o'xshab parvoz qilib uchib yurasan. Shuni bilginki ozodlik shundan bir mo'jizaki na oltin, na to'qchilik va hashamatli binolar barchasi birgalikda o'rnini bosa olmaydi. U chinakam inson uchun suv bilan havodek zarur. Gadoy asranda o'g'ilning so'zlaridan qattiq ta'sirlanib va o'zining ozod va erkinligini anglab hamda benihoya xursand bo'lib ruhi ko'tarilibdi. Hatto gadoyligi va ochligini unutib o'zini qayoqqa qo'yishini bilmabdi.

Boy eshikning orqasida o'g'lining nolishini eshitib va hayajonlanib qullikdan ozod etuvchi hujjatning tayyorlashga kirishdi. Bu hujjatni berganida o'g'li dovdirab debdi: - Katta rahmat, hozirda onadan dunyoga yangidan tug'ildim, shodlikdan yuragim yorilgandek tuyulyapdi. Endi siz menga chinakam ota, men ham sizga chinakam o'g'il bo'lganligimdan baxtiyorman.

Boyning o'limidan keyin asrandi o'g'il qo'l ostidagi qullarni ozod qilib ishlatibdi. Shundan keyin odamlar orasida o'zaro samimiy

hurmat va izzat, do'stlik va birodarlik, g'ayrat va mehnatservarlik singari fazilatlar yuzaga kelib ozodlik va erkinlik o'zining quch-qudratini namoyish edi.

Ko'z o'ngimizda mustaqillik va ozodlik qullik kishanlarini parchalab o'zbeklarni ham farovon hayotga chorlab dunyoga tanitdi. Shu tariqa O'zbekistonda tarixda birinchi marotaba tom ma'nodagi farovon hayot samarsini bermoqda.

To'g'ri hali ayrim qiyinchiliklar mavjud, lekin ular vaqti kelib bartaraf etilishi aniq. Shu bois ularning rukach qilib farovon hayotimizni inkor etish qo'pol xatodir.

Shunday qilib ko'rdikki farovon hayotning tarkibi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini o'z ichiga olib mustaqillik va ozodlik uning asosini tashkil etadi.

Tarix sahifalariga zar harflar bilan bitilayotgan farovon hayotdan shaxsan yurtboshimiz Islom Karimovning tashabbusi va bevosita ishtirokida erishildi.

Hozirgi avlodlar baxtililarning baxtliysidir, zero yurtboshimiz bilan zamondosh bo'lib yashash va farovon hayotning gashtini surish Ollohning oliy ne'matidir.



## MUNDARIJA

Tarixiy shaxslar yohud istiqloq uchun kurashgan qahramonlari .....	3
Sohibqiron haqiqati yohud Ibrohim Mo'aminovning jasorati .....	26
Navoiy – Saltanat tayanchi va davlat madadkori .....	38
Bohouddin Naqshband ta'limoti Sibirda .....	53
O'zbeklardan kim birinchi bo'lib jurnalda maqola chop etgan .....	58
Turkiy xalqlarning tarixda tutgan o'rni va taqdiri .....	61
Toshkent tarixidan lavhalar .....	67
Rossiyada Xiva xonligi to'g'risida to'plangan ma'lumotlar .....	86
O'zbek xonliklarini chorizm tomonidan bosib olinishi .....	127
Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini .....	158
Din va hayot .....	174
Sen hayotdan olmasang ta'lim Seni o'rgata olmas mingta muallim .....	187
O'zbek oltini va uning talon-taroj qilinishi .....	194
O'zbekiston birinchi va ikkinchi jahon urushlari davrida .....	201
Milliy nuqsonlar va ularning oqibatlari .....	214
Muqaddas vatan .....	225
Sovet davrida quldorlik davlatining tashkil topishi .....	230
Haqiqat sari tashlangan dastlabki qadam .....	240
Tarix o'tmish va kelajak ko'zgusi .....	249
Siyosiy partiyalar va demokratik tarixiga doir .....	256
Sovet imperiyasi nima uchun ag'darildi? .....	271
Mustaqillik va ozodlikning tarixiy ahamiyati .....	277
G'ururlanish va faxrlanish oliy ne'mat .....	284
Qurilish va obodonchilikning oltin davri .....	290
Farovon hayot gashti .....	297



*Adabiy nashr*

**Hamid Ziyoyev**

**TARIX — O‘TMISH VA KELAJAK KO‘ZGUSI**  
(Tarixning dolzarb masalalari)

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*  
Musavvir *Yulay Gabzalilov*  
Rasmlar muharriri *Markos Karpuzas*  
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*  
Kichik muharrir *Nazmi Fozilova*  
Musahhah *Mavjuda Nasriddinova*

ИБ № 3737

Bosmaxonaga 09.09.99 y.da berildi. Bosishga 10.02.2000 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84X108<sup>1/32</sup>, 2-nav bosmaxona qog‘ozi. Adabiy garniturası. Yuqori bosma. 15,12 shartli bosma taboq. 16,0 nashr bosma tabog‘i. Jami 50 nusxa. 304 raqamli buyurtma. 66—99 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasining G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 700129. Toshkent. Navoiy ko‘chasi, 30.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasining Toshkent kitob-jurnal fabrikasida chop etildi. Toshkent. Yunusobod dahasi. Murodov ko‘chasi, 1-uy.